2-son, 2026-yil

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

## AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL
UNIVERSITETI

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Ikkinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Al-Buxoriy” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2026

Bosh muharrir:

*Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)*

Bosh muharrir o‘rinbosari:

*Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor*

Mas’ul muharrir:

*Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**“Al-Buxoriy”**

**ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:**

| | |
|---|---|
| **1. Azamat Ziyo** | **t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **2. Zohidjon Islomov** | **f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **3. Shorustam Shomusarov** | **f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **4. Durdona Lutfullayeva** | **f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **5. Komiljon Rahimov** | **t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **6. Shamsiddin Kamoliddinov** | **t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **7. Xolida Alimova** | **f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **8. Aftondil Erkinov** | **f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **9. Albert Burxanov** | **t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **10. Samal Tuleubaeva** | **f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **11. Sayfullo Mullodjanov** | **t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **12. Zilola Xudoyberganova** | **f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **13. Akram Habibullayev** | **t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **14. Ashirbek Mo‘minov** | **t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;** |
| **15. Murtazo Saidumarov** | **f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.** |

## MUNDARIJA

### FILOLOGIYA

**Alimuxamedov Rixsitilla Abdurashidovich**
Turk-moniy tavbanomalari..... 4
**Umurzakova Gulchexra Egamberdiyevna**
Investigation through systematic and structural way of modal and imitative words for linguistic perspective ..... 19
**Karimova Shahlo G‘aniyevna**
Shinjong o‘zbek shoirlarining she’riy unsurlar (qofiya) qo‘llash mahorati..... 28
**Usmanova Gulruh Shokirjonovna**
Til, madaniyat va tarjimaning o‘zaro ta’siri ..... 37
**Annazarova Tamilla Dilshod qizi**
Badiiy matndagi paralingvistik vositalarning ayol muallif nuqtayi nazaridan ifodalanishi..... 46
**Selma Ozan Yujel**
Turk tilida rang bildiruvchi sifatlarning orttirma daraja shakllari..... 57
**Qudratova Muxlisa Izatilla qizi**
Hozirgi zamon ingliz va o‘zbek tillarida vaqt kategoriyasining frazeologik birliklar yordamida ifodalanishi ..... 66

### TARIX

**Mansurov Uktamjon Nosirboevich**
Sug‘d yozma yodgorliklari tarixiy manba sifatida ..... 78
**Djurayev Ikrom Nematovich, Aliqulov Ramazon Bahrom o‘g‘li**
XXI asr boshlarida o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganishda zamonaviy ilmiy yondashuvlar ..... 85
**Usmonov Ibrohim Sobirovich**
Hakim Termiziyning bilish nazariyasi ..... 98
**Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
Qo‘qon xonligining xalqaro savdo aloqalari, sayyoh va elchilar esdaliklarida: tarixiy manbalar tahlili ..... 108
**Aminov Hamidulloh Abdirahimovich**
Ali Xorazmiy va uning ilmiy merosi ..... 122
**Muminov Bekzod Baxtiyor o‘g‘li**
Qashqadaryo viloyatidagi madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari ..... 132
**Rahimjonov Mirzohid Mirsaydullo o‘g‘li**
Turkiston jadidlarining davlat boshqaruv g‘oyalari va dastlabki siyosiy partiyalar faoliyati ..... 142

# TURK-MONIY TAVBANOMALARI
# TURKIC-MANICHAEAN REPENTANCES
# ТЮРКСКО-МАНИХЕЙСКАЯ ПОКАЯННАЯ МОЛИТВА

https://zenodo.org/records/20666749

**Alimuxamedov Rixsitilla Abdurashidovich**
*Oriental universiteti*
*Tillar-1 kafedrasi professori v.b.,*
*Filologiya fanlari doktori*
*Tel.: +998 90-996-86-23*
*E-mail: rixsitilla@gmail.com*

**Annotatsiya.** Turkiy adabiyotning islomga qadar bo‘lgan davri bir necha adabiy jarayonlarga bo‘linadi. Shulardan biri fanda turk-moniy adabiyoti deb nomlanadi. Nomlanishidan sabab o‘sha davrda yaratilgan adabiyot namunalari moniylik ta’sirida, moniy ta’limotining tushuncha-atamalari, mazmun-mohiyati singanidir. Ushbu davrda turli mazmundagi janrdagi matnlar yaratilgan bo‘lib, ulardan bir guruhi turk-moniy tavbanomalari deb nomlanadi. Tavbanoma – kishining biror ayb-gunohlaridan kechirim so‘rash, yolvorish mazmunidagi tavba matnlaridir. Ularning mazkur davr adabiyotida o‘ziga xos o‘rni mavjud. Xususan, o‘ziga xos matn tuzilishi, janr xususiyatlariga ega. Mazkur maqolada turk-moniy adabiyotida yaratilgan, kunimizgacha qo‘lyozmalari yetib kelgan tavbanomalar haqida so‘z boradi. Ularning qayerda saqlanishi, kimlar tomonidan tahlil etilgani, nashr etilgani, asar qo‘lyozmasining o‘ziga xos xususiyatlari, kimlarga atab bitilgani va shu kabi masalalar qamrab olingan.

***Kalit so‘zlar:*** *Moniy, moniylik, turk-moniy adabiyoti, “Xuastuanivt”, moniychilar tavbanomasi, tavbanoma.*

**Annotation.** The Pre-Islamic period of Turkic literature is divided into several literary processes. One of them is called Turkic-Manichaean literature in science. The reason for its name is that the literary samples created during that period were influenced by Mani, and the concepts, terms, and content of Mani's teachings were broken. During this period, texts of various genres were created, one group of which is called Turkic-Manichaean Tavbanoma. Tavbanoma are texts of repentance in the content of asking for forgiveness for one’s sins. They have a special place in the literature of this period. In particular, they have a unique text structure and genre characteristics. This article discusses the tavbanoma created in Turkic-Manichaean literature, the manuscripts of which have survived to this day. Where they are stored, by whom they were analyzed, published, the specific features of the manuscript of the work, to whom they were addressed, and similar issues are covered.

***Keywords:*** *Mani, Manichaeism, Turkic Manichaean literature, "Khuastuanivt", Manichaean repentance, repentance.*

**Аннотация.** Доисламский период тюркской литературы делится на несколько литературных процессов. Один из них называется тюркско-манихейской литературой в науке. Название объясняется тем, что литературные образцы, созданные в этот период, находились под влиянием Манихейства, и его концепции, термины и содержание были искажены. В этот период создавались тексты различных жанров, одна группа которых называется тюркско-манихейской тавбанома. Тавбанома – это тексты покаяния, содержащие просьбу о прощении грехов. Они занимают особое место в литературе этого периода. В частности, они обладают уникальной текстовой структурой и жанровыми характеристиками. В данной статье рассматриваются тавбанома, созданные в тюркско-манихейской литературе, рукописи которых сохранились до наших дней. Рассматриваются вопросы их хранения, авторы анализа и публикации, особенности рукописей произведений, адресаты и другие подобные вопросы.

***Ключевые слова:*** *Мани, манихейство, тюркско-манихейская литература, «Хуастуанивт», покаянная молитва манихеев, покаянная молитва.*

## KIRISH

Moniylikda inson bilan yaratuvchi o‘rtasidagi aloqalarni tartibga soluvchi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi turkum asarlar yaratilgan. Ular orasida kishilarning bilib-bilmay qilgan ayb-gunohlaridan tavba qilish, ularning kechirilishi so‘ralgan matnlar ham bor. Biz shu mazmundagi asarlarni “tavbanoma” deb atadik. Turk-moniy manbalari orasida ham xuddi shunday asarlar bo‘lib, quyida ularni birma-bir ko‘rib chiqamiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turk-moniy muhitida yaratilgan yirik hamda to‘liq holda saqlangan tavbanomalardan biri fanda “Xuastuanivt” nomi bilan mashhur (Asmussen J.P. 1965: 167-234). Turkshunoslar asarda berilgan ma’lumotga tayanib, uni turlicha nomlaganlar. Jumladan, V.Radlov “Moniychilarning gunohlariga tavba qilishi” (“Das Bussgebet Der Manichäer”) (1909:VI+51), L. Klark “Confession for Auditors” ( 2013: 7), S.Malov “Покаянная молитва манихейцев” (1951: 108), L.Dmitriyeva “Покаянная молитва для широкого круга “слушателей” манихейской общины” (1963: 214), L.Tugusheva “Манихейское покаяние в грехах” (2008:82), Q.Sodiqov “nig‘o‘shaklarning yozuqlarini o‘kinuvchi “Xuastuanivt” (2004: 43), “moniychilar tavbanomasi “Xuastuanivt” (1997: 33) deb nomlagan. Mazkur nom asarning uyg‘ur yozuvli Sankt-Peterburg nusxasi so‘ngida

quyidagicha keltirilgan: *tügädi n(i)ğošaklarnïŋ suyïn yazuqïn öküngü Xuastuan(i)vt* (Малов С.Е. 1951: 120). Gapdagi *n(i)ğošak* cўзи [<sug‘dcha *nγwš’k*] moniy dini jamoa a’zosi – tinglovchisi~o‘quvchisi ma’nosini beradi. Moniylikda ushbu so‘z moniy diniga e’tiqod qiluvchilarning eng quyi tabaqa vakilini bildirgan (Древнетюркский словарь. 1969: 358-359). *Suy* [<xitoycha] – gunoh ma’nosini anglatadi. Gapda *yazuq* so‘zi bilan birga qo‘shma so‘z ko‘rinishida qo‘llangan: *suy yazuq* – “gunoh va ayblar” (Древнетюркский словарь. 1969: 513). So‘zdagi *-ïn* qo‘shimchasi qadimgi turkiy tilda qo‘llangan vosita kelishigi *-n* (*-ïn, -in; -un, -ün*)dir (Содиқов Қ.П. 2006: 152-154). *Ökün-* o‘kin-, pushaymon bo‘l- ma’nolarni anglatadi (Древнетюркский словарь. 1969: 382). *-gü* sifatdosh qo‘shimchasidir (Содиқов Қ.П. 2006: 160). *Xuastuan(i)vt* [<суғдча *χw’stw’nft*] – moniychilarning tavba duosi ma’nosini bildiradi (Древнетюркский словарь. 1969: 638). Yuqorida keltirilgan so‘zlarning ma’nosini yig‘ib, gapni o‘zbek tiliga quyidagicha o‘girish mumkin: “tugadi nig‘o‘shaklarning gunoh va ayblarini o‘kinuvchi Xuastuanivt”.

Bu nom asarning moniy yozuvli Berlin uzindisida ham uchraydi. Jumladan, Berlin akademiyasida saqlanayotgan moniy yozuvli U 0007recto ko‘rsatkichli uzindining 11 qatorida qizilda (*xuastuanift*) yozilgan.

“Xuastuanivt” – tarjima asar. Bu to‘g‘rida olimlarning turli fikrlari bor. Jumladan, L.Dmitriyeva hamda Q.Sodiqovning fikricha, u qadimgi eroniy tillardan birida yaratilgan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan, turkiy qabilalarga moniy dinining qoidalarini tushuntirish maqsadida turkiy tilga o‘girilgan (Дмитриева Л.В. 1963: 214). Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda Q.Sodiqov mazkur asar ilk o‘rta asrlarda o‘rtancha eroniy, sug‘diy, turkiy, xitoycha versiyalarda keng tarqalganini ta’kidlaydi (Содиқов Қ. 1997: 33).

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tarixiy-filologik yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida qo‘llanildi. Tadqiqotning umumiy maqsadi turk-moniy adabiyotida yaratilgan tavbanomalarni (xususan, “Xuastuanivt” va unga yaqin matnlarni) kompleks tahlil qilish orqali asarning matn tuzilishi, janr xususiyatlari, til va uslubiy o‘ziga xosliklarini chuqur va har tomonlama ochib berishga imkon berdi hamda ilmiy xulosalarning ishonchliligini ta’minladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Turkshunoslikda hozirgi kunga qadar “Xuastuanivt”ning qaysi davrda tarjima qilingani aniqlanmagan. Olimlar ushbu asar tarjimasi to‘g‘risida turlicha fikrlarni beradilar. Masalan: Q.Sodiqov “Xuastuanivt”ni turklar orasida moniylik keng yoyilgan va ijtimoiy-madaniy hayotda uning mavqei yuqori bo‘lgan VIII asrda turkiyga o‘girilgan (Содиқов Қ. 1997: 35) degan fikrni bersa, L.Tugusheva qo‘lyozmaning xat uslubiga ko‘ra, uni XI asrda tarjima qilingan, degan fikrni olg‘a

suradi (Тугушева Л.Ю., Хосроев А.Л. 2008: 12). Bularning orasida S.Malov asarni O‘rta Osiyoda madaniyatning o‘zgarishi, jumladan, VII-VIII asrlarda arablarning islom bilan kirib kelganlarini inobatga olib, mazkur asarni milodiy V asrda, islom kirib kelmasidan burun tarjima qilingan, degan fikrni ta’kidlaydi (Малов С.Е. 1951: 108). Fikrlarning bu qadar xilma-xilligi olimlarning asar tili, yozuv uslubi bilan bog‘liq fikrlaridan kelib chiqqan. Taxminimizcha, mazkur asar turkiy xalqlar hududiga islom dinining kirib kelishidan avval, turkiy xalqlar moniylikni qabul qilgan paytlarida omma orasiga moniylikni yoyish maqsadida o‘girilgan va nusxalari tarqalgan. Keyingi davrlarda, ya’ni Sharqiy Turkistonda Uyg‘ur xoqonligining qulashi bilan (840 yil) moniylik davlat dini darajasidan tushgan va ikkinchi darajali dinga aylanib qolgan (Тугушева Л.Ю., Хосроев А.Л. 2008: 7).

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda mazkur asarni taxminan VIII-IX asrlarda turkiy tilga o‘girilgan, degan fikrni ilgari surish mumkin.

Asarning sug‘dcha variantining ikki uzindisi V.Xenning tomonidan nashr etilgan. Olimning ta’kidlashicha, asarning sug‘dcha varianti turkiysi bilan deyarli bir xil (*mot á mot*). Uzindilarni asarning turkiy variantiga solishtirganda ular asarning yakunlovchi bo‘limi, o‘ninchi hamda o‘n birinchi bo‘limlarining bosh qismiga to‘g‘ri kelmoqda (Ercilasun A.B. 2008: 63-67).

**Asar bitilgan yozuv to‘g‘risida.** Asarning turkiy versiyalari bizgacha ikki yozuv: turkiy tilga moslashtirilgan moniy hamda eski uyg‘ur xatida yetib kelgan. S.Malov va Q.Sodiqov asarning dastlabki yozilgan yozuvi to‘g‘risida quyidagicha fikr bildiradilar: asar avval moniy-suryoniy yozuvida bitilgan. Keyingi davr qo‘lyozmalari esa eski uyg‘ur xatida ko‘chirilgan. Qadimda sug‘dlarning turkiy xalqlar, jumladan uyg‘urlar bilan aloqalari yaxshi bo‘lgan. Shuning natijasida Uyg‘ur xoqonligi moniy dini va yozuvi bilan yaqindan tanishgan. O‘tmishda diniy asarlar, xususan, moniy yodgorliklarini bitishda yozuvning xos bir uslubi tanlangan. “Xuastuanivt”ning xati ham o‘ta chiroyli, uyg‘ur yozuvining klassik uslubidadir (Содиқов Қ., Омонов Қ. 2010: 28). “Xuastuanivt”ning moniy yozuvidan tashqari, uyg‘ur xatida bitilgani o‘z davrida asarga e’tibor kuchli bo‘lganidan dalolat beradi (Содиқов Қ. 1997: 34-35).

“Xuastuanivt”ning qo‘lyozmalari hozirda Sankt-Peterburg, London va Berlin qo‘lyozma fondlarida saqlanmoqda (Содиқов Қ. 1997: 33). “Xuastuanivt” qo‘lyozmalarining orasida to‘liqligi bo‘yicha London, so‘ng Sankt-Peterburg nusxasi turadi. Asarning parcha holidagi uzindilari esa Berlinda saqlanmoqda.

Bizgacha yetib kelgan asar nusxalarining hech biri to‘liq emas. Shunga qaramay, muayyan nusxa boshqa bir qo‘lyozmada tushib qolgan bo‘lagini to‘ldiradi (Содиқов Қ. 1997: 35-36). Asarning nusxalari quyidagilardir:

**1. Sankt-Peterburg nusxasi.** Qo‘lyozma hozirda Rossiya FASHIning Sankt-Peterburg bo‘limida – SI D1 (SI 3159) raqam ostida saqlanmoqda. U uyg‘ur xatining klassik kitobat uslubida bitilgan. Qo‘lyozma turk-moniy jamoalari orasida keng qo‘llanilgan o‘rama qog‘oz shaklida bo‘lib, matn har ikki chetdan tekislangan. Matn estetik jihatdan chiroyli chiqishi hamda varaqni to‘ldirib turishi uchun qator oxiridagi ba’zi harflar cho‘zibroq yozilgan. Buni qo‘lyozmaning 33–36, 38–41, 43–45 va boshqa qatorlarida uchratamiz (Тугушева Л.Ю., Хосроев А.Л. 2008: 72-73). Hajmi 255x30,5 sm. 46 sm.li qog‘ozlar bir-biriga yelimlab chiqilgan (Тугушева Л.Ю., Хосроев А.Л. 2008: 12).

Qo‘lyozma o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Qog‘ozi yupqa, rangi to‘q. Qo‘lyozmada qora va qizil siyohdan foydalanilgan. Asosiy matn qorada, qizilda esa gaplarni va bo‘limlarni ajratib turuvchi ikki nuqta (:)lar hamda tarix yozilgan. Asar to‘liq emas. Jami 160 qatorli matn saqlangan. Qo‘lyozmaning bosh qismi ancha titilgan. Matnda gaplar orasida (  ), bo‘limlar orasida esa () belgi qizil siyoh bilan yozilgan. Matndagi bu belgi vazifasiga ko‘ra xuddi ko‘k turk yozuvli yozma yodgorliklarda qo‘llanilgan (:) ikki nuqtaga o‘xshab so‘zlarni bir-biridan ajratadi. Qo‘lyozmaning 1-15-, 17-18-, 24-, 31-qatorlari qog‘oz titilib ketgani bois to‘liq saqlanmagan. Asar nomi va uni ko‘chiruvchi baxshining oti (159-160- qatorlar) qizilda berilgan.


“Xuastuanivt”ning mazkur qo‘lyozmasi A.Dyakov tomonidan Turfon yaqinidagi Ostona degan joydan 1908-yilning 15-avgustida topilgan. 1909-yili V.Radlov tomonidan nemischa tarjima, 144-160-qatorlarining faksimili hamda izohlar bilan nashr etilgan (Radloff W. 1909: VI+51). Olimning aytishicha, mazkur qo‘lyozma Turfondan topilgan boshqa asarlar bilan birga O‘rta va Sharqiy Osiyoni o‘rganuvchi rus komitetiga konsul A.Dyakov tomonidan taqdim etilgan (Radloff W. 1909: I).



Keyinchalik, 1951-yilda S.Malov ham ushbu qo‘lyozmani (asarning 5-bo‘limidan boshlab: 32-160-qatorlar) biroz o‘zgartishlar bilan harfterma shakli, transkripsiya, ruscha tarjima, til xususiyatlari hamda bibliografik ma’lumotlar qo‘shib nashr ettirgan (Малов С.Е. 1951: 108-130). Mazkur qo‘lyozmaning qayta to‘ldirilgan, to‘liq faksimil hamda ruscha tarjima va izohi bilan 2008-yilda Tugusheva va Xosroyev nashr etdilar. Nashr RF FASHIning Sankt-Peterburg filiali tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur nashr risola shaklida bo‘lib, unda asarga tegishli barcha ma’lumotlar kirgan. Asar qo‘lyozmasi rangli faksimileda (Тугушева Л.Ю., Хосроев А.Л. 2008: 82).

Ushbu qo‘lyozmani Tarxan ismli baxshi ko‘chirgan. Uning nomini L.Dmitriyeva, Y.Asmussen hamda L.Klark *Bötürmiš Tarxan* deb beradilar (Дмитриева Л.В. 1963: 232). Xosroyevning talqinicha “Byutyurmish Tarxon”

asar ko‘chiruvchisining ismi va unvonidir (Тугушева Л.Ю., Хосроев А.Л. 2008: 12, 55). Lekin Q.Sodiqov uni quyidagi tarzda talqin etadi: ... *bütürmiš Tarxan tügädi n(i)ğošaklarnïŋ suyïn yazuqïn öküngü Xuastuan(i)vt* ( 159-160) – “(matnni) tugallagan Tarxan. Tugadi nig‘o‘shaklarning yozuqlardan o‘kinuv kitobi – “Xuastuanivt” (Содиқов Қ.П. 2009: 93, 99). Ya’ni *bütürmiš* so‘zini “yozgan”, “tugallagan” ma’noda o‘qib, baxshi otini Tarxan deydi. Sharq kitobatchilik an’anasiga ko‘ra tarix, ya’ni kitobning ko‘chirilgan sanasi va kotibi asarning xotima qismida beriladi (Содиқов Қ. 1997: 20). Shunga ko‘ra, mazkur qo‘lyozmani ko‘chirgan kotib ismi to‘g‘ri talqin qilingan.

**2. London nusxasi.** Qo‘lyozma turkiy tilga moslashtirilgan moniy yozuvida. Hozirda Londondagi Britaniya kutubxonasida A.Steyn kolleksiyasida Or. 8202/178=Ch. 0015 ko‘rsatkichi ostida saqlanmoqda. U XX asrning boshida A.Steyn tomonidan Dunxuandan sotib olingan. A.Lekok tomonidan 1911-yil matn, transkripsiya, inglizcha tarjima hamda izohlar bilan nashr etilgan (Дмитриева Л.В. 1963: 214).

Qo‘lyozma o‘rama qog‘oz shaklida. Qog‘oz parchalari bir-biriga yelimlab chiqilgan. Xat o‘ngdan chapga chiroyli va aniq qilib bitilgan. Qo‘lyozmaning bosh qismi titilib ketganini aytmaganda yaxshi saqlangan: qog‘oz chirigani uchun 1–7-, 12–17- satrlardagi matn to‘liq emas. Matn qora va qizil siyohda ko‘chirilgan. Asosiy matn qorada, so‘zlarni bir-biridan ajratib turuvchi qo‘sh nuqtalar (••) qizil siyoh bilan doiraga olingan. Namlik yoki boshqa omillar ta’sirida qo‘lyozmaning ayrim o‘rinlarida siyohning biroz yoyilib ketganini kuzatamiz. Har bir bo‘lim tugaganidan so‘ng qo‘sh nuqta (••) qo‘yilib, o‘rtada joy tashlab, davomidan yangi bo‘lim boshlangan. Asar tarixga kelganida sana bilan ( 338: *hirz : bir y(i)girminč ay biš otuzda*) to‘xtagan. Shundan so‘ng matn bitish uchun besh-olti qatorlik joy qoldirilgan. Fikrimizcha, bu yerga matn qizilda bitilishi kerak edi. Lekin noma’lum sabablarga ko‘ra matn tugallanmay qolgan. Pastroqda moniy rohibining rasmi bor. Tasvirlangan kishi nig‘o‘shak bo‘lishi kerak. Matn har ikki tomondan tekislangan. Qatorlarning oralig‘i ham bir xil. Saqlangan matn 338 qator.


Asarning ushbu qo‘lyozmasida shaxs-son qo‘shimchasi (-biz) har doim so‘zdan ayri yozilgan:  - *qïlur-biz* (XL.142). Matnda ayrim o‘rinlarda unli ( - *yimkii*,  - *baruu*) hamda undosh ( - *igidd*,  - *törtt*) harflar ikkilanib yozilgan.

**3. Berlin nusxalari.** Uzindi holidagi parchalar turkiy tilga moslashtirilgan moniy hamda uyg‘ur yozuvida yetib kelgan. Hozirda ular Berlindagi Brandenburg

akademiyasi Turfanforschung, Digitales Turfan-Archiv fondida saqlanmoqda [http://turfan.bbaw.de/dta/m/dta_m_index.htm (Özbay B. 2014: 78, 163-206).

“Xuastuanivt”ning turkiy versiyasi avval moniy, so‘ng uyg‘ur xatida ko‘paytirilgan bo‘lishi kerak. Qo‘lyozmaning moniy yozuvli uzindilari A.Gryunvedel tomonidan 1907 yili Turfondan topilgan. A.Lekok tomonidan 1911 yili matn, transkripsiya, nemischa tarjima hamda izohlar bilan nashr qilingan (Дмитриева Л.В. 1963: 214). Keyingi tadqiqotlar ham shu nashrga tayangan holda olib borilgan. J. Vilkens katalogida asarning 15 ta moniy yozuvli uzindisi borligi qayd etilgan (Özbay B. 2014: 96-113, 163-206).

Mazkur uzindilar orasidan U 0007, U 0008, U 0009, U 0010, U 0020, M 6263 ko‘rsatkichli parchalar diqqatni o‘ziga tortadi. Ular ichki hamda tashqi xususiyatlariga ko‘ra bir qo‘lyozmaning varaqlariga o‘xshaydi. Tashqi tomondan qog‘ozining rangi, o‘lchami bir xil. Xati tartibli, yozuvi klassik uslubda. Har bir betda matn 12 qatordan bitilgan. Bundan tashqari, ushbu uzindilarning eski saqlanish raqami bir xil (T.II.D 178). Ichki tuzilishi, ya’ni mazmuniga ko‘ra uzindilarning to‘rttasi (U 0008 ва U 0010, U 0009 ва U 0007) biri ikkinchisidan so‘ng keladi. Asosiy matn qorada, ayrim o‘rinda qizil siyohdan foydalanilgan. Ikki nuqtalar (:) qizilda. Kitobat usuliga ko‘ra u daftar shakliga ega. Yuqorida keltirilgan xususiyatlardan kelib chiqib, mazkur uzindilar “Xuastuanivt”ning boshqa bir moniy yozuvli qo‘lyozmasining parchalari bo‘lishi kerak, degan xulosaga keldik. Agar asar jami 378 qator bo‘lsa, mana shu uzindilarni yaxlit qo‘lyozma deb olsak, taxminiy hisoblarga ko‘ra ushbu qo‘lyozmaning yana 10 varag‘i bo‘lishi kerak. Quyida mazkur qo‘lyozmani asarning tuzilishi bo‘yicha ko‘rib chiqamiz.

Ushbu qo‘lyozmada  - *raym(a)st f(a)rzind* nomi har bir bo‘lim so‘ngida qayd etilgan. Bo‘limlar orasidagi kesim birinchi shaxs ko‘plikda (  *-m(ï)z, -müz*), lekin bo‘lim so‘ngidagi o‘kinuv birlikda (  - *m(ä)n*) berilgan. Asarning V. Xenning tomonidan nashr etilgan sug‘dcha versiyasida ham Raymast Farzind nomi zikr etiladi. Ahamiyatlisi shundaki, ushbu sug‘dcha parchaning kesimi so‘zlovchi birligida (I shaxs, birlik). Demak, asarning hozir biz ko‘rayotgan turkiy varianti ushbu sug‘dcha qo‘lyozmadan ko‘chirilganini taxmin qilish mumkin. Bundan tashqari, asar nomi ham har bir bo‘limdan so‘ng bitilgan. Bu hol asarning birinchi varianti yakka tartibda o‘qish uchun mo‘ljallangan degan taxminni ilgari surishga imkon beradi.

**U 0008 recto, verso (T.II.D 178 IV) ko‘rsatkichli uzindi.** Qog‘ozi ancha uringan: pastki qismining bir tomoni titilib ketgan. 6-9-qatorlardagi birinchi so‘zdan keyin yirtilgan o‘rni bo‘lib, keyingi so‘zning oxirgi harflari ko‘rinib

turibdi. Qog‘oz namiqqani uchun ba’zi o‘rinlardagi so‘z va harflarni o‘qish qiyin. “Xuastuanivt”ning bosh qismi aynan shu uzindi asosida tiklangan.

**U 0010 recto, verso (T.II.D 178 III) ko‘rsatkichli uzindi.** Qog‘ozi ancha uringan: yon tomoni hamda tepa qismidan chirigan. Yozuv avvalgi nusxalarga qaraganda yaxshi saqlangan. Qog‘ozning orqa (*verso*) tomonining uchinchi qatorida qizil siyohda *qutluğ pars* so‘zi yozilgan. U avvalgi U 0008 uzindisining davomidir. Matn “Xuastuanivt”ning birinchi bo‘limi oxiri, ikkinchi bo‘limining boshiga to‘g‘ri keladi.

**U 0020 recto, verso (T.II.D 178) ko‘rsatkichli uzindi.** Qog‘ozning chirigan kichik parchasi saqlangan. Parcha namiqqani uchun ba’zi o‘rinlardagi so‘z va harflarni o‘qish mushkul. Uning har ikki tomonida 4 qatordan, jami 8 qator uzuq-yuluq matn saqlangan. Matn “Xuastuanivt”ning sakkizinchi bo‘limi oxiri, to‘qqizinchi bo‘limi boshiga to‘g‘ri keladi.

**U 0009 recto, verso (T.II.D 178 V BX) ko‘rsatkichli uzindi.** Qog‘ozning bir tomoni titilib ketgan. Matn “Xuastuanivt”ning o‘n to‘rtinchi bo‘limi boshi va o‘n beshinchi bo‘limlariga to‘g‘ri keladi.

**U 0007 recto, verso (T.II.D 178 VI) ko‘rsatkichli uzindi.** Qog‘ozi ancha uringan: yuqorisida hamda yonida yirtilgan joyi bor. Shuning uchun 2-5 qatorlardagi matn to‘liq emas. Varaqning old tomonida (*recto*) 11 qator matn, so‘nggi qator qizil siyohda; orqa tomonida (*verso*) 12 qatorli matn, varaqning tepa qismi o‘ng burchagida qora siyoh bilan ramkaga olingan qizildagi matn bor. Saytda berilgan rasm o‘lchami katta bo‘lmagani uchun ushbu yozuvni o‘qishning imkoni bo‘lmadi. Matn “Xuastuanivt”ning o‘n beshinchi bo‘limiga to‘g‘ri keladi. U U 0009 uzindisining davomidir.

**M 6263 seite1, seite2 (T.II.D 178) ko‘rsatkichli uzindi.** Qog‘ozning bir kichik parchasi saqlangan: namiqqani bois matndagi so‘zlar xira tortgan. Ayrim harflarni farqlasa bo‘ladi. Shunga qaramay, parchaning old va orqa tomonidan bittadan so‘zni o‘qish mumkin. Uzindining eski saqlanish raqami (T.II.D 178) yuqoridagi uzinlar bilan bir xil hamda harflarning yozilishi ham o‘xshash bo‘lgani uchun uni avvalgi uzindilar bilan bir qatorga qo‘shdik.

**U 19 recto, verso (T.I.D) ko‘rsatkichli uzindi.** Qog‘ozning pastki burchagi ko‘rinishida saqlangan parcha. Olti qatorli qorada bitilgan matn saqlangan. Old tomondagi matn (*recto*) sal qiyalatib yozilgan. Orqa (*verso*) tomondagisi esa zichroq yozilgan. Varaq namiqqani bois siyohi surkalib ketgan. Matn “Xuastuanivt”ning oltinchi bo‘limiga to‘g‘ri keladi.

**M 798f recto, verso ko‘rsatkichli uzindi.** Qog‘ozning bir tomoni, ya’ni matn bitilmagan hoshiyasi yirtilgan, rangi sariq. Hoshiyaga katta joy qoldirilgan. O‘n ikki qator matn saqlangan. U qog‘oz o‘rtasiga mayda xatda, qorada bitilgan. Ikki

nuqtalar (:) qizilga olingan. Varaqning old (*recto*) va orqa (*verso*) tomonidagi birinchi harf alif *gajak* qilib ishlangan. Matn “Xuastuanivt”ning oltinchi bo‘limi yarmidan to oxirigacha to‘g‘ri keladi.

**U 11 recto, verso (TM 303 ёки M 153) ko‘rsatkichli uzindi.** Qog‘ozi yaxshi saqlangan. Faqat tepa qismidagi ozgina joyi titilgan, rangi sariq. Matn qora siyohda; ikki nuqta (:) ham qorada. Xati tartibli. Matn har bir betga o‘n uch qatordan qilib, jami yigirma olti qator bitilgan. Ko‘rinishidan daftar uslubidagi qo‘lyozma shakliga ega. Matn ikki tomondan tekislangan. Ushbu uzindi asarning oltinchi bo‘limi o‘rtasidan yettinchi bo‘limigacha to‘g‘ri keladi.

**M 5103 (T.II.D 63) ko‘rsatkichli uzindi.** To‘q sariq qog‘ozning uzuq-yuluq saqlangan yetti qatorlik matn parchasi ko‘rinishida. Matn qora siyohda, ikki nuqtasi (:) esa qizilda bitilgan. Xati mayda, tartibli. Qatorni ikki tarafdan tekislash uchun ayrim harflar cho‘zibroq yozilgan. Matn “Xuastuanivt”ning yettinchi bo‘limi oxiriga to‘g‘ri keladi.

**U 17 (T.I.D 51) ko‘rsatkichli uzindi.** Kichik to‘q sariq rangli parcha holida saqlangan uzindi. Matn qora siyohda, ikki nuqta (:) qizilda. Xati tartibli. Matn “Xuastuanivt”ning sakkizinchi bo‘limi o‘rtalariga to‘g‘ri keladi.

**U 13 recto (T.M 183) ko‘rsatkichli uzindi.** Moniy yozuvli matn varaqning old (*recto*) tomoniga bitilgan. Qog‘ozi katta, ancha titilgan, rangi sariq. Xati mayda. Jami o‘n olti qatorlik qorada bitilgan matn saqlangan. Ikki nuqta (:) qizilda. Matn “Xuastuanivt”ning o‘n ikkinchi bo‘limining oxiri va o‘n uchinchi bo‘limining boshiga to‘g‘ri keladi.

**M 443 ko‘rsatkichli uzindi.** Varaqning parchasi saqlangan, rangi to‘q sariq. Matn qora siyohda, ikki nuqta (:) qizilda. Xati tartibli. Old (*recto*) tomondagi qog‘oz rangi to‘qlashgan. Matn “Xuastuanivt”ning o‘n to‘rtinchi bo‘limi va o‘n beshinchi bo‘limning boshiga to‘g‘ri keladi.

**M 4163 – M4170 (T.I.D 51) ko‘rsatkichli uzindi.** Juda parokanda bo‘lgan uzindi. Ayrim harflarni o‘qish mumkin. Shartli ravishda “Xuastuanivt” uzindisi qatoriga qo‘shildi.

“Xuastuanivt”ning fanga ma’lum yirik uch qo‘lyozmasi (Sankt-Peterburg, Berlin hamda London qo‘lyozmalari) asosida 1963-yili L.Dmitriyeva asarning ilmiy-yig‘ma tanqidiy matnini transliteratsiyada ruscha tarjimasi bilan birga e’lon qildi. Matnning boshlang‘ich 39 qatori Berlin, 40-48-qatori Berlin va London, 49-73-qatori London va 74-221-qatori Sankt-Peterburg qo‘lyozmasidan tiklagan (Дмитриева Л.В. 1963:214-232). L.Tugushevaning fikricha, mazkur ilmiy-yig‘ma tanqidiy matn asar tadqiqotida biror yangilik ochmagan. Aksincha, uning tadqiqida bir qadam ortga siljishdek bo‘lgan (Тугушева Л.Ю., Хосроев А.Л. 2008:11).

Asarning har bir bo‘limi ma’lum bir gunoh-aybdan o‘tinch, panoh tilashga qaratilgan. Matnning boshida Xo‘rmuzd (*Xormuzta täŋri*) tangrisining osmondan yerga tushib, barcha tangrilar ezguligi bilan Shimnu boshlig‘ shaytonlarga qarshi kurashgani hikoya qilinadi. Shu tariqa har bir bo‘limda ma’lum ishdan so‘ng kelib chiqadigan gunohdan panoh tilanib, yolboriladi. Har bir bo‘limning so‘ngida tavba formulasi (*m(a)nastar hirza*) bitilgan. Bu hol turk-budda matnlaridagi *namo bud namo d(a)r(a)m namo saŋ* – “buddaga hurmat, budda aqidasiga hurmat, jamoaga hurmat”, islom davridagi har bir duo yoki tilakdan so‘ng qo‘llanadigan āmin qolip so‘ziga to‘g‘ri keladi. O‘n beshinchi bo‘limdan so‘ng yakunlovchi bo‘lim ham bor. Unda yuqorida keltirilgan barcha gunohlar umumlashtirilib, ularning kechirilishini so‘rab, yozuqlardan qutulaylik deya yolboriladi.

II. Keyingi tavbanoma kichik potxi kitobi shaklida. Matn qog‘ozning old va orqa tomoniga besh qatordan bitilgan. Siyohi qorada. Matn va potxi tizimchasi o‘tkaziladigan o‘rni an’anaviy tarzda. Matn tekis chiqishi uchun ikki tomondan hoshiya hamda matn tagiga chiziq tortilgan.

Parchalarda *čaxsapat, ayïğ qïlïnč, yazït-yaŋïlt, m(a)nastar xirza, nizvanï, nom, yükünür-m(ä)n, burxan, arxant* kabi moniylik bilan bog‘liq tushuncha va atamalar bitilgan. Bundan tashqari, yaxshi saqlangan varaqlardagi jumlalarning qurilishi “Xuastuanivt” strukturasini eslatadi: *amtï t(ä)ŋrim m(ä)n [aryaman frištum] xoštir • aya[maqïn ağï]rla[maqïn] sözüg köŋül[in] [a]ğïrlayu yinčü[rü] [top]un yükünü [täginür]-m(ä)n* (U 0103verso, 1-3) – “endi tangrim, men Aryaman Frishtum Xo‘shtir, ortiq darajadagi hurmat bilan so‘zingizni ko‘nglingiz bilan qadrlab, ta’zim qilib, yukunurman”; *alqu ayïğ qïlïnčlarïmïn ökünü • arïğ k(a)rmšuh(u)n qolu ötünü täginür-m(ä)n m(a)nastar hirza* (U 0085verso, 2-3) – “barcha yomon gunohlarimdan o‘kinib, toza muqaddas vaqtda o‘tinurman, gunoholarimni kechirgaysen”. Matn bir kishi tomonidan o‘qilgan ko‘rinadi. Unda barcha fe’l shakllari so‘zlovchi birligida (I shaxs, birlik) berilgan. Ushbu tavbanoma ham xuddi “Xuastuanivt”ning Raymast Farzind kabi topinuvchisi tomonidan maxsus ko‘chirtirilgan bo‘lsa kerak. Unda *aryaman frištum xoštir* nomi uch o‘rinda kelgan (U 0103a verso, 1; U 0104a verso, 4; U 0085verso, 3-4). Demak, ushbu tavbanoma Aryaman Frishtum Xo‘shtir nomli rohib yoki nig‘o‘shak uchun maxsus yaratilgan, degan xulosaga olib keladi.

Matnning bir o‘rnida *wxvastvanift* so‘zi uchraydi (U 0084verso, 3). Qizig‘i shuki, ushbu so‘z “xuastuanivt” so‘ziga yaqin bo‘lgani bilan unda asar tuzilishi tamoman boshqacha. Ushbu so‘z saqlangan varaq ancha titilib, chirigani uchun unda aynan shu so‘z nima sababdan qo‘llanilganini bilish anchayin qiyin. Ehtimol, bu “Xuastuanivt”dagi biror fikr yoki aynan unga ishora bo‘lishi ham mumkin.

Saqlangan matnda qilingan gunohlardan o‘tinch tilanadi. Shu va yuqoridagi sabablarga ko‘ra uni tavbanomalar qatoriga qo‘shdik. Quyida mazkur tavbanomaning uzindilarini ko‘rib chiqamiz:

**U 0103a-c (T.III.D 260,19; T.III.D 260,30) ko‘rsatkichli uzindi.** Saqlangan uzindining varag‘i ancha titilib, uch bo‘lakka bo‘lingan. Varaqning recto tomonining beshinchi qatoridagi matn qizilda. Xuddi shu tomondagi *t* () harflarining dumaloq joylari qizil siyohga bo‘yalgan. Qog‘ozning verso tomonida o‘ng tomondagi hoshiyaga matnga vertikal qilib toquz otuz so‘zi yozilgan. Bu sanoq tizimi qadimgi turkiy matnlarda faol ishlatilgan bo‘lib, yigirma to‘qqiz raqamini beradi. Aftidan, ushbu so‘z tavbanomaning bo‘limlari yoki varaqning tartibini (poygir vazifasi) anglatish uchun ishlatilgan bo‘lishi kerak.

**U 0104abc (T.III.D 260-a) ko‘rsatkichli uzindi.** Varaq uch bo‘lakka bo‘lingan holida saqlangan. Shulardan *a* va *b* bo‘laklaridan ayrim so‘zlarni o‘qish mumkin. *C* bo‘lagida faqat bir-ikki harf ko‘rinib turibdi.

**U 0084 (T.III.D 260,22) ko‘rsatkichli uzindi.** Varaqning matnli bir qismi saqlangan.

**U 0075 (T.III.D 260,31) ko‘rsatkichli uzindi.** Varaqning potxi tizimchasi o‘tkaziladigan o‘rni oldidagi joyi parcha holida saqlangan.

**U 0085 (T.III.D 260,26) ko‘rsatkichli uzindi.** Potxi shaklidagi varaqning deyarli butun bir bo‘lagi saqlangan. Varaqning chetlari chirib, titilib ketgan. Qog‘ozning *verso* tomonida, o‘ng tomondagi hoshiyaga vertikal qilib *altï qïr*[*q*] so‘zi yozilgan.

Yuqorida aytganimizdek, ushbu tavbanoma sintaktik tuzilishiga ko‘ra “Xuastuanivt”ga o‘xshaydi. Jumladan: *amtï t(ä)ŋrim ... yükünü [täginür]-m(ä)n* (U 0103verso, 1–3) (“endi tangrim, yukunib o‘tinurman”) formulasi “Xuastuanivt”da: *amtï t(ä)ŋrim ... bošunu ötünür-biz* (XL.61–63) (“endi tangrim, ... yukunib o‘tinurmiz”). Bularning farqi: birinchisida matn bir kishi tomonidan o‘qilsa, ikkinchisi ko‘pchilik tomonidan o‘qilgan. Matnda ergash gap bosh gap bilan *ärsär* so‘zi orqali bog‘langan. Hattoki, bir o‘rinda duo formulasi *m(a)nastar hirza* ni (U 0085verso, 3) uchratish mumkin.

Ushbu uzindilar A.Gaben, V.Bang, L.Klark, Y.Asmussen, J.Vilkens tomonidan nashr etilgan (Clark L. 2013: 112).

III. Keyingi tavbanoma kitobat usuliga ko‘ra daftar shaklida (M 0671 seite1, seite2), moniy yozuvida. Saqlangan parcha daftardan yulib olingan varaq qog‘oziga o‘xshaydi. Shundan varaqning bir tomoni ko‘proq, boshqa tomoni kamroq yemirilgan. Kamroq yemirilgan yeridagi matn siyohi to‘q rangda. Boshqa tarafidagi matn siyohi och rangda. Biz tavsiflayotgan matn ana shu och siyohli

tomoniga bitilgan. To‘q rangli matn eroniy tillarning birida. Matn varaqning har ikki tomoniga qorada bitilgan bo‘lib, so‘zlar o‘rtasidagi nuqta (•) qizil siyoh bilan doiraga olingan.

Saqlangan joydagi matn so‘zlovchi birligida (I shaxs, birlik) berilgan (*-män*). Jumlalarning tuzilishi “Xuastuanivt” kabi juftlangan: *ögirär sävinür-biz* – “shodlanamiz” (M 0671, verso 8).

Matnda moniylikka to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqasi bo‘lgan so‘z uchramaydi. Shunday esa-da, uning umumiy mazmuni tavba marosimini eslatadi. Matn J.Vilkens, M.Boys tomonidan nashr etilgan (Clark L. 2013: 121).

IV. Keyingi tavbanoma ham daftar shaklida kitobat qilingan bo‘lib, varag‘i ancha titilib ketgan. Uch bo‘lakka bo‘lingan holda saqlangan. Shulardan *a* va *b* parchalarga tavbanoma bitilgan (U 0149 a,b). Saqlangan yeridan bir-ikki so‘zni o‘qish mumkin. Xati moniy yozuvida. Matn P.Sime, L.Klark, J.Vilkens tomonidan nashr qilingan (Clark L. 2013: 126).

Matnda tavbanoma mavzusiga oid so‘zlar uchraydi. Jumladan, tavbanoma mazmunini eslatuvchi *yazuqluğ* – “gunohkor, aybdor”, “Xuastuanivt”dagi tavba formulasidan oldin keluvchi *ämti täŋrim* – “endi tangrim” iborasi hamda *x[wāstw]ān[i]ft nom* so‘zlari ushbu matn moniylik muhitida yaratilganiga ishora qiladi.

V. Kitobat usuliga ko‘ra xitoycha matn bitilgan o‘rama qog‘oz shaklidagi qog‘oz parchasining old va orqa tomonlariga uyg‘ur xatida yozilgan tavbanomadir (Ch/U 6860[A] (T.II 1344). Parchaning *recto* tomonida xitoycha matn ustiga parallel qilib, *verso* tomonida esa faqat uyg‘ur xatidagi matn bitilgan. Jami 5 qator matn saqlangan. P.Sime, L.Klark, J.Vilkens tomonidan nashr etilgan (Clark L. 2013: 129).

Tuzilishiga ko‘ra “Xuastuanivt”dagi matn uslubiga juda yaqin. Masalan: *yägirmi türlüg ... tïnlïğqa-turalïğqa bäš ... quruğ öl yärkä näčä yazuq* [2-4] – “yigirma turli ... jonzodga besh ... quruq-ho‘l yerga qancha gunoh”.

VI.Tavbanoma mazmunidagi yana bir matn xuddi “Xuastuanivt”ning xotima qismining boshlanishi kabidir (Pelliot Chinois 3072 [A]). Solishtirilganda keyingi jumlalar bir-biridan farq qiladi. Shunday bo‘lishiga qaramay, matnni o‘qigan kishida uning “Xuastuanivt”ning o‘zga versiyasi yoki shu kabi boshqa tavbanoma degan fikrni hosil qiladi. Jumlalarning tuzilish uslubi ham “Xuastuanivt”ga o‘xshash. Matnda moniylik bilan bog‘liq ko‘plab atamalar qo‘llangan: *šämnu, manastar xirza, yäk, nizvani, xormuzta*. Jami uyg‘ur xatidagi 8 qator matn saqlangan. J. Gamilton, G. Klimkeyt va L. Klark tomonidan nashr etilgan (Clark L. 2013: 131).

VII. Xitoycha matn bitilgan qog‘oz parchasining orqa tarafiga (Ch/U 7081 verso (T.II.D 125) bitilgan. Matn siyohi ancha o‘chib ketgani uchun 8 qatorli matndan ayrim so‘zlarnigina o‘qish mumkin. Shunday bo‘lishiga qaramay, matnda *nom, añiğ qïlïnč, yäk* kabi so‘zlar saqlangan. Parcha P. Sime, L. Klark, J. Vilkens tomonidan nashr etilgan (Clark L. 2013: 133).

VIII. “Xuastuanivt” matniga yaqin bo‘lgan uzindi holidagi 3 ta parcha Or. 8212/107=Y.K. [Yarkhoto] 0010 ko‘rsatkichi ostida Britaniya muzeyida saqlanadi (Zieme P. 2010: 258). Matni uyg‘ur xatida. Parchada *manastar xirza, yazuqda bošunu ötünür-biz* kabi so‘zlar uchraydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuqorida keltirilgan tavbanoma mazmunidagi asarlar turk-moniy muhitida yaratilgan yozma yodgorliklar orasida salmoqli o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, turkshunoslikda “Xuastuanivt” ma’lum va mashhur. Ushbu asarlar mazmuniga ko‘ra gunohlardan tavba qilish, tangriga o‘z qilgan ayb ishlarini kechirishni so‘rash mazmuniga ega. Ular turkiy adabiyot tarixida yangi – tavbanoma janridagi asarlarning shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Yuqorida keltirilgan barcha fikrlar asosida “Xuastuanivt” haqida quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- Asarning qo‘lyozma hamda uzindi ko‘rinishidagi nusxalarining ko‘pligi hamda moniy va uyg‘ur xatida ko‘chirilgani uning o‘z davrida mashhur bo‘lganini, topinuvchilar orasida keng yoyilganini tasdiqlaydi;

- Asarning nusxalari yozuvning klassik uslubida bitilgani uning muqaddas kitoblardan ekanini isbotlaydi;

- Asar jamoa bo‘lib o‘qish bilan bir qatorda yakka holdagi ibodat uchun ham ishlatilgan. Asar butun ko‘rinishda ham, yakka bo‘lim holida ham ko‘chirilib, foydalanilgan;

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Radloff W. (1909). Chuastuanit, das bussgebet der manichäer. Herausgegeben und übersetzt. – St. Petersburg. – P. VI+51.

2. Clark L. (2013). Uygur Manichaean Texts: Volume II. Liturgical Texts: Texts, Translations, Commentary. Corpus Fontium Manichaeorum: Series Turcica II. – Turnhout: Brepols Publishers, 2013. – P. 372.

3. Ercilasun A.B. (2008). Türk dili tarihi. Başlangıçtan yirminci yüzyıla. – Ankara: Akçağ. – S. 486.

4. Özbay B. (2014). HUASTUANİFT: Manihaist Uygurların Tövbe Duası. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. – S. 256.

5. Zieme P. (2010). The Manichaean Turkish Texts of the Stein Collection at the British Library // Journal of the Royal Asiatic Society. Series, 3/(20). – P. 255-266.

6. Дмитриева Л.В. (1963). Хуастуанифт (введение, текст, перевод) – Тюркологические исследования. – М.-Л. – С. 214-232.

7. Древнетюркский словарь (1969). – Ленинград. – С. 677.

8. Кулиева Г.В. (2015). Язык “Хуастуанифт”а (Покаянная молитва манихейцев). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора философии по филологии (PhD). – Баку. – С. 22.

9. Малов С.Е. (1951). Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – М.-Л.: Издательство АН СССР. – С. 452.

10. Содиқов Қ. (1997). Уйғур ёзуви тарихи (Манбашунослик ва китобат тарихи масалалари). – Тошкент. – 96 б.

11. Содиқов Қ., Омонов Қ. (2010). Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. – Тошкент. – 192 б.

12. Содиқов Қ.П. (2010). “Хуастуанивт”нинг Берлин қўлёзмалар фондида сақланаётган узиндилари – Хорижий Шарқ халқлари адабиёти ва адабий манбашунослигининг долзарб масалалари. Халқаро илмий анжуман. – Тошкент. – 45–52 б.

13. Содиқов Қ.П. (2004). Қадимги туркий халқларнинг диний-фалсафий қарашлари. – Тошкент. – 108 б.

14. Содиқов Қ.П. (2006). Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Тошкент. – 208.

15. Содиқов Қ.П. (2009). Эски туркий битиглар. – Тошкент. – 168 б.

16. Тугушева Л.Ю., Хосроев А.Л. (2008). Хуастванифт. (Манихейское покаяние в грехах) / Предисловие, транскрипция уйгурского текста, перевод. Комментарий Факсимиле текста. – Санкт-Петербург: Нестор-История. – С. 82.

**REFERENCES:**

1. Radloff W. (1909). Chuastuanit, das bussgebet der manichäer. Herausgegeben und übersetzt. – St. Petersburg. – P. VI+51. (In German)

2. Clark L (2013). Uygur Manichaean Texts: Volume II. Liturgical Texts: Texts, Translations, Commentary. Corpus Fontium Manichaeorum: Series Turcica II. – Turnhout: Brepols Publishers, 2013. – P. 372.

3. Ercilasun A.B (2008). Türk dili tarihi. Başlangıçtan yirminci yüzyıla. – Ankara: Akçağ. – S. 486. (In Turkish)

4. Özbay B (2014). HUASTUANİFT: Manihaist Uygurların Tövbe Duası. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. – S. 256. (In Turkish)

5. Zieme P (2010). The Manichaean Turkish Texts of the Stein Collection at the British Library // Journal of the Royal Asiatic Society. Series, 3/(20). – P. 255-266.

6. Dmitriyeva L.V. (1963). Xuastuanift (vvedeniye, tekst, perevod) – Tyurkologicheskiye issledovaniya. – M.-L. – S. 214-232. (In Russian)

7. Drevnetyurkskiy slovar (1969). – Leningrad. – S. 677. (In Russian)

8. Kuliyeva G.V. (2015). Yazik “Xuastuanift”a (Pokayannaya molitva manixeysev). Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni doktora filosofii po filologii (PhD). – Baku. – S. 22. (In Russian)

9. Malov S.Ye. (1951). Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti. Teksti i issledovaniya. – M.-L.: Izdatelstvo AN SSSR. – S. 452. (In Russian)

10. Sodiqov Q. (1997). Uyg‘ur yozuvi tarixi (Manbashunoslik va kitobat tarixi masalalari). – Toshkent. – 96 b. (In Uzbek)

11. Sodiqov Q., Omonov Q. (2010). O‘zbek tilining yozma uslublari tarixidan. – Toshkent. – 192 b. (In Uzbek)

12. Sodiqov Q.P. (2010). “Xuastuanivt”ning Berlin qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan uzindilari – Xorijiy Sharq xalqlari adabiyoti va adabiy manbashunosligining dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy anjuman. – Toshkent. – 45–52 b. (In Uzbek)

13. Sodiqov Q.P. (2004). Qadimgi turkiy xalqlarning diniy-falsafiy qarashlari. – Toshkent. – 108 b. (In Uzbek)

14. Sodiqov Q.P. (2006). Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. – Toshkent. – 208. (In Uzbek)

15. Sodiqov Q.P. (2009). Eski turkiy bitiglar. – Toshkent. – 168 b. (In Uzbek)

16. Tugusheva L.Yu., Xosroyev A.L. (2008). Xuastvanift. (Manixeyskoye pokayaniye v grexax) / Predisloviye, transkripsiya uygurskogo teksta, perevod. Kommentariy Faksimile teksta. – Sankt-Peterburg: Nestor-Istoriya. – S. 82. (In Russian)

# INVESTIGATION THROUGH SYSTEMATIC AND STRUCTURAL WAY OF MODAL AND IMITATIVE WORDS FOR LINGUISTIC PERSPECTIVE

# MODAL VA TAQLID SO‘ZLARNING LINGVISTIK NUQTAYINAZARDAN TIZIMLI-STRUKTURAL TAHLILI

# СИСТЕМНО-СТРУКТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ МОДАЛЬНЫХ И ПОДРАЖАТЕЛЬНЫХ СЛОВ С ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ

https://zenodo.org/records/20666856

**Umurzakova Gulchexra Egamberdiyevna**
*Oriental university*
*Languages-2 department, PhD, Senior Lecturer*
*Tel: +998 93-127-00-90*
*E-mail: gulidil425@gmail.com*

**Annotation.** The study of the functional and structural characteristics of words in linguistics is essential for understanding the logical system of language and its communicative potential. Modal and imitative words play a significant role in expressing the expressive and cultural dimensions of language. Modal words reflect the speaker’s attitude, including probability, obligation, and evaluation, while imitative words convey natural phenomena and emotions through phonetic representation. This paper aims to analyze modal and imitative words within a systematic-structural framework. The study focuses on identifying their lexical and grammatical features, classifying their communicative functions, and examining their interrelations within the language system. The findings contribute to the development of methodological approaches in linguistic theory and highlight the role of expressive language units in cultural and communicative sustainability.

**Keywords:** *modal words, imitative words, systematic-structural analysis, linguistics, language system, expressiveness, cultural sustainability*.

**Annotatsiya.** Tilshunoslikda so‘zlarning funksional va struktural xususiyatlarini o‘rganish tilning mantiqiy tizimi hamda uning kommunikativ imkoniyatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Modal va taqlid so‘zlar tilning ekspressiv va madaniy jihatlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Modal so‘zlar so‘zlovchining munosabatini, jumladan ehtimollik, majburiyat va baholashni ifodalasa, taqlid so‘zlar tabiiy hodisalar va hissiyotlarni fonetik tasvir orqali yetkazadi. Mazkur maqola modal va taqlid so‘zlarni tizimli-struktural yondashuv asosida tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot ularning leksik va grammatik xususiyatlarini aniqlash, kommunikativ funksiyalarini tasniflash hamda til tizimidagi o‘zaro aloqalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Natijalar tilshunoslik

nazariyasida metodologik yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ekspressiv til birliklarining madaniy va kommunikativ barqarorlikdagi rolini yoritadi.

**Kalit so‘zlar**: *modal so‘zlar, taqlid so‘zlar, tizimli-struktural tahlil, tilshunoslik, til tizimi, ekspressivlik, madaniy barqarorlik.*

**Аннотация.** Изучение функциональных и структурных характеристик слов в лингвистике имеет важное значение для понимания логической системы языка и его коммуникативного потенциала. Модальные и звукоподражательные слова играют значительную роль в выражении экспрессивных и культурных аспектов языка. Модальные слова отражают отношение говорящего, включая вероятность, обязательность и оценку, тогда как звукоподражательные слова передают природные явления и эмоции посредством фонетического воспроизведения. Данная работа направлена на анализ модальных и звукоподражательных слов в рамках системно-структурного подхода. Исследование сосредоточено на выявлении их лексических и грамматических особенностей, классификации их коммуникативных функций, а также на рассмотрении их взаимосвязей в языковой системе. Полученные результаты способствуют развитию методологических подходов в лингвистической теории и подчеркивают роль экспрессивных языковых единиц в культурной и коммуникативной устойчивости.

**Ключевые слова**: *модальные слова, звукоподражательные слова, системно-структурный анализ, лингвистика, языковая система, экспрессивность, культурная устойчивость.*

## INTRODUCTION

The study of the functional and structural characteristics of words in linguistics plays a crucial role in understanding the logical organization of language and its communicative potential. Language, as a dynamic system, reflects not only cognitive processes but also cultural and social dimensions of human interaction. In this regard, modal and imitative words occupy a special place due to their ability to convey subjective meanings and expressive nuances. Modal words express the speaker’s attitude toward reality, including categories such as probability, obligation, necessity, and evaluation, whereas imitative words reproduce natural sounds, movements, and emotional states through phonetic representation, thereby enriching speech with vividness and expressiveness.

Despite significant contributions to the study of modality and sound symbolism, there remains a lack of integrated research that examines modal and imitative words within a unified systematic-structural framework. Previous studies

have primarily focused on modality as a grammatical and semantic category, while other scholars have explored the phonetic and expressive nature of imitative words (Palmer F. R, 2001:34; Bybee J., 2010: 124). However, these approaches often treat the two categories separately, leaving a gap in understanding their interaction within the broader language system (Jakobson R., 1960: 55; Crystal D., 2003:72; Dingmans M., 2015:254).

This study addresses this gap by exploring the structural and functional relationships between modal and imitative words. The main objective of the research is to conduct a systematic-structural analysis of these linguistic units, identifying their lexical and grammatical features, classifying their communicative functions, and examining their interdependence within the language system. It is hypothesized that modal and imitative words, despite their differences, share common functional roles in enhancing expressiveness and contributing to communicative effectiveness.

## LITERATURE REVIEW

The study of the functional and structural characteristics of words in linguistics plays a crucial role in understanding the logical organization of language and its communicative potential. Language, as a dynamic and multifaceted system, reflects not only cognitive processes but also the cultural and social dimensions of human interaction. Within this framework, particular attention has been given to lexical units that carry expressive and subjective meanings.

Modal and imitative words occupy a distinctive position in linguistic research due to their ability to convey nuanced meanings and enhance expressiveness in communication. Modal words are primarily associated with the speaker’s attitude toward reality, expressing categories such as probability, necessity, obligation, and evaluation. In contrast, imitative words (often referred to as sound-symbolic or onomatopoeic units) reproduce natural sounds, movements, and emotional states through phonetic means, thereby contributing to the vividness and emotional richness of speech. Scholarly attention to modality has been substantial. For instance, Frank R. Palmer (1986) examined modality as a grammatical and semantic category, emphasizing its role in expressing speaker perspective and epistemic judgment. Similarly, Joan Bybee (2010) explored modality within a usage-based framework, highlighting its evolution and functional distribution across languages. These studies have significantly contributed to understanding the structural and semantic properties of modal expressions.

On the other hand, the study of imitative words has been addressed from phonological and stylistic perspectives. Roman Jakobson (1960) emphasized the

relationship between sound and meaning, particularly in poetic and expressive language. Likewise, David Crystal (2003) discussed the role of sound symbolism and onomatopoeia in enriching linguistic expression and communication. These works highlight the importance of phonetic representation in conveying meaning beyond purely arbitrary linguistic signs.

Despite these valuable contributions Abelin A. (1999) existing research tends to treat modal and imitative words as separate phenomena. There is a noticeable lack of integrated studies that examine these categories within a unified systematic-structural framework. This gap limits a comprehensive understanding of how different expressive mechanisms interact within the language system.

The present study seeks to address this limitation by exploring the structural and functional relationships between modal and imitative words. It aims to conduct a systematic-structural analysis of these linguistic units by identifying their lexical and grammatical features, classifying their communicative functions, and examining their interdependence. It is hypothesized that Hinton L. (1994) despite their distinct characteristics, modal and imitative words share common functional roles in enhancing expressiveness and contributing to overall communicative effectiveness.

## REASERCH METHODOLOGY

This research adopts a qualitative and descriptive study design based on a systematic-structural approach to linguistic analysis, supplemented by comparative methods between English and Uzbek. The study focuses on linguistic units-specifically modal and imitative words-as the primary objects of investigation. The data consist of examples collected from contemporary English and Uzbek texts, including literary works (e.g., novels by Steinbeck J. and Qodiriy A.), spoken discourse (corpora and dialogues), and academic materials, selected through purposive sampling to ensure representativeness and cross-linguistic balance**.**

The materials used include linguistic corpora, dictionaries (Oxford English Dictionary 1900:564), and scholarly publications on modality and sound symbolism. Analytical instruments involve classification frameworks for modal categories (epistemic, deontic) and phonetic-structural analysis of imitative forms, including phono semantic mapping (Hinton L., Nichols J., Ohala J., 1994:217 Kaxorova I., 2025:25).

The research procedure involves several stages: first, identifying and collecting instances of modal and imitative words; second, analyzing their lexical and grammatical properties; third, categorizing their communicative functions; and finally, examining their relationships within the language system. Data analysis is

conducted using descriptive, comparative, and functional analysis methods, allowing for a comprehensive interpretation of linguistic patterns.

## RESULTS AND DISCUSSIONS

The analysis reveals that modal words demonstrate a wide range of lexical and grammatical features, functioning primarily as indicators of the speaker's subjective stance. They are categorized into groups expressing probability, necessity, obligation, and evaluation. In English, modal verbs (can, must, may) and adverbs (perhaps, certainly) dominate; in Uzbek, modal words and particles (albatta, balki, shubhasiz) serve similar roles without inflectional modal verbs (Kaxorova I., 2025:56).

Imitative words are characterized by their phonetic structure and ability to represent sounds and movements, contributing to expressive and emotive communication. Reduplication is particularly frequent, reflecting iconicity (e.g., English "tick-tock", "bang-bang"; Uzbek "gumbur-gumbur", "lip-lip").

**Structural Analysis** The structural types of modal and imitative words were categorized as follows:

• **Simple forms** (e.g., English: perhaps, maybe, oh; Uzbek: balki, ha, oh).

•**Complex forms** (e.g., English: undoubtedly, certainly; Uzbek: shubhasiz, albatta).

•**Reduplicated forms** (primarily in imitative words: English tick-tock, bang-bang; Uzbek gumbur-gumbur, tik-tik, shov-shov).

The analysis shows that reduplication is particularly frequent in imitative words, reflecting their phonetic nature and ability to imitate natural sounds. In Uzbek, imitative words often function independently as predicates or modifiers, demonstrating greater morphological autonomy than in English (Literary Characteristics of Onomatopoeic Items in the Uzbek and English Languages, 2025).

**Functional Analysis** Modal words perform the following functions:

•Expressing probability (English: perhaps, maybe; Uzbek: balki, aftidan).

•Indicating certainty (English: certainly, undoubtedly; Uzbek: albatta, haqiqatan). •Conveying evaluation (English: unfortunately, fortunately; Uzbek: afsuski, attang).

Imitative words mainly:

•Represent natural sounds (English: buzz, bang, splash; Uzbek: gumbur, shiqillamoq, lip-lip).

•Enhance emotional expressiveness in speech (e.g., overlapping with modal evaluation in narrative contexts).

1. "**Sure",** – he said. "**Sure**. It would be a pleasure". (Simak C. D., 1988:54)

2. Over his shoulder, Bullfrog said, "**Maybe,** we ought to see if we can't get the reverend to press charges. Huh?" (Major C., 1999:87)

3. **Well,** naturally, with enough propaganda you can confuse anybody. (Miller A., 1964:42)

4. – Are you ashamed of me, Izzie?

– **Of course**, not. She was instantly embarrassed. (Steel D., 2017:61)

5. He heard her **click-clacking** along the street.

6. He heard the **clomp** of her heavy workboots, walking wearily up the stairs.

The findings show that both modal and imitative words play significant roles in discourse organization and meaning construction. Modal words are frequently used in both spoken and written communication to convey attitudes and judgments, while imitative words are more prevalent in narrative and informal contexts, enhancing vividness and sensory representation. Quantitative observations indicate that modal words occur more frequently in formal discourse, whereas imitative words dominate in expressive and creative texts. Structural patterns also demonstrate interactions between these categories, particularly where emotional and evaluative meanings overlap (e.g., "oh bang!" expressing surprise).

The results indicate that modal and imitative words, although functionally distinct, share a common role in enhancing the expressive capacity of language. Modal words contribute to the organization of discourse by signaling the speaker's perspective, while imitative words enrich communication through sensory and emotional representation. These findings align with previous research on modality (Palmer F. R., 2001:34; Bybee J., 2010:124) and sound symbolism confirming their importance in linguistic theory (Jakobson R., 1960: 55; Crystal D., 2003:72; Dingmans M., 2015:254).

At the same time, the study expands existing knowledge by demonstrating the interconnectedness of these linguistic units within a systematic-structural framework, particularly in English-Uzbek comparison. For instance, the absence of modal verbs in Uzbek shifts reliance to invariant modal words, while imitative words in both languages exhibit phono semantic parallels but differ in morphological integration (Kaxorova I., 2023:29). This interaction reflects the complexity of language as a system, where different elements work together to achieve communicative goals, supporting iconicity theories (Hinton L., Nichols J., Ohala J., 1994:217).

**Table 1.**

| № | Russian onomatopoeia | Uzbek onomatopoeia | English onomatopoeia | Note |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Ya-ya | Inga-inga | /wah-wah/ | Bola yig'isi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2 | Гав-гав | Vov-vov | /wu:f / | It akillashi |
| 3 | Ш-ш-ш-ш | Shuv-sh-sh | /ʃ ʃ/ /S S/ swish | Shamol hurishi |
| 4 | Чик-чирик | Chir-chir | /tʃrip tʃrip/ /tʃip tʃip/ | Qush sayrashi |
| 5 | Виш-виш | Vish-vush | /bʊzz bʊzz/ | Noaniq tovushlar |
| 6 | Чирк-чирк | Chiy-chiy | /klak-klak/ | Jo‘ja chiyillashi |
| 7 | Тик-так | Chiq-chiq | /click-clock/ | Soat tovushi |
| 8 | Ку-ка-ре-ку | Qu-qu-ru-qu | /cock-a-doodle-doo/ | Xo‘roz qichqirig‘i |
| 9 | Му-му | Mo‘ -mo‘ | /moo moo/ | Sigir ma’rashi |
| 10 | Треск, шик | Buh, tirs | / bæng/ / boom/ | Sinish, portlash |
| 11 | Кар-ка | Qaq-qaq | /kaʊ kaʊ/ | Qarg‘a tovushi |
| 12 | Ах, Ох | Oh-voy | /oʊtʃ/ /ah/ | Og‘riqdan ingrash |
| 13 | Иа-иа | Yo-yo | /hi: haʊ/ | Eshak hangrashi |
| 14 | Зинг-зинг | Jiring-jiring | /di:ng dʊng/ | Eshik jiringlashi |
| 15 | Кап-кап | Tin-ting | /dri:p drap/ | Suv tomchisi |
| 16 | Кря-кря | G‘aq-g‘aq | /kʊæk kʊæk/ | O‘rdak ovozi |
| 17 | Нам-нам | Ham-ham | /yum yum/ | Ovqat yeganda chapillash |
| 18 | Тук-тук | Duk-duk | /ba bʊmp/ | Yurak urushi |
| 19 | Муах-муах | Cho‘lp-cho‘lp | /mwah/ /Smu:tʃ/ | O‘pish |
| 20 | Тук-тук | Taq-taq | /nʌk nʌk/ | Eshik taqillatishi |
| 21 | Ха-ха-ха | Xe-xe | /ha ha/ | Kulish |
| 22 | Мяу-мяу | Миёв-миёв | /miju miju/ | Mushuk ovozi |
| 23 | Апчи | Apchu | /æti:shoo/ /ætʃoo/ | Aksirish |
| 24 | Хр-хр | Xur-xur | /zzz…/ | Xurrak otish |
| 25 | Бе-бе | Ba-ba | /bææ… bææ/ | Qo‘y ba’rashi |

According to E.Dofs, animal sounds are essentially the same in all countries; however, the ways in which they are expressed differ across languages with different systems.

The variation in the representation of animal sounds may be explained by the differences in the phonological or morphological systems of languages. It can be observed that phonemes in languages with different systems carry different meanings due to their distinct phonological structures, and differences are evident in both consonants and vowels. Despite these differences, the meaning in two languages remains more or less similar.

Within the framework of this study, we conclude that certain onomatopoeic expressions in languages of different systems-especially those related to animal sounds-vary depending on the phonological and morphological structures of each language. According to this research, it is possible to make use not only of onomatopoeia and alliteration, but also of the broader sound potential of language.

Each nation perceives, hears, and experiences the world in its own way. For example, consider the bird called chittak. In Uzbek, this bird is named based on its movement. It moves quickly (“chit-chit”), and Uzbek speakers initially perceive this motion. In contrast, Russian speakers first notice the bird’s color and name it “синица” based on that feature.

Similarly, Uzbek speakers perceive the sound made by a chick as “jip-jip” and therefore call it “jo‘ja”. Russian speakers, however, hear it as “sip-sip” and refer to it as “цыплёнок”. These are simple examples; in reality, each nation’s perception, hearing, and understanding of the world is a highly complex process.

The examples of imitative words presented in Table 1 demonstrate that differences across languages with distinct systems are shaped through the linguistic worldview, which is constructed by means of figurative and metaphorical expressions, similes, connotative words, stereotypes, symbols, and other devices. Every language embodies a system of national and specific features that reflect the worldview of its speakers and shape their perception of reality.

The implications of this research are significant for both theoretical and applied linguistics. From a theoretical perspective, it contributes to integrated models of language analysis and cross-linguistic typology. From a practical standpoint, it can inform language teaching, translation studies, and discourse analysis by highlighting the role of expressive language units-especially in bilingual contexts where Uzbek learners may transfer modal/imitative patterns to English.

However, the study has certain limitations, including the restricted size of the data sample and the focus on selected languages. Future research could expand the scope by including a wider range of languages and employing quantitative methods (e.g., corpus frequency analysis) to validate the findings.

## CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

This study has demonstrated that modal and imitative words are essential components of the linguistic system, each contributing uniquely to meaning construction and communication. The systematic-structural analysis has shown that these categories possess distinct lexical and grammatical features while also sharing functional similarities in expressing subjectivity and enhancing expressiveness-differences most evident in the English-Uzbek contrast (modal verbs vs. modal words; shared reduplication in imitatives).

The findings have important implications for linguistic theory, particularly in understanding the interaction between different language units and the role of iconicity. They also offer practical insights for fields such as language education and translation, where expressive meaning plays a crucial role.

Despite its contributions, the study acknowledges limitations related to data scope and methodological constraints. Future research should explore cross-linguistic comparisons and incorporate quantitative approaches to deepen the analysis.

In conclusion, the research highlights the importance of integrating structural and functional perspectives in linguistic studies, emphasizing the role of modal and imitative words in maintaining the richness and sustainability of language.

## REFERENCES / FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abelin, Å. (1999). Studies in Sound Symbolism. Doctoral dissertation, Göteborg University.
2. Alexander, L. Y. (1996). Longman English Grammar (14th impr.). Longman.
3. Anderson, E. R. (1998). A Grammar of Iconism. Associated University Publications.
4. Bloomfield, L. (1933). Language. Henry Holt.
5. Bybee, J. (2010). Language, Usage and Cognition. Cambridge University Press.
6. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
7. Dingmans, M. (2015). Ideophones and the Evolution of Language. Language and Linguistics Compass.
8. Hinton, L., Nichols, J., & Ohala, J. (1994). Sound Symbolism. Cambridge University Press.
9. Jakobson, R. (1960). Linguistics and Poetics.
10. Kaxorova, I. (2023). //Comparison of Imitative Words in English and Uzbek Languages. American Journal of Education and Learning. https://advancedscienti.com/index.php/AJEL/article/view/1003
11. Nuckolls, J. (2019). The Pragmatics of Sound Symbolism. Annual Review of Anthropology.
12. Palmer, F. R. (2001). Mood and Modality (2nd ed.). Cambridge University Press.

# SHINJONG O‘ZBEK SHOIRLARINING SHE’RIY UNSURLAR (QOFIYA) QO‘LLASH MAHORATI
# THE SKILLFUL USE OF POETIC ELEMENTS (RHYME) IN THE WORKS OF XINJIANG UZBEK POETS
# СТИЛИСТИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО ПРИМЕНЕНИЯ ПОЭТИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ (РИФМЫ) В ТВОРЧЕСТВЕ СИНЬЦЗЯНСКИХ УЗБЕКСКИХ ПОЭТОВ

https://zenodo.org/records/20666883

**Karimova Shahlo G‘aniyevna**
*Oriental Universiteti*
*Uzluksiz ta’lim pedagogikasi dotsenti*
*Tel.: +998 90 185-69-13*
*E-mail: shkarimova1984@gmail.com*
*ORCID ID: https://orcid.org/0009-0000-5380-4852*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asr boshlarida Shinjon hududida yashab ijod qilgan o‘zbek shoirlaridan Aziziddin Muhammad o‘g‘li Vasliy (1919-1985) ning she’riy unsurlarni qo‘llash mahorati tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirlar ijodida metafora, tashbeh, istiora, takror, ramz va boshqa badiiy ifoda vositalarining ishlatilish darajasi va ularning g‘oyaviy-badiiy vazifasi yoritiladi. Maqolada Vasliy ijodi misolida she’riy ifoda vositalarining individual uslub shakllanishidagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, shoir ijodida mumtoz adabiy an’analar bilan zamonaviy badiiy tafakkur uyg‘unlashuvi tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-adabiy tahlil, qiyosiy va matnshunoslik metodlaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Vasliy kabi shu davr Shinjong o‘zbek shoirlari she’riy unsurlardan mahorat bilan foydalanib, davr ruhini, ijtimoiy muammolarni va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini badiiy ifodalashda muhim natijalarga erishgan. Ushbu maqola o‘zbek adabiyoti tarixida kam o‘rganilgan mintaqaviy she’riyat an’analarini yoritishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** *Shinjong o‘zbeklari, she’riyat, badiiy unsurlar, poetik mahorat, tashbeh, istiora, ramz, qofiya, murdaf, muqayyad.*

**Annotation.** This article analyzes the mastery of poetic devices by the early 20th-century Uzbek poet of Xinjiang, Vasliy (1919-1985), who lived and worked in the region. The study examines the use and artistic functions of various poetic devices such as metaphor, simile, allegory, repetition, symbolism, and other literary techniques. Based on the works of Aziziddin Muhammad o‘g‘li Vasliy, the article explores the role of poetic devices in the formation of an individual authorial style. It also analyzes the synthesis of classical literary traditions with modern artistic thinking in his poetry. The research employs historical-literary,

comparative, and textual analysis methods. The results show that Vasliy, along with other Uzbek poets of Xinjiang, skillfully used poetic devices to artistically express the spirit of the era, social issues, and enlightenment ideas. This article contributes to the study of under-researched regional traditions of Uzbek poetry..

**Keywords:** *Xinjiang Uzbek poets, poetry, poetic devices, artistic mastery, metaphor, symbolism,* radif rhyme.

**Аннотация.** В данной статье анализируется мастерство использования поэтических средств узбекским поэтом Синьцзяна Василий (1919-1985), который жил и творил в начале XX века на территории Синьцзян. В исследовании рассматривается степень использования таких художественных средств, как метафора, сравнение, аллегория, повтор, символ и другие поэтические приёмы, а также их идейно-эстетическая функция. На материале творчества Азизиддина Мухаммада оглы Василия раскрывается роль поэтических средств в формировании индивидуального авторского стиля. Также анализируется синтез классических литературных традиций и современного художественного мышления в его поэзии. В работе применены историко-литературный, сравнительный и текстологический методы анализа. Результаты исследования показывают, что Василий и другие узбекские поэты Синьцзяна умело использовали поэтические средства для художественного выражения духа эпохи, социальных проблем и идей просвещения. Данная статья способствует изучению малоисследованных региональных традиций узбекской поэзии.

В статье анализируется мастерство использования поэтических средств в творчестве узбекских поэтов Синьцзяна. Рассматривается роль художественных приемов, таких как сравнение, метафора, гипербола и символ, а также их эстетическая значимость. В статье проведён анализ поэтических текстов и освещены особенности узбекской поэзии Синьцзяна, в том числе рассмотрены вопросы, связанные с использованием поэтических средств.

**Ключевые слова:** *узбекские поэты Синьцзяна, поэзия, художественные средства, поэтическое мастерство, метафора, символ, ограниченная рифма.*

## KIRISH

XX asr boshlarida Shinjon hududida yashab ijod qilgan o‘zbek shoirlarining adabiy faoliyati mintaqa madaniy hayotida muhim o‘rin egallaydi. Bu davr murakkab tarixiy-ijtimoiy jarayonlar, madaniy almashinuvlar va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining kuchayishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, Vasliy (1919-1985) ijodi

o‘zbek she’riyatida badiiy ifoda vositalarining rivojlanishi va individual uslub shakllanishi jihatidan alohida ahamiyatga ega.

She’riyatda metafora, tashbeh, istiora, ramz, takror kabi badiiy ifoda vositalari muallifning estetik maqsadini ifodalash, davr ruhini aks ettirish hamda g‘oyaviy mazmunni chuqurlashtirishda muhim vazifa bajaradi. Shu jihatdan Vasliy ijodini o‘rganish nafaqat uning individual poetik uslubini ochib beradi, balki XX asr boshlaridagi Shinjon o‘zbek she’riyatining umumiy rivojlanish tendensiyalarini ham yoritishga yordam beradi.

Vasliy ijodida mumtoz adabiy an’analar bilan zamonaviy badiiy tafakkur uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Shoir she’rlarida an’anaviy poetik shakllar saqlangan holda, yangi mazmuniy yo‘nalishlar, ijtimoiy masalalarga munosabat va ma’rifatparvarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Bu esa uning ijodini o‘tish davri adabiyotining muhim namunalaridan biri sifatida ko‘rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qofiya – she’riy asarning badiiy nafisligini yorituvchi, musiqiy uyg‘unlik bag‘ishlovchi muhim shakliy vositadir (Hojiahmedov A., 1998:128). Mumtoz poetika nazariyotchilaridan biri Shams Qays Roziy esa qofiyasiz she’rni haqiqiy ijodiy mahsul sifatida tan olmagan (Шамси Қайси Розий, 1991:161-162). Xalq og‘zaki ijodida ham bu jihat juda katta ahamiyat kasb etgan. Dostonlarning musiqiy ohang va ta’sirchan tinglovchilarga yetib borishida eng zo‘r usul hisoblangan. Mazmunan boy va jarangli qofiya hamda radiflar asarda aks ettirilayotgan turfa ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni eng muhim, chuqur mazmunga ega, ma’nodor va badiiy jiloga boy so‘zlar hamda ifoda vositalari orqali kitobxon xotirasida uzoq vaqt iz qoldirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, ular yoqimli ohang hosil qilib, asarning musiqiy uyg‘unligini va badiiy ta’sir kuchini oshiradi. Shu bois ham qadimdan she’riy nutqning ohangdorligi va jozibadorligini ta’minlovchi muhim unsurlardan biri sifatida, qofiya va radif mumtoz she’riyat nazariyasida alohida o‘rganilgan (Афоқова Н., 2005:140).

Mumtoz poetikada qofiya mustahkam ilmiy an’anaga ega. Ilmi bayon, ilmi maoniy va ilmi bade’ kabi balog‘at ilmlarining tarkibida mazmun va shakl mutanosibligi, ritm va ohangdorlik, tovush takrori, qofiya tizimi, shuningdek, nasrda uchraydigan she’riy unsurlar va janrlararo aloqadorlik singari masalalar dastlab tilshunoslikning sarf-nahv bo‘limida o‘rganilgan bo`lsa ham, keyinchalik bu masalalar mustaqil yo‘nalish sifatida ajralib chiqib, alohida she’rshunoslik va balog‘at ilmlari tizimida mukammal shaklga ega bo‘ldi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tavsifiy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, XX asr boshlaridagi Shinjong o‘zbek she’riyatini, xususan Aziziddin Muhammad o‘g‘li Vasliy ijodini chuqur

o‘rganishga qaratilib, tarixiy-adabiy tahlil**,** matnshunoslik tahlil**,** qiyosiy tahlil va nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar majmui orqali shoir ijodidagi qofiya qo‘llash mahorati har tomonlama yoritildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qofiya ilmi, ayniqsa, mumtoz Sharq she’riyatida she’rning tashkiliy va estetik asoslaridan biri sifatida qaraladi. U nafaqat misralarning ohangdorligini ta’minlaydi, balki mazmunni mustahkamlovchi, obraz va g‘oyani ta’kidlovchi muhim badiiy vosita vazifasini ham bajaradi. Qofiyaning raviy, radif, harf va harakat kabi tarkibiy unsurlari aniq qonun-qoidalar asosida tizimlashtirilgan bo‘lib, bu esa she’r tuzilishida qat’iy me’yorlarning mavjudligini ko‘rsatadi.

Mumtoz adabiyotda qofiya ilmi aruz vazni bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Aruz tizimidagi bo‘g‘inlar, uzun-qisqa hijolar tartibi bilan qofiya uyg‘unlashib, she’rda mukammal ritmik tuzilmani yuzaga keltiradi. Shu jihatdan qofiya faqat tovushlar takrori emas, balki umumiy poetik tizimning ajralmas qismi hisoblanadi.

Shuningdek, qofiya ilmi she’riy janrlar xususiyatini belgilashda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, munojot, g‘azal, qasida, ruboiy kabi janrlarda qofiya va radifning o‘ziga xos qo‘llanish usullari mavjud bo‘lib, ular har bir janrning ichki qonuniyatlarini shakllantiradi. Qofiyaning turli ko‘rinishlari – mutlaq qofiya, muqayyad qofiya, musajja’ qofiya (Ҳожиаҳмедов А., 1998:240) kabi turlar – she’riy nutqning rang-barangligini oshiradi.

Bundan tashqari, qofiya poetik tafakkur va estetik didning rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shoirlar qofiya orqali nafaqat ohangdorlik yaratadi, balki ma’no nozikliklarini, yashirin ishoralar va badiiy o‘yinlarni ham ifodalaydi. Shu sababli qofiya ilmi mumtoz poetikaning nafaqat texnik, balki chuqur mazmuniy va falsafiy qatlamlarini ochib beruvchi muhim ilmiy soha sifatida qadrlanadi.

Sharq poetik tafakkurida poetika va uning asosiy bo‘limlari ilmi – bade’, aruz va qofiya ilmlarining taraqqiyot jarayoni muayyan tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta’sirida bosqichma-bosqich takomillashib bordi. Har bir ijodkor bu ilmlarni chuqur egallashni o‘z ijodiy kamoloti – balog‘atning muhim sharti sifatida bilgan. Shu bois she’r yaratishda vazn va badiiy san’atlar qatori qofiyaning ham o‘ta muhim poetik unsurligiga alohida e’tibor qaratilgan. Qofiya nafaqat she’rning tashqi ko‘rinishiga, balki uning ichki ohang, ritm va ma’no uyg‘unligiga ham bevosita ta’sir qiluvchi asosiy tarkibiy qism sifatida qaralgan.

Demak, Mumtoz o‘zbek she’riyatida qofiya va radif ijodiy asarlar ohangdorligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi asosiy badiiy unsurlardan biri hisoblanadi. Qofiya – she’riy satrlarning oxiridagi tovushlar yoki so‘z birikmalaridagi ohang uyg‘unligi

orqali yaratiladigan ritmik va musiqiylik bo‘lib, she’rning jozibadorligi va o‘quvchi ongida mustahkam o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Ko‘plab mumtoz shoirlar ijodida qofiya tanlash nafaqat mazmuniy, balki ohangdorlik jihatidan ham alohida e’tibor talab qiladigan masala bo‘lgan. Shoirlar, masalan, Pirimqori Andijoniy, Dilafkor, Barqiy va Muhsiniy, o‘z she’riyatlarida qofiyaning turli turlarini faol qo‘llash orqali badiiy mahoratlarini namoyon qilganlar. Ayniqsa, mujarrad qofiya (eng faol va asosiy qofiya turlaridan biri) shoirlarning ijodida keng qo‘llanilganligi bilan ajralib turadi.

Demak, qofiya ilmi uzoq tarixga ega bo‘lib, murakkab va mustaqil ilm ekani bilan qofiya ilmi nazariyasini bilish badiiy matnni poetik tahlil qilishda juda katta ahamiyatga ega. Biz biror she’riy matnni tahlil qilganimizda, qofiya tizimini to‘liq tahlil qilishimiz, nazariyasi keng va o‘z qonuniyatlari bor. Shoir qofiyaga juda ko‘p vazifa yuklaydi. Qofiyada shoirning poetik maqsadlari, g‘oyalari aks etadi. Demakki, qofiyaga yuklangan vazifani to‘g‘ri tahlil orqali anglash mumkin.

Biz qofiya ilmiga doir nazariy manbalar va badiiy adabiyotdagi takomiliga tayanib, Vasliy ijodidagi turkiy qofiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashga harakat qildik:

l. Arab va fors tilidagi poetika ilmiga oid risolalarda she’rning asosi sifatida vazn belgilansa, turkiy she’riyatda qofiya she’rining asosi sifatida qabul qilingan. Shoirlar ijodida qofiyadosh so‘zlarni mukammal holatda ishlatishga harakat qilishgan. Vasliyga zamondosh Zarif qori Toshkandiy ijodidan olaylik:

*Yuz tuman armon-u hasrat jon bir yonimdadur,*

*Toki ming jabr-u jafo bul ofati jonimdadur (Қодир Акбар., 1989:114-140).*

Baytda qo‘llangan “yonimdadur” va “jonimdadur” so‘zlari mumtoz qofiyaning to‘q qofiyasiga mansub bo‘lib, “o”- tovushi raviy vazifasida kelib, undan keyingi qo‘shimchalar vasl, huruj, mazid, noyira ohangdoshlikni bus-butunligicha, musiqiylikni to‘la ta’minlagan holda qo‘llangan. Mazmun jihatdan ham bir-birini taqozo etib kelayotgan bu so‘zlar sof turkiy so‘zlar sifatida poetik vazifasini uddalagan.

Yoki Vasliy ijodidagi:

*Menga ishq o‘ti tegdi go‘zal yuzlik qaro qoshdin,*

*Bu savdo birla bosh ketdi, bu savdo ketmadi boshdin.* (Vasliy)

Baytda ishq holati juda go‘zal va sodda tarzda obrazli ifodalangan. “Ishq o‘ti” iborasi orqali ishq yonuvchi, azob beruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. “Qaro qosh” esa go‘zallik timsoli bo‘lib, oshiqning ishqqa duchor bo‘lishiga sabab sifatida keltirilgan.

“Savdo” so‘zi bu yerda ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lib, istiora orqali ijodkor ishqiy dard, ruhiy bog‘liqlikni anglatmoqchi bo‘ladi. Shoir oshiqning

holatini shunday ko‘rsatadiki, u aqlini yo‘qotadi (“bosh ketdi”), lekin ishqdan qutula olmaydi (“savdo ketmadi”). Iboralarning bir misraning o‘zida har xil berilishi ishq o‘yinidagi yengil qochirimni, hazil-kinoya aralash yozg‘irishni ustamonlik bilan ishlatib olgan shoir mahoratini bir darajaga ko‘taradi.

2. Deyarli har bir she’riy asarida qofiyadosh so‘zlardagi har bir harf va harakatning ishtiroki va ohangdorligiga alohida e’tibor bergan. Bundan tashqari qofiyaning muqayyad turi ham ko‘p uchraydi. Misol uchun:

- *Yorga aynakdin qarang, yuzin munavvar qildimu,*
*Tebratib bodi sabo, sochin muattar qildimu.*

Bayt juda nozik va nafis tasvirlar asosiga qurilgan: *“Aynakdin qarang”* – bu yerda “oyna(ko‘zgu) orqali qarash” ma’nosida bo‘lib, yor husnining yana-da jilolanib ko‘rinishini anglatadi. Bu ifoda go‘zallikni vosita orqali yanada kuchaytirib ko‘rsatadi. “Yuzin munavvar qildimu” – yorning yuzi nurli, yana ham porloq qilib tasvirlanadi. “Munavvar” so‘zi yorning husniga ilohiylik, nur bag‘ishlaydi. “Bodi sabo” – tong shamoli timsoli bo‘lib, mumtoz adabiyotda latofat va noziklik ramzi. Bodi saboning “sochin muattar qil”ishi – tonggi nasim yor sochlarini tebratib, uni go‘yo xushbo‘y qilib qo‘ygandek, atrofga muattarligini taratib qo‘ygandek tasvirlanadi.

Qofiya bilan birga qo‘llangan “qildimu?” radifi lirik qahramonning ichki tuyg‘ulari ritorik so‘roq vositasida berilmoqdaki, bu ham baytga o‘zgacha ohang, musiqiylik bag‘ishlamoqda. Turkiy qofiyashunoslikda radifning ishtiroki va vazifasi alohida o‘rganilgan jihatlardan bo‘lib, shoirlar ijodida uning qo‘llanilishi ancha kengaygani va radifning yoyiq shakliga murojaat ko‘p uchraydi. Fors-tojik shoirlari ijodiga naziralarda va ayrim mustaqil g‘azallarida radifning bir so‘z holidagi ko‘rinishi uchrasa, mumtoz o‘zbek shoirlari (jumladan, Navoiy, Huvaydo, Mashrab, Bobur, Tavallo, Miskin, Muqimiy) shoirlar ijodiga taxmislarda badiiy matn ohangdorligini ta’minlash va ijodkor maqsadini ifodasi sifatida ham bir so`zli, ham birikma holida ishlatilgan radifli - muraddaf baytlar salmog‘i ko‘p:

- *Qildingiz Farg‘onadan azmu sayohat, Qorijon,*
*Marhabo, xush keldingiz, ey sarviqomat Qorijon.*

Nido san’atini yuzaga keltirayotgan “Qorijon” shoir fikri qaratilgan yaqin insoni sifatida radifga joylashtirilishi ham bejiz emas.

Turkiy adabiyotdagi baytlarda qofiyadosh so‘zlarning aksariyati o‘ta cho‘ziq hijo bilan tugaydi. Shunga asoslanib aytish mumkinki, Shinjong shoirlari ham turkiy til qonuniyatidan kelib chiqqan holda qofiya qismlarining ishtirokiga ko‘ra mutarodif, *mutavosiy, mutarojih, mutazoyid* turlariga ko‘proq murojaat qilgan:

*Nedan navo chekarman hajringda yor sansiz,*
*Yil ichra behuda na devonavor sansiz*

Vasl raviydan keyin keluvchi qofiyaning asosiy harflardan biridir. Arab va fors qofiyashunoslari vaslni belgilashda raviy va vasl o‘rtasidagi ulovchi qofiya harakati – majroning ishtiroki ahamiyatli ekanligini ta’kidlaydilar.Agar raviy va vasl orasida majro ishtirok etmasa, qofiyadosh so‘z tarkibidagi asosdan keyingi harflar radif sifatida baholanadi. Bu esa fors va arab tilidagi so‘zlarning yasalishi va grammatik shakllarning qo‘shilishi bilan bog‘liq. Turkiy tilda esa bu ikki tildan farqli holatda qo‘shimchalar asosdan keyin qo‘shiladi, qo‘shimchalarning chegarasi bilinib turadi.

Qofiyalarda uyg‘urcha elementlarning aks etishi ko‘proq qo‘shimchalar qo‘llanilishida ko‘zga tashlanadi:

*Salom aytib yozay xat, sog‘misiz, tan-joningiz qandoq?*

*Saboqdosh, ham muallim, do‘stlar, yoroningiz qandoq?*

*Bo‘lub xanzucha*[1] *tilda bexato irfoningiz qandoq?*

*Fahmsizlikda gohi ba’zi bir nuqsoningiz qandoq?*

Shoirlar ijodida qofiyaning murdaf va muqayyad qofiya turlari ham ko‘p qo‘llanilgan, ijodkorlik salohiyati va mahoratini belgilashda, she‘rning go‘zal va ravon o‘qilishida, o‘zgacha musiqiylikni ta’minlashda alohida o‘rin tutgan:

Vasliyga zamondosh Zarif qori Toshkandiy, Andijoniy, Farhatiy mutlaq qofiyadan ko‘p foydalangan bo‘lsa, Barqiy, Dilafkor, Bilol Aziziy muqayyad qofiyalarni ko‘p ishlatgan:

Ey ko‘ngul, xushlab qadrdon oshnodin keldi xat,

Tur, sadoqat chin ahli vafodin keldi xat. (Farxatiy)

Demak, mazkur davrdagi poetikaga oid she‘rlarda qofiya ilmi tadqiqi takomillashdi, yangi qonuniyatlar ishlab chiqildi, til qonuniyatiga moslashtirildi. Xususan, turkiy qofiya o‘zbek va uyg‘ur tilining grammatik tuzilishi asosida o‘zgarib, badiiy adabiyotda takomillashdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, XX asr boshlaridagi poetikaga oid she’riy matnlarda qofiya ilmi sezilarli darajada rivojlanib, uning nazariy va amaliy asoslari takomillashdi. Mazkur davrda qofiya tizimi faqat an’anaviy poetik qoidalar doirasida emas, balki yangi ijtimoiy-madaniy sharoit va til taraqqiyoti bilan uyg‘un holda shakllandi. Natijada qofiya tuzilishida yangi qonuniyatlar paydo bo‘lib, ular she’riy matnning g‘oyaviy-badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi.

Izlanishlar jarayonida shuni aniqlash mumkinki, turkiy qofiya tizimi, xususan o‘zbek va uyg‘ur she’riy an’analarida, tillarning grammatik xususiyatlarining

[1] Xanzucha- xitoycha

moslashgan holda bosqichma-bosqich rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Bu jarayonda qofiya nafaqat fonetik uyg‘unlik vositasi, balki badiiy mazmunni chuqurlashtiruvchi estetik element- she’riy unsur sifatida ham shakllangan. Shinjong hududidagi she’riy an’analarda bu jarayon yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi, chunki bu hududda o‘zbek va uyg‘ur adabiy muhitlari o‘zaro ta’sirda rivojlangan.

Shuningdek, Vasliy kabi shoirlar ijodida qofiya tizimi mumtoz an’analarga tayangan holda, zamonaviy ifoda vositalari bilan boyitilganini ko‘rish mumkin. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek she’riyatida qofiya ilmining nafaqat saqlanib qolganini, balki yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmon Jomiy (2006). Risolai qofiya // Sharq mumtoz poetikasi Hamidulla Boltaboyev talqinida. Tarjimon D.Yusupova. –T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2006. -B.306.

2. Афоқова Н. (2005). Жадид шеърияти поэтикаси: Вазн ва қофия муаммолари – Тошкент: Фан, 2005. – 140 б.

3. Hamroyeva O. (2022). Mumtoz qofiya nazariyasi asoslari [Matn] : o‘quv qo‘llanma -Toshkent: Bookmany print, 2022. - 156 b.

4. Ҳожиаҳмедов А. (1998). Мумтоз бадиият малоҳати. –Тошкент: Шарқ, 1998. – 240 б.

5. Ҳурматжон Фикрат., Қодир Акбар (2005). Ўзбек адабиёти тарихи. Урумчи: Шинжонг халқ нашриёти. 2005. (уйғур тилида) (Hurmatjon Fikrat., Qodir Akbar. History of Uzbek literature. Urumchi: Xinjiang People’s Publishing House, 2005. (in Uyghur).

6. Исҳоқов Ё. (2014). Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – 320 б.

7. Каримова Ш. (2018). Ўзбек мумтоз шеъриятида поэтик мазмун ва янгиланишлар (Завқий ва Муҳсиний ижоди мисолида). Фил. фан бўйича. ...дисс. – Тошкент. 2018.

8. Karimova Sh. (2025). XX asr boshlari Shinjong o‘zbek she’riyati. Monografiya. Toshkent, 2025.

9. Маматохунов У. (1960). Уйғур адабиёти классиклари. – Тошкент. 1960.

10. Қодирий Р. (1963). Уйғур адабиётида Навоий анъаналари / “Адабий мерос”. 1963. 1-китоб. 52-60 б.

11. نەش خەلق شىنجاڭ .ئەكبەر قادىر :تەييارلانغان قىلىشقا نەشر .ياز‌غۇچىلىرى ئۇزبېك شىنجاڭ (1989). Шинжонг ўзбек адиблари. Нашрга тайёрловчи: Қодир Акбар. Шинжонг халқ нашриёти. 114-140 бетлар.

12. Шамси Қайси Розий (1991). Ал мўъжам [ан мачонри ашъор ил – Аъжам. (“фарҳанги андозаҳон ашъори Ажам”). Муаллифи сар сухану тавзеҳот ва ҳозиркунандаи чоп У.Тоиров. – Душанбе. Адиб. 1991. С.161-162.

**REFERENCES:**

1. Abdurahmon Jomiy (2006). Risolai qofiya // Sharq mumtoz poetikasi Hamidulla Boltaboyev talqinida. Translator D.Yusupova. –T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. -B.306. (In Uzbek)

2. Afoqova N. (2005). Jadid she’riyati poetikasi: Vazn va qofiya muammolari – Toshkent: Fan, 2005. – 140 p. (In Uzbek)

3. Hamroyeva O. (2022). Mumtoz qofiya nazariyasi asoslari: o‘quv qo‘llanma -Toshkent: Bookmany print, 2022. - 156 p. (In Uzbek)

4. Hojiahmedov A. (1998). Mumtoz badiiyat malohati. –Toshkent: Sharq, 1998. – 240 p. (In Uzbek)

5. Hurmatjon Fikrat., Qodir Akbar (2005). O‘zbek adabiyoti tarixi. Urumchi: Shinjong xalq nashriyoti. 2005. (In Uyghur)

6. Is’hoqov Yo. (2014). So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 320 p. (In Uzbek)

7. Karimova Sh. (2018). O‘zbek mumtoz she’riyatida poetik mazmun va yangilanishlar (Zavqiy va Muhsiniy ijodi misolida). Fil. fan. bo‘yicha ... diss. – Toshkent. 2018. (In Uzbek)

8. Karimova Sh. (2025). XX asr boshlari Shinjong o‘zbek she’riyati. Monografiya. Toshkent, 2025. (In Uzbek)

9. Mamatoxunov U. (1960). Uyghur adabiyoti klassiklari. – Toshkent. 1960. (In Uzbek)

10. Qodiriy R. (1963). Uyghur adabiyotida Navoiy an’analari / “Adabiy meros”. 1963. 1-kitob. 52-60 b. (In Uzbek)

11. Shinjong o‘zbek yozuvchilari. Nashrga tayyorlovchi: Qodir Akbar (1989). Shinjong xalq nashriyoti. 114-140 betlar. (In Uyghur and Uzbek)

12. Shamsi Qaysi Roziy (1991). Al mo‘jam [an machonri ash’or il – A’jam. (“Farhangi andozahon ash’ori Ajam”). Muallifi sar suxanu tavzehot va hozirkunandai chop U.Toirov. – Dushanbe. Adib. 1991. S.161-162. (In Tajik)

# TIL, MADANIYAT VA TARJIMANING O‘ZARO TA’SIRI

# THE INTERACTION BETWEEN LANGUAGE, CULTURE, AND TRANSLATION

# ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ЯЗЫКА, КУЛЬТУРЫ И ПЕРЕВОДА

https://zenodo.org/records/20666897

**Usmanova Gulruh Shokirjonovna**
*Oriental Universiteti*
*Tillar-2 kafedrasi katta o‘qituvchi*
*Tel:+998 97-131-40-80*
*E-mail: gulrukhusmanova@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Firdavs-ul-iqbol” asari materiallari asosida til, madaniyat va tarjimaning o‘zaro ta’siri lingvokulturologik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilinadi. Asarda aks etgan tarixiy voqelik, ijtimoiy-madaniy muhit hamda milliy qadriyatlarning til birliklari orqali ifodalanish xususiyatlari aniqlanib, matndagi realiyalar, etnografik unsurlar, tarixiy terminlar va frazeologik birliklarning tarjimada adekvat ifodalanishi muammolari ko‘rib chiqiladi. Tarjima jarayonida semantik muvofiqlik, pragmatik adekvatlik va madaniy ekvivalentlikni ta’minlash masalalari ilmiy asosda yoritilib, tarjimonning interpretativ faoliyati alohida e’tiborga olinadi. “Firdavs-ul-iqbol” asari misolida manba til va maqsad til o‘rtasidagi madaniy tafovutlarning tarjima sifatiga ta’siri ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** *til va madaniyat, madaniy ekvivalentlik, semantik muvofiqlik, pragmatik adekvatlik, tarixiy leksika, tarjima strategiyalari, interpretatsiya.*

**Annotation.** This article provides a comprehensive analysis of the interaction between language, culture, and translation based on the material of the *“Firdavs-ul-iqbol”* work from a linguocultural and translation studies perspective. The study identifies the features of how historical reality, socio-cultural environment, and national values reflected in the work are expressed through linguistic units. It also examines the issues of adequate translation of realia, ethnographic elements, historical terms, and phraseological units found in the text. The problems of ensuring semantic equivalence, pragmatic adequacy, and cultural equivalence in the translation process are scientifically substantiated, with particular attention paid to the translator’s interpretative activity. Using the example of *“Firdavs-ul-iqbol”*, the impact of cultural differences between the source and target languages on translation quality is revealed.

**Keywords:** *language and culture, cultural equivalence, semantic equivalence, pragmatic adequacy, historical lexicon, translation strategies, interpretation*

**Аннотация.** В данной статье на основе материала произведения *«Фирдавс-ул-икбол»* проводится комплексный анализ взаимодействия языка, культуры и перевода с позиций лингвокультурологии и переводоведения. В работе выявляются особенности выражения исторической действительности, социально-культурной среды и национальных ценностей через языковые единицы. Также рассматриваются проблемы адекватной передачи реалий, этнографических элементов, исторических терминов и фразеологических единиц в процессе перевода. Особое внимание уделяется вопросам обеспечения семантической эквивалентности, прагматической адекватности и культурной эквивалентности, а также интерпретативной деятельности переводчика. На примере произведения *«Фирдавс-ул-икбол»* раскрывается влияние культурных различий между языком-источником и языком перевода на качество перевода.

**Ключевые слова:** *язык и культура, культурная эквивалентность, семантическая эквивалентность, прагматическая адекватность, историческая лексика, стратегии перевода, интерпретация*

## KIRISH

Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikda til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi fundamental ilmiy muammolardan biri sifatida qaraladi. Til inson tafakkuri va madaniyatining ifodasi bo‘lib, u millatning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti hamda qadriyatlar tizimini o‘zida aks ettiradi. Bu borada E.Sapir ta’kidlaganidek, *“til – bu madaniyatning mahsuli bo‘lib, u jamiyatning fikrlash tarzini shakllantiradi”*. Shu fikrni Benjamin Lee Whorf ham davom ettirib, til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni asoslab bergan.

Tarjima esa turli madaniyatlar o‘rtasida vositachilik qiluvchi murakkab kommunikativ jarayon hisoblanadi. E.Nida tarjimani *“bir tildagi xabarni boshqa tilga eng yaqin va tabiiy ekvivalentda yetkazish jarayoni”* sifatida izohlaydi (Nida E., 1993:120). Bu jarayonda nafaqat lingvistik, balki madaniy omillar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday matn o‘zida muayyan madaniy kontekstni mujassam etadi va uni tarjimada to‘liq ifodalash tarjimon zimmasiga yuklatiladi. Ayniqsa, tarixiy asarlar tarjimasida madaniy birliklar, realiyalar va milliy xususiyatlarni adekvat yetkazish muammosi dolzarb hisoblanadi. Bu jihatdan “Firdavs-ul-iqbol” asari muhim tadqiqot manbai sifatida e’tiborga loyiqdir. Asarda muayyan tarixiy davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti o‘z

aksini topgan bo‘lib, u til birliklari orqali ifodalangan boy lingvokulturologik materialni o‘z ichiga oladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – “Firdavs-ul-iqbol” asari misolida til, madaniyat va tarjimaning o‘zaro ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida lingvokulturologik yondashuv asosida matndagi realiyalar, tarixiy terminlar hamda frazeologik birliklarning tarjimada ifodalanish xususiyatlari o‘rganiladi. Shu bilan birga, tarjimada semantik muvofiqlik va madaniy ekvivalentlikni ta’minlash masalalari ham ko‘rib chiqiladi. P.Newmark fikriga ko‘ra, *“tarjima jarayonida madaniy elementlarni uzatish tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir”*, bu esa tarjimonning nafaqat til bilimiga, balki madaniy kompetensiyasiga ham bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Demak, til va madaniyat uyg‘unligi tarjima sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, u ilmiy tadqiqotlarda alohida e’tibor talab etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Til, madaniyat va tarjimaning o‘zaro ta’siri masalasi jahon va o‘zbek tilshunosligida keng qamrovda o‘rganilgan. Mazkur muammoning nazariy asoslari Yevropa va Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsa, o‘zbek olimlari bu nazariyalarni milliy til materiallari asosida rivojlantirgan.

Avvalo, Yevropa tarjimashunosligida P.Newmark tarjima jarayonida madaniy birliklarni yetkazish masalasiga alohida e’tibor qaratadi. U semantik va kommunikativ tarjima tushunchalarini farqlab, madaniy elementlarni tarjima qilishda turli strategiyalarni qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi (Newmark P., 1988: 95). H.Vermeer tomonidan ilgari surilgan “Skopos nazariyasi” tarjimaning maqsadga yo‘naltirilgan jarayon ekanligini asoslab beradi. Bu nazariyaga ko‘ra, tarjima usuli matnning funksiyasi va auditoriyaga bog‘liq holda tanlanadi. Yevropa lingvokulturologiyasida Wilhelm von Humboldt tilni *“xalq ruhi”*ning ifodasi sifatida talqin qilib, til va madaniyatning ajralmasligini asoslab bergan, uning qarashlari keyingi tarjimashunoslik tadqiqotlari uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi (Humboldt W., 1988: 60).

O‘zbek olimlari orasida G‘.Salomov tarjima nazariyasining milliy maktabini shakllantirgan yetakchi tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U tarjimada milliy koloritni saqlash, madaniy moslik va adekvatlik masalalarini chuqur tahlil qiladi. Olimning fikricha, tarjima jarayonida asliyatdagi madaniy mazmunni yo‘qotmaslik asosiy vazifa hisoblanadi (Саломов Ғ., 1983: 67). Q.Musayev tilning ijtimoiy va madaniy mohiyatini o‘rganib, til va tafakkur, til va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asosda yoritadi. Bu qarashlar tarjimada semantik va madaniy ekvivalentlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega (Мусаев Қ., 2000:115). E.Ochilov esa tarixiy va badiiy matnlarni lingvistik hamda madaniy jihatdan tahlil

qilib, ularni tarjima qilishda davr ruhini va ijtimoiy muhitni aks ettirish zarurligini ta’kidlaydi (Очилов Э., 2010: 74). Ayniqsa, tarixiy asarlar tarjimasida realiyalar va milliy qadriyatlarni to‘g‘ri yetkazish masalasi uning tadqiqotlarida muhim o‘rin tutadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, til va madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘liq tizim bo‘lib, tarjima esa ushbu tizimlar o‘rtasida vositachilik qiluvchi murakkab jarayondir. “Firdavs-ul-iqbol” asari misolida bu jarayonni o‘rganish lingvokulturologik va tarjimashunoslik yondashuvlarini uyg‘unlashtirishni talab etadi. Mazkur tadqiqotda Yevropa va o‘zbek olimlari tomonidan ishlab chiqilgan nazariy konsepsiyalar integrativ tarzda qo‘llaniladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda til, madaniyat va tarjimaning o‘zaro ta’sirini o‘rganish uchun kompleks va tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishlari uyg‘unligida shakllantirildi (Маслова В., 2001:35). Tadqiqotning nazariy asosini til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini yorituvchi ilmiy qarashlar tashkil etadi. Jumladan, Wilhelm von Humboldt tilni xalq ruhining ifodasi sifatida talqin qilgan bo‘lsa, P.Newmark tarjimada semantik va kommunikativ yondashuvlarni asoslab bergan. O‘zbek tarjimashunosligida esa G‘.Salomov tomonidan ilgari surilgan milliylik va madaniy adekvatlik tamoyillari ushbu tadqiqot uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida “Firdavs-ul-iqbol” asari asosiy manba sifatida tanlanib, undagi til birliklari lingvokulturologik jihatdan tahlil qilindi. Xususan, asarda uchraydigan realiyalar, tarixiy terminlar, frazeologik birliklar va etnografik unsurlar ajratib olinib, ularning madaniy mazmuni ochib berildi. Shu bilan birga, asliyat matni va uning tarjimalari qiyosiy-tahliliy metod asosida o‘rganilib, madaniy birliklarning tarjimada qay darajada adekvat ifodalanganligi aniqlashtirildi.

Tahlil davomida semantik metod orqali til birliklarining ma’no qatlamlari, konnotativ va denotativ jihatlari o‘rganildi, pragmatik yondashuv asosida esa matnning kommunikativ vazifasi va o‘quvchiga ko‘rsatadigan ta’siri baholandi. Bundan tashqari, interpretativ metod yordamida matndagi yashirin ma’nolar va madaniy kontekst tahlil qilinib, tarjimonning ijodiy yondashuvi ham hisobga olindi. Shu tarzda qo‘llanilgan metodologik yondashuv tadqiqot muammosini har tomonlama yoritish, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur anglash hamda tarjima jarayonida madaniy ekvivalentlikni ta’minlash mexanizmlarini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida “Firdavs-ul-iqbol” asari lingvokulturologik va tarjimashunoslik yondashuvlari asosida chuqur tahlil qilindi. Tahlil jarayonida asarda qo‘llanilgan til birliklari – tarixiy terminlar, realiyalar, frazeologik birliklar hamda etnografik unsurlar tizimli ravishda o‘rganildi va ularning tarjimada ifodalanish xususiyatlari aniqlashtirildi.

Avvalo, realiyalar (milliy-madaniy tushunchalarni ifodalovchi birliklar) tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular tarjimada eng murakkab qatlamni tashkil etadi. Masalan, asarda uchraydigan *“bek”, “mingboshi”, “devonbegi”* kabi ijtimoiy lavozim nomlari bevosita boshqa tillarga to‘liq ekvivalentga ega emas. Ayrim tarjimalarda bu birliklar transliteratsiya (masalan, *“bek”* → *“bek”*) orqali berilgan bo‘lsa, boshqa holatlarda izohli tarjima (*“devonbegi”* → davlat moliya ishlari boshlig‘i) qo‘llangan. Biroq umumlashtirish yo‘li *(“official”)* bilan berilgan variantlar madaniy aniqlikni yo‘qotganligi kuzatildi (Usmanova G.S., 2025: 130-131).

Ikkinchidan, tarixiy terminlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular ko‘pincha konnotativ (qo‘shimcha ma’no) yuklamaga ega bo‘ladi. Masalan, *“saroy”, “ark”, “xonzoda”* kabi birliklar nafaqat denotativ ma’noni, balki muayyan tarixiy ierarxiya va ijtimoiy tizimni ham ifodalaydi. Tarjimada bu birliklar oddiy *“palace”* yoki *“prince”* tarzida berilganda, ularning tarixiy-madaniy mazmuni to‘liq aks etmaydi.

Frazeologik birliklar tahlili esa tarjimada badiiy-estetik muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Masalan, *“ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi”* iborasi bevosita tarjima qilinsa *(“his heart rose like a mountain”)*, bu ifoda ma’no jihatdan tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli bunday hollarda semantik mos variant *(“he became very encouraged”)* tanlanadi, ammo bunda obrazlilik darajasi pasayadi. Bu holat tarjimada ekvivalentlik va badiiylik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muammosini yuzaga keltiradi (Usmanova G.S., 2025: 132-134).

Etnografik unsurlar ham muhim tahlil obyektini tashkil etdi. Masalan, *“to‘y marosimi”, “kuyovnavkar”, “kelin salom”* kabi birliklar o‘zbek xalqining an’anaviy turmush tarzini aks ettiradi. Ularni tarjima qilishda izohlash usuli *(“traditional wedding ceremony where the bride greets elders”)* samarali hisoblanadi, chunki bu usul madaniy axborotni yo‘qotmasdan yetkazishga imkon beradi. Olib borilgan qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tarjimada quyidagi strategiyalar keng qo‘llanadi: transliteratsiya, izohlash, moslashtirish va umumlashtirish. P.Newmark ta’kidlaganidek, madaniy birliklarni tarjima qilishda birgina usul yetarli emas, balki kontekstga qarab turli strategiyalar kombinatsiyasidan foydalanish zarur. Tadqiqot natijalari aynan shu yondashuvning samarali ekanligini tasdiqladi. G‘.Salomov ilgari surgan milliy koloritni saqlash

tamoyili ham amaliy jihatdan o‘z tasdig‘ini topdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, transliteratsiya va izohli tarjima birgalikda qo‘llanganda (masalan, *“devonbegi – head of state treasury”*) madaniy mazmunni to‘liqroq yetkazish mumkinligi aniqlandi (Usmanova G.S., 2025: 133-134).

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Firdavs-ul-iqbol” asari tarjimasida til va madaniyatning o‘zaro ta’siri ko‘p qatlamli va murakkab jarayon hisoblanadi. Tarjimada faqat lingvistik moslik emas, balki madaniy adekvatlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tarjimondan nafaqat til bilimini, balki tarixiy va madaniy kompetensiyani ham talab qiladi. Mazkur natijalar tarjimashunoslikda madaniy birliklarni uzatish strategiyalarini takomillashtirishga hamda tarixiy asarlar tarjimasining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, “Firdavs-ul-iqbol” asari til, madaniyat va tarjimaning o‘zaro ta’sirini o‘rganish uchun muhim lingvokulturologik manba hisoblanadi. Asar matnida aks etgan tarixiy voqelik, ijtimoiy munosabatlar, milliy qadriyatlar va an’analar til birliklari orqali mujassamlashgan bo‘lib, ular tarjima jarayonida murakkab semantik va madaniy transformatsiyalarga uchraydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tarjima jarayonida faqat denotativ ma’noni yetkazish yetarli bo‘lmay, konnotativ, pragmatik va madaniy qatlamlarni ham adekvat ifodalash zarur hisoblanadi.

Lingvokulturologik tahlil shuni ko‘rsatdiki, asarda uchraydigan realiyalar, tarixiy terminlar va etnografik birliklar milliy-madaniy axborotning asosiy tashuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar, asosan, maqsad tilida to‘liq ekvivalentning mavjud emasligi bilan bog‘liq. Tarjimon turli strategiyalar – transliteratsiya, izohlash, moslashtirish va funksional almashtirish kabi usullardan foydalanishga majbur bo‘ladi. Tadqiqot natijalari P.Newmark tomonidan taklif etilgan madaniy birliklarni tarjima qilish strategiyalarining amaliy jihatdan asosli ekanligini tasdiqladi.

Bundan tashqari, tahlillar G‘.Salomov tomonidan ilgari surilgan milliy koloritni saqlash tamoyilining dolzarbligini yana bir bor ko‘rsatdi. Tarjimada milliylikni yo‘qotish matnning badiiy-estetik qiymatini pasaytiradi va tarixiy asarning autentikligini buzadi. Shu sababli tarjimon asliyat va tarjima o‘rtasida muvozanatni saqlagan holda, madaniy ekvivalentlikni ta’minlashga intilishi lozim.

Pragmatik tahlil natijalari esa tarjima matnining qabul qiluvchi auditoriyaga ta’siri asliyat matniga nisbatan farqlanishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu esa tarjima jarayonida matnning funksional yo‘nalishi va kommunikativ maqsadini hisobga

olish zarurligini anglatadi. Tarjima faqat lingvistik transformatsiya emas, balki interpretativ va rekonstruktiv jarayon ekanligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri shundan iboratki, til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi tarjima sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tarjimada madaniy komponentlarni yetarli darajada hisobga olmaslik semantik yo‘qotishlar va kommunikativ noaniqliklarga olib keladi. Shu bois lingvokulturologik yondashuv tarjimashunoslik tadqiqotlarida ustuvor metod sifatida qaralishi lozim.

Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, tarixiy va badiiy asarlarni tarjima qilishda madaniy birliklar uchun maxsus izohli lug‘atlar va elektron korpuslar yaratish zarur. Bu tarjimonlarga realiyalar va tarixiy terminlarni to‘g‘ri talqin qilishda yordam beradi.

Ikkinchidan, tarjimonlarni tayyorlash tizimida lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Tarjimon nafaqat ikki tilni bilishi, balki ularning ortida turgan madaniy tizimlarni ham chuqur anglay olishi kerak.

Uchinchidan, “Firdavs-ul-iqbol” kabi asarlarni tarjima qilishda kombinatsiyalangan strategiyalarni qo‘llash (transliteratsiya + izoh + kontekstual moslashtirish) eng samarali yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

To‘rtinchidan, tarjima jarayonida madaniy realiyalarni umumlashtirishdan imkon qadar qochish, aksincha, ularni izohlash orqali saqlab qolish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, kelgusida ushbu yo‘nalishda qiyosiy tadqiqotlarni kengaytirish, turli tillarga qilingan tarjimalarni solishtirish asosida universal va milliy tarjima strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, til, madaniyat va tarjimaning o‘zaro ta’siri masalasi tarjimashunoslikning markaziy muammolaridan biri bo‘lib, uni chuqur o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot ushbu yo‘nalishda olib boriladigan keyingi izlanishlar uchun nazariy asos va metodologik yo‘nalish sifatida xizmat qilishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Eugene Nida (1993). Language, Culture and Translating. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, – P.200
2. Firdavs-ul-iqbol (nashr yili ko‘rsatilmagan). – Toshkent: Sharq, – B.300
3. Маслова В. (2001). Лингвокультурология. – Москва: Академия, – Б.208

4. Мусаев Қ. (2000). Тилшунослик назарияси асослари. – Тошкент: Фан, – Б.256

5. Очилов Э. (2010). Бадиий матн лингвистикаси. – Тошкент: Akademnashr, – Б.180

6. Peter Newmark (1988). A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, – P.292

7. Рахматуллаев Ш. (2006). Ҳозирги ўзбек адабий тили лексикологияси. – Тошкент: Университет, – Б.220

8. Саломов Ғ. (1983). Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, – Б.120

9. Usmanova G. Sh. (2025). “Firdavs ul-iqbol” asaridagi tarixiy-madaniy leksikani tarjima qilishda lingvomadaniy xususiyatlar. Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya jurnali | Journal of science, education, culture and innovation, 4(10), 130-134.

10. Usmanova G.Sh. (2026). Theoretical foundations of the concept of culture in modern translation studies. In International journal of artificial intelligence Vol. 6, Number 03, pp. 1080-1084.

11. Usmanova G.Sh. Theoretical foundations of the concept of culture in modern translation studies. https://doi.org/10.5281/zenodo.1926040

12. Wilhelm von Humboldt (1988). On Language: The Diversity of Human Language Structure. – Cambridge: Cambridge University Press, – p.326

**REFERENCES:**

1. Eugene Nida (1993). Language, Culture and Translating. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, – P. 200. (in English)

2. Firdavs-ul-iqbol (nashr yili ko‘rsatilmagan). – Toshkent: Sharq, – B. 300. (in Uzbek)

3. Maslova V. (2001). Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, – B. 208. (in Russian)

4. Musayev Q. (2000). Tilshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, – B. 256. (in Uzbek)

5. Ochilov E. (2010). Badiiy matn lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, – B. 180. (in Uzbek)

6. Peter Newmark (1988). A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, – P. 292. (in English)

7. Rahmatullayev Sh. (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikologiyasi. – Toshkent: Universitet, – B. 220. (in Uzbek)

8. Salomov G‘. (1983). Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, – B. 120. (in Uzbek)

9. Usmanova G. Sh. (2025). “Firdavs ul-iqbol” asaridagi tarixiy-madaniy leksikani tarjima qilishda lingvomadaniy xususiyatlar. Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya jurnali | Journal of science, education, culture and innovation, 4(10), 130-134. (in Uzbek)

10. Usmanova G.Sh. (2026). Theoretical foundations of the concept of culture in modern translation studies. In International journal of artificial intelligence Vol. 6, Number 03, pp. 1080-1084. (in English)

11. Usmanova G.Sh. Theoretical foundations of the concept of culture in modern translation studies. https://doi.org/10.5281/zenodo.1926040 (in English)

12. Wilhelm von Humboldt (1988). On Language: The Diversity of Human Language Structure. – Cambridge: Cambridge University Press, – p. 326. (in English)

# BADIIY MATNDAGI PARALINGVISTIK VOSITALARNING AYOL MUALLIF NUQTAYI NAZARIDAN IFODALANISHI
# REPRESENTATION OF PARALINGUISTIC DEVICES IN LITERARY TEXT FROM A FEMALE AUTHOR'S PERSPECTIVE
# ВЫРАЖЕНИЕ ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ЖЕНЩИНЫ-АВТОРА

https://zenodo.org/records/20666911

**Annazarova Tamilla Dilshod qizi**
*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti*
*Turkshunoslik oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi,*
*Tel.: +998 90-960-23-13*
*E-mail: aabuzuh18@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Elif Shafakning *Havva'nın Üç Kızı* romanida qo‘llanilgan paralingvistik vositalar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi badiiy matnda uchraydigan paralingvistik birliklarning (jest, mimika, intonatsiya, pauza va boshqalar) funksional-semantik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning qahramonlar nutqi va psixologik holatini ifodalashdagi rolini ochib berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan shakllantirilgan kartoteka materiallari asosida roman matnidan tanlab olingan misollar tizimli ravishda tahlil qilindi. To‘plangan birliklar G.E.Kreydlin klassifikatsiyasi asosida guruhlarga ajratilib, ularning badiiy nutqdagi qo‘llanish xususiyatlari o‘rganildi. Kontekstual va tavsifiy metodlar yordamida paralingvistik vositalarning emotsional-ekspressiv yuklamasi hamda kommunikativ vazifalari aniqlashtirildi.

**Kalit so‘zlar:** *tilshunoslikda gender, paralingvistika, kinetik vosita, fonetik xususiyat, grafik vosita.*

**Annotation.** This article analyzes the paralinguistic devices used in Elif Shafak's novel Havva'nın Üç Kızı. The main objective of the study is to identify the functional and semantic features of paralinguistic units (gestures, facial expressions, intonation, pauses, etc.) occurring in the literary text, as well as to reveal their role in conveying characters' speech and psychological states. In the course of the study, a systematic analysis was conducted based on a card index compiled by the author, examining examples selected from the text of the novel. The collected units were classified according to G. E. Kreydlin's system and grouped for further study of their functioning in literary discourse. Contextual and descriptive methods were applied to determine the emotional-expressive load and communicative functions of the paralinguistic devices.

**Keywords:** *gender in linguistics, paralinguistics, kinetic device, phonetic feature, graphic device.*

**Аннотация.** В данной статье анализируются паралингвистические средства, используемые в романе Elif Shafak «Havva'nın Üç Kızı». Основная цель исследования заключается в выявлении функционально-семантических особенностей паралингвистических единиц (жестов, мимики, интонации, пауз и др.), встречающихся в художественном тексте, а также в раскрытии их роли в передаче речи персонажей и их психологического состояния. В ходе исследования на основе картотеки, сформированной автором, был проведён системный анализ примеров, отобранных из текста романа. Собранные единицы были классифицированы по системе G. E. Kreydlin и распределены по группам с последующим изучением особенностей их функционирования в художественной речи. С помощью контекстуального и описательного методов были определены эмоционально-экспрессивная нагрузка и коммуникативные функции паралингвистических средств.

**Ключевые слова:** *гендер в лингвистике, паралингвистика, кинетическое средство, фонетическая особенность, графическое средство.*

## KIRISH

Bugungi kunda gender tadqiqotlar fanlararo soha bo‘lib, ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, tilshunoslik va boshqa bir qator madaniyat tuzilmasini o‘rganuvchi fanlar bilan bog‘liqdir. Gender ijtimoiy konstrukt sifatida, ayni paytda til yordamida jamiyatni shakllantiradi (Бенвенист Э., 1974). Bu tadqiqot sohasi tilshunoslikda borgan sari ko‘proq diqqatni jalb etmoqda. Bu sohadagi ilk tadqiqotlar g‘arb tilshunosligida yaratilgan va ayollar hamda erkaklar nutqining birinchi sistem tavsifi german va roman tillari guruhiga kiruvchi tillar asosida amalga oshirilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Gender tadqiqotlar – ilmiy fan olamidagi yangi yo‘nalish hisoblanadi. Bu tadqiqotlar xususida fikr yuritgan olimlarga V.V.Ganina (2005), G.E.Kreydlin (2002), A.V.Kirillina (1999) va boshqalar kiradi. Bunday tadqiqotlar markazida jamiyatning ayollarga va erkaklarga bo‘lgan munosabatining madaniy, ijtimoiy va til omillari, u yoki bu jinsga taalluqlilik bilan bog‘liq individlar xulqi, harakati, erkaklar va ayollarning xususiyatlari haqidagi stereotip tasavvurlar turadi. Erkaklar va ayollarning xatti-harakatlaridagi farq aniq ko‘rinib turadi. Bu farq turli madaniyatlar vakillariga ham taalluqlidir. Buning sababi quyidagilarda kuzatiladi. Birinchidan, erkaklar va ayollarning vujudining biologik tuzilishi aprior farqlarni bildiradi.

Masalan, ayollar va erkaklar ovozining fonetik xususiyatlari – tembr,

diapazon; ayollar va erkaklar tanasining o‘ziga xos turishi, harakatlari farqlanadi (Горелов И.Н., 1991). Ikkinchidan, erkaklar va ayollarning muloqotidagi jinsiyatga xos farqlar mavqe: rol, motivatsiya, me'yoriy kutishlar, stereotiplar va qoliplar, preferentsiya va boshqalar muhim o‘rin egallaydigan ijtimoiy va interaktiv kinetik o‘zgarishlar vaziyatida yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Insonning jamiyatdagi o‘rni, ayolning noverbal xulqiga oid stereotip tasavvurlar, “noto‘g‘ri” imo-ishora, “noto‘g‘ri” nigohdan saqlanish bo‘yicha ta'qiqlar sababli ayollarning xatti-harakatlaridagi tortinchoqlik, erkin emaslik, harakatlarining cheklanganligi – ularning hammasi yuqorida ko‘rsatilgan o‘zgarishlar bilan murakkab aloqaga kirishadi deb taxmin qiladilar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda asosiy metod sifatida tavsifiy (deskriptiv) va tasnifiy (klassifikatsion) yondashuvlardan foydalanildi. Paralingvistik vositalar G. Kreydlin tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiya asosida guruhlarga ajratildi va ularning funksional-semantik xususiyatlari aniqlab berildi. Shuningdek, kontekstual tahlil metodi orqali ushbu birliklarning badiiy matndagi ma’no hosil qilishdagi roli, emotsional-ekspressiv yuklamasi va kommunikativ vazifalari o‘rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

G.Ye.Kreydlinning tasnifi kinetik paralingvistik vositalarga oid bo‘lib, olim bu birliklarni kinema deb atagan (Крейдлин Г. Е., 2004).

Biz esa ishimiz davomida paralingvistik vositalarni tahlil qilishda mazkur birliklarni izohlovchi birlik deb atashni ma'qul ko‘rdik. Mazkur izohlovchi birliklar to‘rt pragmatik nuqtayi nazardan tavsiflanishi mumkin, ya’ni “qahramon va qahramon” , “muallif va obyekt”, “qahramon va obyekt”, “muallif va qahramon” o‘rtasidagi munosabatlar. Quyida mavzudan kelib chiqib “muallif-qahramon” munosabati jihatidan tahlil amalga oshiriladi. Turk tilidagi paralingvistik vositalarni va ularning gender xususiyatlarini o‘rganish uchun Elif Shafaqning “Havva’nın üç kızı” romani manba sifatida tanlandi (Shafaq E., 2016). Manbadan jami 567 ta paralingvistik vosita ishtirokidagi izohlovchi birliklar to‘plandi va quyidagi holat ma'lum bo‘ldi: fonatsion paralingvistik vositalar – 124 ta; kinetik paralingvistik vositalar – 310 ta; grafik paralingvistik vositalar - 23 ta. Tadqiqotimizdagi barcha misollar so‘zma-so‘z tarjima qilinib, bundan har bir so‘zning asl ma’nosini tushunish maqsadi ko‘zlangan. Bu izohlovchi birliklar asarning barcha qahramonlari va personajlari uchun xos bo‘lgan harakatlarni ifoda etadi. Shu bilan birga, romanning bosh qahramonlari asosan ayollar bo‘lib, erkak personajlar ayollarning hayotini ochib berish, xarakterini tavsiflash uchun kiritilgan. Shuning uchun roman muallifining ayol ekanligi diqqatga olinishi maqsadga muvofiq.

“Muallif-qahramon” munosabati talqinida izohlovchi birliklarning gender nuqtayinazaridan o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, izohlovchi birliklarning katta qismini universal izohlovchi birlik deb nomlash mumkin. Chunki bular ham erkak, ham ayol harakatini ifodalaydi. Yuz ifodasi, harakatning ayol yoki erkakka xosligini ikki yo‘l bilan aniqlash mumkin (Горелов, И.Н., 2007). Ularga qaramoq, o‘tirmoq, turmoq, yurmoq kabi harakatlarni ifodalaganida muallif ayol yoki erkak tomonidan bajarilganini ko‘rsatish uchun qo‘shimcha izohlar, tasvirlardan foydalangan. Bundan tashqari, ishora qiluvchi so‘zlar yoki birikmalar bo‘lmagan holda, harakatning ayol yoki erkak tomonidan bajarilgani matndan aniqlashadi.

To‘plangan jami 576 ta izohlovchi birliklarning 310 tasi kinetik paralingvistik vosita ishtirokidagi izohlovchi birliklar bo‘lib, G.E.Kreydlin (Крейдлин Г.Е., 2004) ning tasnifiga ko‘ra, romanda uchragan kinetik izohlovchi birliklar – kinemalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Emblemali izohlovchi birliklar:

1.1.Kommunikativ izohlovchi birliklar - 45 ta.

1.2.Simptomatik izohlovchi birliklar - 135ta.

1.3.Illyustrativ izohlovchi birliklar - 101 ta.

1.4. Regulyator izohlovchi birliklar - 29 ta.

Emblemali kinemalarning ikki turlari mavjud bo‘lib, kommunikativ va simptomatik.

Kommunikativ emblemali kinemalar Elif Shafaq romanida simpomatik emblemali kinemalarga qaraganda kamroq holatlarda uchradi (Shafaq E., 2016). Kommunikativ emblemali kinemalar bir odamning ikkinchi bir odamni suhbatga kirishishi, suhbatni tugatishi, davom ettirishi uchun turtki bo‘ladigan harakatlarni ifodalaydi.

Masalan, Elif Shafaqning “Havva’nın üç kızı” romanidan olingan quyidagi parchada to‘rtta paralingvistik vositalar qo‘llangan bo‘lib, ularning barchasi kommunikativ emblemali kinemalardir. Bu parchada o‘g‘riga duch kelgan va u bilan kurashdan omon chiqqan Peri uyga kelganida, eri bilan uchrashish va mehmonlarni qarshilash jarayonidagi harakatlarini tavsiflovchi kinemalar kommunikatsiyani davom ettirishga qaratilgan:

*Şakayı itici bulduğu halde gülümsedi Peri. Hem elinin hem elbisesinin halinden dolayı bir açıklama yapma gereği duydu. “Yolda ufak bir kaza atlattık da.” Adnan’ın kaşları endişeyle çatıldı. “Kaza mı?” “Önemli bir şey değil canım” derken kocasının dirseğine dokundu Peri - daha fazla soru sormaması için bir işaret. Işadamına dönerek, “Ne kadar şahane bir eviniz var” dedi nazikçe.*

Hazilni irganch deb o‘ylasa ham kulumsiradi Peri. Ham qo‘li, ham kiyimining ahvolidan bir izoh berish kerakligini his qildi. “Yo‘lda bir falokatdan qutuldik”.

Adnanning qoshlari tashvish bilan chimirildi. “Falokatmi?”. “Ahamiyatli bir narsa emas, jonim” der ekan, erining tirsagiga tegindi Peri – ortiqcha savol bermasligi uchun bir ishorat. Ish odamiga o‘girilib, “Qanday bir shohona uyingiz bor” dedi nazokat bilan.

Perining kulumsirashi, unga aytilgan qo‘pol hazilga qaramay, suhbatni ma'qullashi va davom ettirishi ma'nosini anglatgan. Bir falokatga uchraganini aytganida, Perining eri Adnanning “qoshlarining chimirilishi” xotiniga bo‘lgan savol – nima bo‘lganini bilishiga oid savolni bildiradi. Peri erining tirsagiga teginishi bu mavzuni to‘xtatishga undash harakatini bildiradi. So‘ng Perining mehmonga tomon o‘girilishi uning suhbatni davom ettirish istagini bildiruvchi paralingvistik vositadir. Qayd etilgan kinemalar ayol muallif tomonidan er-xotinning o‘zaro munosabatini tasvirlashga qaratilgan. Bu o‘rinda biz ham erkak, ham ayolga xos harakatlarni ifodalovchi kinemalarni ko‘ramiz. Misol uchun, gülümsedi, dirseğine dokundu, nazikçe dönerek kinemalari ayolning harakatlarini tavsiflaydi. Bularning birinchisi universal kinemadir. Ammo keyingi ikkita kinema, tirsagiga teginmoq va nozik harakat bilan o‘girilmoq ayol qahramon harakatini tasvirlagan. nazikçe dönerek – nozik bir harakat bilan o‘girilmoq birikmasidagi “o‘girilmoq” kinemasi aslida ham erkakning, ham ayolning harakatini bildiradi. Lekin ayol muallif qo‘llagan nazikçe ravishi bu harakatning ayol tomonidan bajarilganligini bildiradi. Umuman olganda, muallif ayol bo‘lganligi va asarning bosh qahramonlari ayol bo‘lganligi sababli, ayollarning harakatlari va yuz ifodalari orqali ularning tuyg‘ ulari va munosabatlarini bildirish holatlari batafsil ekanligi kuzatildi.

Açılmış gözler, ağzı açık kinemalari bo‘lib şaşkınlık ve utançtan fal taşı gibi, bir karış so‘zlari bu harakatlarni izohlovchi vositalardir. Uyat va hayratdan, fol toshiday ko‘zning katta ochilishi, og‘ izning bir qarich ochilishi ayollarga xos harakatni izohlashga xizmat qilgan. Bu izohlovchi so‘zlarsiz açılmış gözler, ağzı açık kinemalari universal kinema bo‘lib xizmat qiladi.

Lablarni tishlash harakati ayollarga xos harakat bo‘lib, odatda, biron-bir yanglish so‘z aytganda, yoki o‘zini noto‘g‘ri bir fikrni aytib yuborgan deb hisoblagan ayollar, qizlar tomonidan bajariladigan harakatdir. Keyingi misolda qizi bilan tortishayotgan Perining “mening mashinam” deb yuborganini yanglish ekanligini his qilganligini ko‘rsatish uchun “lablarini qayg‘u bilan tishladi” kinemasidan foydalanilgan.

Quyidagi misolda Peri va uning qizi tomonidan ichimlikning ichish harakati tavsiflangan. Peri o‘zining ichimligining tez ichib bitirgan holda, uning qizi Deniz “yarali qush kabi og‘ir-og‘ir qultumlab uzatgandan uzatib ichayotgan edi.” Bu tasvir orqali muallif Denizni sevimli ichimligini onasi kabi tez ichmayotganini,

yaralangan qush kabi arang, og‘ir, qultum-qultum ichayotganini, aniqrog‘i, icha olmay uzundan-uzun cho‘zayotganini tasvirlar ekan, ayollarga xos bo‘lgan harakat – noroziligini ifodalashning usulini qo‘llagan. Ya’ni ayollar muloqotda vaqtni cho‘zish, o‘zi uchun o‘ylash, yoki bir qarorga kelish uchun hattoki eng sevgan ichimligini ham qiynalib ichishi harakati tasvirlangan. Muallif ayol qishi bo‘lganligi uchun ham ayol qahramon harakatini bu qadar teranlik bilan anglagan va tasvirlagan. Chunki ayol muallif talqinidagi ayol qahramonlar tuyg‘ ularining harakatlari orqali ifoda etilishi alohida diqqat bilan tasvirlab bera olgan. Erkak muallif belki bu o‘rinda bu qadar ayollar tuyg‘usi va harakati o‘rtasidagi uyg‘unlikni chizib bera olmas edi.

Bağırdı – baqirdi va sesi çatladı panikten – ovozi panikadan yorildi fonatsion paralingvistik vositalari Perining sumkasining o‘g‘irlanishi paytidagi nutqini tavsiflash uchun ishlatilgan. Sumkasini mashinasidan o‘g‘ irlatgan Peri “o‘g‘rilar” deb baqiradi, “yordam qilinglar, sumkamni o‘g‘ irladilar, o‘g‘rilar” deyayotganida, “ovozi qo‘rquvdan chinqirganday” chiqqani izohlanadi:

*Neyse ki o şurada ışık yeşile döndü ve trafik, düğümü düzeltilmiş bahçe hortumundan fışkıran su gibi akmaya başladı. Peri tam ayağım gaz pedalına koyacakken arka kapının bir sustalı hızıyla açıhp kapandığını duydu. Çantasının, sicimle çekilir gibi arabadan ahnrverdiğiıı dikiz aynasından seyretti. “Hırsızlar! diye bağırdı Peri. Sesi çatladı panikten. “Yardım edin, çantamı çaldılar! Hırsızlar!*

Nima bo‘lmagandayam, o‘sha payt svetaforning yashil rangi yondi va mashinalar oqimi tuguni tuzatilgan bog‘ shlangidan pishqirgan suv kabi oqa boshladi. Peri endi oyog‘ ini gaz pedaliga qo‘yay deganida, orqa eshikning bir zumda ochilib yopilganini eshitdi. Sumkasining kanop bilan tortilgan mashinadan olinganini mashinaning oynasidan kuzatdi. “O‘g‘rilar! Deya baqirdi Peri. Ovozi panikadan yorildi. “Yordam qiling, sumkamni o‘g‘irladilar! O‘g‘rilar!”

Mazkur fonatsion paralingvistik vositalarning birinchisi universal kinema, ya'ni ham erkak, ham ayol uchun xos. Ikkinchisi faqat ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan fonatsion paralingvistik vositadir. Ma'lumki, biror holatdan kuchli ta'sirlanish ayollarga xos. Shuning uchun ayol muallif Perining xatti-harakatlarini tasvirlash uchun “panika” so‘zini ishlatadi. Ayollarga xos bo‘lgan qo‘rqishning eng yuqori darajasini bildirgan “panika” so‘zi ham ayol muallif talqinida, ham ayol qahramon harakatida ifodalangan.

Ikkinchi izohlovchi birliklar turi illyustrativ bo‘lib, ayollarga xos harakatlarni ifodalovchi illyustrativ yoki ko‘rgazmali kinemalar asosan ayol muallif talqinida uchraydi. Illyustrativ kinemalar, avval ta'kidlanganidek, so‘zlovchilar, muloqotga kirishuvchilarning gapini, nutqini to‘ldirish uchun ishlatiladigan harakatlarni o‘z

ichiga oladi. Romanning bosh qahramonlari ayollar bo‘lgani uchun ayollarni xatti-harakatini ifodalovchi izohlovchi birliklar faol qo‘llangan.

Masalan, başından savmak iborasi “bir istekte bulunan kimseyi bir bahane bularak yanından uzaklaştırmak, onun isteğini yerine getirmemek” – bir istakda bo‘lgan kishini bir bahona bilan yonidan uzoqlashtirmoq, uning istaganini bajarmaslik” degan ma'noni bildiradi. Roman qahramoni Peri sigareta chekadi, qizi sigareta chekishiga qarshi:

*Bu yaşta çocuklar, sigara içenlere tabutlarından kaçmış vampir muamelesi yapıyorlardı. Deniz birkaç hafta evvel okulda sigaranın zararlarını anlatan bir sunum yapmış, tam not almıştı. O gün bugündür daha da büyük bir heves ve azimle her türlü tütüne (bilhassa annesinin sigara içmesine) savaş açmıştı. “Tamam, tamam” dedi Peri, eliyle başından savar gibi bir hareket yaparak.*

Bu yoshdagi bolalar sigareta chekkanlarga tobutlaridan chiqqan vampirlar muaomalasini qilishardi. Deniz bir necha hafta avval maktabda sigaretaning zararlarini anglatuvchi bir taqdimot qilgan, yuqori baho olgan edi. O‘sha kundan beri yanada katta bir havas va azm bilan har turli tutunga (ayniqsa, onasining sigareta chekishiga) qarshi urush ochgan edi. “Bo‘pti, bo‘pti” dedi Peri qo‘li bilan boshidan uzoqlashtirar kabi harakat qilib.

Peri qizining istagiga, turib olganiga qaramay, sigareta chekishni tashlashni istamayotganini ko‘rsatish uchun başından savmak iborasi ishlatilgan. Peri tilida “bo‘pti, bo‘pti” desa-da, harakati bilan bu javobini qo‘llamasligini ifodalaydi. Ya'ni başından savmak iborasi bu holda illyustrativ kinema vazifasini bajaradi. Genderlik nuqtayi nazaridan bu kinema universal kinema. Ya'ni erkaklar ham shu harakatni bajarishi mumkin. Bu kinemaning ayolga xos ekanligini faqat matndan, ayolga nisbatan qo‘llanilganidan bilinadi.

O‘z xayollari bilan chalg‘igan Peri ko‘ylagiga qahva to‘kib yuboradi. Ayollar uchun ko‘ylagiga biror narsaning to‘kilishi, dog‘ bo‘lishi nihoyatda yoqimsiz holat. Ayniqsa, qahva dog‘ ining yuvganda ham chiqmasligi, ko‘ylakning qimmatligiga achinish, yaxshi ko‘rgan ko‘ylagidan ajralish qo‘rquvi sababli bu holatda darrov baqirishadi. Keyingi asar parchasida qo‘llangan kinema chinqirish, dahshat ichida boqish ayollarga xos bo‘lgan holatni ifodalayapti. Bu kinema Perining nutqini xarakterlash uchun ishlatilgani sababli, illyustrativ kinemalar hisoblanadi:

*Böylece görmezden gelmesi gereken erkek sayısı üçe çıkan Peri, telaşla yana döndü. Ne var ki arada duran kahve bardağım unutmuştu. Elinin çarpmasıyla içindeki tüm sıvının üstüne dökülmesi bir oldu. “Ahhh, yok artık!!!” diye çığlık attı Peri, elbisesine yayılan lekeye dehşet içinde bakarak.*

Bunday ko‘rmagandan ko‘rinishi kerak bo‘lgan erkaklarning soni uchtaga chiqqanida Peri shoshilib yon tarafga burildi. Nima bo‘ldi-yu, orada turgan qahva stakanini unutdi. Qo‘lining tegishi birdan ichidagi butun suyuqlikning ustiga to‘kilishi bir bo‘ldi. “Ahhh, yo‘q endi!!! deya chinqirdi Peri ko‘ylagiga yoyilgan dog‘ ga dahshat bilan qarar ekan.

Qaramoq, boqmoq harakati universal kinema, bu o‘rinda biz voqeaning tasviridan ayolga xos ekanligini matndan bilamiz. Voqeani tasvirlayotgan muallif ayol bo‘lganligi sababli bu holatga alohida e’tibor bergani anglashiladi. Negaki, odatda erkaklar ustiga biror narsaning to‘kilishini bunchalik jiddiy qabul qilishmaydi.

Elif Shafaq romanida qahramon nutqida qo‘llangan grafik paralingvistik vositalar so‘zlar va jumlalarning egik shaklda yozilishida kuzatiladi. Bunday misollar 23 holatda uchradi. Romanda qahramonning kundaligidagi fikrlari, yozgan maktublari, qahramonlarning ichki nutqi, boshqa odamlarning fikrlari o‘rnak sifatida keltirilganida, shuningdek, kitoblar nomlari, ba’zi atoqli otlar (mashhur marka nomlari) egik harflarda, ya’ni kursivda yozilgan. Masalan, quyidagi misolda Perining ichki nutqi kursivda ajratib yozilgan: “Üzgünüm” diyecekti neredeyse Peri, özür dileyecekti adamdan; boğazı düğümlendi. Tam o sırada, sanki koşullanmış gibi, eskilerden bir ses duyar gibi oldu; hem sevecen hem azarlayan bir ses. *Gereksiz yere özür diliyorsun her zaman, bunu yapma.*

“Xafaman”, demoqchi edi Peri, nima bo‘lgandayam uzr so‘ramoqchi edi, tamog‘i tugunlandi. Aynan o‘sha paytda, go‘yoki shartmish kabi, eskilardan bir ovoz eshitganday bo‘ldi, ham sevguvchi, ham ozorlovchi ovoz. Keraksiz yerga uzr so‘rayapman har doim, bunday qilma.

Keyingi misolda Perining kundaligiga yozilgan fikri egik shrift (kursiv)da berilgan:

*O gece, Peri yatağında oturup güncesini açtı ve ilk notu nu yazdı: Galiba Rab rengârenk, binlerce parçası var. Kimine sorsan, sevgi, merhamet, rahman dolu; kimine sorsan öfkeli, mesafeli, kahredici. Bence Tanrı bir Lego seti. Herkes kendine göre inşa ediyor sanki...*

O‘sha kecha Peri yotog‘ida o‘tirib kundaligini ochdi va ilk yozuvini yozdi: Rabning rango-rang, minglarcha parchasi bor, shekilli. Ba’zisidan so‘rasang, sevgi, marhamat, rahmat to‘la, ba’zisidan so‘rasang, g‘azabli, masofali, qahrli. Menimcha, Tangri bir lego to‘plami. Hamma uni o‘ziga qarab insho etadi. Masalan:

*Böylece Peri çocukluğu boyunca, babasının en sevdiği kupadan portakal suyu içerek yanı başında oturdu her akşam. Kupanın bir yanında Atatürk’ün imzası,*

*diğer yanında bir sözü vardı: "Medenî dünya çok ileridedir. Buna yetişmek, o medeniyet dairesine dahil olmak mecburiyetindeyiz".*

Shu tariqa, Peri bolaligi bo'yicha otasining eng sevgan krujkasidan apelsin suvi ichib yoniboshida o'tirardi har oqshom. Krujkaning bir tomonida Ataturkning imzosi, boshqa tomonida bir gapi bor edi: "Madaniy dunyo juda ilgaridadir. Bunga yetishmoq, o'sha madaniyat doirasiga oid bo'lmoq majburiyatidamiz".

Romanda qo'llanilgan fonatsion paralingvistik vositalar muallif talqiniga ko'ra asar qahramonlarining gapirish tarzi, ovozning baland-pastligi, qalin-ingichkaligi va boshka xarakteristikalarini ifodalashga xizmat qiladi.

Keyingi misolda qo'llangan hıçkırıklar arasında, yükselip alçalıyordu sesi jumlasi ham fonatsion paralingvistik vosita bo'lib, asar qahramoni Perining onasi Selmaning holatini anglatishga xizmat qilgan:

*Selma ağlamaya başladı. Hıçkırıklar arasında, yükselip alçalıyordu sesi. "Çarpıldık kesin, bütün aile. Günahlarımızın bedeli bunlar."*

Selma yig'lay boshladi. Qichqiriqlar orasida, ovozi ko'tarilib pasayardi. "Urildik biz, butun oila. Gunohlarimizning badali bular".

Ushbu misolda ajratib ko'rsatilgan paralingvistik vosita aslida sesi yükselmek – ovozi balandlashmoq, sesi alçalmak – ovozi pasaymoq shakliga ega. Bu paralingvistik birliklar ayollarga ham, erkaklarga ham qo'llanilishi mumkin. Biroq matnda keltirilgan hıçkırıklar arasınida – qichqiriqlar orasida izohi harakatning ayol qahramon tomonidan bajarilayotganini ko'rsatishga xizmat qilgan.

Masalan, quyidagi misolda so'zlovchining qiziqmaganligini ko'rsatish uchun qo'llanadigan Vay be undoshi qo'llangan:

"*Vay be!" dedi Deniz, ilgilenmediği şeyler karşısında verdiği tepkiyi göstererek.*

"Voy-bo'!" dedi Deniz qiziqmagan narsalariga nisbatan o'zini odatdagi munosabatini ko'rsatib.

Ohoo undovi so'zlovchining bir narsani yoqtirganligini ko'rsatish, kuchaytirib, ta'kidlab ko'rsatish uchun ishlatilgan:

"*Bize katılsana." "Ohoo, bizi dinlemiyor bile" dedi reklamcı kadın.*

"Bizga qo'shilsang-chi". "O'h-o', bizni eshitmayapti ham", -dedi reklamchi ayol.

Aa undovi "hayır, yok, olmaz, istemiyorum" – yo'q, bo'lmaydi, istamayman degan mazmunni ifodalaydi:

*"Aa, gerçekten mi?" dedi işadamının karısı.*

"Aa, haqiqatdan hammi?" dedi ishbilarmonning xotini.

Ay undov so‘zi birdaniga his etilgan og‘riq, hayrat, qo‘rquv, sevinch kabi tuyg‘ularni bildiradi. Quyidagi misolda bu undov so‘zi hayrat va sevinchi ifodalagan:

*“Ay ne ketum kadınsın, ilahi! Neden hiç söylemedin?”*

“Ay, qanaqa og‘zi mahkam xotinsan, Allohim! Nega hech gapirmading?”

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, turk badiiy matnlarida paralingvistik vositalar muhim stilistik va kommunikativ funksiyani bajaradi. Ushbu vositalar nafaqat nutqni to‘ldiradi, balki qahramonlarning psixologik holatini, emotsional kechinmalarini va muallifning estetik niyatini ifodalashda asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Paralingvistik birliklar (jest, mimika, intonatsiya, pauza va boshqalar) badiiy matnda yashirin ma’no qatlamlarini ochishda, subtekstni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

G.Kreydlin klassifikatsiyasi asosida olib borilgan tahlil ushbu vositalarni tizimli ravishda guruhlash va ularning funksional-semantik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, turk badiiy matnlarida paralingvistik vositalar ko‘proq emotsional-ekspressiv yuklama bilan qo‘llanadi va dialogik nutqda ayniqsa faol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bu vositalar qahramon xarakterini individuallashtirish va kommunikativ vaziyatni jonlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, paralingvistik birliklarning qo‘llanishi muallifning individual uslubi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, turli yozuvchilarda ularning ifodalanish darajasi va shakli sezilarli farqlanishi kuzatildi. Bu esa ularni stilistik tahlil obyekti sifatida o‘rganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бенвенист Э. Общая лингвистика / Э. Бенвенист. М.: Прогресс, 1974. 70-с

2. Верещагин, Е.М. О своеобразии отражения мимики и жестов вербальными средствами (на материале русского языка) [Текст] / Е.М.

3. Верещагин, В.Г. Костомаров // Вопросы языкознания. П1981.№ 1. С. 36 47.

4. Ганина В.В. Гендерный подход в исследовании невербальной коммуникации. 104-b.

5. Горелов, И.Н. Безмолвной мысли знак: Рассказы о невербальной коммуникации / И.Н. Горелов, В. Енгалычев. – М.: Молодая гвардия, 1991. – 239 с.

6. Горелов, И.Н. Невербальные компоненты коммуникации / И.Н. Горелов. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007. –140 с.

7. Горелов, И.Н. Паралингвистика: прикладной и концептуальный аспекты / И.Н. Горелов // Национально-культурная специфика речевого поведения. – М.: Наука, 1977. – С. 96-120.

8. Колшанский Г.В. Паралингвистика. – М.: Наука, 1984. – 80 с.

9. Колшанский, Г.В. Коммуникативная функция и структура языка / Г.В. Колшанский. – М.: Наука, 1984. –175 с.

10. Колшанский, Г.В. Контекстная семантика / Г.В. Колшанский. – М.: URSS, 1980. – 150 с.

11. Крейдлин Г.Е. Мужчины и женщины в невербальной коммуникации. – М., 2005. – 45с.

13. Elif Shafaq. Istambul, 2016. Doğan kitap: – s. 424

**REFERENCES:**

1. Benvenist E. (1974) Obshchaya lingvistika / E. Benvenist. – M.: Progress. 70-s (in Russian)

2. Vereshchagin, E.M. (1981) O svoeobrazii otrazheniya mimiki i zhestov verbalnymi sredstvami (na materiale russkogo yazyka) [Tekst] / E.M. Vereshchagin, V.G. Kostomarov // Voprosy yazykoznaniya. № 1. S. 36–47 (in Russian)

3. Ganina V.V. (104-b) Gendernyy podkhod v issledovanii neverbalnoy kommunikatsii (in Russian)

4. Gorelov, I.N. (1977) Paralingvistika: prikladnoy i kontseptualnyy aspekty / I.N. Gorelov // Natsionalno-kulturnaya spetsifika rechevogo povedeniya. – M.: Nauka. S. 96–120 (in Russian)

5. Gorelov, I.N. (1991) Bezmolvnoy mysli znak: Rasskazy o neverbalnoy kommunikatsii / I.N. Gorelov, V. Engalychev. M.: Molodaya gvardiya. – 239 s. (in Russian)

6. Gorelov, I.N. (2007) Neverbalnye komponenty kommunikatsii / I.N. Gorelov. M.: Izd-vo LKI. – 140 s. (in Russian)

7. Kolshanskiy G.V. (1984) Paralingvistika. M.: Nauka. – 80 s. (in Russian)

8. Kolshanskiy, G.V. (1980) Kontekstnaya semantika / G.V. Kolshanskiy. M.: URSS. – 150 s. (in Russian)

9. Kolshanskiy, G.V. (1984) Kommunikativnaya funktsiya i struktura yazyka / G.V. Kolshanskiy. M.: Nauka. – 175 s. (in Russian)

10. Kreydlin G.E. (2002) Neverbalnaya semiotika. Moskva: Novoe literaturnoe obozrenie. S. 111–112 (in Russian)

11. Elif Shafaq. Istambul, 2016. Doğan kitap: – s. 424 (In Turkish)

# TURK TILIDA RANG BILDIRUVCHI SIFATLARNING ORTTIRMA DARAJA SHAKLLARI

# SUPERLATIVE DEGREE FORMS OF COLOR ADJECTIVES IN THE TURKISH LANGUAGE

# ФОРМЫ ПРЕВОСХОДНОЙ СТЕПЕНИ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ ОБОЗНАЧАЮЩИХ ЦВЕТА В ТУРЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

https://zenodo.org/records/20666939

**Selma Ozan Yujel**

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti*

*mustaqil izlanuvchisi,*

*Oriental universiteti tillar-2 kafedrasi Stajyor-o'qituvchisi*

Tel.:+998 97-726-94-96

*E-mail:* ***selmaozan702@gmail.com***

***https://orcid.org/0009-0009-0017-1321***

**Annotatsiya**. Ushbu maqola turk tilidagi rang bildiruvchi sifatlarning orttirma darajasi (pekiştirme) shakllarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada rang sifatlarining orttirma darajasi hosil qilishning birinchi usuli sifatning oldiga /m/, /p/, /r/, /s/ undoshlari qo'shilishi orqali (fonetik-morfologik vosita), ikkinchi usuli esa so'z takrorlanishi (reduplikatsiya) va /mi/ so'roq yuklamasi orqali amalga oshishi misollar bilan ko'rsatildi. Shuningdek, turk tilining zamonaviy badiiy matnlaridan misollar keltirilib, rang leksemalarining ma'no intensivligi va nutqdagi tasviriyligi izohlangan. Tadqiqot natijalari turk tilida orttirma darajadagi rang sifatlarini shakllantirishning morfologik, fonetik va sintaktik imkoniyatlarini tushunishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** *Rang, sifat, orttirma daraja, pekiştirme, fonetik-morfologik vosita, reduplikatsiya, mi so'roq yuklamasi.*

**Annotation.** This article is dedicated to the study of the intensive degree (pekiştirme) forms of color adjectives in the Turkish language. The article demonstrates, with examples, that the first method of forming the intensive degree involves adding the consonants /m/, /p/, /s/ before the adjective (a phonetic-morphological device), while the second method is realized through word repetition (reduplication) and the /mi/ interrogative particle. Additionally, historical and contemporary Turkish texts are analyzed, explaining the semantic intensity of color lexemes and their expressiveness in speech. The results of the study contribute to understanding the morphological, phonetic, and syntactic mechanisms for forming intensive color adjectives in Turkish.

**Key words:** *Color, adjective, comparative degree, intensification, phonetic-morphological device, reduplication, "mi" interrogative particle.*

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению форм усиленной степени (pekiştirme) прилагательных цвета в турецком языке. В статье с примерами показано, что первый способ образования усиленной степени осуществляется путём добавления согласных /m/, /p/, /s/ перед прилагательным (фонетико-морфологический приём), а второй способ реализуется через повторение слова (редупликация) и вопросную частицу /mi/. Кроме того, анализируются исторические и современные турецкие тексты, поясняя семантическую интенсивность цветовых лексем и их изобразительную выразительность в речи. Результаты исследования способствуют пониманию морфологических, фонетических и синтаксических механизмов формирования усиленной степени прилагательных цвета в турецком языке.

**Ключевые слова:** *Цвет, прилагательное, степень усиления, усиление, фонетико-морфологическое средство, редупликация, вопросительная частица «ми».*

## KIRISH

Har bir madaniyatda ranglar muayyan ramziy va semantik ma’nolarni ifodalaydi. Turli madaniyatlarda ranglarning kasb etgan ma’nolari hamda ularning tarixiy jarayon davomida qanday o‘zgarib borganini aniqlash uchun madaniy merosga oid yozma va og‘zaki manbalarni tarixiy davrlardan boshlab hozirgi davrgacha izchil tahlil qilish zarur. Turklar qadimdan ranglarga farqli ma’nolar yuklagan. Shu bilan birga rang mavzusi turli jabhada tadqiq etilishi mumkin bo‘lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ranglar ijtimoiy hayotda ramz sifatida milliy madaniyatni o‘zida aks ettirar ekan, jamiyatdagi shaxslarning his-tuyg‘ularini yetkazib berishda, ifodalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, rang bildiruvchi leksemalarning orttirma daraja shakllari nutqda hissiyot va tasviriylikning intensivligini oshirish orqali semantik va ekspressiv effekt yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur maqolada turk tilidagi rang bildiruvchi leksemalarning orttirma darajalarini fonetik, morfologik, sintaktik usullarda hosil qilinishini dalillash maqsadida turk tilidagi rang bildiruvchi leksemalarning orttirma darajalarini o‘rganish vazifasi qo‘yilgan. Tilshunoslikda rang bildiruvchi leksemalarning lingvistik tabiati, nutqda qo‘llanilish darajasi tadqiq etilgan. Chunonchi, ingliz tilida rang bildiruvchi leksemalarning lingvistik tahlili N.Kemertelidze, M.Giorgadze (2023), N.Hansen, E.Chemla (2017) kabilar tomonidan olib borilgan. Shu bilan birga, L.Cheung, L.Zhang (2016) maqolasi ingliz tilidagi sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalari uchun sintetik (-er, -est) va analitik (*more, most*)

shakllar o‘rtasidagi tanlov nimaga bog‘liq ekanini tushuntirishga qaratilgan. Turk tilshinosligida Şahin H., Arzybaeva Z (2018) rang nomlarining orttirma daraja hosil qilishi yuzasidan Qirg‘iz tili bilan Turk tilining qiyosiy tahlili olib borilgan. Y.Çürük esa turk tilidagi rang nomlari hamda rang leksemalariga qo‘shiladigan qo‘shimchalar tadqiqini olib borgan. O‘zbek tilshunosligida esa sifatlarda orttirma daraja tahlili A.Ibodullayeva., O.K.Xakimbayevalar tomonidan olib borilgan. Tadqiqot ishida ingliz va o‘zbek tili miqyosida sifat so‘z turkumining darajalanishi haqida ma’lumotlar berilib o‘tilgan. Rang fenomenining izohi sifatida hamda ranglarning plastik ko‘rinishdan tashqari madaniyatda ramziy ma’nolarni kasb etishini S.Y. Ozan (2025) o‘z tadqiqotlarida ta’kidlab o‘tgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola mavzusini yoritishda fonologik, morfologik,sintaktik va leksik-semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Turk tilida rang bildiruvchi leksemalarning sifat so‘z turkumi doirasida orttirma daraja hosil qilishini o‘rganish uchun mazkur tildagi asosiy ranglar ko‘rib chiqildi. Jadvallar asosida tahlili olib borildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Til inson tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy hodisadir.Til nutqni tashkil etib, fikr, his-tuyg‘u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimidir, shu bilan birga kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aralashuv, fikrlashuv quroli bo‘lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir (Hojiyev A., 2002:105). Har bir til o‘zining leksik va grammatik tizimi orqali borliqdagi predmet va hodisalarni ifodalaydi. Shu jihatdan sifatlar predmet belgisini bildiruvchi so‘zlar turkumi bo‘lib, tilning muhim so‘z turkumlaridan biridir (Hojiyev A.,2002:91). Qolaversa, ushbu termin turk tiliga arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, turk tilida ***önad*** deb yuritiladi. Biroq sifat termini önad terminiga nisbatan kengroq qo‘llaniladi (Hengirmen M.,1998:46). Shu bilan birga sifat predmetlarning turli belgilarini, xususan rang, hajm, shakl va sifat xususiyatlarini bildiradi.

Rang yakka o‘zi xabar berishi, xatti-harakatlarni boshqarishi va inson psixologiyasida kuchli ta’sirga ega bo‘lishi mumkin (Ozan S.Y., 2025y №6 (1) :97).

Rang Ötüken lug‘atida, 1. Bir manbadan yoki biror jismdan qaytgandan so‘ng ko‘zga keladigan yorug‘likning turli to‘lqin uzunliklariga bog‘liq holda ko‘zda hosil qiladigan ajratuvchi sezgi. 2. Bo‘yoq moddasi. 3. Kundalik tilda qora, oq va kulrangdan tashqari bo‘lgan spektr sezgilari sifatida keltirilgan bo‘lib, (Çağbayır Y., 2007:3955) turk tilida “renk” tarzida qo‘llanilgan ushbu termin fors tilidagi “rang” so‘zidan kelib chiqqan (Türkçe sözlük.,1983:988).

Shu bilan birga Turk tilining eski davrlarida rang so‘zi ***öng*** ( Ergin M., 2011:108) va ***tüs*** (Arat R.R.,1979: 1257) ko‘rinishlarida ifodalangan. Hozirgi kunga kelib mazkur so‘zlar Turk tilining faqat ayrim lahjalarida qo‘llaniladi (Vasiliev Y., 1995:221., Yudahin F., 1988:852).

Ranglar orqali ifodalanadigan ma’nolar insondan insonga o‘zgarsa-da, madaniyat va sivilizatsiya kontekstida bu mavzu bo‘yicha umumiy nuqtayi nazar shakllangan. Ushbu nuqtayi nazarlarning shakllanishiga irq, geografiya, iqlim sharoitlari, turmush tarzi, iqtisodiy sharoitlar, siyosat, tafakkur va e’tiqod kabi ko‘plab omillar ta’sir qiladi (Eren A., 2008:32). Ko‘plab jamiyatlarda ranglar ma’lum ma’nolarni anglatadi; masalan, qora rang odatda motamni bildiradi. Biroq, ba’zi Sharqiy Osiyo mamlakatlarida motam rangi qora emas, balki oqdir. Qizil rang ham odatda qon va urushni anglatadi (Aksan D., 2015:43).

Tabiatda ranglar nihoyatda xilma-xil bo‘lishiga qaramay, rangshunoslikda sariq, qizil va ko‘k ranglar asosiy ranglar sifatida e’tirof etiladi. Mazkur ranglarning asosiy ranglar deb belgilanishi ularning tabiatda nisbatan sof ko‘rinishda uchrashi bilan izohlanadi. Shuningdek, boshqa ko‘plab ranglar aynan shu uch rangning o‘zaro aralashuvi natijasida hosil bo‘lishi bilan tavsiflanadi (Kavasoğlu R., 2021:18).

Biroq qora va oq ranglar, ranglar tizimida alohida xususiyatga ega. Fizik jihatdan qaralganda, prizma yordamida oq nur ajratilganda turli ranglarga bo‘linadi. Shu sababli oq rang barcha ranglarning yig‘indisi sifatida talqin qilinadi va mustaqil rang sifatida emas, balki ranglar majmuasining birligi sifatida qaraladi. Qora rang esa, aksincha, barcha ranglarni yutib yuborishi bilan tavsiflanadi; ya’ni u yorug‘likning yo‘qligi yoki ranglarning mavjud emasligini ifodalaydi (Kavasoğlu R., 2021:21).

Biror predmet yoki mavjudot belgi-xususiyatlarining ustunligi hamda eng yuqori darajasi orttirma daraja **(pekiştirme)** sifatlari yordamida ifodalanadi (Hengirmen M., 1998:134). Turk tilida rang bildiruvchi sifatlar orttirma daraja shaklida turli morfologik va leksik vositalar orqali ifodalanadi. Ushbu jarayonda eng ko‘p uchraydigan usullardan biri sifatning birinchi bo‘g‘iniga undosh qo‘shish orqali hosil qilinadigan pekiştirme shakllaridir.

Ilk navbatda turk tilida sifatlarda orttirma daraja hosil qilish uchun sifatning oldiga **m, p, r , s** undoshlaridan hosil qilingan bo‘g‘in keltiriladi. Orttirma darajadagi sifatlar ot so‘z turkumidan oldin yokida keyin kelishi mumkin (Hengirmen M., 1998:134).

*“İncecik vazosunda**, kıpkırmızı**, upuzun saplı gül, ne de güzel bulmuştu yerini”* ( Türkali V.,2004:167) .

*Muallif tarjimasi, "Ingichka vazasida, qip-qizil, upuzun sopli gul o'z* o'rnini naqadar chiroyli topgan edi."

Mazkur **kıpkırmızı** so'zida /p/ undoshi rang bildiruvchi leksemalar tarkibida qo'llanib, sifatning orttirma darajasini hosil qiluvchi fonetik vosita sifatida funksional ahamiyat kasb etgan. Undoshlar vositasida hosil qilinadigan orttirma daraja shakllanishida, avvalo, sifatning boshlang'ich qismidagi dastlabki ikki harf ajratib olinadi. So'ngra talaffuz xususiyatlari hamda fonetik muvofiqlik asosida **/m/, /p/, /r/, /s/** undoshlaridan biri tanlanib, mazkur qismga qo'shiladi va leksemaning to'liq shakli bilan birgalikda takrorlanadi. Natijada rang bildiruvchi sifatlarda orttirma daraja ifodalovchi kuchaytirilgan shakl yuzaga keladi.

***1-jadval***

| **"P" undoshi orqali rang bildiruvchi leksemalarda orttirma daraja** | | |
|---|---|---|
| kara | **p** | Ka+p+kara |
| sarı | **p** | Sa+p+sarı |
| kırmızı | **p** | Kı+p+kırmızı |
| turuncu | **p** | Tu+p+turuncu |
| kızıl | **p** | Kı+p+kızıl |
| ak | **p** | A+p+ak |
| gri | **p** | Gı+p+gri |

*"Parkın ağırdan yelle kımıldayan yemyeşil dalları ardından Boğaz görünüyordu* (Türkali V.,2004:406) *."*

*Muallif tarjimasi, "Parkning sekin esayotgan shamolda qimirlayotgan yemyeşil shoxlari ortidan Bo'g'oz ko'rinib turardi."*

"Yemyeşil" – bu "yashil" rang sifatining orttirma darajadagi shakli bo'lib, jumla ichida dal ya'ni shox so'zini yanada yorqin va jonli rangda tasvirlash uchun ishlatilgan. Bu yerda "yeşil" rangining ma'nosi takror va /m/ undoshi yordamida kuchaytirilib, sifatning orttirma darajasi hosil qilingan.

***2-jadval***

| **"M" undoshi orqali rang bildiruvchi leksemalarda orttirma daraja** | | |
|---|---|---|
| Beyaz | **m** | Be+m+beyaz |
| Yeşil | **m** | Ye+m+yeşil |
| Siyah | **m** | Si+m+siyah |
| Gök | **m** | Gö+m+gök |

Zamonaviy Türk tilida /r/ undoshi orqali rang bildiruvchi leksemalarning orttirma darajada hosil qilinishi kuzatilmaydi, bu fonetik vosita rang sifatlarini kuchaytirish jarayonida ishlatilmaydi.

*"Elindeki kitaba dönünce, ben, o şişik, mosmor gözlerin, hâlâ okuyabilmesine şaşarak orada dikilip kaldım ( Pamuk O.,1991:288)."*

*Muallif tarjimasi, "Qo'lidagi kitobga qayta qaraganida, men , shishgan, ko'kargan ko'zlarning, hamon o'qiy olishiga hayron bo'lib tikilib qoldim."*

*Ushbu jumlada mosmor ya'ni binafsharang leksemasi mo+s+mor tarzida hosil qilingan bo'*lib, rangning intensivligi oshirilgan va vizual ta'siri orttirma daraja hosil qiluvchi /s/ undoshi orqali kuchaytirilgan. sifatning orttirma darajasi hosil qilingan.

***3-jadval***

| **"S" undoshi orqali rang bildiruvchi leksemalarda orttirma daraja** | | |
|---|---|---|
| Pembe | **s** | Pe+s+pembe |
| Mor | **s** | Mo+s+mor |
| Mavi | **s** | Ma+s+mavi |

Turk tilida orttirma darajani hosil qilishning ikkinchi usuli leksemaning takrorlanishi orqali yasalishidir (Bangüoğlu T.,2024:287). Bunda rang bildiruvchi leksemalar takror qo'llanilishi orqali jumlada ot so'z turkumi oldidan kelib orttirma darajadagi sifatni hosil qiladi. Ranglarning barchasi ushbu ko'rinishda qo'llanilishi mumkin. Misol tariqasida:

*Balkona yaklaşıp baktı;çiseleyen yağmurlu kara kara bulutlarıyla gök, esintili, çırpıntılı deniz hiç de çağrı yapmıyordu dışarılara* ( Türkali V.,2004:*280).*

*Muallif tarjimasi, "Balkonga yaqinlashib qaradi,mayin yog'ayotgan yomg'irli qora qora bulutlari bilan osmon,shamol esib to'lqinlanayotgan dengiz, hech ham uni tashqariga taklif qilmayotgan edi".*

Berilgan gapda ***"kara kara"*** birikmasi rang bildiruvchi sifatning orttirma ***(kuchaytirilgan)*** darajasini ifodalaydi. Ushbu shakl sifatning oddiy darajasi (***kara***)ning takrorlanishi orqali hosil qilingan bo'lib, bu jarayon turk tilida reduplikatsiya ***(takrorlash)*** usuli sifatida izohlanadi.

Shu bilan birga turk tilida /**mi/** so'roq qo'shimchasi orqali ham orttirma daraja hosil qilish mumkin.

*Yerden yeşil mi yeşil ot kopardı atın burnunu sildi (Kemal Y., 2022 :293).*

*Muallif tarjimasi, "Yerdan yam-yashil o't yuldi va otning burnini artti.*

Jumladagi *yeşil mi yeşil* birikmasi rang sifatining ta'kidlovchi (ekspressiv) shakli bo'lib, takror + mi so'roq yuklamasi orqali hosil qilingan. Mi so'roq yuklamasi turk tilida har doim so'zdan ajratilgan holda yoziladi va singormanizm hodisasiga rioya qiladi.

Turk tilida rang bildiruvchi sifatlarning orttirma darajasi nafaqat fonetik-morfologik vositalar, balki takrorlash (reduplikatsiya) va /mi/ so'roq yuklamasi

kabi sintaktik-ekspressiv usullar orqali ham ifodalanib, nutqning tasviriylik va ta’sirchanlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada turk tilida rang bildiruvchi sifatlarning orttirma daraja shakllari fonetik, morfologik va semantik jihatdan atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rang sifatlari til tizimida nafaqat predmet belgisini ifodalovchi birlik sifatida, balki kuchli tasviriy va emotsional-ekspressiv vosita sifatida ham muhim o‘rin egallashi aniqlandi.

Xususan, turk tilida rang sifatlarining orttirma darajasi bir necha usullar orqali hosil qilinishi kuzatildi. Eng faol usullardan biri sifatning boshlang‘ich bo‘g‘iniga /m/, /p/, /s/ undoshlaridan birini qo‘shish orqali hosil qilinadigan fonetik-morfologik model ekanligi aniqlandi. Ushbu model orqali hosil qilingan shakllar (kıpkırmızı, yemyeşil, mosmor va boshqalar) rangning intensivligini oshirib, nutqning tasviriylik darajasini sezilarli ravishda kuchaytiradi. Shu bilan birga, /r/ undoshi orqali orttirma daraja hosil qilinmasligi zamonaviy turk tilining muhim fonetik xususiyatlaridan biri sifatida qayd etildi.

Bundan tashqari, rang sifatlarining orttirma darajasi reduplikatsiya (takrorlash) usuli orqali ham hosil qilinishi (kara kara) hamda /mi/ so‘roq yuklamasi yordamida ekspressiv-ta’kidlovchi shakl yuzaga kelishi (yeşil mi yeşil) aniqlanib, ushbu usullar rangning semantik intensivligini oshirishda muhim stilistik vosita ekanligi asoslab berildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rang bildiruvchi sifatlarning orttirma daraja shakllari turk tilining nafaqat grammatik, balki stilistik imkoniyatlarini ham namoyon etadi. Ular badiiy matnlarda obrazlilikni kuchaytirish, vizual tasvirni jonlantirish va muallifning subyektiv munosabatini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, rang sifatlarining orttirma darajasi turk tilining boy ifoda imkoniyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik hodisa bo‘lib, u fonetik, morfologik va semantik qatlamlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladi.

Natijada, turk tilida rang bildiruvchi sifatlarning orttirma darajasi tilning ifoda imkoniyatlarini boyituvchi muhim lingvistik vositalardan biri ekanligi aniqlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Aksan D. (2015). Her yönüyle dil. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
2. Arat R.R. (1979). Kutadgu Bilig. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınlar
3. Banguoğlu T.(2024).Türkçenin grameri. – Ankara:TDK. – Ankara.
4. Çağbayır Y. (2007). Ötüken türkçe sözlük. 5-x cilt. – Istanbul: Ötüken neşriyat. – 5744 s.

5. Çürük Y.(2017) Türk dilinde renk adları ve renk adlarına gelen ekler // Kitabevi yayınları. – S. 201-230.

6. Eren A. (2008). Bâkî divanında kırmızı renk/Atatürk Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. – №37.– S. 31-68.

7. Ergin M.(2011). Orhun abideleri. –İstanbul:Boğaziçi yayınları. –188s.

8. Hengirmen M. (1998).Türkçe temel dilbilgisi. –Ankara:Engin. – 427 s.

9. Ibodullayeva A., Xakimbayeva O.K.(2022).Ingliz va o‘zbek tillarida sifat so‘z turkumining ifodalanishi//Models and methods in modern science. – №1. – B. 28-30.

10. Kavasoğlu R.(2021). Renk. – Ankara: Iksad. – 85 s.

11. Kemal Y.(2022). Ince Memed. – 368 s.

12. Ozan S.Y. (2025). Ranglarning lingvomadaniy talqini va ramziy mazmuni// Ta’limdagi ilmiy islohatlar va izlanishlarning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni va rivojlanish omillari. –№6 (1). – B.95-100.

13. Ozan S.Y. (2025). Olamning lisoniy manzarasida rang tadqiqi// Ta’limdagi ilmiy islohatlar va izlanishlarning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni va rivojlanish omillari. – №6 (1). – B.101-104.

14. Pamuk O.(1991). Kara kitap. – Istanbul: Şefik Basımevi. – 445 s.

15. Türkali V.(2004) Kayıp romanlar. – Istanbul: Everest yayınları. – 631 s.

16. Türkçe sözlük.(1983). Cumhuriyet Basımevi. – 669 s.

17. Vasiliev . (1995). Türkçe-Sahaca (Yakutça) sözlük. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.–312 s.

18. Yudahin K. (1988).Kırgız sözlüğü (Çev.Taymas, A.), Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.– 815 s.

**REFERENCES:**

1. Aksan D. (2015). Her yönüyle dil. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. (In Turkish)

2. Arat R.R. (1979). Kutadgu Bilig. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. (In Turkish)

3. Banguoğlu T.(2024).Türkçenin grameri. – Ankara:TDK. – Ankara. (In Turkish)

4. Çağbayır Y. (2007). Ötüken türkçe sözlük. 5-x cilt. – Istanbul: Ötüken neşriyat. – 5744 s. (In Turkish)

5. Çürük Y.(2017) Türk dilinde renk adları ve renk adlarına gelen ekler // Kitabevi yayınları. – S. 201-230. (In Turkish)

6. Eren A. (2008). Bâkî divanında kırmızı renk/Atatürk Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. – №37.– S. 31-68. (In Turkish)

7. Ergin M.(2011). Orhun abideleri. –İstanbul:Boğaziçi yayınları. –188s. (In Turkish)

8. Hengirmen M. (1998).Türkçe temel dilbilgisi. –Ankara:Engin. – 427 s. (In Turkish)

9. Ibodullayeva A., Xakimbayeva O.K.(2022).Ingliz va o‘zbek tillarida sifat so‘z turkumining ifodalanishi//Models and methods in modern science. – №1. – B. 28-30. (In Uzbek)

10. Kavasoğlu R.(2021). Renk. – Ankara: Iksad. – 85 s. (In Turkish)

11. Kemal Y.(2022). Ince Memed. – 368 s. (In Turkish)

12. Ozan S.Y. (2025). Olamning lisoniy manzarasida rang tadqiqi // Ta’limdagi ilmiy islohatlar va izlanishlarning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni va rivojlanish omillari. – №6 (1). – B.101-104. (In Uzbek)

13. Ozan S.Y. (2025). Ranglarning lingvomadaniy talqini va ramziy mazmuni// Ta’limdagi ilmiy islohatlar va izlanishlarning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni va rivojlanish omillari. –№6 (1). – B.95-100. (In Uzbek)

14. Pamuk O.(1991). Kara kitap. – Istanbul: Şefik Basımevi. – 445 s. (In Turkish)

15. Türkali V.(2004) Kayıp romanlar. – Istanbul: Everest yayınları. – 631 s. (In Turkish)

16. Türkçe sözlük.(1983). Cumhuriyet Basımevi. – 669 s. (In Turkish)

17. Vasiliev . (1995). Türkçe-Sahaca (Yakutça) sözlük. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.–312 s. (In Turkish)

18. Yudahin K. (1988).Kırgız sözlüğü (Çev.Taymas, A.), Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.– 815 s. (In Turkish)

# HOZIRGI ZAMON INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA VAQT KATEGORIYASINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR YORDAMIDA IFODALANISHI

# EXPRESSION OF THE CATEGORY OF TIME IN MODERN ENGLISH AND UZBEK THROUGH PHRASEOLOGICAL UNITS

# ВЫРАЖЕНИЕ КАТЕГОРИИ ВРЕМЕНИ В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ С ПОМОЩЬЮ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

https://zenodo.org/records/20666959

**Qudratova Muxlisa Izatilla qizi**

*Oriental universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish fakulteti,*
*“Tillar-2” kafedrasi stajor-o‘qituvchisi*
*Tel: +998 77-310-77-33*
*E-mail: muxlisaqudratova380@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tilshunoslikda frazeologik birliklarning vaqtni obrazli ifodalashi haqida ochib berilgan. Bunda vaqt ma’nosi ikki yo‘sinda, ya’ni asosiy (yetakchi) ma’no yoki asosiy ma’noni tashkil etuvchi komponent (sema) sifatida ifodalanadi.Qolaversa, vaqt kategoriyasining ingliz va o‘zbek tillaridagi verbalizatsiyasi va uning tilshunoslikdagi muhim jihatlari ifodalangan. Vaqt kategoriyasining strukturaviy tahlili hamda uning frazeologik birliklarda qo‘llash usullari kabi tahlillar amalga oshirilgan. Hozirgi zamon ingliz va o‘zbek tillarida vaqtning muhimligi va uni jamiyatdagi odamlar bilan muloqot qilishdagi o‘rni tahlil qilingan. Ingliz va o‘zbek tillarining temporal maydonida leksik-frazeologik hamda paremiologik birliklarning tutgan o‘rni ifodalangan bo‘lib, vaqt ma’noli lug‘aviy birliklar komponent tahlil qilinib, tasnif etildi

**Kalit so‘zlar:** *vaqt, kategoriya, komponent, sema, semantika yadro, pereferiya, distributsiya, zamon.*

**Annotation.** This article explores the figurative expression of time through phraseological units in linguistics. In this regard, the meaning of time is expressed in two ways: either as a primary (leading) meaning or as a component (seme) that constitutes the core meaning. Furthermore, the verbalization of the category of time in English and Uzbek, as well as its important aspects in linguistics, are discussed. Structural analysis of the time category and its usage in phraseological units are also carried out. The significance of time in modern English and Uzbek, along with its role in communication among people in society, is analyzed. The place of lexical-phraseological and paremiological units within the temporal field of English and Uzbek is highlighted, and lexical units expressing time are analyzed componentially and classified.

**Keywords:** *time, category, component, seme, semantics, core (nucleus), periphery, distribution, tense.*

**Аннотация.** В данной статье раскрывается образное выражение времени с помощью фразеологических единиц в лингвистике. При этом значение времени выражается двумя способами: либо как основное (ведущее) значение, либо как компонент (сема), формирующий основное значение. Кроме того, рассматривается вербализация категории времени в английском и узбекском языках, а также её важные аспекты в лингвистике. Проведён структурный анализ категории времени и рассмотрены способы её использования во фразеологических единицах. Проанализированы значимость времени в современном английском и узбекском языках, а также его роль в общении людей в обществе. Определено место лексико-фразеологических и паремиологических единиц в темпоральном поле английского и узбекского языков, проведён компонентный анализ и классификация лексических единиц со значением времени.

**Ключевые слова:** *время, категория, компонент, сема, семантика, ядро, периферия, дистрибуция, время (грамматическое).*

## KIRISH

Frazeologik birliklar vaqtni obrazli ifodalash xususiyatiga ega. Bunda vaqt ma’nosi ikki yo‘sinda, ya’ni asosiy (yetakchi) ma’no yoki asosiy ma’noni tashkil etuvchi komponent (sema) sifatida ifodalanadi. Masalan, bir kun emas, bir kun, eldan burun (elburutdan), yil-o‘n ikki oy kabi frazemalar qachon so‘roqli semantikaga ega. Shuningdek, ikki gapning birida, ko‘zi ochiqligida, boshi yostiqqa yetganda, ikki dunyoda kabi iboralarda ham vaqt ma’nosi yetakchidir. Belgilash olmoshi yoki umumlashtiruvchi ot (hamma, katta-kichik) ma’nosini beruvchi yetti yoshdan yetmish yoshgacha kabi iboralarda hamda ko‘z uzmay, kechani kunduz demay, ko‘zi to‘rt bo‘lmoq, kuni bitmoq, kuni o‘tmoq, berdisini aytguncha urib o‘ldirmoq, bo‘yga yetmoq, suyagi qotmoq singari fe’l frazemalarda vaqt ma’nosi tarkibiy qism (sema) maqomidadir.

Frazeologiya atamasi grek tilidagi ikkita so‘zdan, ya’ni “phraseos” – ifoda va “logos” – so‘zlardan tashkil topgan. Frazeologiya tilshunoslikning ajralmas bir qismi bo‘lib, u tilning frazeologik birliklarini ham tarixiy, ham zamonaviy nuqtayinazarlardan o‘rganadi. Umumiy tilshunoslik nuqtayinazaridan frazeologik birliklar deganda semantik jihatdan bir-biriga tobe bo‘lgan (ya’ni erkin bo‘lmagan) nutq jarayonida gapiruvchi tomonidan erkin so‘zlarni bir-biriga qo‘shish yo‘li bilan tuzilmaydigan, til leksikonida tayyor holda mavjud bo‘lgan va jamiyat tomonidan belgilangan barqaror ma’noga ega bo‘lgan ma’lum bir leksik-

grammatik tuzilma, birlik tushuniladi. (Irisqulov M.T., 2009:67) Keltirilgan ta’rifdan ma’lum bo‘lishicha, frazeologizmlar barcha tillarda o‘zlarining barqarorlik xususiyatlari bilan, nutq jarayonida ularni yasash uchun so‘z tanlash va ma’lum grammatik shakllarda ishlatish yo‘li bilan yasalmasdan, tayyor holda mavjud bo‘lgan birlik sifatida qo‘llanilishidir. Frazeologizmlar ikki va undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning ayrimlari gapda ayrim so‘z sifatida, ma’lum bir sintaktik vazifada keladi. Frazeologik birliklarning distributsiyasini aniqlash uchun ba’zida tarixiy-diaxronik tilshunoslikka murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Erkin so‘z birikmasida, yuqorida aytganimizdek, so‘zlovchi o‘zining bilim darajasiga ko‘ra, notiqlik san’ati va mahoratiga qarab, o‘z fikrini ifoda qilishda omonim, sinonim va antonimlardan o‘z xohish-istagiga qarab foydalanishi mumkin; Umuman olganda, frazeologik birikmalarning nutq jarayonida tutgan o‘rnini alohida qayd etish lozim. Ularning ma’nolari lo‘nda hamda ta’sirchan, stilistik jihatdan ham bo‘yoqlarga boy bo‘lib, nutqning rang-barangligini ta’minlaydi. Frazeologik birliklarni o‘rinli ishlatish odatda so‘zlovchi va tinglovchi kuchi va vaqtini tejashga ham xizmat qiladi, bu fikrni isbotlash qiyin emas. Masalan, o‘zbek tilidagi “tepsa tebranmas” frazeologik birligining ma’nosini erkin so‘z birikmasi yordamida tushuntiradigan bo‘lsak, unga qancha so‘z va qancha vaqt sarf etilishi o‘z-o‘zidan ma’lum.

Barqaror birikmalar til sohibi ongida uzoq tarixiy davr davomida shakllanadi. Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida leksemalar o‘rtasida grammatik munosabat yo‘qolib, yaxlitlik yuzaga keladi. Birikma tarkibidagi komponentlar yaxlit bir lug‘aviy ma’noga birlashadi. Qolaversa, o‘zbek tilida eng faol vaqt ko‘rsatkichi bo‘lgan kun so‘zi barqaror birikmalar tarkibida kelib, unga aloqador lug‘aviy ma’nolarning shakllanishiga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Rus tilshunosligida vaqt lingvokulturologik aspektda o‘rganilgan. Turli fanlarda hosil qilingan vaqt haqidagi bilimlar tahlil qilingan, vaqt modelini tashkil qiluvchi o‘lchov belgilari va tipologik xususiyatlar, vaqtni ifodalovchi birliklarning madaniy belgilarni aks ettirish xususiyatlari, rus tili sohiblarining vaqtni ifodalash, anglash, idrok etish, baholash usullari va shakllari tahlil qilingan (Михеева Л.Н. 2004).

“Vaqt” tushunchasi kognitiv, lingvokulturologik, lingvistik aspektda tadqiq qilingan. Z.Dudareva rus va boshqird tillariga xos olamning lisoniy manzarasida “vaqt” konseptual sferasining kontrast tadqiqini amalga oshirdi. Tadqiqotda olam manzarasini lisoniy ong orqali aks ettirishga xizmat qiladigan “vaqt” tushunchasini ifodalovchi lingvistik ifodalarning kontrast xususiyatlari yoritilgan. Olima “vaqt” masalasi va uning tilda ifodalanishi dolzarb ekanligini ta’kidlab, ayrim

mutaxassislarning zamonaviy ilmiy tadqiqotlar doirasida temporologiya sohasini ajratish lozimligi haqidagi fikrlarini tasdiqlaydi (Дударева З.М., 2005:48).

Vaqt makon tushunchasi bilan aloqadorlikda tahlil qilingan. S.Ayupova tadqiqotida makon va zamon tushunchalarining badiiy matndagi ifodasi I.S.Turgenev asarlari misolida yoritilgan. Makon va zamon kategoriyalari falsafiy, badiiy, lingvistik aspektlarda tadqiq etilgan, makon va zamonning badiiy til kartinasida ifodalanish xususiyatlari izohlangan. Makon va zamon semantikasining leksik, so‘z yasalishi, morfologik, sintaktik usullarda ifodalanish xususiyatlari yoritilgan (Аюпова С.Б., 2012).

Frazeologiya – til sistemasining ajralmas qismidir. Frazeologiyaning tilshunoslikda alohida o‘rin egallashiga V.V.Vinogradov, V.L.Arxangelskiy, N.N.Amosova, I.IChernishevalarning hissalari kattadir. Chunki ular frazeologiyaning asosiy tushunchasi va kelajakda o‘rganilish yo‘llarini belgilab berishgan. Frazeologiya nazariyasining asoschisi sifatida shveysariyalik olim Sh.Balli (1865-1947) hisoblanadi. Balli birinchilardan bo‘lib, o‘zining “Fransuz stilistikasi” va “Stilistika maqolalari” o‘quv qo‘llanmalarida so‘zlarning mosliklarini o‘rganib chiqqan. U stilistika kitoblarida frazeologiya haqida bob kiritgan. U o‘zining birinchi kitobida so‘z birikmalarining 4 ta guruhini ajratib ko‘rsatgan:

1) mustaqil so‘z birikmalari, ya’ni turg‘unlikka ega bo‘lmagan so‘z birikmalari;

2) oddiy birikmalar, ya’ni ba’zi o‘zgarishlarni qabul qiladigan birikmalar;

3) frazeologik qatorlar, ya’ni frazeologik birliklardagi so‘zlar umumiy bitta tushunchani anglatadi;

4) frazeologik birliklar, ya’ni so‘zlar o‘zining ma’nosini umuman yo‘qotib, bitta yakka tushunchaga ega birliklar.

Frazeologik birliklar, ular birikmalarning vaqtincha joy almashishi yoki semantik jihatdan ma’no almashishi oqibatida paydo bo‘ladi. Ular o‘zidan ajratilmaydigan semantik yaxlitlikni tashkil qiladi. Bu guruh ma’noning bo‘rttirib ko‘rsatilishi bilan xarakterlanadi. “Make an elephant of a fly” – “Pashshadan fil yasamoq”.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyoslash, interpretatsiya, tavsiflash, lingvokulturologik, kognitiv, psixologik, diskursiv tahlil usullaridan foydalanildi.To‘plangan manbalardan kelib chiqib, tadqiqotni o‘rganish jarayonida ma’lumot to‘plash, tarjima, komponent tahlil, qiyosiy chog‘ishtirma tavsif metodi, analiz hamda sintez kabi metodlardan ham foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tilshunoslarning fikriga ko‘ra, frazeologik birikmalar - bularning komponentlari qaysidir ma’noda bir-biri bilan teng huquqlidir. Hattoki shu birikma tarkibidagi biror bir mustaqil bo‘lmagan komponentlarning ham sinonimi bo‘lishi mumkin. Frazeologik birikmalar uchun shu asos so‘z bilan bog‘liq bo‘lgan sinonimik, parallel konstruksiyalarning borligi xarakterlidir. Masalan, a blind love – yomon ko‘rmoq, ko‘r-ko‘rona sevmoq. Bu yerda semantikaning tahliliyligi xarakterlidir. Make an elephant of a fly – Pashshadan fil yasamoq.

Ma’no jihatidan ko‘rib chiqilganda, frazeologizmlarning struktural – semantik klassifikatsiyasi kelib chiqadi. Ular uchta guruhga bo‘linadi:

1. Frazeologik birliklar;
2. Frazeologik birikmalar;
3. Frazeologik tushunchalar.

1. Frazeologik birliklar. Frazeologiyaning asosiy bo‘limlaridan biridir. Ularning asosida semantik transformatsiya yotadi. Komponentlar guruhining ma’nosi o‘zgarganda, frazeologik ma’no paydo bo‘ladi. Bu guruhga bir – biri bilan ergashish yo‘li orqali bog‘langan birikmalar kiradi.

Frazeobirliklar guruhiga, M. D. Stepanova va I. I.Chernishevaning aytishicha, so‘z juftliklari va komparativ frazeologizmlar kiradi. Ular bularni struktural xususiyatga ega frazeobirliklar deb atashadi. So‘z juftliklarining asosiy struktural belgisi bu ularning binar xususiyatga ega birikma bo‘lishidir, ya’ni ular ikkita bir gap bo‘laklariga taalluqli bo‘lgan leksemalardan iborat. Semantika nuqtayinazaridan olib qaralganda, so‘z juftliklar umumlashgan xarakterga ega. Frazeologik birikmalar –Komponentlarning ma’no jihatidan o‘zgarib, bitta yagona ma’no beruvchi frazeologik birliklardir. Bunday frazeologik birliklarning semantikasi uchun tahliliy qarash va komponentlarning alohida semantik o‘rganilishini saqlash joizdir. Masalan “an iron lady” “temir ayol”. Frazeologik birikmalar terminologik va noterminologik xarakterga ega. Masalan “The black market” “chayqovchilar bozori”. Frazeologik tushunchalar – bunday birliklar o‘z grammatik tuzilishi jihatidan gap yoki predikativ birliklar bo‘lishi mumkin. Kommunikativ ma’no jihatidan ularning quyidagi xillari mavjud: a) ko‘p ishlatiladigan maqollar: “In Rome as the Romans do” – “Ko‘rlar shahriga borsang, bir ko‘zingni qisib yur”. b) Mukammal va hosil qilingan modal tushunchalar, masalan “Damn it up.” “Ha, qurib ketsin!” Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, frazeologik birliklar nafaqat ingliz tilida, balki boshqa tillarda ham keng qo‘llaniladi. Frazeologik birliklar ingliz tilida quyidagi asos bo‘yicha tahlil qilinadi:

1. Frazeologik birliklarning soniga nisbatan boshqa tillar bilan qiyoslanishi;

2. Aspektual va funksional moslikka nisbatan taqqoslash;

3. Stilistik bo‘yoqqa egaligi nuqtayinazaridan.

Bu nuqtayinazar orqali o‘rganilgan frazeologik birliklarda hamma stilistik qatlamlarga mos frazeologik birliklar mavjudligi ham o‘rganildi. Bundan tashqari biz tahlil qilgan frazeologik birliklarning asosiy qismi inson xarakteri, uning ichki va tashqi dunyosini ochib tahlil qiluvchi frazeosemantik guruhga mansub frazeologik birliklardir. Ularda emotsional ekspressiv bo‘yoq, ishlatilishning stilistik xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular tilning madaniy xususiyatlarini ochib beradi va bu birliklarda milliy bo‘yoq, o‘rganilayotgan tilning yorqinligi va his-hayajoni aniq va ravon aks ettirilgan.

Har bir narsa o‘z o‘tmishi, hoziri, kelgusiga ega. Narsa, hodisalarning ba’zi birlari avvalroq, boshqalari keyinroq sodir bo‘ladi. Bular esa vaqt tushunchasini ifodalaydi. Vaqt uch o‘lchovli fazo bilan ajralmas bog‘liq bo‘lsa-da, u bir o‘lchovlidir. Tabiatshunoslikda ham vaqt va fazo tushunchalari bir-biridan ajratilmaydi va universal kategoriyalar sifatida tushuniladi. Bu shuni anglatadiki, A.M.Mostepanenkoning ta’kidlashicha, makon va vaqtdan tashqarida biron bir hodisa yoki jarayon sodir bo‘lishi mumkin emas. Tilshunoslikda vaqt antropotsentrik, subyektiv kategoriya sifatida tushuniladi, chunki inson dunyoni o‘z his-tuyg‘ulari orqali idrok etadi. Vaqt tushunchasini tilshunoslik bilan bog‘lab, uni shaxsning dunyoqarashi bilan bog‘liqligi haqidagi fikr, birinchi marta B.L.Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasida paydo bo‘lgan va keyinchalik Y.D.Apresyan va N.D.Arutyunovning ilmiy ishlarida davom ettirildi. Til o‘zida rang-barang olam turlarini asliga mos ravishda in’ikos ettirishga harakat qilar ekan, bunday holatda til uchun barcha olamlarga xos bo‘lgan vaqt turlarini hayotiy va ilmiy tushunchalar asosida aks ettirishdan boshqa yo‘l yo‘q. Aks holda odam va olam munosabati buzilgan bo‘lardi. Vaqt material dunyo atributi bo‘lib, o‘zining o‘zgarmas, barqaror ma’nolari bilan til sistemasida o‘z aksini topadi. Dunyoda hech bir til yo‘qki, u vaqt va vaqt munosabatlarini ifodalovchi grammatik, leksik vositalarga ega bo‘lmasa. I.I.Meshaninov ta’kidlaganidek, “Har qanday tushuncha tilda yo tavsifiy ifodalanishi, yo alohida so‘z ma’nosi bilan berilishi yoxud bir butun sistema yordamida ifodalanishi mumkin. Ana shu tilda sistema hosil qiluvchi tushuncha ong kategoriyasi deyiladi. U til vositalari bilangina ifodalanib qolmay, balki tilning o‘zida, tilning material qismida o‘z ifodasiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, tilda bayon qilinadigan har qanday tushuncha ham ong kategoriyasi bo‘lavermaydi. Til qurilishida ishtirok etadigan va unda muayyan tuzilishga, leksik, morfologik, sintaktik sistemalarda aniq ifodalanishga ega bo‘lgan tushunchagina ong kategoriyasi bo‘la oladi”. Demak, vaqt ham ong kategoriyasi bo‘lib, u tilda o‘z ifodasiga ega. “Vaqt” tushunchasi o‘zbek va ingliz tillarida bir

xil semantik tuzilishga ega universal tushunchadir. Ushbu tuzilma davomiylik qiymatlariga asoslangan yadro-periferik modelga amal qiladi. Yaqin atrof “vaqt davri”, “moment”, “sikl” qiymatlari, “hozirgi”, “o‘tmish” va “kelajak” konsepsiyalari bilan ifodalanadi. Vaqtning siklik tizimli tashkil etilishi yaqin atrof-muhit darajasida “inson hayoti” (yoshi), “tabiat hayoti” (fasllar) qadriyatlari bilan ifodalanadi. “Vaqt” so‘zining potensial semalarini va vaqt subkonsepsiyalarining so‘z atamalarini tahlil qilish bizga boshqa tushunchalar tomonidan shakllantirilgan tushunchaning uzoq chegarasini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Shuning uchun ham o‘zbek va ingliz tillarida vaqtni tasvirlash usullarini, mazkur etnoslar ongida vaqtni tasavvur etish hamda vaqt kechimini ifodalovchi lisoniy birliklarning etnospetsifik, lingvomadaniy, semantik, sintaktik jihatlarini yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Vaqt tushunchasining ahamiyati turli sohalarda tan olingan, jumladan: psixologiya, sotsiologiya, biologiya va lingvistika. Masalan, Britaniyalik sotsiolog Barbara Adams “Vaqt va ijtimoiy nazariya” asarida Vaqtning murakkab tomonlarini ijtimoiy nazariyaning asosiy qismiga aylantirish kerakligini hamda Vaqtni aniq va yetarli darajada anglash ijtimoiy nazariya uchun asos yaratishi borasida muhokama yuritadi. (Barbara Adam, 1991) Ushbu semantik tuzilmani o‘rganilayotgan ikkala tilning materialida sezilarli o‘zgarishlarsiz kuzatish mumkin, bu ular uchun universal degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Bundan tashqari, “vaqt” tushunchasining asosiy qatlami ajratilgan bo‘lib, u uchta qatlamdan iborat: tarixiy va etimologik, passiv va faol, bunda hislar, g‘oyalar shakllanadi hamda tushunchaning semantik tarkibini tashkil etuvchi tushunchalarni kuzatish mumkin. Turli tillardagi “vaqt” so‘zining ichki shaklini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, atrofdagi dunyo haqidagi g‘oyalar shakllanishining dastlabki bosqichida vaqt kengayishi bilan tavsiflangan va ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan idrok etiladigan moddiylashtirilgan tushuncha sifatida talqin qilinadi. Inson ongida vaqt haqidagi g‘oyalarning rivojlanishini aks ettiruvchi “vaqt” tushunchasining passiv qatlamida vaqtning siklik va chiziqli bo‘linishi muhim ahamiyatga ega.

Masalan: – Is it a good time for you? – This is as good a time as any. – We all had a lovely time at the concert. We enjoyed the concert very much. – They’ve been having a hard time finding an apartment in the city. – Their music helped me get through some difficult times in my life.

O‘zbek tilida ham xuddi ingliz tilida bo‘lgani kabi “Vaqt” konseptining sifatiy obyekt tarzida ifodalanishini quyidagi so‘z birikmalar orqali amalga oshirilishi mumkin: qulay vaqt, ajoyib vaqt, sevimli vaqt, ulkan vaqt, o‘z vaqtida, ayni vaqt, og‘ir dam, murakkab davr va hokazo.

Misol uchun:

*– Mana, qulay vaqt keldi! Yaratganning o‘zi suygan bandasiga yubordi!*

*– Xo‘jasoatda! Qarilik nafaqasini o‘z vaqtida olib turadi!*

Quyida berilgan misolda qulay vaqt, imkoniyat kelganligini ko‘rsatib o‘tadi. Har ikkala tilda keltirilgan misollarda vaqtning sifatiy obyekt tarzida, inson turmush tarzida vaqt kechimining holati ifodalanayotganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Shuningdek, vaqt tushunchasining sabab-oqibat tarzida ifodalanishini ingliz tilida *in no time, at a time, per time, in due time, a matter of time, ahead of time, before time* kabi birliklar bilan ifodalansa, o‘zbek tilida vaqtdan ilgarilab, hechdan ko‘ra kech, oldindan, keyinchalik kabi birliklar yordamida ifodalanishini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Misol uchun:

*– We’ll be there in no time. Don’t worry. It’ll all be over in no time.*

*– She was calm at a time when everyone else was panicking.*

*– It’s just a matter of time before someone gets hurt, someone will get hurt eventually. – She read the report ahead of time to prepare for the meeting.*

Ingliz tilida vaqt jarayon sifatida o‘ziga xos ifodaviy turlari mavjud bo‘lib, ular inson hayoti davomiyligi *babyhood, childhood, teenager, adolescence, maturity, old age*, vaqtning tabiat qonunlari jihatidan *year, month, week, season, spring, summer, autumn, winter* tarzida ifodalanadi. Shuningdek, vaqt bir sutkani ifodalashda ham *morning, noon, afternoon, evening, night, midnight* kabi leksik birliklar orqali ifodalanadi. Bundan tashqari vaqt temporal hodisa tarzida *beginning, finishing, continuing* tarzida ifodalanishi mumkin.

O‘zbek xalqining qimmatbaho moddiyatga qadriyat, qadr-qimmat nuqtayi nazaridan yondashuvi, ingliz madaniyatida esa boylik sifatidagi munosabati kuzatiladi.

O‘zbek va ingliz madaniyatida vaqtning mavhum etalonlari mavjud.

*Vaqt – baxt: Vaqt ketdi– baxt ketdi Toji sari taxt ketdi. Vaqting ketdi –baxting ketdi.Vaqtdan yutding – baxtdan yutding.*

*Vaqt – omad;*

*Vaqt – yo‘q etuvchi:* Vaqt tog‘ni yemirar, suv toshni kemirar.

*Vaqt – me’yoriga amal qilish talab qilinadigan voqelik:* Vaqt o‘tgandan keyin qilichingni toshga chop. Bevaqt qichqirgan xo‘rozning tojidan qon olinar.

*Vaqt – g‘animat:* Vaqt g‘animat, o‘tsa – nadomat.

*Vaqt – yetishmaydigan voqelik:* Vaqti yetsa qush ham bolasiga uya qurar.

*Vaqt – ma’lum bir payt:* Vaqti kelsa. Fil sichqondan qo‘rqar.

Vaqt konsepti *vaqt* leksemasidan yasalgan yoki mazmunida vaqt tushunchasi mavjud bo‘lgan lug‘aviy birliklar orqali ifodalangan.

Kishilik jamiyatida, ijtimoiy voqelikda “bo‘sh vaqt” tushunchasi mavjud. Bo‘sh vaqt muayyan faoliyatdan tashqaridagi vaqt bo‘lib, insonga yoki uning boshqa turdagi faoliyatiga qaratiladi. Aksariyat hollarda insonning mehnat faoliyatini tiklashga, o‘z ustida ishlashga, sog‘ligiga va kasbiy kamolotga sarf qilinadi. “Bo‘sh vaqt” tushunchasi nisbiy bo‘lib, inson faoliyatining asosiy va yondosh ko‘rinishlarga ajratilishidan kelib chiqadi.

Ingliz madaniyatida *time* vaqt frazeologizmlar tarkibida quyidagi tasavvurlar orqali modellashtirilgan:

Vaqt – uchadi; *time flies* vaqt uchadi: *people say time flies when you’re having fun*. Odamlarning aytishicha, baxtli daqiqalarda vaqt tez o‘tadi.

*My daughter started school in September – oh, how time flies.* Qizim sentabr oyida maktabga bordi, oh, vaqt qanday tez o‘tadi!

Vaqt qulay yoki noqulay bo‘ladi: *at the wrong time or period: noqulay vaqtda yoki davrda*: *I felt that I was born out of time*. Xato davrda tug‘ilganimni his qildim.

*Vaqt – muayyan hajmga ega.* Vaqt kam yoki ko‘p bo‘ladi: *in no time (also in less than no time)* – qisqa vaqt ichida (shuningdek, kam vaqt ichida);

*very quickly or very soon* – juda tez yoki tez orada: *The video has sold 30,000 copies in no time*. Video qisqa vaqt ichida 30,000 nusxada sotildi;

*a very short interval or period* – juda qisqa interval yoki davr;

*the renovations were done in no time.* Ta’mirlash qisqa vaqt ichida amalga oshirildi.

*Vaqt yoqimli, lazzatli bo‘lishi mumkin: a period or occasion of exceptional enjoyment*. O‘ziga xos lazzatli davr.

O‘zbek tilida til egalarining diniy e’tiqodi, diniy tafakkuri bilan bog‘liq ma’lum bir izofalar borki, ularni realiyalar sifatida baholash mumkin. Vaqtning quyidagi izofalar bilan ifodalanishi ingliz tilida kuzatilmaydi.

| **“Vaqt” konseptini ifodalovchi realiyalar** | **Ingliz tilidagi izohi** | **Ifoda etilgan vaqt** |
|---|---|---|
| *namozi bomdod // namozi subhi* | Pre-dawn | tong |
| *namozi peshin* | *Midday* | kunning yarmidagi muddat |
| *namozi digar (namozi asri)* | *Afternoon* | kun yarmidan to kun botgunga qadar bo‘lgan muddat |
| *namozshom (Shom)* | *Sunset* | kun botib, qorong‘ilik tusha boshlagan payt, qosh qoraya boshlagan vaqt; |
| *xufton* | *Evening* | Quyosh botgandan bir-ikki soat keyingi vaqt |

Bu izofalar o‘zbek xalqining diniy e’tiqodlari va kundalik diniy amallari bilan bog‘liq holda shakllangan.

O‘zbek va ingliz tillarida barqaror birikmalarning shakllanishida umumiy jihatlar kuzatildi. Har ikki tilda barqaror birikmalarning komponentlari ma’nosiga bog‘liq ravishda umumiylashgan yoki yaxlit bir ko‘chma ma’noni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Bu belgilar til sathlarining o‘zaro birikishi, so‘zlarning birikish xususiyatlari, tobe-hokimlik munosabatidan kelib chiqadi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi har xillik barqaror birikmalar komponentlarining tanlanishida, ko‘chma ma’nolardagi madaniy munosabatlarda namoyon bo‘ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillarida *time/vaqt* ishtirokidagi barqaror birikmalar o‘xshash belgilarga ega. Har ikki madaniyatda ham vaqtning tez o‘tishi, oltinga tengligi, oltindan qimmatligi, takrorlanmasligi, ortga qaytmasligi, qaytarilmasligi, uzviyligi, ketma-ketligi, makon bilan aloqadorligi aks etgan. Bu holat vaqt konseptining umummilliy mohiyati bilan belgilanadi. Ingliz va o‘zbek madaniyatida *time* vaqt pul, qimmatli manba, ko‘rsatuvchi, harakatlanuvchi belgilarga ega. Ingliz va o‘zbek xalqi madaniyatida inson hamda vaqt alohida voqelik sifatida tasavvur qilinadi. Inson vaqt bilan teng harakat qilishi, orqada qolishi yoki o‘tib ketishi mumkin.

Har ikki madaniyatda ham so‘nggi g‘oyalar yoki texnikadan xabardor bo‘lmaslik, eskirgan usullardan foydalanishga nisbatan *behind the times* “zamondan orqada qolish” tushunchasi qo‘llanadi. Vaqtni bo‘lish, taqsimlash mumkin. Vaqtni kimgadir yoki nimagadir bag‘ishlash, ajratish mumkin. Ingliz tilidagi *time/vaqt* konseptli frazeologizmlar bir qator “qadim, o‘tgan vaqt”, “uzoq o‘tgan davr”, “bir vaqtlar”, “uzoq o‘tmish”, “doimiy yoki muntazam ravishda”, “onda-sonda”, ”belgilangan vaqt” tushunchalarini anglatadi. *Time “vaqt”* ingliz madaniyatida father “ota” sifatlashi bilan ishlatilib, o‘zbek tilidagi ona yurt, ota yurt tushunchalaridagi kabi madaniy semani hosil qiladi: *father Time.* Ingliz tilida vaqt timsoli bosh kiyimi va qo‘lida qum soati bo‘lgan chol sifatida tasavvur qilinadi. O‘zbek madaniyatida vaqt *yoqut, oltin*dan ustun qo‘yiladi. *Vaqtning g‘animatligi, oz, kam,* yetishmaydigan voqelik ekanligi ta’kidlanadi. Vaqt *bebaho, topilmas, sotilmas* deb sifatlanadi. Ingliz madaniyatida vaqt qimmatbaho manbaga qiyoslansa, o‘zbek madaniyatida yelga qiyoslanadi. Ingliz tili sohibi vaqtni *flies* “uchadi” deb baholaydi, ammo uning qanday “uchishi”ni ifodalamaydi. O‘zbek tili sohibi esa vaqt o‘tishini “yel”ga, “oqar suv” ga qiyoslaydi. O‘zbek madaniyatida vaqt *baxt*ga, *omad*ga qiyoslanadi, yo‘q etuvchi deb baholanadi. Bu xususiyat ingliz tilida kuzatilmaydi. Ingliz tilida vaqt pulga qiyoslangan, pul daromad manbai,

biznes omili sifatida baholangan. Ingliz tili sohibi vaqtning siklli harakatiga alohida e’tibor qaratgan.

Ingliz tili sohibi vaqtni maslahatchi, hikoyanavis sifatida tasvirlangan. O‘zbek tili vaqtga me’yor talabi sifatida yondashiladi. Har bir faoliyatni muddatidan oldin bajarish targ‘ib qilinadi. O‘zbek tilidagi barqaror birikmalarda har bir faoliyatni o‘z vaqtida amalga oshirish targ‘ib qilinadi. Vaqt konsepti yil fasllari bilan bog‘liq ravishda aks etgan barqaror birikmalar dehqonchilik mavzusiga aloqadordir. Yil fasllariga oid maqollarda vaqt ma’nosini ifodalovchi birliklarga kontrast yondashuv aks etgan. Bunday yondashuv obrazlilikka xizmat qiladi. Inson umri yilning to‘rt fasliga qiyoslanib, fasllar nomi ko‘chma ma’noda inson hayoti bosqichlarini anglatib keladi. Bu yondashuv ingliz va o‘zbek madaniyatida ham mavjud. Yil fasllaridan o‘lchov birliklari sifatida foydalanish o‘zbek va ingliz tillarida farqli belgilarga ega. Yil fasllari bir xil oylarga to‘g‘ri kelmasligiga ko‘ra ham farqlanadi. O‘zbek xalqida vaqt konsepti asotirlarga bog‘liq ravishda ham ifodalanadi.

Barqaror birikmalarda yil ko‘rinishidagi vaqtga munosabat, baho ifodalangan. Yilning o‘n ikki hayvon nomi bilan atalishiga asoslangan muchal hisobi sharqona yil kalendari hisoblanadi. Hozirda o‘zbek shevalarida faol qo‘llanadi. O‘zbek xalqi muchallar orqali shunchaki yilni nomlamasdan, ularga baho ham bergan. Bu baholar xalqning yashash tarzi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p yillik tajriba va kuzatishlar natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аюпова С.Б. Категории пространства и времени языковой художественной картине мира (на материале художественной прозы И.С.Тургенева). Автореф. ...д-ра канд. филол. наук. –Уфа, 2012.

2. Бушуй А. М. Язык и действителност. – Ташкент. Фан, 2005. – 150 с.

3. Вакуров В.Н.Фразеологический каламбур в современной публицистике. // Русская реч, 1994, №6. -340 с.

4. Девкин В. Д. Немецкая разговорная реч: Синтаксис и методика.- М.: Высшая школа, 1979. - 253 с.

5. Дударева З.М. Контрастное исследование концептуальной сферы “время” в русской и башкирской языковых картинах мира. Автореф. дисс… д-ра филол. наук. – Екатеринбург, 2005. –48 с.

6. M.T. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish – Darslik “Yoshlar matbuoti” – 2009.

7. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. - М.: Высшая школа, 1986.- 380 с.

8. Лукянова Н.А. Экспрессивная лексика разговорного употребления. - Новосибирск: Наука, сиб. отд-е, 1989. -230 с.

9. Михеева Л.Н. Время в русской языковой картине мира: лингвокультурологический аспект. Автореф. ...д-ра филол. наук. – М.,2004.

10. Солодуб Ю.П., Албрехт Ф.Б. Современный русский язык. Лексика и фразеология (сопоставительный аспект). - М.: Флинта. Наука, 2002. - 264 с.

11. Umarxo‘jayeva M. E. “Umumiy tilshunoslik” Andijon-2010, 85

## REFERENCES:

1. Ayupova S.B. Kategorii prostranstva i vremeni yazikovoy xudojestvennoy kartine mira (na materiale xudojestvennoy prozi I.S.Turgeneva). Avtoref. ...d-ra kand. filol. nauk. – Ufa, 2012. (In Russian)

2. Bushuy A. M. Yazik i deystvitelnost. – Tashkent. Fan, 2005. – 150 s. (In Russian)

3. Devkin V. D. Nemetskaya razgovornaya rech: Sintaksis i metodika.- M.: Visshaya shkola, 1979. - 253 s. (In Russian)

4. Dudareva Z.M. Kontrastnoye issledovaniye konseptualnoy sferi “vremya” v russkoy i bashkirskoy yazikovix kartinax mira. Avtoref. diss… d-ra filol. nauk. – Yekaterinburg, 2005. – 48 s.(In Russian)

5. M.T. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish – Darslik “Yoshlar matbuoti” – 2009. (In Uzbek)

6. Kunin A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika. - M.: Visshaya shkola, 1986.- 380 s. (In Russian)

7. Lukyanova N.A. Ekspressivnaya leksika razgovornogo upotrebleniya. - Novosibirsk: Nauka, sib. otd-ye, 1989. -230 s. (In Russian)

8. Mixeyeva L.N. Vremya v russkoy yazikovoy kartine mira: lingvokulturologicheskiy aspekt. Avtoref. ...d-ra filol. nauk. – M.,2004. (In Russian)

9. Solodub Yu.P., Albrext F.B. Sovremenniy russkiy yazik. Leksika i frazeologiya (sopostavitelniy aspekt). - M.: Flinta. Nauka, 2002. - 264 s. (In Russian)

10. Umarxo‘jayeva M. E. “Umumiy tilshunoslik” Andijon-2010. (In Uzbek)

11. Vakurov V.N. Frazeologicheskiy kalambur v sovremennoy publitsistike. // Russkaya rech, 1994, №6. -340 s. (In Russian)

# SUG‘D YOZMA YODGORLIKLARI TARIXIY MANBA SIFATIDA

# SOGDIAN WRITTEN MONUMENTS AS A HISTORICAL SOURCE

# СОГДИЙСКИЕ ПИСЬМЕННЫЕ ПАМЯТНИКИ КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК

https://zenodo.org/records/20666982

**Mansurov Uktamjon Nosirboevich**
*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti*
*Tarix fanlari nomzodi, professor*
*Tel: +998 90-933-64-76*
*E-mail: mansurov.u@tdpu.uz*

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada sug‘d yozma yodgorliklarining tarixiy manba sifatida o‘rganilishi tarixi, ularning O‘zbekistonning o‘tmish tarixini o‘rganishdagi ahamiyati, mazmuni va mohiyati, Sug‘d hujjatlarini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga qay darajada ta’sir ko‘rsatganliging tarixiy manba va adabiyotlar asosida tahlil etilgan. Sug‘dcha tarixiy yozma manbalarni o‘rganish bo‘yicha XX asr davomida olimlar tomonidan bajarilgan ishlarning tarixshunoslik tahlili, Sug‘d yozma yodgorliklarining mazmuni, vazifa va maqsadlariga ko‘ra tasnifi berilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Yozma yodgorlik, tarixiy manba, tahlil, davriy chegaralar, siyosiy munosabat, ijtimoiy hayot, mahalliy hokimlik, tashrif, diplomatik aloqalar.*

**Annotation.** This scientific article analyzes the history of studying Sogdian written monuments as historical sources, their significance in researching the past history of Uzbekistan, as well as their content and essence. It also examines, based on historical sources and literature, the extent to which Sogdian documents influenced political, socio-economic, and cultural life. Furthermore, a historiographical analysis of the studies conducted by scholars during the 20th century on Sogdian written sources is presented, along with their classification according to content, function, and purpose.

**Keywords:** *Written monument, historical source, analysis, chronological boundaries, political relations, social life, local governance, visit, diplomatic relations.*

**Аннотация.** В данной научной статье проанализирована история изучения согдийских письменных памятников, как исторического источника, их значение в исследовании прошлого Узбекистана, а также их содержание и сущность. На основе исторических источников и литературы рассматривается степень влияния согдийских документов на политическую,

социально-экономическую и культурную жизнь. Также представлен историографический анализ работ, выполненных учёными в XX веке по изучению согдийских письменных источников, и дана их классификация по содержанию, функциям и целям.

**Ключевые слова:** *Письменный памятник, исторический источник, анализ, хронологические границы, политические отношения, социальная жизнь, местная власть, визит, дипломатические связи.*

## KIRISH

Tarixni xolisona, ashyoviy dalillar va yozma manbalar asosida o‘rganish muhim va murakkab vazifadir. Manbalar uzoq o‘tmishdan qolgan,tabiat va jamiyatning ma’lum bosqichidagi kechmishni o‘zida aks ettirgan moddiy va ma’naviy yodgorliklardir. Ayniqsa VI-XI asrlar oralig‘idagi o‘tmish tarixga nazar solsak shunday bosqichlar bo‘lganki, ular jamiyat taraqqiyotining hayotiy zaruriyati sifatida amal qilgan. Jamiyatning barcha qatlamlari bu jarayonning rivojidan baravar manfaatdor bo‘lgan. Bu o‘rtada ilg‘or tendensiyalar va reaksion qarashlar ziddiyatini harakatlantiruvchi omil sifatida u yoki bu xalq, millat va jamiyatning yalpi rivoji yuzaga keladi. Shuningdek, O‘zbekiston tarixining qadimgi davri va ilk o‘rta asrlar bosqichiga tegishli ko‘plab muammolarni hal qilishda sug‘d yozma yodgorliklarining boy va rang-barang ma’lumotlarini to‘la jalb etgan holda ulardan xolisona xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma’lumki, XX asr boshlarida Sug‘d va sug‘d xalqidan qolgan yozma yodgorliklar kashf etilishi fanda sug‘dshunoslik nomi bilan ataluvchi tarixiy, filologik, arxeologik, etnografik va boshqa bir qator sohalarni birlashtiruvchi ilmiy yo‘nalishni yuzaga keltirdi. XX asr davomida sug‘dshunoslikda samarali tadqiqotlar olib borildi. Bizga qadar faqat yodgorliklardagina yetib kelgan sug‘d yozuvi va tili ilmiy ma’noda qiyosiy usul bilan qayta tiklandi. O‘nlab, yuzlab katta-kichik sug‘d matnlari o‘qib izohlandi va ilmiy nashrlar yuzaga keldi. Eng muhimi, ana shu ilmiy nashrlar orqali sug‘d yozma yodgorliklari tarixiy manbashunosligi sohasi rivoj topa boshladi. Sug‘dcha manbalar turli ilmiy va o‘quv adabiyotlariga jalb etila boshlandi. Mazkur ilmiy maqolada vazifalar yozma manbalar asosida alohida o‘rganilayotgan mavzu sifatida tahlil etilgan bo‘lsa-da, bir qator tarixiy manba va adabiyotlarda mavzuga doir ma’lumotlar keltirilgan va qayd etilgan. Jumladan, В.А.Шишкиннинг «Афрасиаб – сокровищница древней культуры» (1966), В.А.Лившицнинг «Надписи на фресках из Афрасиаба» (1965), В.А.Лившицнинг «Правители Панча» (1979), С.Г.Кляшторный ва В.А.Лившицнинг «Серебряный камень» (1983), Р.Сулейманов, М.Исхаков, Ш.Ташходжаевларнинг «Древний Самарканд»

(1981), М.М.Исхаковнинг «Палеографическое исследование согдийских письменных памятников» (1992) номли асарлари ва тадқиқотларида таҳлил этилаётган масала доирасига оид маълумотлар келтирилган.

Sug‘d mamlakati haqidagi ilk manbalar talqini, sug‘d yozma yodgorliklari asosida qilingan umumlashmalar va nazariy yechimlar, arxeologik manbalarni izohlash va boshqalardagi turli-tumanlik, o‘zaro farqli, ba’zan esa zid fikrlarning ko‘pligida ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Sug‘dning davlat tuzumi masalasi, uning tarkibiy qismlari (Buxoro Sug‘di, Qashqadaryo Sug‘di, Samarqand Sug‘di), ular o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, Sug‘dning ilk o‘rta asrlarda Turk xoqonligi bilan munosabatlari, mahalliy hokimliklarning o‘zaro pog‘onalashgan bordi - keldilar kabilar. Bugungi kunda tarix fani biz o‘rtaga qo‘ymoqchi bo‘lgan masalalar bo‘yicha ko‘p miqdordagi noyob sug‘d yozma manbalari majmuiga ega. Ular sug‘d tilida yaratilgan ko‘plab hujjatlar, yozishmalar, axloqiy-falsafiy risolalar, siyosiy, diplomatik, huquqiy, xo‘jalik hujjatlari kabilardir. Masalan VI-XI asrlar sug‘d yozma yodgorliklariga nazar tashlasak quyidagilarga guvoh bo‘lamiz. Bu davrda Sug‘d yozuvi taraqqiyotida va uning ijtimoiy vazifalari doirasining kengayishini ko‘rish mumkin. Ayni shu davrdan hozirga qadar eng ko‘p miqdorda yozma yodgorliklar yetib kelgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada vazifalarni yozma manbalar asosida tarixiy-qiyosiy tahlil va davrlashtirish, tarixiylik, xolislik, ma’lumotlarni tizimlashtirish kabi tamoyil hamda usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sug‘d yozma yodgorliklarining katta guruhi Sharqiy Turkistonda VI-VII asrlardan boshlab u yerda savdo ishlari bilan shug‘ullangan sug‘dlar orasida buddaviy, suryoniy, moniy jamoalari ehtiyoji uchun yaratilgan axloqiy-falsafiy, diniy asarlardan iborat. Ular madaniy va ma’naviy hayot tarixini o‘rganishda muhim manbalardir. VI-VII asrlarda sug‘d yozuvi o‘zining ilk va o‘rta taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tib, lapidar va yarim kursiv shakllaridan tez yozuv – kursiv, yugurik shakllariga o‘ta boshlagan. Yozuvning hayot jarayonidagi dastlabki ma’muriy, xo‘jalik va turmush zaruratlaridan kengroq ma’naviy vazifalari vujudga keldi. Yozuv qo‘llanish zaruratining doirasi sertarmoq holga kirdi. Shu bilan birga sug‘d yozuvining ishlatilishi ma’lum turkum yodgorliklarining yuzaga kelishiga xizmat qildi. Masalan, VI-XI asrlar oralig‘ida ko‘plab monumental (xotirot) yozuvlar yaratilgan. Bulardan alohida katta majmuani tashkil etuvchi Shatial tashrifnomalarini ko‘rsatish mumkin. Holbuki, Shatial qoyalarida yozib qoldirilgan sug‘dcha tashrif bitiklarining xronologik chegaralari milodiy II-III asrlardan boshlansa-da, ularning so‘nggi xronologik chegaralari VI, hatto VII asr

boshlarigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga olgan deb hisoblanadi (Humbach H., 1980: 201). Shatial sug‘diy bitiklarining dastlabki o‘rganilish bosqichida X.Humbachning mazkur nashri alohida o‘rin tutdi. Unda Shatial tashrifnomalaridan 136 yozuv ko‘chirmalari, o‘qilishi va ilmiy tasnifi joylashgan. Keyinchalik ingliz olimi N.Sims-Williams tomonidan ushbu majmua qayta o‘rganilib, salkam 1000 ta sug‘dcha tashrifnoma haqida ma’lumotlar yig‘ildi va maxsus albomda ularning fotonusxalari chop etildi (Sims-Williams N., 1987: 133). Shatial bitiklarining sug‘diy qatlami paleografiyasi M. M. Is’hoqov tomonidan maxsus o‘rganilgan (Исхаков М. М., 1992: 184–192).

Shatial sug‘diy yodnomalarining tarixiy ahamiyati favqulodda qimmatlidir. Ularni 1970-yillarning oxirida pokistonlik arxeolog va tarixchi A.Hasan Dani hamda daniyalik etnograf olim Karl Jettmar Hind daryosining yuqori oqimidagi yolg‘izoyoq tog‘ dovoni oldida joylashgan qadimiy buddaviy muqaddas manzildan topishgan. Bu manzil o‘z davrida nafaqat sug‘d buddaviylari uchun, balki bu din jamoalarining boshqa ko‘plab etnik guruhlari uchun ham ziyoratgoh hisoblangan. U yerdagi ulkan xarsangtoshlar sirtiga buddaviy muqaddas namozgohlar, ya’ni stupalar tasvirlari tushirilgan. Stupalar atrofida yuzlab sug‘d ziyoratchilarining ismlari va kelgan ona yurtlari nomlaridan iborat nisbalarning yozib qo‘yilgani sug‘d jamiyatida budda dini jamoalari qanday nufuzga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Masalan, nisbalar orasida Smarkandich (Samarqandlik), Maymirg‘ich (Maymurg‘lik), Kashinak (Keshli), Puxarik (Buxorolik) va boshqalar bor. Bundan tashqari, Shatial bitiklarida aks etgan shaxs ismlarining leksik-ma’no xususiyatlari ham alohida onomastika va antroponimika tarixi uchun muhim manbadir. Ziyoratchilar budda dinida bo‘lsalar-da, zardushtiylikka va uning mahalliy ko‘rinishlariga xos ismlarga ega bo‘lganlar. Masalan, Chitbantak (“Oliy ruh bandasi”), Uxshbantak (“Vaxsh ilohining bandasi”), Taxsichbandak (“Taxsich ilohining bandasi”), Nandipar (“Nana ilohasi bergan farzand”), Aspg‘om Navsarj o‘g‘li (“Ot poyqadami bilan yangi yilda tug‘ilgan bola”), ya’ni ot yilining boshida dunyoga kelgan odam va hokazo. Ismlarni tahlil qilishga M.M.Is’hoqov alohida e’tibor bergan. Ammo bu masalani maxsus o‘rganish zarurligicha qolmoqda.

Sug‘d tashrifnomalari turkumiga mansub yana bir yozma yodgorlik VII asr Sug‘d davlatining tashqi aloqalari bilan bog‘liq Afrosiyob devoriy yozuvidir. Bu yozuv VII asr o‘rtalariga oid podsholik saroyi devorlariga ishlangan (Шишкин В. А., 1965: 21). Bu yozuvning mazmuni va izohlari В. А. Лившиц tomonidan e’lon qilingan (Лившиц В. А., 1965: 13-17). Keyinroq Afrosiyob yozuvi mazmuniga bir necha bor murojaat etilgan. Jumladan, 1980-yilda nashr qilingan «Древний Самарканд» nomli ommabop kitobda bu yozuvga yana murojaat etilib, uning birinchi o‘qilishiga jiddiy tuzatish kiritilgan (Сулейманов Р., Исхаков М.,

Ташходжаев Ш., 1980: 17). Xususan, unda dastlabki talqindagi “Xun podshosi Varxuman” jumlasi xitoy manbalaridagi Samarqand podsholari sulolasi kelib chiqqan urug‘ nomi – “Unash” urug‘i atamasi ekanligi qayd etiladi. Demak, “Unash” urug‘iga mansub xonadon vakili podsho Varxuman deb izohlash maqsadga muvofiqdir (Лившиц В. А., 1979: 29). Afrosiyob devoriy yozuvi paleografik jihatdan ham maxsus o‘rganilgan va yozuvning matn qatorlari yuqoridan pastga – vertikal yo‘nalishli tez yozuv xat turi deb ta’riflangan (Исхаков М. М., 1992: 321). Afrosiyob devoriy yozuvi qimmatli tarixiy manbadir. Unda 650-yillarning o‘rtalarida Sug‘d tarixiga oid Varxuman bilan diplomatik aloqalarga kirishgan Chag‘oniyon hokimligining Burgzoda ismli vakili rahbarligida Samarqandga kelgan elchilik tashrifi haqida ma’lumot saqlangan. Bu esa o‘ziga xos diplomatiya tarixi voqeligidir.

Ilk o‘rta asr tashrifnomalaridan yana biri 762-yilga oid. U Uyg‘ur xoqoni Igi Yag‘laqar buyrug‘i bilan Mo‘g‘uliston hududidagi Sevresomon nomli manzilda tosh yuzasiga sug‘d xati bilan bitilgan. Yozuv Xitoy ustiga yurish davomida qo‘lga kiritilgan g‘alaba haqidagi zafarnomadir. Sevresomon yozuvi ham birlamchi o‘qish va izoh tarzida nashr etilgan (Кляшторный С. Г., Лившиц В. А., 1971: 32–34).

Sug‘d tashrifnomalarining yana bir yorqin namunasi X asr oxiri – XI asr boshlariga oid Yettisuv va Talas vodiysida saqlangan qoyatosh bitiklaridir. Ularni В. А. Лившиц 1-А, 1-Б, 2-А, 2-Б, 2-Г, 2-Е, 2-Ж raqamlari bilan belgilagan (Лившиц В. А., 1981: 15–17). Tereksoy tashrifnomalari bu yerga muqaddas manzil sifatida ziyorat uchun kelgan turklar tomonidan yozilgan. Bitikni yozishga buyurgan shaxsning nomi Qoraxoniylar davri yirik arboblaridan biri Alp Tarxon Kultegin deb o‘qilgan. Matn mazmunida uning yozilgan vaqti Xusrav yil hisobiga bo‘yicha 275-yil deb ko‘rsatilgan. Bu sana Sosoniylarning so‘nggi podshosi Yazdigird III joriy qilgan era – 632-yildan boshlangan. Avvalo, XI asr boshida, aniqrog‘i 1007-yilda turk mansabdori Alp Tarxon Kulteginning sug‘d tili va uyg‘urlashgan sug‘d yozuvidan xotirot tashrifnomasini yozdirishda foydalangani alohida diqqatga sazovor hodisadir (Исхаков М.М., 1992: 321). Yana shu kabi sug‘d tashrifnomalaridan biri Tereksoy yaqinidagi Qulonsoydan topib o‘rganilgan. Bu yozuv ham turklar tomonidan, xususan Iltak Tartosh O‘runchur tomonidan buyurilgan. Tereksoy va Qulonsoy bitiklari orasida turkiy ijtimoiy atamalardan Tarxon, Chur, Xotun kabilar va bular qatorida turk amaldorlariga nisbatan xvanbu kabi sug‘dcha hokim martaba nomining qo‘llanishi turk-sug‘d madaniy-tarixiy simbiozi va bu bilan bog‘liq sug‘d-turk etnik-madaniy munosabatlariga ishorat qiladi. Bulardan tashqari Tutuq, Tarxon, Elchi, Tangri quli kabi ijtimoiy atamalarning ishlatilishi bitik mualliflarining qadimgi turkiy jamiyatga xosligini ko‘rsatadi.

Tereksoy va Qulonsoy bitiklarida qo‘llangan sanalarning eng so‘nggi yili milodiy 1025-yil bilan chegaralanadi. Yana bir sana qo‘yish usuli qadimgi turklarda muchal yil hisobi amal qilganini ko‘rsatadi. Masalan, sug‘dcha Mushsard, Nokosard kabilar “sichqon yili” va “ilon yili” demakdir. Qulonsoy va Tereksoy tashrifnomalari ilk o‘rta asrlar sug‘d yozuv an’anasi sug‘diy tosh mangu bitikchiligi ko‘rinishida turkiylar orasida uzoq davom etganini ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan, bu hol Movarounnahrdan tashqarida arab yozuviga o‘tish nisbatan sekin kechganidan ham dalolat beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug‘d yozma yodgorliklari tahlil etilgan manbalar va ma’lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Avvalo, VI-XI asrlar orasida bevosita Sug‘diyonada sug‘d yozuv madaniyati o‘zining eng yuksak pallasiga ko‘tarilgan.

VI-XI asr sug‘d yozma yodgorliklarining janr va tur xilma-xilligi, ularning vazifalari rang-barangligi ham sug‘d jamiyatining madaniy saviyasi yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Sug‘d yozuv madaniyati Markaziy Osiyoda, ikki daryo oralig‘ida Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo vohalarida shakllanib, Choch, Farg‘ona, Yettisuv, Janubiy Qozog‘iston, Oltoy o‘lkasi, Sharqiy Turkiston, Mo‘g‘uliston yerlarigacha yoyilgan.

Sug‘d yozuvi umumsug‘d ijtimoiy-madaniy va ma’naviy ehtiyojlariga xizmat qila borib, turli diniy jamoalarda diniy-falsafiy-axloqiy matnlarni ko‘chirib ko‘paytirishga xizmat qilgan. Bular buddaviylik, moniylik, xristianlik dinlariga mansub yodgorliklar, dunyoviy adabiyot, xo‘jalik hisob-kitoblari, o‘zaro yozishmalar, taqvimlar, tashrif xotiranomalari, qabr toshlariga o‘yib bitilgan yozuvlar va boshqalardir.

Sug‘d yozma yodgorliklarining O‘zbekiston tarixi uchun ahamiyati beqiyosdir. Chunki ularning yaratilgan bosh makoni Sug‘d bugungi O‘zbekistonning uch viloyati – Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo hududlariga to‘g‘ri keladi. Sug‘d yozma yodgorliklarining eng muhim tarixiy xususiyati shundaki, ularda voqealar chetdan kuzatilib emas, balki bevosita ichidan turib yozilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Corpus Inscriptionum Iranicarum (1987) / Ed. N. Sims-Williams. London. – 133 p.

2. Humbach H. (1980) Die Sogdischen Inschriftenfunde vom oberen Indus (Pakistan) // Allgemeine und vergleichende Archäologie – Beiträge. München. Bd. 2. – S. 201.

3. Исхаков М. М. (1992) Палеографическое исследование согдийских письменных памятников: Дисс. … д-ра ист. наук. – Т. – С. 184-193, 321.

4. Кляшторный С. Г., Лившиц В. А. (1971) Севрейский камень // Советская тюркология. – № 3. – С. 32-34.

5. Лившиц В. А. (1965) Надписи на фресках из Афрасиаба // Тезисы докладов сессии, посвящённой истории живописи стран Азии. – Ленинград. – С. 13-17.

6. Лившиц В. А. (1979) Правители Панча // НАА. – № 4. – С. 29.

7. Лившиц В. А. (1981) Согдийцы в Семиречье: Лингвистические и эпиграфические свидетельства // ПП и ПИКНВ. КС XV годичной научной сессии ЛО ИВАН. – Москва. – С. 15-17.

8. Сулейманов Р., Исхаков М., Ташходжаев Ш. (1980) Древний Самарканд. – Т.: Фан. – С. 17.

9. Шишкин В. А. (1965) Афрасиаб – сокровищница древней культуры. – Т. – С. 21.

**REFERENCES:**

1. Corpus Inscriptionum Iranicarum (1987) / Ed. N. Sims-Williams. London. – 133 p. (In English)

2. Humbach H. (1980) Die Sogdischen Inschriftenfunde vom oberen Indus (Pakistan) // Allgemeine und vergleichende Archäologie – Beiträge. München. Bd. 2. – S. 201. (In German)

3. Iskhakov M. M. (1992) Paleograficheskoe issledovanie sogdiyskikh pis’mennykh pamyatnikov: Diss. … d-ra ist. nauk. – T. – S. 184-193, 321. (In Russian)

4. Klyashtornyy S. G., Livshits V. A. (1971) Sevreyskiy kamen’ // Sovetskaya tyurkologiya. – № 3. – S. 32–34. (In Russian)

5. Livshits V. A. (1965) Nadpisi na freskakh iz Afrasiaba // Tezisy dokladov sessii, posvyashchyonnoy istorii zhivopisi stran Azii. – Leningrad. – S. 13-17. (In Russian)

6. Livshits V. A. (1979) Praviteli Pancha // NAA. – № 4. – S. 29. (In Russian)

7. Livshits V. A. (1981) Sogdiytsy v Semirech’e: Lingvisticheskie i epigraficheskie svidetel’stva // PP i PIKNV. KS XV godichnoy nauchnoy sessii LO IVAN. – Moskva. – S. 15-17. (In Russian)

8. Suleymanov R., Iskhakov M., Tashkhodzhaev Sh. (1980) Drevniy Samarkand. – T.: Fan. – S. 17. (In Russian)

9. Shishkin V. A. (1965) Afrasiab – sokrovishchnitsa drevney kul’tury. – T. – S. 21. (In Russian)

# XXI ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK XALQI ETNOGENEZINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR

# MODERN SCIENTIFIC APPROACHES TO THE STUDY OF THE ETHNOGENESIS OF THE UZBEK PEOPLE IN THE EARLY 21st CENTURY

# РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ПОДХОДОВ В ИЗУЧЕНИИ ЭТНОГЕНЕЗА УЗБЕКСКОГО НАРОДА В НАЧАЛЕ XXI ВЕКА

https://zenodo.org/records/20667009

**Djurayev Ikrom Nematovich**
*Guliston davlat pedagogika instituti,*
*“Tarix kafedrasi” dotsenti,*
*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),*
*Tel: +998 97-902-20-81*
*E-mail: ikromgdu@mail.ru*
**Aliqulov Ramazon Bahrom o‘g‘li**
*Guliston davlat pedagogika instituti*
*(Tarix) yo‘nalishi 2-kurs magistranti*
Tel: +998 993-548-77-22
*E-mail: aliqulovramazon25@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XXI asr boshlarida o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganishda shakllangan zamonaviy ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Mustaqillik davrida milliy tarixshunoslikda yuz bergan metodologik o‘zgarishlar, arxeologiya, antropologiya va tarixiy genetika fanlari asosida olib borilgan tadqiqotlar yoritiladi. Ayniqsa, Qovunchi madaniyati misolida mahalliy madaniy uzviylik, shuningdek, etnik integratsiya jarayonlari ilmiy asosda tahlil etiladi. Maqolada Ahmadali Asqarov, Aleksandr Yakubovskiy, Alexander Bernshtam**,** Choongwon Jeong, Mikhail Masson, I.N.Djurayev, N.A.Sattorov hamda Vasily Bartold asarlariga tayangan holda yangi konseptual xulosalarni ilgari suradi.

**Kalit so‘zlar:** *etnogenez, avtoxtonizm, Qovunchi madaniyati, antropologik tip, paleogenetika, fanlararo yondashuv.*

**Annotation.** This article examines modern scientific approaches to the study of the ethnogenesis of the Uzbek people in the early 21st century. It analyzes methodological transformations in national historiography during the independence period and highlights interdisciplinary research based on archaeology, anthropology, and historical genetics. The study proposes a renewed conceptual framework based on the works of Asqarov, Yakubovskiy, Bernshtam, Choongwon Jeong, Masson, Djurayev, Sattorov, and Bartold.

**Keywords:** *ethnogenesis, autochthonism, archaeology, anthropology, genetics, interdisciplinary approach.*

**Аннотация.** В статье анализируются современные научные подходы к изучению этногенеза узбекского народа в начале XXI века. Рассматриваются методологические изменения в национальной историографии периода независимости, а также результаты археологических, антропологических и генетических исследований. Особое внимание уделяется междисциплинарному анализу и новой концепции этногенеза, основанной на трудах Аскарова, Якубовского, Бернштама,Чонгвон Чон, Массона, Джураева, Саттарова и Бартольда.

**Ключевые слова:** *этногенез, автохтонизм, археология, антропология, генетика, междисциплинарный подход.*

## KIRISH

XXI asr boshlarida o‘zbek xalqining etnogenezini o‘rganish masalasi mamlakatning tarixiy, madaniy va ilmiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Mustaqillik davri bilan birga, milliy o‘zlik, tarixiy xotira va xalqning kelib chiqishini chuqur anglash siyosiy va ilmiy e’tiborda ustuvor vazifa sifatida belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida milliy tarix va etnik ildizlarni chuqur anglashning muhimligini bir necha bor ta’kidlagan. U milliy til va tarix nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning ruhiy va madaniy o‘zligini ifodalaydigan omil ekanligini qayd etgan Mirziyoyev, 21-oktabrga bag‘ishlangan nutqi. Shu bilan birga, Prezidentning mustaqillik yillari va tarixiy jarayonlar haqidagi fikrlari milliy tarixni qayta tiklash, etnogenezni ilmiy asosda o‘rganish va milliy birlikni mustahkamlash zaruratini ko‘rsatadi (Mirziyoyev Sh., 2019: 2-3). O‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganish masalasi nafaqat tarixiy, balki madaniy, antropologik va ijtimoiy sohalarda ham doimiy e’tibor markazida bo‘lib kelgan. XXI asr boshlarida ilm-fanning turli yo‘nalishlarida, xususan arxeologiya, antropologiya, tarixiy genetika va tarixshunoslikda yangi tadqiqot metodlari vujudga kelishi, o‘zbek xalqi tarixini chuqurroq, tizimli va fanlararo yondashuv asosida o‘rganish imkonini yaratdi. Shu sababli, o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganish bugungi kunda nafaqat akademik, balki milliy merosni asrab-avaylash, tarixiy ongni mustahkamlash va yosh avlodni tarixiy haqiqat bilan tanishtirish nuqtayinazaridan ham juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. 2025-yil 29-avgust kuni “Repressiya qurbonlari xotirasi kuni” marosimida Prezident tarixiy voqealarni qayta tiklash va ularni yosh avlodga yetkazish muhimligini ta’kidlab, tarixni *“tirik tarix”ga aylantirish* zarurligini bildirib o‘tdi. U: “Shu kabi tarixiy sahnalar yoshlarimizga nafaqat tarixiy dalil sifatida, balki milliy ruh va munosabat shakllantiruvchi asos bo‘lib xizmat qilishi zarur”. Bu ifoda ilmiy tadqiqotlar uchun

strategik yo‘nalish beradi – o‘tgan tarixni qayta tiklash va ilmiy jihatdan o‘rganish hozirgi milliy ma’naviyat va milliy o‘zlikni anglashda muhim rol o‘ynaydi (Mirziyoyev Sh., 2025).

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

XXI asr boshlarida o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganishdagi ilmiy-nazariy murakkabliklar alohida ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy tarix va etnik ildiz masalalari tarixshunoslikning markaziy ilmiy yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayonda o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganish o‘ta murakkab ilmiy muammo sifatida ko‘rinadi, chunki u tarix, arxeologiya, antropologiya, etnologiya va genetik ma’lumotlarni birlashtiruvchi fanlararo tadqiqot talab qiladi. An’anaviy uslubda etnogenez masalasi ko‘pincha turkiy ko‘chmanchi qabilalar va siyosiy jarayonlar bilan bog‘lab talqin qilingan. Masalan, turkiy qabilalar va qabila ittifoqlari markazlashtirilgan yondashuvlar Markaziy Osiyo xalqlarining shakllanishini siyosiy tarix kontekstida ko‘rsatadi. Biroq bu yondashuv o‘zbek xalqi etnogenezini faqat migratsiya jarayoni bilan chegaralaydi va mahalliy madaniy uzviylik, iqtisodiy va antropologik omillarni yetarlicha hisobga olmaydi. Mustaqillik davrida O‘zbekiston ilmiy hamjamiyati etnogenez masalasini chuqurroq va tizimli o‘rganishga intildi. Bu borada tahliliy tadqiqotlar yetakchi rol o‘ynaydi: o‘zbek xalqi etnogenezining murakkabligiga oid ilmiy ishi yoritilgan manba mavjud bo‘lib, bu tadqiqotlar milliy tarixshunoslikda metodologik o‘zgarishlarning yuzaga kelganini ko‘rsatadi (Abirov V., 2024). Shuningdek, ilmiy adabiyotlar o‘zbek xalqi etnogenezini boshqa Markaziy Osiyo xalqlari bilan solishtirish orqali ham tahlil qilishga intiladi. Masalan, turkiy hamda qadimgi turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida o‘zbek etnosining shakllanish jarayoni murakkab, ko‘p qatlamli tarixiy jarayon sifatida ko‘riladi. Bu jarayon faqat migratsion tushunchalar asosida yoritilishi yetarli emas, balki qadimgi shaharsozlik, agroiqtisodiy transformatsiyalar hamda boshqa antropogen omillarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ilmiy muammo quyidagilar bilan boyitiladi: o‘zbek xalqi etnogenezining bosqichlari hali to‘liq aniqlanmagan, ular orasida qaysi davr yoki hududning avtoxton komponenti ustuvor ekanligi ham bahsli hisoblanadi. Masalan, mualliflar etnogenez jarayonida qadimgi Sug‘d, Xorazm, Buxoro madaniyatlari bilan turkiy elementlarning uyg‘unligi haqida turlicha qarashlarni ilgari suradi. Shu nuqtayinazardan, fanlararo tadqiqotlar orqali ularning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asosda aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi (Djuraev I., 2019: 658–661).

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ko‘chmanchi chorvador va o‘troq aholi o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va xo‘jalik aloqalarining tarixi hamda etnogenez masalalari tarixiy asoslarini o‘rganishda xolislik tamoyiliga amal qilinib, tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil hamda xronologik yondashuv kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganish masalasi tarixiy diskursning eng murakkab va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqot adabiyotlarini chuqur tahlil qilganda, bu boradagi ilmiy qarashlar ikki asosiy yo‘nalishda shakllanganini ko‘rish mumkin: an’anaviy tarixiy-manbashunoslik yondashuvi va XXI asr metodologik innovatsiyalari asosida fanlararo integratsiya. O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar etnogenez masalasi ko‘pincha qisman siyosiy kontekstda va migratsion nazariyalar orqali talqin qilingan. Sovet davrida bu yo‘nalish ko‘proq qabila ittifoqlari, siyosiy tuzilmalar va ko‘chmanchilik jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, etnik jarayonni cheklangan ijtimoiy tarix kontekstida ko‘rgan. Masalan, arxiv hujjatlarida keltirilishicha, XX asr boshlarida O‘zbekiston hududidagi xalq etnogenezini o‘rganish bo‘yicha ilk ilmiy izlanishlar podsho Rossiyasi tuzilmalaridan boshlangan bo‘lsa-da, ularning asosiy e’tibori ko‘proq hududiy chegaralash va siyosiy tasnifga qaratilgan edi. Bu holat etnogenez nazariyasining dastlabki formulalarida “migratsiya” nazariyasi mavjudligini ko‘rsatadi (Abdullayev A., 2024). Mustaqillik yillarida etnogenez nazariyasi yangi metodologik bosqichga o‘tdi. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida o‘z milliy tarixini qayta ko‘rib chiqishni boshladi, shuningdek, tarixiy jarayonlarni faqat siyosiy kontekstdan emas, balki madaniy, antropologik va arxeologik faktlar asosida ham tahlil qilish zarurati paydo bo‘ldi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – XXI asr boshlarida o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganishda shakllangan zamonaviy ilmiy yondashuvlarni har tomonlama, tizimli va fanlararo metodologiya asosida tahlil qilishdan iborat. O‘zbek xalqi etnogenezi masalasi tarixshunoslik, arxeologiya, antropologiya, etnologiya hamda so‘nggi yillarda rivojlanayotgan tarixiy genetika kabi fanlar kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy muammo hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotning bosh maqsadi mazkur yo‘nalishlarda erishilgan ilmiy natijalarni bir butun konseptual tizimga keltirish, ularni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish va zamonaviy ilmiy yondashuvlarning ustuvor jihatlarini aniqlashdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida avvalo mustaqillikdan keyingi davrda milliy tarixshunoslikda yuz bergan metodologik o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Xususan, sovet davrida ustuvor bo‘lgan migratsion konsepsiya hamda siyosiy-tarixiy talqinlar bilan mustaqillik

davrida shakllangan mahalliy madaniy uzviylik va avtoxtonizm nazariyalari o‘rtasidagi farqlar ochib beriladi. Shu orqali etnogenez masalasining talqinidagi evolyutsiya va ilmiy qarashlar transformatsiyasi aniqlanadi. Bundan tashqari, tadqiqotning muhim maqsadlaridan biri arxeologik, antropologik va paleogenetik ma’lumotlarni uyg‘un holda tahlil qilishdir.

Arxeologik madaniyatlar, jumladan, o‘troq dehqonchilik va shaharsozlik an’analari bilan bog‘liq topilmalar, antropologik tiplarning shakllanishi hamda zamonaviy genetik tadqiqotlar natijalari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuv o‘zbek xalqi etnogenezini faqat bitta fan doirasida emas, balki ko‘p omilli tarixiy jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqotning yana bir maqsadi – o‘zbek etnogenezida mahalliy komponentning o‘rni va turkiy migratsiyalarning integratsion rolini aniqlashdir. Bu jarayonda mahalliy madaniy uzluksizlik, iqtisodiy hayotning barqarorligi, qabila va elatlarning o‘zaro qo‘shilishi hamda siyosiy jarayonlarning etnik shakllanishga ta’siri kompleks ravishda o‘rganiladi. Natijada etnogenez jarayoni ko‘p bosqichli, tarixiy uzviylikka ega va turli etnik elementlarning integratsiyasi asosida shakllangan murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. Umuman olganda, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘zbek xalqi etnogenezini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqish, mavjud nazariy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish va fanlararo metodologiya asosida yagona konseptual model ishlab chiqishdan iboratdir. Bu esa milliy tarixshunoslikni boyitish, etnik tarixni chuqurroq anglash hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, quyidagi asosiy ilmiy vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Ushbu vazifalar o‘zbek xalqi etnogenezini XXI asr boshlaridagi zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida kompleks va tizimli o‘rganishga qaratilgan. Birinchi navbatda, o‘zbek xalqi etnogenezi masalasining tarixshunoslikdagi rivojlanish bosqichlarini aniqlash va tahlil qilish vazifasi qo‘yiladi. Bunda sovet davri tarixshunosligida shakllangan migratsion konsepsiya, siyosiy-etnik jarayonlarga asoslangan talqinlar hamda mustaqillik davrida yuzaga kelgan mahalliy avtoxtonizm va madaniy uzviylik nazariyalari o‘rtasidagi metodologik farqlar ochib beriladi. Mazkur vazifa orqali etnogenez masalasining talqinidagi ilmiy evolyutsiya va konseptual o‘zgarishlar aniqlanadi.

Ikkinchi vazifa – arxeologik manbalarni tahlil qilish orqali etnik shakllanish jarayonining moddiy asoslarini yoritishdir. Qadimgi dehqonchilik madaniyatlari, sug‘orish tizimlari, shaharsozlik an’analari, hunarmandchilik va ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanishi etnogenez jarayonining iqtisodiy negizi sifatida ko‘rib chiqiladi. Arxeologik madaniyatlar o‘rtasidagi uzviylik va davomiylikni

aniqlash orqali mahalliy madaniy asosning barqarorligi ilmiy dalillar bilan asoslanadi.

Uchinchi vazifa – antropologik materiallarni o‘rganish asosida biologik uzviylik masalasini tahlil qilishdir. Kraniologik, osteologik va boshqa antropologik tadqiqotlar natijalari yordamida o‘zbek xalqi shakllanishidagi asosiy antropologik komponentlar, ularning tarixiy bosqichlari hamda o‘zaro integratsiyasi aniqlanadi. Bu orqali etnogenez jarayonida biologik va madaniy omillarning o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi.

To‘rtinchi vazifa – zamonaviy paleogenetik va DNK tadqiqotlari natijalarini tahlil qilish va ularni tarixiy hamda arxeologik ma’lumotlar bilan solishtirishdir. Markaziy Osiyoning migratsion chorraha sifatidagi o‘rni, genofond tarkibidagi mahalliy va tashqi komponentlar nisbati hamda populyatsion tarix masalalari fanlararo yondashuv asosida baholanadi. Bu vazifa etnogenezni yanada aniqroq va ilmiy asoslangan tarzda talqin qilish imkonini beradi.

Beshinchi vazifa – mavjud ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish orqali yagona konseptual model ishlab chiqishdir. Migratsion nazariya va mahalliy uzviylik konsepsiyasining kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi hamda ularni uyg‘unlashtiruvchi integrativ yondashuv taklif etiladi. Bu orqali o‘zbek etnogenezi ko‘p bosqichli, ko‘p omilli va murakkab tarixiy jarayon sifatida asoslanadi.

Shuningdek, tadqiqot vazifalari qatorida o‘zbek xalqi etnogenezining ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillar bilan bog‘liqligini aniqlash, etnik integratsiya jarayonlarining tarixiy mexanizmlarini tushuntirish ham muhim o‘rin tutadi. Natijada mazkur vazifalarning amalga oshirilishi o‘zbek xalqi etnogenezini biryoqlama talqindan chiqarib, uni fanlararo ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, o‘zbek xalqi etnogenezini XXI asr boshlarida shakllangan zamonaviy fanlararo metodologiya asosida kompleks tarzda tahlil qilishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Ilgari etnogenez masalasi ko‘proq tarixiy-siyosiy jarayonlar yoki alohida arxeologik va antropologik ma’lumotlar doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, ushbu tadqiqotda arxeologiya, antropologiya, tarixshunoslik va paleogenetika natijalari yagona konseptual tizimga keltiriladi. Bu yondashuv etnogenezni biryoqlama emas, balki ko‘p omilli va uzluksiz tarixiy jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning muhim ilmiy yangiliklaridan biri – migratsion konsepsiya va mahalliy avtoxtonizm nazariyalarini qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni integrativ model asosida uyg‘unlashtirishga urinishdir. Ilmiy adabiyotlarda ushbu ikki yondashuv ko‘pincha alohida va muqobil nazariyalar sifatida talqin etilgan. Mazkur ishda esa o‘zbek etnogenezi mahalliy madaniy uzviylik asosida shakllangan bo‘lib, turkiy migratsiyalar esa integratsion va transformatsion omil

sifatida qatnashganligi ilmiy asosda yoritiladi. Bu esa mavjud konsepsiyalarni sintez qilish orqali yangi nazariy model taklif etishga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqotda arxeologik madaniyatlarning uzviyligi va davomiyligi masalasi zamonaviy ilmiy qarashlar asosida qayta ko‘rib chiqiladi.

Qadimgi dehqonchilik, sug‘orish tizimlari, shaharsozlik va hunarmandchilik an’analari etnik shakllanish jarayonining moddiy-iqtisodiy asosi sifatida baholanadi. Bu jarayonda madaniy merosning uzluksizligi etnogenezning muhim omili sifatida ilmiy dalillar bilan asoslanadi. Yana bir ilmiy yangilik – antropologik va paleogenetik ma’lumotlarning qiyosiy tahlili orqali biologik uzviylik va populyatsion tarix masalasining kengroq kontekstda ochib berilishidir. Zamonaviy DNK va paleogenetik tadqiqotlar natijalari arxeologik hamda tarixiy ma’lumotlar bilan solishtiriladi. Natijada o‘zbek xalqi genofondida mahalliy komponentning ustuvorligi va tarixiy davrlardagi migratsion jarayonlarning integratsion xarakteri aniqlanadi.

Bu esa etnogenezni ilmiy asosda yanada chuqurroq talqin qilish imkonini beradi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda o‘zbek etnogenezi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy omillar bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Etnik shakllanish jarayoni faqat biologik yoki siyosiy omillar bilan emas, balki xo‘jalik tizimi, hududiy barqarorlik, qabila ittifoqlari va madaniy almashinuv jarayonlari bilan bog‘liq kompleks jarayon sifatida talqin etiladi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot o‘zbek xalqi etnogenezini XXI asr ilmiy yondashuvlari asosida qayta ko‘rib chiqib, fanlararo integratsiyalashgan konseptual modelni taklif etadi. Bu esa milliy tarixshunoslikni yangi bosqichga olib chiqish, mavjud ilmiy qarashlarni boyitish hamda etnik tarixni yanada chuqurroq va ilmiy asoslangan holda tushuntirishga xizmat qiladi. Masalan, maqolalardan biri o‘zbek xalqi etnogenezining shakllanishida moddiy madaniyat va yozma manbalar sezilarli rol o‘ynaganini qayd etadi. Bu tadqiqot o‘zbek xalqi ilk ajdodlarining elat bo‘lib shakllanish jarayoni, ularning urug‘-qabila tuzilishidan millat darajasiga o‘sish jarayonini moddiy madaniyat orqali yoritadi.

Shuningdek, Yuldosheva va Rustamova tomonidan chop etilgan maqolada mintaqaviy antropologik va etnik transformatsiyalar orqali o‘zbek xalqining turmush tarzi va etnik tarkibini o‘rganish masalalari tahlil qilingan. Ular etnogenezni faqat biror etnik guruhdan kelib chiqqan bir jarayon sifatida emas, balki boshqa xalqlar bilan o‘zaro munosabatdagi madaniy va geografik o‘zgarishlar orqali ko‘rishga intilgan. Bu yondashuvlar etnogenezni kompleks jarayon sifatida ko‘rishga urinib, faqat migratsion yoki siyosiy izohdan tashqari, antropologiya va geografiya orqali ham tahlilni talab qiladi (Yuldosheva B., Rustamova Sh., 2024: 4-6). So‘nggi yillarda etnogenez tadqiqotlari ancha fanlararo

yondashuvga ega bo‘lib bormoqda. Bu uslub tarix, antropologiya, arxeologiya va genetika bilimlarini integratsiyalashga asoslanadi. Masalan, Sattorovning maqolalarida qadimgi etnik guruhlar, milliy xususiyatlar va antropologik tipologiyalar tahlil qilinadi, bu esa etnogenez jarayonining biologik va madaniy omillarini ko‘rsatadi. Zamonimizda ilmiy tahlil etnogenezni faqat tarixiy manbalarga tayanib o‘rganishdan o‘tib, antropologik ma’lumotlar va antropokulturni integratsiyalashga intilmoqda. Masalan, jahon ilmiy jurnalida chop etilgan maqolada O‘zbekiston hududidagi kichik etnik guruhlar (masalan, Qurama etnik guruhi) tarixiy kontekstda o‘rganilib, ularning umumiy millat jarayoni bilan aloqasi tahlil qilingan. Bu kabi tadqiqotlar etnogenezni yanada nozik va ko‘p qirrali tasvirlashga imkon beradi (Ibragimova M., 2024: 110-116). Nurbek Sattorovning “O‘zbek xalqi etnogeneziga oid ma’lumotlar tahlili” (2022) maqolasi etnogenez bo‘yicha arxiv va tarixiy manbalarga asoslanib, qadimgi davrlardan boshlab bir nechta etnik komponentlar o‘zaro integratsiyasi jarayonini sistematik tarzda tahlil qiladi. Ushbu ilmiy maqolada etnogenez jarayonining qadimgi bosqichlari va tarixiy dalillar ko‘rib chiqiladi, shuningdek, bu jarayonni ilmiy adabiyotlardagi turli qarashlar bilan solishtirish imkoniyati mavjud. Ahmadali Asqarovning “O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” (2007) asari o‘zbek xalqi etnogeneziga bag‘ishlangan ilk yirik ilmiy monografiyalardan biridir. Mazkur kitobda muallif O‘zbekiston hududida etnik jarayonlarning uzluksiz rivojlanishiga asoslanib, o‘zbek etnosining shakllanishi qadimgi turkiy va eroniy tilli xalqlar (masalan, sug‘diylar, xorazmiylar) hamda turkiy qabilalar o‘zaro integratsiyasi natijasida yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Asqarov bu qarashni arxeologik topilmalar hamda yozma manbalar tahlili bilan mustahkamlaydi. Uning yondashuvi ilmiy jihatdan salmoqli bo‘lib, mahalliy madaniy uzviylik va turkiy migratsiyalarni birgalikda tahlil qilishga urg‘u beradi. Bu qarash etnogenezni bir tomonlama migratsion emas, balki ko‘p qatlamli tizimli jarayon sifatida talqin qiladi (Аскаров A., 2007: 56-61). Karim Shoniyozovning “O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni” (2001) asari an’anaviy tarixiy va etnografik yondashuvga asoslanadi. Unda o‘zbek etnogenezining mintaqaviy kontekstdagi murakkab jarayoni yoritilgan bo‘lib, u etnik birliklar tarixi, qadimgi qabila tuzilmalarining roli va ularning o‘zaro munosabatlarini yoritadi. Shoniyozovning ilmiy ishlari ko‘p jihatdan o‘zbek xalqi tarixi va etnik tafakkurining to‘liq bashoratli ko‘rinishini rivojlantirishga qaratilgan. U etnogenezni davrlashtiradi va davlatshunoslik jarayonlarini etnik tarix bilan uyg‘unlashtiradi (Amonkulova D., 2023: 180-183).

XXI asr boshlarida o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganishda yangi ilmiy yo‘nalishlardan biri tarixiy genetika va paleogenetika hisoblanadi. Ushbu yondashuv qadimgi va zamonaviy aholining DNK namunalarini tahlil qilish orqali

etnik guruhlarning kelib chiqishi, migratsiya jarayonlari va genetik integratsiyasini aniqlash imkonini beradi. Genetik tadqiqotlar tarixiy manbalar va arxeologik ma’lumotlar bilan birgalikda qo‘llanilganda etnogenez jarayonining yanada aniqroq rekonstruksiyasini yaratishga yordam beradi. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo hududida olib borilgan genetik tadqiqotlar mintaqa aholisi genofondining murakkab va ko‘p qatlamli shakllanish jarayonini ko‘rsatmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, hozirgi o‘zbek aholisining genetik tarkibida qadimgi eroniy tilli dehqonchilik madaniyatlari, turkiy ko‘chmanchi qabilalar hamda boshqa mintaqaviy etnik guruhlarning izlari mavjudligi aniqlangan. Bu holat o‘zbek xalqining etnogenezi bir martalik migratsiya natijasi emas, balki uzoq davom etgan etnik integratsiya va madaniy sintez jarayoni ekanligini tasdiqlaydi (Damgaard P., 2018: 369-374; Djuraev I., 2019: 658-661). Genetik tahlillar, ayniqsa Y-xromosoma va mitoxondrial DNK asosida olib borilgan tadqiqotlar Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklar turli tarixiy davrlarda sodir bo‘lgan migratsiya va etnik aralashuv jarayonlari natijasida shakllanganini ko‘rsatadi. Bu tadqiqotlar qadimgi ko‘chmanchi turkiy qabilalar va mahalliy dehqonchilik madaniyatlari o‘rtasidagi genetik aloqalarni ham aniqlash imkonini beradi (Jeong C., 2020: 890-904). Shuningdek, paleogenetik tadqiqotlar orqali qadimgi arxeologik yodgorliklardan topilgan inson suyaklari DNKsi o‘rganilib, mintaqaning tarixiy demografik jarayonlari haqida yangi ilmiy ma’lumotlar olinmoqda. Bunday tadqiqotlar natijalari arxeologiya va antropologiya bilan birgalikda qo‘llanilganda o‘zbek xalqi etnogenezining ko‘p qatlamli va uzoq davom etgan tarixiy jarayon ekanligini yanada aniqroq ko‘rsatib beradi (Calafell F., Mateu E., 1998: 1824-1838). Shu tariqa, tarixiy-genetik yondashuv o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganishda muhim metodologik vosita bo‘lib, u arxeologik, antropologik va tarixiy manbalar bilan integratsiyada qo‘llanilganda etnik jarayonlarning ilmiy rekonstruksiyasini yanada to‘liqroq yoritish imkonini beradi.

XXI asr boshlarida o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganishda muhim metodologik yo‘nalishlardan biri fanlararo konsepsiya hisoblanadi. Mazkur yondashuv etnogenez jarayonini faqat tarixiy manbalar asosida emas, balki turli fanlar – arxeologiya, antropologiya, etnologiya, lingvistika va genetika ma’lumotlarini integratsiyalash orqali kompleks tarzda tahlil qilishni nazarda tutadi. Etnogenez masalasi murakkab tarixiy jarayon bo‘lgani sababli uni birgina fan doirasida to‘liq izohlash qiyin. Shu bois zamonaviy tarixshunoslikda fanlararo metodologiya muhim ilmiy konsepsiya sifatida shakllanmoqda. Fanlararo yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlar o‘zbek xalqi etnogenezini ko‘p qatlamli tarixiy jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Masalan, arxeologik tadqiqotlar orqali qadimgi madaniyatlar, aholi manzilgohlari hamda moddiy

madaniyat namunalari o‘rganilib, mintaqada aholi uzviyligi va madaniy rivojlanish jarayonlari aniqlanadi. Bu borada olib borilgan izlanishlar qadimgi Markaziy Osiyo hududida turli madaniyatlar o‘rtasida doimiy madaniy aloqalar va iqtisodiy munosabatlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, antropologiya fanining ma’lumotlari insonlarning biologik xususiyatlari va antropologik tiplarini o‘rganish orqali etnik guruhlar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Antropologik tadqiqotlar natijasida Markaziy Osiyo hududida yashagan qadimgi aholining antropologik tarkibi turli davrlarda turli etnik komponentlar bilan boyib borganini ko‘rish mumkin. Bu esa etnogenez jarayoni uzoq davom etgan etnik integratsiya va madaniy o‘zaro ta’sirlar natijasida shakllanganini ko‘rsatadi. Fanlararo konsepsiyada lingvistika ham muhim o‘rin tutadi. Til tarixini o‘rganish orqali turli etnik guruhlar o‘rtasidagi tarixiy aloqalar, madaniy ta’sirlar va migratsiya jarayonlari haqida muhim ma’lumotlar olish mumkin. Turkiy tillarning Markaziy Osiyoda keng tarqalishi hamda mahalliy eroniy tilli aholining madaniy merosi bilan uyg‘unlashuvi o‘zbek xalqi etnogenezining muhim bosqichlaridan biri sifatida qaraladi. Bu jarayon tilshunoslik va tarixiy manbalarni birgalikda tahlil qilish orqali yanada aniqroq tushuntiriladi. So‘nggi yillarda genetika fanining rivojlanishi fanlararo tadqiqotlarni yanada boyitdi. Paleogenetik tadqiqotlar orqali qadimgi inson suyaklaridan olingan DNK namunalarini tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa mintaqa aholisi genofondining shakllanishi, migratsiya jarayonlari va etnik aralashuv haqida yangi ilmiy ma’lumotlar olish imkonini berdi. Genetik tadqiqotlar Markaziy Osiyo aholisi genofondining ko‘p qatlamli shakllanish jarayonini ko‘rsatib, bu hudud qadimdan turli xalqlar va madaniyatlar chorrahasi bo‘lganini tasdiqlaydi. Shunday qilib, fanlararo konsepsiya o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganishda eng samarali metodologik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Turli fanlar ma’lumotlarini integratsiyalash orqali etnogenez jarayonini yanada chuqurroq va ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu yondashuv o‘zbek xalqining shakllanishi uzoq tarixiy davr davomida turli etnik komponentlar, madaniy jarayonlar va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelgan murakkab tarixiy jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, XXI asr boshlarida o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganish yangi metodologik bosqichga ko‘tarildi. Mustaqillik yillarida milliy tarixshunoslikda yuz bergan ilmiy va konseptual o‘zgarishlar natijasida etnogenez masalasini o‘rganishda an’anaviy yondashuvlar qayta ko‘rib chiqildi hamda zamonaviy fanlararo metodologiya keng qo‘llanila boshlandi. Bu jarayon tarixiy manbalar, arxeologik materiallar, antropologik tadqiqotlar hamda genetik ma’lumotlarni kompleks tahlil qilish imkoniyatini yaratdi. Tadqiqotlar shuni

ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining shakllanishi uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo‘lib, unda qadimgi mahalliy dehqonchilik madaniyatlari, eroniy tilli aholi hamda turkiy qabilalar o‘rtasidagi etnik va madaniy integratsiya muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda shakllangan arxeologik madaniyatlar, jumladan Qovunchi madaniyati, mintaqada madaniy uzviylik va aholi davomiyligini ko‘rsatuvchi muhim tarixiy manba hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar etnogenezni faqat migratsiya jarayonlari orqali izohlash yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Aksincha, etnogenez jarayoni iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri hamda turli etnik guruhlarning uzoq davom etgan integratsiyasi natijasida shakllangan murakkab tarixiy hodisa sifatida qaralmoqda. Bu jarayonni o‘rganishda arxeologiya, antropologiya, lingvistika va genetika fanlari ma’lumotlarining integratsiyasi muhim ilmiy natijalar berayotganini ko‘rish mumkin. Demak, o‘zbek xalqi etnogenezini tadqiq etishda fanlararo yondashuv zamonaviy tarixshunoslikning eng samarali metodologik vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida ham yangi arxeologik topilmalar, antropologik tahlillar va genetik tadqiqotlar asosida bu jarayonni yanada chuqurroq o‘rganish o‘zbek xalqining tarixiy ildizlari va etnik shakllanish bosqichlarini ilmiy jihatdan yanada to‘liqroq yoritishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev A. (2024) O‘zbekiston hududida xalq etnogenezini o‘rganishning dastlabki bosqichlari va migratsion nazariya masalalari // Ilmiy tadqiqotlar jurnali.
2. Abirov V. (2024) Main directions and scientific results of research on the ethnic history of the Uzbek people // Scientific Journal.
3. Ahmadali Asqarov (2007) O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Fan. – 304 b.
4. Amonkulova D. (2023) Karim Shoniyozov ilmiy merosida o‘zbek xalqi etnogenezi masalalari // Tarix va madaniyat. – B. 180-183.
5. Бернштам А. Н. (1951) Древняя Фергана. – Москва–Ленинград: Академия Наук СССР. – 248 с.
6. Бартольд В. В. (1963) Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука. – 760 с.
7. Calafell F., Mateu E., Comas D. et al. (1998) Trading genes along the Silk Road: mtDNA sequences and the origin of Central Asian populations // American Journal of Human Genetics. – Vol. 63. – Pp. 1824-1838.
8. Damgaard P. de B. et al. (2018) The first horse herders and the impact of early Bronze Age steppe expansions into Asia // Nature. – Vol. 557. – Pp. 369-374.

9. Djuraev I. (2019) On the Question of the Relationship of the Population of the Steppes Eurasia and Central Asia in the Bronze Age // Theoretical & Applied Science. – No. 11. – Pp. 658-661.

10. Ibragimova M. A. (2024) Ethnogenesis and Historical Dynamics of the Qurama Ethnic Group in the Tashkent Oasis // European Science Methodical Journal. – Vol. 2(12). – Pp. 110-116.

11. Jeong C. et al. (2020) A Dynamic 6,000-Year Genetic History of Eurasia's Eastern Steppe // Cell. – Vol. 183(4). – Pp. 890-904.

12. Массон М. Е. (1959) Древняя культура Средней Азии. – Ташкент: Издательство АН УзССР. – 312 с.

13. Mirziyoyev Sh. M. (2019) O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. – Prezident rasmiy sayti.

14. Shoniyozov K. (2001) O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq. – 352 b.

15. Uzdaily (2025) Shavkat Mirziyoyev: "It is important to bring living history to the people".

16. Якубовский А. Ю. (1941) Из истории узбекского народа. – Москва–Ленинград: АН СССР. – 210 с.

17. Yuldosheva B., Rustamova Sh. (2024) O'zbekiston tarixiy geografiyasida etnik va madaniy o'zgarishlar // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – B. 4-6.

**REFERENCES:**

1. Abdullayev A. (2024) O'zbekiston hududida xalq etnogenezini o'rganishning dastlabki bosqichlari va migratsion nazariya masalalari // Ilmiy tadqiqotlar jurnali. (In Uzbek)

2. Abirov V. (2024) Main directions and scientific results of research on the ethnic history of the Uzbek people // Scientific Journal. (In English)

3. Ahmadali Asqarov (2007) O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Fan. – 304 b. (In Uzbek)

4. Amonkulova D. (2023) Karim Shoniyozov ilmiy merosida o'zbek xalqi etnogenezi masalalari // Tarix va madaniyat. – B. 180-183. (In Uzbek)

5. Bernshtam A. N. (1951) Drevnyaya Fergana. – Moskva-Leningrad: Akademiya Nauk SSSR. – 248 s. (In Russian)

6. Bartold V. V. (1963) Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya. – Moskva: Nauka. – 760 s. (In Russian)

7. Calafell F., Mateu E., Comas D. et al. (1998) Trading genes along the Silk Road: mtDNA sequences and the origin of Central Asian populations // American Journal of Human Genetics. – Vol. 63. – Pp. 1824–1838. (In English)

8. Damgaard P. de B. et al. (2018) The first horse herders and the impact of early Bronze Age steppe expansions into Asia // Nature. – Vol. 557. – Pp. 369-374. (In English)

9. Djuraev I. (2019) On the Question of the Relationship of the Population of the Steppes Eurasia and Central Asia in the Bronze Age // Theoretical & Applied Science. – No. 11. – Pp. 658-661. (In English)

10. Ibragimova M. A. (2024) Ethnogenesis and Historical Dynamics of the Qurama Ethnic Group in the Tashkent Oasis // European Science Methodical Journal. – Vol. 2(12). – Pp. 110-116. (In English)

11. Jeong C. et al. (2020) A Dynamic 6,000-Year Genetic History of Eurasia's Eastern Steppe // Cell. – Vol. 183(4). – Pp. 890-904. (In English)

12. Masson M. E. (1959) Drevnyaya kul'tura Sredney Azii. – Tashkent: Izdatel'stvo AN UzSSR. – 312 s. (In Russian)

13. Mirziyoyev Sh. M. (2019) O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq. – Prezident rasmiy sayti. (In Uzbek)

14. Shoniyozov K. (2001) O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq. – 352 b. (In Uzbek)

15. Uzdaily (2025) Shavkat Mirziyoyev: "It is important to bring living history to the people". (In English)

16. Yakubovskiy A. Yu. (1941) Iz istorii uzbekskogo naroda. – Moskva–Leningrad: AN SSSR. – 210 s. (In Russian)

17. Yuldosheva B., Rustamova Sh. (2024) O'zbekiston tarixiy geografiyasida etnik va madaniy o'zgarishlar // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – B. 4-6. (In Uzbek)

# HAKIM TERMIZIYNING BILISH NAZARIYASI
# AL-HAKIM AT-TIRMIDHI'S THEORY OF KNOWLEDGE (EPISTEMOLOGY)
# ТЕОРИЯ ПОЗНАНИЯ (ЭПИСТЕМОЛОГИЯ) ХАКИМА ТЕРМИЗИ

https://zenodo.org/records/20667031

**Usmonov Ibrohim Sobirovich**
*O‘zbekiston Respublikasi FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ilmiy kotibi, tarix fanlari nomzodi, dotsent.*
*Tel.: +998 97-130-62-31 mobil,*
*E-mail: i.usmanov@yahoo.com*

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotda Hakim Termiziyning epistemologiyasi islom tafakkurining muhim tushunchalaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi, bu yerda aql, naql va ma’naviy tajriba o‘lchovlari yaxlit doirada kesishadi. Termiziyning bilish nazariyasi uning shariat maqsadlari tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Uning epistemologik qarashlari islom shariati doirasida shakllangan. Hakim Termiziyning epistemologiyasi matnlar germenevtikasiga tayanadi. U matnlarni tor va harfiy tushunishdan voz kechib, shariat maqsadlari doirasida tushunish, hikmatlarni anglab yetish, ma’naviy jihatlarni qamrab olish masalasiga e’tibor qaratadi. Zohiriy omil faqat masalaning tashqi po‘stlog‘inigina tashkil etadi.

Hakim Termiziyning epistemologik qarashlari tasavvuf va fiqh uyg‘unlashuviga xizmat qilgan. Natijada fiqh adabiyotida “shariat sirlari” degan alohida janr shakllangan bo‘lib, u yerda shar’iy hukmlarning ko‘zga ko‘rinmagan hikmatlari va maqsadlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** *bilish nazariyasi, zohir ilmi, botin ilmi, shariat maqsadlari, shariat sirlari, hikmat.*

**Annotation.** This study examines the epistemology of Hakim Termizi as one of the important concepts in Islamic thought, where the dimensions of reason, narrative, and spiritual experience intersect in a holistic manner. Termizi's theory of knowledge is closely linked to his concept of the objectives of Sharia. His epistemological views are formed within the framework of Islamic Sharia. Hakim Termizi's epistemology is based on textual hermeneutics. He rejects a narrow and literal understanding of texts and focuses on their understanding within the framework of Sharia's objectives, the attainment of wisdom, and the embrace of spiritual aspects. The external factor constitutes only the outer shell of the question.

Hakim Termizi's epistemological views contributed to the harmonization of Sufism and jurisprudence. As a result, a special genre of legal literature, called

"secrets of Sharia," emerged, revealing the hidden wisdom and purposes of Sharia rulings.

**Key words:** *theory of knowledge, external science, internal science, goals of Sharia, secrets of Sharia, wisdom.*

**Аннотация.** В данном исследовании рассматривается эпистемология Хакима Термизи как одна из важных концепций исламской мысли, где измерения разума, повествования и духовного опыта пересекаются в целостном круге. Теория познания Термизи тесно связана с его концепцией целей шариата. Его эпистемологические взгляды формируются в рамках исламского шариата. Эпистемология Хакима Термизи основана на герменевтике текстов. Он отказывается от узкого и буквального понимания текстов и сосредотачивается на их понимании в рамках целей шариата, постижении мудрости и охвате духовных аспектов. Внешний фактор составляет лишь внешнюю оболочку вопроса.

Эпистемологические взгляды Хакима Термизи способствовали гармонизации суфизма и юриспруденции. В результате в юридической литературе сформировался особый жанр, называемый «секреты шариата», где раскрываются скрытая мудрость и цели шариатских постановлений.

**Ключевые слова:** *теория познания, внешняя наука, внутренняя наука, цели шариата, тайны шариата, мудрость.*

## KIRISH

Hakim Termiziyning (vaf. 932) bilish nazariyasi (epistemologiya, نظرية المعرفة) umumbashariy va islomiy merosdagi boshqa epistemologik nazariyalar orasida alohida o‘rin tutadi. U bir nechta bilim manbalarini birlashtirgan yaxlit modelni ifodalaydi. Termiziy uchta asosiy o‘lcham – aql, vahiy va qalbni qamrab oluvchi kengroq tushunchani taqdim etadi.

Hakim Termiziyning bilish nazariyasi ilohiy nur tushunchasi bilan chambarchas bog‘lanadi. Bu tushuncha “Alloh – osmonlar va yerning nuridir” (Nur, 35) oyatiga tayanadi. Hakim Termiziy nurlar 9 xil bo‘lib, ularning barchasi Allohning nuridan olinganini aytadi: quyosh, oy, yulduzlar, kun, chaqmoq, olov, ko‘z, javohir, ma’rifat (bilish) nurlari. Bular ichida ma’rifat nuri – eng oliysidir *(Juyushiy M., 1980:261-262)*. Hakim Termiziyga ko‘ra, zohir ilmi sohiblari aql nuri bilan yursalar, botin ilmi egalari esa Allohdan nur bilan qalb yoki idrokka beriladigan ilhom ila harakatlanadilar. Bunga dalil qilib Termiziy Oisha (r.a.) dan rivoyat qilingan quyidagi qudsiy hadisni dalil qilib keltiradi: “Alloh taolo aytadi: Agar bandamni yaxshi ko‘rsam, uning qulog‘i, ko‘zi va yuragi bo‘laman. Toki u Men bilan eshitadi, ko‘radi va aql yuritadi” *(Husayniy A., 1963:447)*. Muqaddas matnlarning botiniy ma’nolarini tushunish uchun qalbda Allohdan berilgan nur

zarurligi Hakim Termiziy tomonidan ko‘p takrorlanadi. Jumladan, “Bayon al-farq” asarida: “Haqiqiy fiqh – qalb fiqhidir. Dindagi fiqh esa, Allohning mo‘min-bandasi qalbiga solgan nurdir. Bu go‘yoki yo‘l ko‘rsatuvchi fonusga o‘xshaydi” *(Termiziy H., 1998:60)* – deydi. Boshqa asarida Termiziy bu nur qanday qilib bandaga berilishini muhokama qiladi: “Agar banda nafsini tarbiyalasa (riyozat), shahvatlardan forig‘ bo‘lsa, ko‘ksini (shahvat tutunlaridan) xoli qilsa, Alloh taolo uning ko‘ksini O‘z nuri bilan ochib, shu nur bilan to‘ldiradi. Shu nur orqali hikmatlarni mulohaza qila boshlaydi, shu mulohazadan amr va nahiyning illatini anglaydi” *(Termiziy H., 1998:72)*.

Hakim Termiziyning barcha asarlarida bilish nazariyasiga oid qarashlarini uchratish mumkin, ammo quyidagi asarlarida bu mavzu ko‘proq muhokama qilingan: “Kitob al-ulum”, “Kitob ad-duot va sidqihim va ahvalihim”, “al-Akyos va-l-mug‘tarrun”, “al-Furuq va man’ at-taroduf”, “Tahsil nazotir al-Qur’on”. Afsuski, avvalgi ikki kitob hozircha topilmagan, ularga “al-Akyos” kitobida Hakim Termiziy ishora qilib ketgan *(Husayniy A., 1963:49)*.

Termiziyning bilish nazariyasi uning shariat maqsadlari tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Uning epistemologik qarashlari islom shariati doirasida shakllangan. Uning uchun bilish – mavhum nazariy tushuncha emas, balki islom shariati hikmatlari va uning maqsadlarini tushunish vositasidir. Termiziy islom qonunchiligi – shunchaki hukmlar to‘plami emas, balki zohiriy va botiniy jihatlarni birlashtirgan keng qamrovli, ma’naviy va axloqiy maqsadlarga ega ilohiy tizim, degan fikrdan kelib chiqadi.

Hakim Termiziyning epistemologiyasi matnlar germenevtikasiga tayanadi. U matnlarni tor va harfiy tushunishdan voz kechib, shariat maqsadlari doirasida tushunish, hikmatlarni anglab yetish, ma’naviy jihatlarni qamrab olish masalasiga e’tibor qaratadi. Zohiriy omil faqat masalaning tashqi po‘stlog‘inigina tashkil etadi. U hukmlarni belgilash va xatti-harakatni tartibga solish uchun kerak. Lekin u bilan chegaralanib qolish ma’naviy turg‘unlik va fiqhiy chegaralanishni keltirib chiqaradi. Botin ilmi esa shariat ortidagi yashiringan ilohiy hikmatni ifoda etadi. Shu orqali Termiziy fiqh va tasavvufni o‘zaro bog‘laydi. Zero, fiqh tashqi jihatni, tasavvuf esa ichki mohiyatni poklaydi, tartibga soladi. Shu ikkovini jamlabgina to‘liq ma’rifatni hosil qilish mumkin.

Hakim Termiziy “Hikmat – ishlarning botiniy qismi va ilmning sirlaridir” degan g‘oyani ilgari surib, shariat – hukmlarning asrorlarini anglash, uning maqsadi botin ilmidir (zohir ilmidan yuz o‘girmagan holda) degan xulosani olib chiqqan *(Zahriy X., 2003:172)*. “Isbot al-ilal” asarida esa hikmat ilmining afzalligi haqida fikr bildiradi: “Hikmat – ilmning botini – yashirin qismi, botin – narsaning

mag‘zidir, zohir – narsaning po‘stlog‘i. Manfaat mag‘izda, po‘stloqda emas” *(Termiziy H., 1998:69).*

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilk hijriy uch asr mobaynida maqosid tushunchasini, garchi o‘sha paytda u “hikmat”, “illat”, “munosabat”, “asror”, “ag‘rod” yoki “maoniy” kabi so‘zlar bilan qo‘llansa-da, mustaqil mavzu sifatida yoritishga e’tibor qaratilmagan edi. Hakim Termiziy asoslab bergan bu yo‘nalish keyinchalik “shariat sirlari” (asror ash-sharia) nomi bilan davom etib, bu mavzuda Abu Sulaymon Xattobiy (931-998), Imom G‘azzoliy (vaf. 1111), Ibn Arabiy (vaf. 1240), Ibn Abdussalom (1181-1262), Ibn Qayyim Javziya (1292-1350), Valiyulloh Dehlaviy (1703-1762) kabi yirik sunniy ulamolar bilan bir qatorda shia ulamolari Bobovayh Qummiy (vaf. 991) va Haydar Omuliy (XIV asr) ham asarlar yozdilar. Bularning ayrimlari Hakim Termiziydan to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sirlangan bo‘lsalar, qolganlari bilvosita uning fikrlariga ergashganlar.

O‘z navbatida G‘azzoliy ham “Ihyo” asarida ushbu mavzuda Hakim Termiziydan katta-katta iqtiboslarni keltirgan *(Radtke B., 1994:910).* Xususan, “Ihyo ulum ad-din”dagi “Zamm al-g‘urur” bobi to‘liq “al-Akyos va-l-mug‘tarrun” asaridan o‘zlashtirilgan. Umuman olganda, “Ihyo”ning “al-Muhlikat” qismi Termiziy asarlariga tayangan holda ta’lif etilgan *(Juyushiy M., 1980:231-232).*

Ibn Arabiy Hakim Termiziyning eng ko‘p ta’sirlangan, uning muxlis izdoshlaridan hisoblanadi. Bir qancha asarlarida Termiziyga ehtiromini, uning fikrlariga izdosh ekanini bayon qilgan. Ibn Arabiy “al-Futuhot” asarida tasavvufiy mavzular qatorida fiqhiy masalalarni ham ko‘rib chiqqan. Uning yondashuvi Termiziyning yondashuvini eslatadi. Ibn Arabiy fiqhiy mavzuni “Asror at-tahora” (Poklik sirlari) deb atalgan 31-bob bilan boshlab, botinni poklash masalasiga ko‘proq urg‘u beradi. Mavzu avvalida shu masala bo‘yicha mazhablarning an’anaviy fiqhga oid fikrlarini jamlaydi. Bu fikrlar odatda farqli bo‘ladi. Ayrim holatlarda qaysi qavlga moyillik bildirishini ko‘rsatib o‘tadi. So‘ngra har qanday masalaning botiniy jihatini ochib beradi *(Ibn Arabiy M., 1999:497-566).*

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot taqqosiy-tahliliy va tarixiy-metodologik yondashuvlarni birlashtiradi. Bu usullar tadqiqotning asosiy maqsadi – Termiziyning bilish nazariyasini (aql, naql va ma’naviy tajriba kesishmasi), uning shariat maqsadlari tushunchasi bilan bog‘liqligini hamda fiqh va tasavvuf uyg‘unlashuvidagi rolini ochib berishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zohir va botin bir-biriga tirgak ekanini Termiziy ko‘plab asarlari qatorida “Bayon al-farq”da ham ta’kidlagan: “Zohir va botin ilmi biri ikkinchisiga muhtoj. Chunki biri shariat bayoni bo‘lib, u Allohning bandalariga hujjatdir. Ikkinchisi esa haqiqat bayonidir... Kimki, zohir ilmi bilan saqlanib, botin ilmini inkor qilsa, u munofiqdir. Kimki, botin ilmi bilan saqlanib, shariatni qoim qilish uchun zohiriy ilmni o‘rganmasa va uni rad etsa, u zindiqdir. Uning botinga oid ilmi haqiqat ilmi emas, balki shaytonning unga qilgan vasvasasidir” *(Termiziy H., 1998:37)*.

O‘zining “Tafsir” asarida Termiziy avom botin masalalari uchun mas’ul emasligi, bu xos mavzu ekanini aytadi: “Omma xalq botin ilmi bo‘yicha mukallaf (javobgar) emas, chunki qalblari shahvat zulmati bilan to‘la. Ular zohir ilmidan ham ojizdirlar. Zohir ilmi – ulamolarga, botin ilmi – hakimlarga. Payg‘ambar (a.s.) dan rivoyat qilinadiki: "Har bir oyatning zohiri va botini bor". Alloh bu ikkovini ilm va hikmat berilgan zotlarda jamlaydi. Ilm ta’lim olish bilan, hikmat esa qalbni poklash bilan egallanadi *(Termiziy H., 2023:21)*.

Hakim Termiziyning bilish nazariyasi ilmni suluk bilan, fiqhni tasavvuf bilan, shariatni maqsadlar bilan bog‘lagan. Shu bilan islomiy fiqhiy tafakkur rivojiga katta hissa qo‘shgan. Bu nazariya maqosidiy va ruhiy mazmun orqali ijtihod ufqini kengaytirdi. Matnlarni tushunishning yangicha yondashuvini taklif eta oldi. Qotib qolgan shakliy qarashlardan voz kechib, ma’naviy-axloqiy kontekstga ko‘proq e’tibor berishga undadi.

Hakim Termiziyning bilish nazariyasi maqosidiy mohiyatni o‘zida mujassam etgani uchun islom adabiyotida hukmlarning maqsadi, hikmati, sirlarini ochib berishni ko‘zlagan “shariat sirlari” yo‘nalishiga asos bo‘ldi.

Hakim Termiziy boshlab bergan “shariat sirlari” mavzusi keyinchalik butun musulmon dunyosida o‘z izdoshlarini topdi. Uning “as-Salot va maqosiduha” asari bu yo‘nalishdagi dastlabki adabiyotlardan hisoblanadi. Eng ko‘zga ko‘ringan islom ulamolari ushbu mavzuda asarlar yoza boshladilar. Bu asarlarning o‘ziga xos jihati shunda ediki, ular shariatning ko‘zga ko‘rinmaydigan taraflarini bayon qilar edilar, hukmlarning mohiyati, kelib chiqish sababi, uning insonga tegadigan manfaati haqida fikr yuritar edilar. Har qanday hukmning anglab yetsa bo‘ladigan hikmati borligini banda bilsa, bu amalni yanada g‘ayrat bilan qilishi mumkinligi aytilar edi. Bu yangi yo‘nalish ham sunniy ham shia olimlari orasida tarqaldi. Natijada shariat maqsadlariga doir sunniy va shia adabiyoti shakllandi.

Hanbaliy mazhabi yirik ulamosi Ibn Qayyim Javziya ham “Asror as-salot” degan kitobida namoz ibodatining boshidan oxirigacha har bir amalining sir-hikmatlarini yozib chiqdi. Ushbu asarida Ibn Qayyim Javziya Hakim Termiziyning “as-Salot va maqosiduha” degan kitobga tayanadi, ammo asar va uning

muallifining nomini keltirmaydi. Jumladan, namoz haqidagi quyidagi hadis sharhida Hakim Termiziyning “Ko‘z quvonchim namozda qilindi” “namoz bilan” deyilmadi” *(Termiziy H., 1965:5).* Yoki “Ey Bilol Namozga chaqir, u bilan bizni rohatlantir” deyildi, “undan” deyilmadi” *(Termiziy H., 1965:5),* degan gaplari Ibn Qayyimda xuddi shunday o‘zgarishsiz keltiriladi *(Javziya I., 2007:83-84).* Keyin esa Ibn Qayyim ushbu hadislarni Hakim Termiziy qilgan sharh doirasida biroz kengaytirib sharhlaydi. Hadislarning ketma-ketligi ham aynan Termiziydagi kabi. Keyin esa, Termiziy sharhlagan “Kim uchun namoz tana a’zolari uchun kishan, qalbi uchun kamoq bo‘lsa, u (Allohdan) qochoq bandadir. Alloh unga namozning shahvoniy nafsini hibs qilishi, ular uchun kechirilish va poklanish bo‘lishi hamda Uning rahmatiga sazovor bo‘lishi uchun buyurdi” *(Termiziy H., 1965:5)* degan gapni Ibn Javziya o‘z uslubida sharhlaydi: “Namoz – tana a’zolari uchun og‘ir kishan, qalbi uchun tor va og‘ir sharoitli qamoq, nafsi uchun mashaqqat bo‘lgan kishi va namoz – qalbi uchun farog‘at, ko‘zi uchun quvonch, tana a’zolari uchun rohat, nafsi uchun bog‘u-bo‘ston va lazzat bo‘lgan kishi farqi. Birinchisi – namoz nafsining qamog‘i, tana a’zolarini halokatga olib boruvchi narsalardan to‘xtatadigan kishan, namoz orqali kechirilish va savob oladi. Yoki Allohga qilgan bandaligi darajasida Uning rahmatiga erishadi, yoki nuqsonli qilgani miqdorida jazolanadi. Keyingisi esa – namoz u uchun bo‘ston, unda qalb farog‘ati, ko‘z quvonchi, nafs lazzati, tana a’zolari rohati, ruh halovatini topadi, unda u farog‘atda orom oladi” *(Javziya I., 2007:83-84)* deya davom etadi. Ko‘rinib turibdiki, Ibn Javziya Hakim Termiziyning ixcham fikrlarini ko‘proq so‘zlar bilan kengaytirishga harakat qilgan, ammo Termiziy chizib bergan mazmundan chetga chiqmagan. Ibn Javziyaning kitobidagi tahorat sirlari, takbir, ruku, sajda kabi amallarning sir va hikmatlarida ham Termiziyga ergashadi. Ibn Qayyim Javziya “Ruh” kitobida ham Termiziydan ko‘plab katta iqtiboslar keltirgan, ammo uning nomi va kitoblarini zikr qilmagan *(Juyushiy M., 1980:235-236).*

Yuqorida aytilganidek, shia olimlari ham “shariat sirlari” mavzusiga e’tibor qaratganlar. Jumladan, Bobovayh Qummiy (vaf. 991) – ko‘zga ko‘ringan shia ulamolaridan. Shialikda e’tirof etilgan shariatga doir to‘rtta kitobning ikkinchi muallifi. Qummiy juda sermahsul ijodkor bo‘lib, 300dan ziyod asar muallifi, ammo uning 20ga yaqinigina bizgacha yetib kelgan. Bobovayh Qummiy maqosidiy shia ulamolaridan bo‘lib, “Jomi’ ilal al-haj”, “Ilal ash-sharoi’ va-l-ahkam va-l-asbab”, “as-Sirr al-maktum ila-l-vaqt al-ma’lum” kabi shu mavzudagi asarlari ma’lum *(Zahriy X., 2003:187).* U ham hukmlarning sababi, siri, hikmati kabi mavzularni o‘z asarlarida muhokama qilgan.

Yana bir shia olimi Haydar Omuliy “Asror ash-sharia va atvor at-tariqa va anvor al-haqiqa” degan kitob yozib, unda masalalarni shariat, tariqat va haqiqat

kesimida muhokama qiladi. Jumladan, diniy masalalarni mazkur uch kategoriya doirasida bayon qiladi. Masalan, tahorat – shariat doirasida jismoniy poklanish, tariqat doirasida – tana a'zolarini noto‘g‘ri ishlar qilishdan saqlash, haqiqat doirasida – niyat va o‘y-fikrlar pokligini asrash. Xuddi shunday g‘usl, tayammum, namoz, ro‘za, zakot, haj va jihod masalalarini shu uchlik kesimida muhokama qiladi. Omuliy 63 yoshida “Haq taolo buyrug‘i bilan” Ibn Arabiyning “Fusus al-hikam” asarini sharhlaganini zikr qiladi *(Omuliy H., 2012:24)*.

Valiyulloh Dehlaviy (1703–1762)ning “Hujjatulloh al-bolig‘a” asarida hukmlarning hikmatlarini Qur'on va hadisga tayanib bayon qiladi, zero ularda shu hikmatlarga ishoralar bor. Shariat sirlariga bag‘ishlangan asarlarda odatda eng muhim hukmlarning manfaatlari va hikmatlari bayon qilinsa, Dehlaviy shariatning turli katta-kichik masalalarini keng doirada qamrab olgan *(Balonpuriy S., 2010:23)*. “Hujjatulloh al-bolig‘a” o‘zidan oldingi Hakim Termiziy va ibn Arabiyning an'anasining davom ettirib, shariat ta'limoti ortidagi hikmatlarni bayon qildi. Valiyulloh Dehlaviy uni “ilm asror ad-din” deb atadi. Bu ilmni u “eng yuqori martabali”, “boshqa shar'iy ilmlardan avlo”, “qadri ulug‘”, “bu ilm bilan inson shariat keltirgan narsani anglaydi” kabi iboralar bilan maqtaydi *(Dehlaviy V., 2010:36)*. Shuningdek, Dehlaviy bu ilm “qiyos qilaman” deb “mushokala qilib qo‘yish”ga yo‘liqishdan saqlashini aytadi *(Dehlaviy V., 2010:37)*. Dehlaviy bu o‘rinda o‘zidan sakkiz asr oldin yashagan Hakim Termiziy qo‘llagani kabi “mushokala” atamasini noto‘g‘ri qilingan qiyosga nisbatan ishlatadi.

Dehlaviy “Hujjatulloh al-bolig‘a” asarida shar'iy hukmlar hech qanday foyda-hikmatsiz *(masolih)* joriy etilgan degan fikrni – “buzuq gumon” deb baholab, uni tushuntirish uchun misol ham keltirgan: “Bu xuddiki, bir janob o‘z quli itoatkorligini sinash uchun foydasiz bo‘lgan tosh ko‘tarish yoki daraxtni ushlab ko‘rishni unga buyuradi. Bu yumush faqat sinov uchun, unda boshqa foyda yo‘q. Itoati va osiyligi darajasida qul qilgan ishi uchun mukofot-jazo oladi, bu – buzuq gumon, u sunnatni va asrlar davomida xayrli deb ko‘rilgan ijmoni yolg‘onga chiqaradi”. Kimki quyidagilarni bilishdan ojiz bo‘lsa: amallar – niyatlarga va ular chiqadigan ruhiy holatlarga ko‘ra bo‘lishi; namoz – Allohning zikri va unga munojot qilish uchun buyurilgani; zakot – baxillik razolatini daf qilish va faqirlar ehtiyojlarini qondirish uchun joriy qilingani; ro‘za – nafsni sindirish; haj – Allohning shiorlarini ulug‘lash; qasos – suiqasdni to‘xtatish; jazo va kafforatlar – gunohlardan tiyish; jihod – Allohning so‘zi oliy bo‘lishi va fitnani ketkazish, o‘zaro munosabatlar *(muamalot)* va nikoh hukmlari esa adolatni o‘rnatish uchun joriy qilingan *(Dehlaviy V., 2010:45-46)*. Dehlaviy shularni bilmagan kishini “dengizga sho‘ng‘ib, ignachalik suv yuqtirmagan” deb tavsiflaydi, va bunday kishining “so‘zlari inobatga olinishidan ko‘ra, uning o‘z holiga yig‘lashi haqliroq”

ekanini aytadi *(Dehlaviy V., 2010:46)*. “Hujjatulloh al-bolig‘a”ning muqaddimasidagi bu fikrlar xuddi Hakim Termiziyning “Isbot al-ilal” asarining muqaddimasidagi gaplarga nechog‘lik o‘xshash. “Isbot al-ilal” asarida “Bismillah”dan keyin shunday bayon qilinadi: “Sen buyruq va qaytariq *(al-amr va-n-nahy)* illatlarining isboti bo‘yicha kishilar munozara qilgan narsalar haqida mendan so‘rading. Odamlar illatlar yo‘q narsa ekanini aytadilar. Ammo hukmlarning illatlari mavjud, ularni anglaganlar anglaydi, bilmaganlar bilmaydi” *(Termiziy H., 1998:67)*. So‘ngra muallif hukmlarning illatlari mavjudligini isbotlash uchun avvalambor asarning kirish qismida oyat va hadislarga, so‘ngra mantiqiy usullarga tayanadi. Mantiqiy usullarga misol: “Alloh taolo bandalariga biror narsani buyursa yoki biror narsadan qaytarsa, behudaga qilganmi yoki hikmat bilanmi? Agar behudaga desa, Allohning buyruqlariga beparvo va bepisand bo‘lib, uni o‘yinga yo‘ygan bo‘ladi, Agar “amr va nahy hikmatdan chiqarilgan” desa, unga “qani o‘sha hikmat, nima ekan u?” deyiladi” ” *(Termiziy H., 1998:69)*. Shundan so‘ng alloma hikmat ilmi orqaligina hukmlarning illatini aniqlash mumkinligini aytib, hikmat ilmining afzalligini ko‘rsatadi: “Hikmat – ilmning botini – yashirin qismi, botin – narsaning mag‘zidir, zohir – narsaning po‘stlog‘i. Manfaat mag‘izda, po‘stloqda emas” *(Termiziy H., 1998:69)*. Shuningdek, Valiyulloh Dehlaviy asarda ayrim hukmlarning sabab-hikmat-sirlarini xuddi Hakim Termiziy “Navodir al-usul”da ko‘rib chiqqan masalalar doirasida bayon qiladi: uyg‘ongan kishi qo‘l yuvishi, nega burun qoqilishi, uyqu tahoratni sindirishi, xonadonlarga ruxsat so‘rab kirish, mushuklar uy ichida yurishi kabi masalalar *(Dehlaviy V., 2010:47)*. XX asr ulamolaridan hindistonlik Ashraf Ali Tahhonaviy (1863-1943) ham Valiyulloh Dehlaviydan ta’sirlanib, shariat sirlari mavzusida kitob yozgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ko‘rilgan manbalar asosida “shariat sirlari” yo‘nalishining asosiy xususiyatlarini umumlashtiramiz:

- bu mavzuda qalam yuritgan mualliflar tasavvuf vakili bo‘ladi yoki tasavvufga moyil bo‘ladi;
- biror fiqhiy hukm haqida so‘z ketsa, uning fiqhiy illati (sababi) va maqsadi (shariat maqsadlari) ham ko‘rsatiladi;
- bu yo‘nalishdagi asarlarda fiqhiy masalalarning axloqiy jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratiladi;
- bu yo‘nalishda to‘rt sunniy mazhabi olimlari va shia olimlari ham asarlar bitganlar;
- Hakim Termiziy “shariat sirlari” yo‘nalishida asarlar bitgan ilk mualliflardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Termiziyning bilish nazariyasi faqatgina tasavvufiy nazariya bo‘lib cheklanib qolmadi, u epistemologik tafakkur rivojiga xizmat qildi, chunki u bilishni aql, matn va ruhiy-axloqiy tajriba yaxlitligi asosida qayta ko‘rib chiqdi. Ushbu nazariya – zohir va botin, aql va vahiy, amaliyot va nazariyani uyg‘unlashtirgan hamda muqaddas matnlarning tub mohiyatini anglash orqali shariat maqsadlari, hikmat va sirlari, yuksak ma’naviy-axloqiy me’yorlarga asoslangan ta’limot bo‘lib, fiqh va tasavvufni o‘zaro bog‘laydigan asoslardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Bu mavzuni yanada chuqurroq tadqiq etish islom huquqshunosligida epistemologik tafakkur evolyutsiyasini kuzatish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Balonpuriy S. (2010). Valiyulloh Dehlaviyning “Hujjatulloh al-bolig‘a” asarining kirish qismi. – Bayrut: Dar Ibn Kasir, T.1.
2. Dehlaviy V. (2010). Hujjatulloh al-bolig‘a / S.Balonpuriy nashri. – Bayrut: Dar Ibn Kasir, T.1.
3. Husayniy A. (1963). Al-ma’rifa inda al-Hakim at-Termiziy. – Qohira: Dor al-katib al-arabiy.
4. Ibn Arabiy Muhiddin (1999). Al-Futuhot al-Makkiya / A.Shamsiddin nashri. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, T.1.
5. Javziya Ibn Qayyim (2007). Asror as-solat / Abu Ubayda Abdulg‘aniy nashri. – Qohira: Maktaba ibn al-Islam.
6. Juyushiy Muhammad (1981). Al-Hakim at-Termiziy: dirosa li osorihi va afkorihi. – Qohira: Dar an-Nahda al-arabiyya.
7. Omuliy H. (2012). Asror ash-sharia va atvor at-tariqa va anvor al-haqiqa / Rizo Muhammad tahqiqi. – Bayrut: Dar al-mahajja al-baydo.
8. Radtke B. (1994). “Ijtihad and Neo-Sufism”, Asiatische Studien = Études Asiatiques: Vol. 48: num. 3.
9. Termiziy H. (1965). As-Salot va maqosiduha / H.Zaydon nashri. – Qohira: Dar al-kitab al-arabiy.
10. Termiziy H. (1998). Bayon al-farq / A.Soyih nashri. – Qohira: Markaz al-kitab li-n-nashr.
11. Termiziy H. (1998). Isbot al-ilal. – Kasablanka: an-Najah al-jadida.
12. Termiziy H. (2023). Bahr at-Tafsir / J.Cho‘tmatov nashrga tayyorlagan. – Istanbul: Dor al-kutub al-arabiyya. – B. 201.
13. Zahriy Xolid (2003). Ta’lil ash-sharia bayna-s-sunna va-sh-shia. – Bayrut: Dar al-hadiy.

## REFERENCES:

1. Balonpuriy S. (2010). Valiyulloh Dehlaviyning “Hujjatulloh al-bolig‘a” asarining kirish qismi. – Bayrut: Dar Ibn Kasir, T.1. (In Uzbek)

2. Dehlaviy V. (2010). Hujjatulloh al-bolig‘a / S.Balonpuriy nashri. – Bayrut: Dar Ibn Kasir, T.1. (In arabic)

3. Husayniy A. (1963). Al-ma’rifa inda al-Hakim at-Termiziy. – Qohira: Dor al-katib al-arabiy. (In arabic)

4. Ibn Arabiy Muhiddin (1999). Al-Futuhot al-Makkiya / A.Shamsiddin nashri. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, T.1. (In arabic)

5. Javziya Ibn Qayyim (2007). Asror as-solat / Abu Ubayda Abdulg‘aniy nashri. – Qohira: Maktaba ibn al-Islam. (In arabic)

6. Juyushiy Muhammad (1981). Al-Hakim at-Termiziy: dirosa li osorihi va afkorihi. – Qohira: Dar an-Nahda al-arabiyya. (In arabic)

7. Omuliy H. (2012). Asror ash-sharia va atvor at-tariqa va anvor al-haqiqa / Rizo Muhammad tahqiqi. – Bayrut: Dar al-mahajja al-baydo. (In arabic)

8. Radtke B. (1994). “Ijtihad and Neo-Sufism”, Asiatische Studien = Études Asiatiques: Vol. 48: num. 3. (In arabic)

9. Termiziy H. (1965). As-Salot va maqosiduha / H.Zaydon nashri. – Qohira: Dar al-kitab al-arabiy. (In arabic)

10. Termiziy H. (1998). Bayon al-farq / A.Soyih nashri. – Qohira: Markaz al-kitab li-n-nashr. (In arabic)

11. Termiziy H. (1998). Isbot al-ilal. – Kasablanka: an-Najah al-jadida. (In arabic)

12. Termiziy H. (2023). Bahr at-Tafsir / J.Cho‘tmatov nashrga tayyorlagan. – Istanbul: Dor al-kutub al-arabiyya. – B. 201. (In arabic)

13. Zahriy Xolid (2003). Ta’lil ash-sharia bayna-s-sunna va-sh-shia. – Bayrut: Dar al-hadiy. (In arabic)

# QO‘QON XONLIGINING XALQARO SAVDO ALOQALARI, SAYYOH VA ELCHILAR ESDALIKLARIDA: TARIXIY MANBALAR TAHLILI

# INTERNATIONAL TRADE RELATIONS OF THE KOKAND KHANATE IN THE ACCOUNTS OF TRAVELERS AND ENVOYS: AN ANALYSIS OF HISTORICAL SOURCES

# МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ СВЯЗИ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА В ЗАПИСКАХ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ И ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ПОСЛАННИКОВ: АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ

https://zenodo.org/records/20667051

**Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*
*Tarix kafedrasi dotsenti, (PhD)*
*Tel.: +998 97-811-11-04*
*E-mail: abduvali4111104@gmail.com*
*https://orcid.org/0009-0003-6958-0605*

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada XVIII asrda Qo‘qon xonligining O‘rta Osiyo xalqlari, shuningdek, Xitoy, Sharqiy Turkiston bilan savdo aloqalari o‘rnatgan vositachi davlat bo‘lib qolganligi haqida ma’lumotlar berib o‘tiladi. Shuningdek, Xitoy tovarlari Qo‘qon xonligi orqali Buxoro va Xiva xonliklariga, ular orqali esa Sharq davlatlariga kirib borganligiga izoh beriladi. Qo‘qon xonligining Rossiya bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo‘lganligi, Toshkentning xonlik tasarrufiga kiritilishi bilan Rossiyaning Qo‘qon xonligiga kirib borishi haqida ayrim ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada O‘rta Osiyo xonliklarining tashqi iqtisodiy aloqalari to‘g‘risida ayrim ma’lumotlarni to‘liq tasavvur qilish imkonini berilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Xiva xonligi, Buxoro amirligi, Sharqiy Turkiston, Dashti Qipchoq, Rossiya, Hindiston, Xitoy, V.V. Vel’yaminov-Zernov.*

**Annotation.** This article provides information on the fact that since the XVIII century the Kokand Khanate has become an intermediary state, which established trade relations with the peoples of Central Asia, as well as China and East Turkestan. It is also explained that Chinese goods entered the Bukhara and Khiva khanates through the Kokand khanate, and through them to the Eastern countries. Some information is given about the importance of the relations of the Kokand khanate with Russia, the entry of Russia into the Kokand khanate with the annexation of Tashkent to the khanate. The article also provides an overview of some of the details of the foreign economic relations of the Central Asian khanates.

**Keywords:** *Khiva Khanate, Bukhara Emirate, Eastern Turkestan, Dasht-i Qipchaq, Russia, India, China, V.V.Velyaminov-Zernov.*

**Аннотация.** В этой статье приводится информация о том, что с XVIII века Кокандское ханство стало промежуточным государством, которое установило торговые отношения с народами Центральной Азии, а также Китая и Восточного Туркестана. Также объясняется, что китайские товары поступали в Бухарское и Хивинское ханства через Кокандское ханство и через них в восточные страны. Приводится некоторая информация о важности отношений Кокандского ханства с Россией, вступлении России в Кокандское ханство с присоединением Ташкента к ханству. В статье также дается обзор некоторых деталей внешнеэкономических связей центрально-азиатских ханств.

**Ключевые слова:** *Хивинское ханство, Бухарский эмират, Восточный Туркестан, Дешт-и-Кыпчак, Россия, Индия, Китай, В.В. Вельяминов-Зернов.*

## KIRISH

Vatanimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan jamiyatimizning turli sohalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi, jumladan tarix sohasida ham ko‘zga tashlanar darajada ilmiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Haqqoniy tarixni yoritish borasida keng imkoniyatlar ochilib, tadqiqotchilarga barcha imkoniyatlar davlatimiz tomonidan yaratib berildi, bu yo‘ldagi qo‘yilgan asosiy talab va maqsad esa faqatgina tarixni xolisona yoritishdan iborat. Mazkur maqolada ham Rossiya imperiyasi, Angliya va boshqa qo‘shni davlatlarning Markaziy Osiyo, shu jumladan uchala xonlik bilan olib borgan savdo-iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy va diplomatik munosabatlarda elchilar va sayyohlarning esdaliklariga katta e’tibor qaratilgan. O‘rta Osiyo davlatlari uzoq davrlar mobaynida Xitoy, Hindiston, Eron, Afg‘oniston va Sharqdagi boshqa mamlakatlar hamda Rossiya davlati bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo‘lib keldi. Ayniqsa, O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan hozirgi kundagi yaqin do‘stona aloqalarining ildizlari ana o‘sha uzoq tarixiy davrga borib taqaladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qo‘qon xonligining xalqaro savdo aloqalari masalasi tarixshunoslikda nisbatan keng yoritilgan bo‘lib, mazkur mavzuni o‘rganishda mahalliy qo‘lyozma manbalar, rus sayyohlari va elchilari esdaliklari, shuningdek, XIX-XX asr ilmiy tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu manbalar Qo‘qon xonligining O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Hindiston, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan olib borgan savdo-iqtisodiy munosabatlarini yoritishda asosiy ilmiy tayanch vazifasini bajaradi.

Eng avvalo, Qo‘qon xonligining tashqi savdo aloqalarini o‘rganishda mahalliy sharq manbalari alohida ahamiyatga ega. Zahiriddin Muhammad

Boburning “Boburnoma” asarida Andijon va Farg‘ona vodiysining Sharqiy Turkiston bilan qadimiy savdo yo‘llari, ayniqsa karvon savdosi haqida muhim ma’lumotlar uchraydi. Muallif Xitoydan Andijonga kelgan yirik savdo karvonlarini tilga olib, bu hududning Sharq va Movarounnahr o‘rtasidagi vositachilik mavqeini ko‘rsatadi. Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asarida esa Toshkent, Farg‘ona va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi savdo yo‘llari, eksport mahsulotlari hamda dorivor o‘simliklar savdosi xususida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan (Маҳмуд ибн Вали, 1977: 57).

Rus sayyohlari va elchilari qoldirgan esdaliklar Qo‘qon xonligining savdo aloqalarini tadqiq etishda eng muhim tashqi manbalar sirasiga kiradi. Jumladan, Filipp Nazarovning “Записки о некоторых народах и землях средней части Азии” asari Qo‘qon xonligining XIX asr boshlaridagi savdo-iqtisodiy holatini yorituvchi dastlabki rus manbalaridan biridir. Muallif Qo‘qonning Xitoy, Buxoro, Xiva va Sharqiy Eron bilan olib borgan savdo aloqalari, karvon yo‘llari va elchilik munosabatlari haqida muhim ma’lumotlar beradi (Назаров Ф., 1968). Ushbu asar Qo‘qon xonligining tashqi savdosini bevosita kuzatgan muallif tomonidan yozilgani bilan alohida qimmatlidir.

Shuningdek, rus davri statistik va ilmiy nashrlari ham mavzuni yoritishda muhim ahamiyatga ega. “Туркестанский сборник”, “Азиатский вестник”, “Вестник ИРГО”, “Обозрение Кокандского ханства” kabi to‘plamlarda Qo‘qon xonligining ichki bozorlari, karvonsaroylari, eksport-import mahsulotlari va savdo yo‘llari haqida ko‘plab statistik ma’lumotlar jamlangan (О нынешнем состоянии..., 1826: 229-230; Обозрение Кокандского ханства 1849: 186).

Zamonaviy tadqiqotlarda ham Qo‘qon xonligining savdo aloqalari masalasi alohida o‘rganilgan. Xususan, M.Yu.Yunusxodjayeva Toshkentning Rossiya va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi vositachilik rolini ochib bergan bo‘lsa (Юнусходжаева М.Ю., 1990: 140), A.Sh.Shamansurova O‘rta Osiyo-Afg‘oniston savdo aloqalarini tahlil qilgan (Шамансурова А.Ш., 1963: 12-б). Ushbu tadqiqotlar Qo‘qon xonligining xalqaro savdo tizimidagi o‘rnini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida tarixiy-tahliliy**,** qiyosiy**,** manbashunoslik**,** tizimli-yondashuv hamda statistik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, tizimli yondashuv metodi asosida savdo aloqalari iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganildi. Bu esa Qo‘qon xonligining xalqaro savdo tizimidagi faoliyatini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo xonliklari, qo‘shni Xitoy, Hindiston, Qirg‘iz dashtlari bilan jadal savdo munosabatlarini o‘rnatgan. Ammo qo‘shni ikki davlat o‘rtasidagi XVIII va XIX asrlardagi aloqalar etarli darajada o‘rganilgan emas. Vaholanki, bu davr tarixini o‘rganish uchun muhim qo‘lyozma manbalar, rus sayyohlari va elchilarining hisobotlarida qiziqarli ma’lumotlar mavjud. O‘rta

Osiyo bilan Sharqiy Turkiston hamda Xitoy o‘rtasidagi XVI-XVII asrlarda mavjud bo‘lgan o‘zaro munosabatlar to‘g‘risida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”, Sang Muhammad Badaxshiyning “Tarixi Badaxshon”, Mirza Olim Toshkandiyning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin”, Niyoz Muhammad Xo‘qandiyning “Tarixi Shohruhiy”, Qurbon Ali Ayog‘uziyning “Tavorixi xamsayi sharqiy” asarlarida noyob ma’lumotlar mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning Xitoydan kelayotgan Andijon karvonida ming odam bo‘lganligi haqidagi ma’lumoti, bu ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy aloqalarning uzoq o‘tmishga borib taqalishidan guvohlik beradi.

Qo‘qon xonligining nisbatan taraqqiy etishiga uning qulay geografik hudud, karvon yo‘llari kesishgan va dehqonchiligi qadimdan taraqqiy etganligiga nisbatan bo‘lishi mumkin. Xonlikning markazi va bosh shahri bo‘lgan Qo‘qonga oid ma’lumotlarga ko‘ra, uning yoshi 2000 yildan ortiqdir. Qo‘qon shahri XVIII-XIX asr birinchi yarmida nafaqat xonlikning, ayni paytda O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri edi. O‘tmishda Qo‘qon shahri bir necha marta dushmanlar tomonidan talanib, vayron qilingan. Ma’lumki, XIII asrda mo‘g‘ullar O‘rta Osiyoni istilo qilgan davrda juda ko‘p shaharlar vayron qilinib, yer bilan yakson qilingan edi. Shunday shaharlar orasida Qo‘qon ham bor edi. Shundan so‘ng Qo‘qon faqat 1709-yili qayta tiklangan va 1740-yilda shahar xonlik poytaxtiga aylantirildi. Qo‘qon mustahkam mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Qo‘qon shahri xonlikning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylantirilgan.

Qo‘qon honligining iqtisodiy hayotida tashqi savdo ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mamlakat g‘arb va janubda Buxoro, Xiva, Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, sharqda Xitoy (Qashg‘ar orqali), shimolda Dashti Qipchoq ko‘chmanchilari va ayniqsa Rossiya bilan keng savdo aloqalar o‘rnatgan. Ayrim manbalarda xonlikda yaponiyalik va angliyalik savdogarlar ham kelganligi eslatib o‘tiladi.

Xonlikdan chet elga asosan ipak va ipak matolar, paxta, charm, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, zargarlik buyumlari va boshqa mahsulotlar chiqarilgan. Chet eldan asosan choy, metall, chinni, uy-ro‘zg‘or buyumlari, tayyor gazlama, kiyim-kechak, poyafzal va boshqalar keltirilgan.

Xonlikda Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar mavjud bo‘lib, ularda xo‘jalik tarmoqlaridan hunarmandchilik sohasi keng ko‘lamda taraqqiy topgan edi. Masalan: Qo‘qonda hunarmandchilikning quyidagi turlari bor edi: misgar, zargar, o‘ymakor, qurolsoz, kulol, qog‘ozgar, to‘qimachi, do‘ppi tikuvchi, kashtakach, ko‘priksoz, temirchi, nonvoy, aravasoz, baxmalbof. bujgun, buyoqchi, gilkor, dorikash, jibachi, devorzan, degrez, yormado‘z, ko‘nchi,

miltiqsoz, najjor, nayzagar, panjarasoz, pillakash, po‘stindo‘z, taqachi, to‘brez, paranjido‘z, chodirchi, chevar, chitgar, gilamchi va hakozolar. Qo‘qon shahrida haftaning chorshanba va yakshanba kunlari bozor bo‘lgan. Qo‘qon xonligida keng tarmoqli hunarmandchilik sohasining rivojlanganligi uning qo‘shni davlatlar bilan savdo aloqalari o‘rnatishga imkon yaratgan.

Zargarlikning rivojlanishiga Qo‘qonga qarashli bo‘lgan hududda oltin konlarining mavjudligi sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, oltin Kosonsoydan, Qoratog‘ shimolidagi Ko‘krev daryosidan, Chirchiq daryosi bo‘ylaridan, Chatkol daryosi yuqori oqimlaridan olingan.

XVIII-XIX asrlarda Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarish tanazzulga ketayotgan davrda Qo‘qonda qog‘oz ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yila boshlanadi. Bu tovarni tayyorlash samarqandlik qog‘oz ishlab chiqaruvchi ustalarning Qo‘qonga ko‘chib kelishi bilan bog‘liq. Buning natijasida Qo‘qon Orol dengizidan Xitoygacha qog‘oz ta’minoti bilan shug‘ullanuvchi monopoliyaga aylanib qolgan desak xato bo‘lmaydi. Qo‘qon qog‘ozi Koshg‘ar, hattoki shimoliy Afg‘onistonga ham olib borilgan. Qog‘oz ustaxonasi Qo‘qon shahrining Mo‘yi Muborak darvozasi orqasidagi maqbara yonida joylashgan. Qog‘oz juvozi oddiy saroydan iborat bo‘lib, sathi 25-30 kvadrat metr, ayvonning bir tomonida juvozxona, boshqa tomonida qog‘oz xamiri uchun katta moslama joylashgan. Usta o‘z xalfalari yordamida bir kunda 300 varaq qog‘oz tayyorlagan. Qo‘qondan tashqari boshqa joylarda ham qog‘oz ishlab chiqilardi. Ammo Qo‘qon qog‘ozi o‘zining sifati va ko‘pligi bilan ulardan ancha ustun bo‘lgan. So‘nggi o‘rta asrlarda O‘rta Osiyolik olimlar, tarixchilar, shoirlar o‘z asarlarini Qo‘qon qog‘ozida yozishadi. Bu qog‘ozlardan devonxonada ham keng foydalanilgan. Mahalliy qo‘lyozma asarlar va turli xil diplomatik hujjatlar Qo‘qon qog‘ozida yozilgan. XIX asr boshlarida Toshkentda bo‘lgan Sibir kazaki Maksimovning ta’kidlashicha ... qog‘oz Qo‘qon va Toshkentda tayyorlanadi. ... deb ma’lumot qoldiradi (Максимов М., 1820: 28).

Qo‘qon qog‘ozining hajmi uzunligi 58 sm, eni 50 sm bo‘lgan. Uning 240 varog‘i 1 bog‘ bo‘lib, birinchi jahon urushi arafasida va boshlarida birinchi navi 6 rub, ikkinchi navi 4 rub va uchinchi navi 3 rub turgan (Иванов И., 1914: 124).

Qo‘qonda ipakdan tayyorlangan, juda sifatli qog‘oz ham bo‘lgan. Ipak qog‘ozi juda qimmat bo‘lganligi uchun ehtiyoj kam edi. Ipak qog‘ozi maxsus buyurtma asosida tayyorlangan.

Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo xonliklari, Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan karvon yo‘llari orqali bog‘langan bo‘lib, xonlik ular bilan qizg‘in savdo munosabatlarga kirishgan. Rossiyaning Qo‘qon xonligi bilan savdo-siyosiy munosabatlari boshqa O‘rta Osiyo xonliklariga nisbatan biroz sust rivojlangan. Bu esa xonlikning Rossiyadan anchagina uzoqligi va Toshkent bekligi

bilan ajralib turishi bilan bog‘liq. Rossiya bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi siyosiy-savdo munosabatlari XIX asrning ikkinchi o‘n yilliklaridan boshlab o‘rnatila boshlaydi. Qo‘qon xonligining chet davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari masalasi rus elchilari va sayyohlari hisobotlarida, hamda maxsus asarlarda ham o‘z aksini topgan. Xususan, 1813-yili Sibir korpusi tarjimoni Filipp Nazarov maxsus topshiriq bilan, Qo‘qonga, ya’ni Petropavlovskda Peterburgdan kelayotgan Qo‘qon xoni elchisining o‘ldirilishi natijasida kelib chiqqan mojaroni hal qilish maqsadida keladi. F.Nazarovning 1813-1814-yillarda Qo‘qon xonligiga qilgan sayohati natijasida, 1821-yilda “Zapiski o nekotorix narodax i zemlyax sredney chasti Azii” kitobi nashrdan chiqadi. Asar tarixiy-etnografik xarakterga ega. Kitobda qo‘qonliklarning Koshg‘ar, Xitoy, Xiva, Buxoro va Sharqiy Eron bilan savdo aloqalari haqida xabar berilgan. U Qo‘qon xonining elchilarini qabul qilish marosimida ishtirok etib, qabul marosimi chog‘ida Xitoy, Xiva, Buxoro va boshqa o‘lkalar elchilarini ko‘rgan (Назаров Ф., 1821). F.Nazarov O‘ratepa shahri haqida yozib, u yerda aholi loy (paxsa – A.B.) uylarda yashab, xonadonlarida pux ro‘mollar to‘qiydi, deb e’tirof etadi. Asarda O‘ratepa aholisi turkmanlar, eroniylar, Buxoroga qarashli bo‘lgan joylardagi ko‘chmanchi arablar bilan savdo qilishadi, deb ta’kidlanadi.

1826-yili “Aziatskiy Vestnik” jurnalida e’lon qilingan maqolada Qo‘qon aholisi paxta va ipak yetishtirish bilan shug‘ullanishi, qo‘qonliklar Xitoy, Xiva va Eron bilan savdo qilishi haqida ma’lumot berilgan (Азиатский Вестник, 1826: 229-230).

Qo‘qonning asosiy savdo sheriklaridan biri Toshkent (beklik davrida) hisoblangan. O‘rta Osiyoning sharq davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarida Toshkent shahri azaldan alohida mavqega ega bo‘lgan. Toshkent 2000 yildan ortiq tarixga ega bo‘lib, dastlabki ma’lumotlar qadimgi sharq manbalarida miloddan avvalgi II asrdan tilga olina boshlaydi. Rus manbalarida Toshkent shahri XVI asrda Tashkura nomi bilan “Kniga Bol’shogo Cherteja”ga ham kiritilgan. XVI asrning ikkinchi yarmida Toshkent Buxoro xonligiga qo‘shib olingan. O‘rta asrlarda Toshkent o‘z tovarlari bilan mashhur bo‘lgan. Mahmud ibn Vali Toshkentdan olib ketiladigan tovarlar haqida yozib, qalmiq asirlari, dorivor o‘simliklar, jumladan, qon ketishini to‘xtatishda qo‘llaniladigan o‘simliklar haqida, eslaydi (Маҳмуд ибн Вали, 1660:57). Bu dorilar Xitoyga ham eksport qilingan. Mahmud ibn Vali o‘z asarida darmana deb ataluvchi ko‘p yillik yarim buta haqida ma’lumot berib, uning barglarida va gul to‘dasida terpenoid santonin bo‘lib, uning gijjani yo‘qotadigan xususiyatga ega ekanligini bayon qiladi. Darmana Toshkentdan ko‘plab Yevropa mamlakatlariga olib borilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, XVIII asrning 30-yillarida savdogarlar Toshkentda o‘sadigan darmana urug‘ini

Eron va Turkiyaga, Turkiyadan esa nemis davlatlariga olib borishgan (Бартольд В., 1963: 96-97).

XVII-XVIII asrlardan boshlab Toshkentning Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlana boshlaydi. Toshkent savdogarlari tez-tez Sibir shaharlariga borib turishgan. 1739-yilda Orenburgdan Toshkentga birinchi rus savdo karvoni keladi. XVIII asrning 2-yarmiga kelib mustaqil Toshkent bekligi tashkil topadi. XIX asrda Toshkent o‘z mustaqilligini yo‘qotib, Qo‘qon xonligiga bo‘ysundirilgan. XVIII asrning 2-yarmida O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiya va Qozog‘iston bilan savdo aloqalari rivojlangan sari Toshkent shahri savdo aloqalari markaziga aylanib qola boshlaydi. Shu davrda Toshkent shahri hunarmandchilik sohasiga qarab quyidagi mahallalarga bo‘lingan: pichoqchi, misgarlik, sog‘bon-itboqar, o‘qchi, konchi, degrizon-qozon yasovchilar. Taxtapul, Sebzor, Labzak, Qorasaroy mahallalari aholisi bog‘dorchilik, hunarmandchilik va boshqalar bilan shug‘ullanganlar. Oxunguzar, Parchabof, Janggoh aholisi hunarmandchilik, to‘quvchilik va savdo bilan shug‘ullangan. Toshkentlik to‘quvchilar bo‘z, beqasam, olacha, baxmal to‘qishgan va savdogarlar bu tovarlarni qo‘shni mamlakatlarga olib borib sotishgan.

Toshkentda bir necha karvon saroylar bo‘lib, unda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar to‘xtashgan, jumladan Sayidazim, Nurmuhammad Qushbegi, Namangan va boshqalar (Хорошхин А., 1876:307). A.P.Xoroshxin Toshkent shahrida 29 ta karvonsaroy borligini eslatadi. U shahar bozoridagi tovarlar sotiladigan rastalar sonini ham qayd etgan (Хорошхин А., 1876: 29).

Tarixdan ma’lumki, O‘rta Osiyodagi shaharlar kabi Toshkent ham Sharq bilan G‘arbni bir-biriga bog‘lab turuvchi Buyuk ipak yo‘li ustida joylashgan. Karvon yo‘li Koshg‘ardan O‘sh orqali Toshkentga kelgan. Toshkent O‘rta Osiyoning muhim shaharlaridan biri hisoblanib, Qo‘qonning Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachilik rolini ham o‘tagan. Shu bilan birga rus hukumati Toshkent orqali O‘rta Osiyo xonliklari bilan va hattoki u orqali Xitoy bilan savdo qilishga harakat qilgan.

Rossiya davlati Toshkent orqali Qo‘qon xonligi bilan savdo va diplomatik aloqalar o‘rnatishdan manfaatdor bo‘lgan. Chunki Rossiya Toshkent va Qo‘qon orqali Koshg‘arga ham chiqishi mumkin edi. Rossiya Sharqiy Turkiston bilan bo‘ladigan savdo aloqalarida toshkentlik savdogarlarning vositachilik rolini ko‘ra bilgan edi. Ruslar toshkentliklarning Koshg‘ar tovarlarini Qo‘qon orqali Rossiyaga yetqazib berishlaridan katta foyda ko‘rgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, XVIII asr oxirlarida Semipalatinsk bojxonasi hujjatlarida Rossiyaning Sharqiy Turkiston bilan aloqasida toshkentlik savdogarlar rolining ortib borganligini aks ettiruvchi ma’lumotlar uchraydi.

Fikrimizning tasdig‘i sifatida XVIII asr oxirlarida, ya’ni 1791-yil noyabr oyida Yamishevga quyidagi tovarlar olib borilgan: 612 rub 50 koplik 19 pud 30 funt Toshkent oq qog‘ozi, 814 rub 70 koplik 894 arshin guldor va yo‘l-yo‘l Toshkent matosi, 9735 arshin Toshkent pardasi, 799 dona Toshkent chaponi, chakmon, ko‘k zenden. 1792 yil oktabr oyida Yamishevga quyidagi tovarlar keltirilgan: 22 rub 64 koplik 38 (o‘lchov birligi ko‘rsatilmagan) tuya juni, 1.479 rub 20 koplik 1301 bosh qo‘y, 3902 rublik 344 bosh ho‘kiz, 4 bo‘lak Toshkent oq bo‘zi, 119 bo‘lak ko‘k bo‘z va boshqalar. O‘sha yili Toshkent tovarlari bilan birga Xitoy va Sharqiy Turkiston tovarlari ham, jumladan, 17 rublik 17,5 (og‘irligi no‘malum) dur, 1 rub 80 koplik 18 funt qora choy, 1 rub 50 koplik 10 funtlik taxta choy, 5 rublik 15 funt ko‘k choy va boshqalar olib kelingan (Семипалатинск божхона ҳужжатлари, 1792: 140).

Semipalatinskda toshkentliklarning hovlilari bo‘lib, unda olib kelingan xitoy, koshg‘ar, Toshkent tovarlari rus tovarlariga ayirbosh qilingan. Savdo-sotiq mol ayirboshlash yo‘li bilan amalga oshirilgan va naqd pulga ham sotilgan.

Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Qo‘qon xonligining O‘rta Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va o‘zaro munosabatlarga faol aralashuvi ham Umarxon davridan boshlanadi. O‘z darvida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Turkiya davlatlariga jo‘natilganligi ma’lum.

XIX asr o‘rtalariga taalluqli ma’lumotlarga ko‘ra, Qo‘qondan va xonlikning boshqa shaharlaridan har yili Toshkentga 16 ming tuya mol kelgan. Shundan 4 ming tuya paxta, 200 tuya yigirilgan ip, 10 ming tuya ip gazlama, yarim ipak va ipak matolar, chapon, ko‘rpa, chalvor (teridan tiqilgan) va boshqalar, qolgan 2 ming tuyada ho‘l mevalar keltirilgan. Har yili chetdan mol kiritish 4580 ming rub. gacha yetgan (Потанин Г., 1856:186). Qo‘qonga va xonlikning boshqa shaharlariga Toshkentdan ko‘proq rus tovarlari keltirilgan. Chunki Rossiya bilan savdo Toshkent orqali amalga oshirilgan. Qo‘qon bilan Toshkent o‘rtasidagi savdo aylanishi bir yilda taxminan 7 mln. rub.ni tashkil qilgan. Toshkent bilan Qo‘qon oralig‘idagi masofaning yaqinligi Toshkent savdogarlariga jo‘shqin savdo qilishlariga katta imkoniyat bergan. Yillik tovar aylanishi hisobga olinsa, Toshkent savdogarlarining Qo‘qon bilan aloqalari muhimroq bo‘lgan.

Qo‘qon xonligi azaldan Qozog‘istonning janubiy va janubiy-sharqiy tumanlari bilan an’anaviy savdo aloqalari o‘rnatgan. Qo‘qon savdogarlari chopon, ko‘rpa va turli xil matolarni qozoq ko‘chmanchilarining chorva, teri, yog‘, jun va mo‘ynalariga ayirbosh qilgan (Колмогоров Г., 1863: 159).

XIX asrning 20-30-yillarida Qo‘qon hukmdorlari Janubiy Qozog‘istonda bir qator qal’alar, jumladan, Yangi-Qo‘rg‘on, Julek, Din-Qo‘rg‘on, Oq-Machit, Qamish-Qo‘rg‘on, Avliyo-Ota va boshqalar qurgan edi. Ularning har birida harbiy

qismlar, machitlar, ombor va temirchilik ustaxonalari, savdogarlar uchun uylar, do‘konlar va bozorlar bunyod qilgan.

Qo‘qon savdogarlarining qozoq cho‘llariga keltiradigan tovarlarining aksariyatini ip gazlama va quritilgan mevalar tashkil qilgan. Meva qoqilari cho‘l hududlariga har yili 15 minggacha tuyada, ip gazlama esa 3 minggacha tuyada keltirilgan (Вельяминов-Зернов В., 1856:363). G.Kolmogorovning ma’lumotlariga ko‘ra, har bir qozoq oilasi tayyor kiyim-boshni Buxoro, Qo‘qon va Xitoydan sotib olgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘rta Osiyo savdogarlari o‘z tovarlarini mayda va yirik qoramollariga ayirbosh qilgan. Masalan: har yili Toshkentga 200 ming bosh, Qo‘qonga 100 ming atrofida va Buxoroga 100 ming bosh qo‘y haydab borilgan. Mol ayirboshlashda qo‘y muomala vositasi (pul o‘rnida) hisoblangan. Qo‘y narxi 1 rub 50 kopdan 20 rub kumush pulgacha baholangan.

1852-yil fevral-may oylarida Rostovlik savdogar S.Y.Klyucharev Toshkentda bo‘lib, o‘zi shohidi bo‘lgan voqealarni kundaligiga yozib borgan. V.V.Velyaminov-Zernov kundalikdan foydalanib, uni izohlar va qo‘shimchalar bilan boyitib “Istoricheskiya izvestiya o Kokandskom xanstve, ot Muhammeda-Ali do Xudayar-Xana” asarini yozgan (Вельяминов-Зернов В., 1856: 364). Kundalikda keltirilgan dalillar ko‘proq xonliklar o‘rtasidagi siyosiy aloqalar va savdo munosabatlarini yoritishga yordam beradi. Jumladan: 3 va 29-aprelda Buxorodan Toshkentga savdo karvonlari kelgan. 3-aprelda kelgan karvondagi tovarlarning aksariyati opium bo‘lgan. Kundalikda “savdogarlar, G‘ulja, Chuguchak, Koshg‘ar va Xitoyning barcha chegara shaharlarida bu tovardan foyda ko‘pligini bilganliklari uchun hamma opiumni o‘sha zahotiyoq naqd pulga sotib olishdi”,- deb yozilgan edi (Тетервников А., 1867: 56).

O‘sha kezlarda Toshkentda qo‘qonlik savdogarlar ham bo‘lishgan. Toshkentga qozoqlar cho‘ldan chorva mollari haydab kela boshlashgan va bir kunda 20.000 qo‘y sotilgan. 8-aprelda Toshkentdan Troitsk va G‘uljaga karvon jo‘nagan. G‘uljaga ketgan karvonda oltin (quyma va pul holida) va opiumdan boshqa tovar bo‘lmagan ekan. 13-aprelda Toshkentdan Troitsk, Petropavlovsk, Buxoroga, 15-aprelda esa Petropavlovsk va Semipalatinskga karvon jo‘nagan.

V.V.Velyaminov-Zernov asaridan shu narsa aniqlandiki, Toshkent O‘rta Osiyo xonliklari o‘rtasidagi, qolaversa, Rossiya bilan Qo‘qon o‘rtasidagi, Qo‘qon xonligining Xitoy bilan savdo aloqalaridagi markaziy vositachi shahar hisoblangan. Ammo Toshkentdagi notinchlik oqibatida Toshkentga kelayotgan karvonlar kam tovar keltirib, va aksincha ko‘proq tovarlar olib ketishgan.

A.P.Teterevnikovning ma’lumotlariga ko‘ra, XIX asrning 60-yillarida savdogarlar Toshkentdagi umumiy savdo mablag‘ini 10.000.000 rub bo‘lishi mumkin deb taxmin qilganligini xabar bergan (Тетервников, А., 1867: 53).

Qo‘qon xonligining Qashg‘ar bilan savdo munosabatlari xuddi Buxoro amirligi kabi bo‘lib, Koshg‘ardan Qo‘qonga afyun, chinni idishlar, kumush, xitoy ipak matolari, tola va gilamlar olib kelingan. Qozoq juzlarining Rossiyaga tobe etilishi hukmdor tabaqalar o‘rtasidagi o‘zaro urushlarning to‘xtashiga sabab bo‘ldi va bu holat O‘rta Osiyoning, jumladan, Qo‘qon xonligining Sibir, Ural, Volga bo‘yi bilan savdo aloqalariga keng yo‘l ochdi.

Xonlik Hindiston bilan ham muntazam savdo aloqalarini olib borgan. Manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, Hindistondan yiliga Qo‘qon, Toshkent, Buxoro va Qashg‘arga Kobul orqali 10.000 dan 15.000 tuyagacha mahsulot yuborilgan. Ular orasida ip gazlamalar, ipak, echki juni, otlar va boshqalar chiqarilgan. Otlar savdoning katta foyda keltiradigan manbalaridan biri bo‘lgan. Hind savdogarlari xonlikdagi shaharlarda yashab tijorat va hatto, sudxo‘rlik bilan shug‘ullanganliklari haqida ham ma’lumotlar bor. Xonlikning savdogarlari Buxoro va amirlik chegaralaridagi shaharlar bilan muntazam savdo aloqalari olib borganlar. Har ikkala davlatning savdogarlari savdo ishlarida faol ishtirok etib, qo‘qonlik savdogarlar Buxoro amirligiga xo‘jalik hayotida zarur bo‘lgan rus temiri, po‘lat va cho‘yandan yasalgan buyumlar, tamaki, ro‘mol, guruch va ba’zi xitoy yoki mahalliy ipak gazlamalari, choy, chinni idishlar olib borishgan bo‘lsa, buxorolik savdogarlar esa Qo‘qonga hind choyi, surp mato, harir, buyoq, afyun (taryok), zardo‘zlik mahsulotlari, ip va gazlama olib kelishgan.

Rus chiti Buxoroning Qo‘qon xonligi bilan savdosida alohida o‘rin egallagan. Bu mato Orenburg yoki Petropavlovskdan Kazalinskka, undan Buxoro, Samarqand va Xo‘jand orqali Qo‘qonga olib kelingan. Shuningdek, xonlikda Mashhaddan olib kelinadigan ingliz gazlamalari, oz miqdorda bo‘lsa ham Kobulning to‘n va sallalari, hind attorlik mollari ham keltirishgan.

Savdo aloqalarining doimiy, bir me’yorda davom etishi va rivojlanishi transport va karvon yo‘llarining ahvoliga bog‘liq bo‘lgan. Bu o‘rinda Qo‘qon bilan Buxoro o‘rtasidagi savdo aloqalari alohida mavqega ega bo‘lgan. Ular o‘rtasidagi karvon yo‘li tekis bo‘lib, tovarlarni tashishda aravalardan foydalanilgan. N.V.Xanikovning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, ikkita asosiy Qo‘qon karvonining birinchisi Buxoroga yozning boshida va ikkinchisi kuzning oxirida kelgan, kichik karvonlar esa yil davomida qatnab turgan. Qo‘qonliklar Buxoroga mahalliy hunarmandchilik buyumlaridan tashqari, xitoy tovarlari - choy, kumush yombi, chinni buyumlar va marjon hamda boshqa rus tovarlarini olib kelgan (Ханыков Н., 1843: 175). Qo‘qondan Buxoroga eksport qilinadigan asosiy tovarlar ipak va ipak

gazlamalar bo‘lib, har yili 8 ming pudgacha keltirilgan. Eng sifatli ipak “chilla” deb atalib, u Qo‘qonda ishlab chiqarilgan.

Qo‘qon bilan Buxoro o‘rtasida yaxshi savdo aloqalari o‘rnatilgan. Qo‘qon tovarlari nafaqat Buxoro bozorlarida, hattoki Buxorodan Kobulga olib borib sotilgan. Qo‘qon ipagi sifati jihatidan Buxoro ipagidan ustun turgan. Shuning uchun uning narxi bir pudi 16 tillo, Xo‘jand ipagi esa 15 tillo turgan (Миддендорф А., 1882: 414).

Buxoro bozorlarida choy, chinni idishlar, qisman Xitoy va Qo‘qon ipak gazlamalari va ko‘plab rus temir, cho‘yan va po‘lat buyumlari sotilgan. Toshkentning Sibir chegaralariga yaqinligi, toshkentlik savdogarlarga qisqa muddatda tovarlarni Buxoro bozorlariga yetkazib berishga imkoniyat bergan. Bu temir, cho‘yan va po‘lat buyumlarning kattagina qismi Hisor, Badaxshon, Xulm, Maymand va boshqa joylarga toshkentlik va xivalik savdogarlar tomonidan olib borib sotilgan.

Qo‘qondan Hindistonga va Afg‘onistonga “chilla” deb ataluvchi ipak gazlamasi olib ketilgan. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, xuddi Buxoroda bo‘lganidek Qo‘qonda ham hindlar va afg‘onlar yashagan bo‘lib, ular Qo‘qon-Buxoro aloqalarida muhim rol o‘ynagan. Ma’lumotlarga ko‘ra, ular Buxoroda 70 ga yaqin bo‘lishgan.

Qo‘qon Buxoro orqali Hindiston bilan savdo qilgan. Jumladan, Peshavordan Buxoro orqali Qo‘qonga ingliz-hind tovarlari keltirilgan. Peshavordan Kobul, Qarshi, Samarqand va Qo‘qon yo‘li orqali O‘rta Osiyoga har yili 10-15 ming tuyada tovarlar keltirilgan. Keltirilgan tovarlar asosan oq mal-mal, gul tikilgan ko‘ylaklik matolar, shakar, indigo, qalin surp va chitlardan iborat edi. Peshavordan O‘rta Osiyoga keltirilgan 10-15 ming tuya tovarlardan 1000 tuyasi bombey choylari bo‘lgan.

Hindistonda Qo‘qon ipagiga talab katta bo‘lgan. Har yili Qo‘qondan, Buxoro va Hindistonga 1000 tuyada ipak jo‘natilgan.

XIX asrda O‘rta Osiyo xonliklaridagi savdoni qo‘lga kiritish maqsadida inglizlar tovarlarini Buxoro va Qo‘qon xonliklariga tarqatish yo‘llaridan biri sifatida Shimoliy Hindistondagi Peshavor yaqinida yashaydigan hindistonlik musulmonlar yordamidan foydalangan. Ular parachlar deb atalgan Ingliz savdogarlari o‘z tovarlarini uch yil muddat bilan parachlarga qarzga bergan, o‘z navbatida parachlar mollarini Buxoro va Qo‘qonda qarzga (nasiyaga) sotishgan. Parachlarning ba’zilari Buxoro va Qo‘qonda joylashib olganlar va shu yo‘l bilan ingliz tovarlarini kengroq yoyishga harakat qilganlar. Ingliz tovarlari O‘rta Osiyoga ikki yo‘l, ya’ni Kobul va Mashhad orqali kirib kelgan. Toshkentga esa u yer bilan doimiy muomalada bo‘lib turgan hindlar olib kelganlar. Hindlar ingliz

tovarlari bilan birga mahalliy hind tovarlarini ham keltirishgan. Muallifning aytishicha, ularning asosiy ishi sudxo‘rlik bo‘lgan. A.N.Teterevnikov, keyingi vaqtda Toshkentga ingliz tovarlari kam keltirilayotganligi, ular faqat ilgari olib kelingan tovarlardan qolganlarinigina sotilayotganligini ko‘rganligini yozadi.

Demak, hindlar nafaqat Buxoro yoki Samarqandda, balki Toshkentda ham sudxo‘rlik bilan shug‘ullangan bo‘lishi mumkin. Muallif 1865-yili Toshkentning Rossiya tomonidan ishg‘ol qilinganidan so‘ng ingliz tovarlarini keltirilganligini ko‘rmagan bo‘lishi mumkin.

Teterevnikov savdogarlarning ma’lumotiga tayanib, Peshavordan keltirilgan tovarlarning yarmi Xo‘jand orqali Qo‘qon xonligiga qarashli shaharlarga, 2000 tuyadan oshmagan tovarlar esa Toshkentga keltiriladi, deb yozadi. Demak, agar O‘rta Osiyoga jo‘natilgan 10-15 ming tuya molning yarmi 5-7 ming tuya bo‘lsa, shundan 2 mingi Toshkentga jo‘natilsa, u holda Qo‘qon xonligi shaharlariga 3-5 ming tuya mol keltirilgan bo‘ladi. Keltirilgan 10-15 ming tuya tovarning 1 minggi Bombey choylari hisoblangan. Bu choy Toshkentga ham keltirilgan bo‘lib, aholi choyning tami haqida yaxshi baho berishmagan. Choy ko‘rinishi jihatidan G‘ulja va Chuguchak choylaridan farq qilmagan, lekin tami unga nisbatan pastroq, ya’ni bemaza bo‘lgan. Shuning uchun uning narxi boshqa choylarga qaraganda uch barobar past yurgan. Teterevnikovning fikricha, O‘rta Osiyoga keladigan ikki savdo yo‘lidan faqat Kobul yo‘li orqali tovarlar Qo‘qonga keltirilgan bo‘lsa, Mashhad yo‘li orqali esa Buxoroga keltirilgan.

Qo‘qonlikning tashqi aloqalarida Qo‘qon-Rossiya savdo munosabatlari ham alohida o‘rin tutgan. Manbalarga ko‘ra, 1861-yildan keyin rus sanoatining jadal rivojlana boshlaganligi, xom ashyo bazasi va tashqi bozorga bo‘lgan ehtiyojning yanada kuchayganligi Rossiyaning Qo‘qon bozorini faol egallab, undan cheksiz foydalanishning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan. Rossiyadan Qo‘qonga temir, mis, po‘lat, cho‘yan va temir buyumlar, chit va sifatsiz gazlamalar, oz miqdorda baxmal, shakar, oynalar, charm, Rossiyaga tobe bo‘lgan qozoq cho‘llaridan qo‘ylar va uning terisi, charm va charm mahsulotlari, kigiz olib kelingan. Xonlikdan esa Rossiyaga asosan paxta olib chiqilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo xonliklari, Xitoy, jumladan Sharqiy Turkiston, Hindiston, Eron, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar o‘rnatgan. Qo‘qon xonligi ayniqsa, Xitoy, jumladan, Koshg‘ar bilan yaqin savdo munosabatlariga kirishgan. Qo‘qon Koshg‘ar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo qilishdan tashqari Xitoyning O‘rta Osiyo xonliklari, Hindiston, Eron va Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachi rolini ham bajargan. Qo‘qon karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Koshg‘ar, Buxoro amirligi, Afg‘oniston, Rossiyadan olib

kelingan mollar to‘plangan. Mazkur savdo aloqalarida Toshkent alohida mavqega ega bo‘lganligi ham alohida ta’kidlanishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Вельяминов-Зернов В. В. (1856). Исторические известия о Кокандском ханстве, от Мухаммеда-Али до Худаяр-Хана. СПб., с. 364.
2. Вамбери А. (1974). Путешествие по Средней Азии. М., с. 372.
3. История Узбекистана в источниках. (1988). Т., с. 96-97.
4. Колмогоров Г. О. (1855). О промышленности и торговле в Киргизских степях Сибирского ведомства // Вестник ИРГО. Т. XIII, с. 159.
5. Махмуд ибн Вали. (1977). Море тайн относительно доблестей благородных (география) / Введение, перевод, примечания, указатели Б. А. Ахмедова. Т., с. 57.
6. О нынешнем состоянии некоторых областей и городов в Средней Азии. (1826) // Азиатский Вестник. Т. 1. СПб., с. 229-230.
7. Обозрение Кокандского ханства. (1849) // ЗИРГО. Кн. 3. СПб., с. 186.
8. Потанин В. (1860). Показание сибирского козака Максимова о Кокандском владении // ИРГО, с. 28.
9. Разводовский В. К. (1940). Кустарное производство бумаги в Узбекистане // Советская этнография. Т. 3. М.–Л., с. 147.
10. Сведения о произведениях и торговле Бухарии. (1840). Выр. из журнала «Мануфактура и торговля». Хмыр. Кол. Средняя Азия. Т. 1, с. 414.
11. Тетеревников А. Н. (1867). Очерк внутренней торговли Киргизской степи. СПб., с. 56.
12. Туркестанский сборник. (б.г.). Т. 5, с. 307.
13. Филипп Назаров. (1968). Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. М.: Наука.
14. Ханыков Н. (1843). Описание Бухарского ханства. СПб., с. 175.
15. Хорошхин А. П. (1876). Очерки Тошкента // Сборник статей, касающихся Туркестанского края. СПб., с. 29.
16. Шамансурова А. Ш. (1963). К вопросу о среднеазиатско-афганских отношениях в первой половине XIX в. // Взаимоотношения народов Средней Азии и сопредельных стран Востока в XVIII – начале XX в., с. 12.
17. Юнусходжаева М. Ю. (1990). Роль Ташкента в торговле России и Восточного Туркестана во второй половине XVIII в. // Позднефеодальный город Средней Азии. Т.: Фан, с. 140.

## REFERENCES:

1. Velyaminov-Zernov V. V. (1856). Istoricheskie izvestiya o Kokandskom khanstve, ot Mukhammeda-Ali do Khudayar-Khana. SPb., s. 364. (in Russian)

2. Vamberi A. (1974). Puteshestvie po Sredney Azii. M., s. 372. (in Russian)

3. Istoriya Uzbekistana v istochnikakh. (1988). T., s. 96-97. (in Russian)

4. Kolmogorov G. O. (1855). O promyshlennosti i torgovle v Kirgizskikh stepyakh Sibirskogo vedomstva // Vestnik IRGO. T. XIII, s. 159. (in Russian)

5. Makhmud ibn Vali. (1977). More tayn otnositel’no doblestey blagorodnykh (geografiya) / Vvedenie, perevod, primechaniya, ukazateli B. A. Akhmedova. T., s. 57. (in Russian)

6. O nyneshnem sostoyanii nekotorykh oblastey i gorodov v Sredney Azii. (1826) // Aziatskiy Vestnik. T. 1. SPb., s. 229-230. (in Russian)

7. Obozrenie Kokandskogo khanstva. (1849) // ZIRGO. Kn. 3. SPb., s. 186. (in Russian)

8. Potanin V. (1860). Pokazanie sibirskogo kozaka Maksimova o Kokandskom vladenii // IRGO, s. 28. (in Russian)

9. Razvodovskiy V. K. (1940). Kustarnoe proizvodstvo bumagi v Uzbekistane // Sovetskaya etnografiya. T. 3. M.–L., s. 147. (in Russian)

10. Svedeniya o proizvedeniyakh i torgovle Bukharii. (1840). Vyr. iz zhurnala «Manufaktura i torgovlya». Khmyr. Kol. Srednyaya Aziya. T. 1, s. 414. (in Russian)

11. Teterevnikov A. N. (1867). Ocherk vnutrenney torgovli Kirgizskoy stepi. SPb., s. 56. (in Russian)

12. Turkestanskiy sbornik. (b.g.). T. 5, s. 307. (in Russian)

13. Filipp Nazarov. (1968). Zapiski o nekotorykh narodakh i zemlyakh sredney chasti Azii. M.: Nauka. (in Russian)

14. Khanykov N. (1843). Opisanie Bukharskogo khanstva. SPb., s. 175. (in Russian)

15. Khoroshkhin A. P. (1876). Ocherki Toshkenta // Sbornik statey, kasayushchikhsya Turkestanskogo kraya. SPb., s. 29. (in Russian)

16. Shamansurova A. Sh. (1963). K voprosu o sredneaziatsko-afganskikh otnosheniyakh v pervoy polovine XIX v. // Vzaimootnosheniya narodov Sredney Azii i sopredel’nykh stran Vostoka v XVIII – nachale XX v., s. 12. (in Russian)

17. Yunuskhojaeva M. Yu. (1990). Rol’ Tashkenta v torgovle Rossii i Vostochnogo Turkestana vo vtoroy polovine XVIII v. // Pozdnefeodal’nyy gorod Sredney Azii. T.: Fan, s. 140. (in Russian)

# ALI XORAZMIY VA UNING ILMIY MEROSI
# ALI AL-KHWARAZMI AND HIS SCIENTIFIC HERITAGE
# АЛИ АЛЬ-ХОРЕЗМИ И ЕГО НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ

https://zenodo.org/records/20667078

**Aminov Hamidulloh Abdirahimovich**
*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi*
*Abu Rayhon Beruniy nomidagi*
*Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi,*
*tarix fanlari nomzodi*
*Tel.: +998 94-659-54-34*
*E-mail: beruniy1977@mail.ru*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XVI asrda ilmiy faoliyat olib borgan huquqshunos olim (faqih) Ali ibn Muhammad Ali Xorazmiy hayoti va ilmiy merosi o‘rganilgan. Olimning otasi ham mazkur davrning taniqli huquqshunoslaridan bo‘lgan. Ali Xorazmiy Buxoroda muftiy lavozimida faoliyat olib borgan bo‘lib, Shayboniyxon va Ubaydullohxonga atab yozgan fatvolar to‘plami bilan tanilgan. Bundan tashqari olim o‘nga yaqin asarlar muallifi hisoblanadi. Ali Xorazmiy ilmiy adabiyotlarda kam o‘rganilgan, lekin o‘z davri uchun muhim va mashhur shaxsiyatlardan biridir. Maqolada olimning to‘liq nomi, Buxorodagi faoliyati to‘g‘risida ham yangi ma’lumotlar berilgan.

Maqolada olimning ilmiy merosi bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Uning asarlarining qo‘lyozma nusxalari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Asarlarining tarkibiy tuzilishi va ma’no-mazmuni tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar**: *fiqh, fatvo, qo‘lyozma, manba, muftiy, muhtasib, shayboniylar, Shayboniyxon, Ubaydullohxon.*

**Annotation.** This article examines the life and scientific legacy of Ali ibn Muhammad Ali al-Khwarazmi, a jurist (faqih) who conducted scientific activities in the 16th century. The scientist's father was also a prominent lawyer of the time. Ali al-Khwarazmi was a scholar who worked as a mufti in Bukhara and was known for his collection of fatwas dedicated to Shaybani Khan and Ubaydullah Khan. In addition, the scientist is the author of about ten works. Although the activities and scientific heritage of Ali al-Khwarazmi have been little studied by researchers, he is one of the most important and famous figures of his time. The article also provides new information about the scholar’s full name and his activities in Bukhara.

The article explores the scholar’s scientific legacy. Information about manuscript copies of his works is given. The structure and meaning of his works are analyzed.

**Keywords:** *fiqh, fatwa, manuscript, source, mufti, muhtasib, Shaybanids, Shaybani Khan, Ubaydullah Khan.*

**Аннотация.** В статье рассматривается жизнь и научное наследие Али ибн Мухаммада Али аль-Хорезми, правоведа (факиха), занимавшегося научной деятельностью в XVI веке. Отец учёного также был видным юристом того времени. Али аль-Хорезми был ученым, служившим муфтием в Бухаре и известным своим сборником фетв, посвященных Шейбани-хану и Убайдулле-хану. Кроме того, ученый является автором около десяти работ. Хотя Али аль-Хорезми мало изучен исследователями, он является одной из самых важных и известных фигур своего времени. В статье также приводятся новые сведения о полном имени ученого и его деятельности в Бухаре.

В статье исследуется научное наследие ученого. Приведены сведения о рукописных копиях его произведений. Анализируется структурная структура и смысл его произведений.

**Ключевые слова:** *фикх, фетва, рукопись, источник, муфтий, мухтасиб, Шейбаниды, Шейбани-хан, Убайдулла-хан.*

## KIRISH

Shayboniylar davri (1500-1601) va undan keyingi uchta xonlikka bo‘linib ketgan Markaziy Osiyoda keyingi to‘rt asr davomida ilm-fan va madaniyatning barcha qirralari kabi islom huquqshunosligi bo‘lmish fiqhda ham so‘nish kuzatiladi. Ulamolar yangi-yangi fatovo kitoblar yozishdan ko‘ra avvalgi davrlardagi fatvolarga ko‘proq suyanib qoldilar. Biroq, bu vaqtda turg‘unlik davrini boshdan kechirayotgan hanafiylik fiqhida bir necha fiqhiy kitoblar (masalan, “Muxtasar al-Viqoya”ning bir necha sharhi), fatovolar (masalan, “Fatovoyi Shayboniya”, “Fatovoyi aliya”, “Fatovoyi Samarqandiya”, “Fatovoyi Naqshbandiya”, “Fatovoyi Aminiya” kabilar) yaratildi.

XVI asrda Mavlaviy Abulmakorim ibn Abdulloh ibn Muhammad (vaf. 1501), Mavlono Fasihiddin Hiraviy (vaf. 1513), Abdu-l-Aliy ibn Muhammad ibn Husayn al-Birjandiy (vaf. 1529), Shamsiddin Muhammad Ko‘histoniy (vaf. 1556), Jaloliddin Mahmud ibn Abu Bakr Go‘rimiriy Samarqandiy (XVI asr), Muhammad Amin ibn Ubaydulloh al-Mo‘minobodiy al-Buxoriy (vaf. 1570), Mavlono Sodiq Samarqandiy (vaf. 1598) kabi faqihlar qatori Ali al-Xorazmiy ham yashab-ijod qilgan. Lekin, maqola muallifi tomonidan dastlabki ilmiy ma’lumotlar berilganini hisobga olmaganda, Ali Xorazmiyning hayoti va ijodi to‘g‘risida deyarli ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan (Aminov H., 2012: 26-29; Aminov H., 2015: 28-29). Garchi shayboniylar davrining yetuk va ko‘zga ko‘ringan faqihi bo‘lsa-da, arab va fors tillarida birdek ijod qilgan bo‘lsa-da, uning asarlarining birortasi nashr etilmagan, qo‘lyozmalari esa hanuzgacha ilmiy tadqiq qilinmagan. Faqatgina

qo‘lyozmalar kataloglarida uning asarlari borligi to‘g‘risidagi qisqa ma’lumotlar uchraydi, xolos (CBP, 1963: 459-460; CBP, 1967: 290-317; CBP, 1975: 183-184). Shuning uchun ham, olimning hayoti va ijodini ilmiy tahlil qilish zarurati mavjud.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ali Xorazmiy to‘g‘risida ma’lumotlar juda kam. U haqida O‘zR FA Sharqshunoslik institutining “Sharq qo‘lyozmalari to‘plami” (CBP – Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР)da qisqa ma’lumotlar va ba’zi asarlari tavsifi berilgan, xolos. Unda aytilishicha, dunyoning hech bir qo‘lyozmalar ilmiy tavsifi to‘plamlarida olim va uning asarlari to‘g‘risida ma’lumot berilmagan deyilsa-da, keyingi tadqiqotlar va qo‘lyozma asarlar kataloglarida Ali ibn Muhammad Ali al-Xorazmiyning asarlari nusxalari xususida ma’lumotlar berilgan (Muminov A., 2007: 142). Biroq, ularda muallif nomi va asar nusxasining kodikologik tahlili berilgan, xolos. Bunga manbalar, tabaqot va manoqiblar, shuningdek, bio-bibliografik asarlarda u haqida ma’lumotlar uchramasligi sabab bo‘lgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ali Xorazmiyning hayoti va ijodi to‘g‘risidagi ma’lumotlar uning asarlarida berilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, uning asarlarining ma’no-mazmuni, tarkibiy tuzilishi, ularda keltirilgan tarixiy ma’lumotlar izchil o‘rganilishi kerak bo‘ladi. Buning uchun birinchi navbatda olimning hayoti va ijodi islom tarixi va islomshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilishi lozim. Shu bilan birga uning qo‘lyozma holida saqlanib kelayotgan asarlari manbashunoslik nuqtayinazaridan tahlil qilinishi kerak. Natijada esa Markaziy Osiyoning ilm-fan va madaniyat tarixi bo‘yicha yangi ma’lumotlar qo‘lga kiritiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Olimning to‘liq nomi Ali ibn Muhammad Ali ibn Ali ibn Mahmud al-Muxtoriy al-Kubroviy al-Xorazmiy hisoblanadi. Uning XV asr oxirida Xorazmda tug‘ilganligini va XVI asrning birinchi yarmida yashaganligini aytish mumkin. Tug‘ilgan va vafot sanasi to‘g‘risida manbalarda ma’lumotlar uchramadi.

Nisbatidagi “al-Kubroviy” so‘zi uni Najmiddin Kubro (540-618 h./1145-1221 m.) asos solgan kubroviylik tariqatiga mansubligini, “al-Muxtoriy” esa xorazmlik taniqli faqih Najmiddin Muxtor ibn Mahmud az-Zohidiy al-Xorazmiy (vaf. 658 h./1260 m.) avlodidan bo‘lganligini anglatadi.

Ali Xorazmiy Samarqandda tahsil olgan, Buxoroda muftiylik lavozimida faoliyat yuritgan. Olim o‘zining “Favoid” asarida 901 h./1496 m. yili Buxoroda muftiy bo‘lib ishlaganini yozib qoldirgan (Ali Xorazmiy, 1566: 191b). U ustozi Samarqand qozisi Abulmahomid Xavohiyni mening ustozim, deb yozgan.

“Fatovoyi Shayboniy” asarining 960/1553-yilda Muhammad Temur nomli kotib ko‘chirgan nusxasida muallif shu yili Toshkent hokimi Navro‘z Ahmad (1544-1552) saroyiga borganligi qayd etiladi (CBP, 1967: 290). Demak, Ali Xorazmiy XVI asrning 50-yillar oxirida vafot etgan bo‘lib chiqadi.

Zayniddin Mahmud Vosifiy (890-973 h./1485-1566 m.) “Badoye’ al-vaqoye’” asarida “Shaybakxonning sadri Mavlono Xoja Ali dostoni” deb keltirgan bo‘limdagi Mavlono Xoja Ali, shak-shubhasiz, ushbu Ali Xorazmiydir. Toshkentda u bilan uchrashganini qayd qilar ekan, 925 h./1519 m. yili olim Abdurahmon Jomiy (817-898 h./1414-1492 m.) tomonidan bitilgan “Jilo ur-ruh” qasidasiga sharh yozib Ubaydullohxonga yuborgani, unda 18 ta ilmga suyanilgani qayd qilinadi (Zayniddin Vosifiy, 1972: 179-180). Lekin Vosifiy uni va sharhini juda qattiq tanqid qiladi: “Bu hamoqati bilan qanday qilib uzoq yillar Shayboniyxonning sadrlik lavozimida o‘tirgan ekan?!”, deydi (Zayniddin Vosifiy, 1972: 181-182). Bu joyda diqqat tortadigan 4 ta ma’lumot mavjud:

1) Ali Xorazmiy “Badoye’ al-vaqoye’” yozilayotgan paytda – 1532-1539-yillarda Toshkentda bo‘lgan;

2) Shayboniyxonning sadri bo‘lgan;

3) U “Jilo ur-ruh” qasidasiga sharh bitgan;

4) Asli faqih bo‘lgani bois she’riyatni teran anglash va tushunishda qoniqarsiz bo‘lgan.

“Badoye’ us-vaqoye’”da Mavlono Xoja Ali haqida yana bir muhim ma’lumot mavjud. U 931 h./1525 m. yili Suyunch Xoja xon vafoti munosabati bilan uning qabrtoshiga yozuv yozish munosabati bilan eslanadi. Qabrtoshga esdalik matnini tayyorlashni Vosifiy bilan Mavlono Xoja Aliga topshiriladi va Vosifiy tayyorlagan matn qabul qilinadi. Shu yerda: “Muhammad Shayboniyxon zamonidan beri Samarqand shahrida dafn qilingan barcha sultonlarning maqbaralaridagi qabrtosh matnlari Mavlono Xoja Alining inshosidir”, deyiladi. Shuningdek, “Shaybakxon zamonida sadrlik lavozimi (masnadi sadorat)da nihoyatda azamat va hashamat bilan o‘tirgani bois hech bir katta-yu kichik, fozil-u akobir va aholining birortasi uning matnida aybu nuqson ko‘rsa-da, inday olmaganlar”, deyiladi (Zayniddin Vosifiy, 1972: 174). Aftidan, Vosifiy uni yoqtirmagan bo‘lsa kerak. Bu holatga Shayboniylar qabrtoshlaridagi bitiklarni o‘rgangan olimlar ham e’tibor bergan bo‘lib, “Vosifiy Mavlono Xoja Ali bilan raqobat qilib, qabrtosh matnini tuzgach, uni muhokamaga qo‘yadi. O‘z raqobatchisini, balki asossiz, keskin tanqid qiladi. Bu bahs mobaynida u o‘zining arab tilining “nozikliklarini” hammadan yaxshi bilishini namoyish etishga harakat qiladi”, deb yozadilar (Bobojonov B., 1997: 41).

Nima bo‘lganda ham, mazkur ma’lumotlardan Ali Xorazmiy Shayboniyxon davrida sadr muftiy bo‘lgani, odatda o‘sha davr qabrtoshlaridagi aksari bitiklar

muallifi bo‘lgani oydinlashadi. U o‘z asarlarini arab va fors tilida yozganligidan bu ikki tilni yaxshi bilgani o‘z-o‘zidan ma’lum, albatta.

Ali ibn Muhammad Ali al-Xorazmiyning ilmiy merosi ancha boy va barchasi islom fiqhi sohasiga bag‘ishlangan. Uning hozirgacha ma’lum bo‘lgan asarlari haqida quyidagi qisqacha ma’lumotlar beriladi:

1.“Fatovoyi Shayboniy” (“Shayboniy fatvolari”). Hanafiylik fiqhiga oid ushbu fatvo asari arab tilida yozilgan bo‘lib, Shayboniyxon (1500-1510)ga bag‘ishlab yozgan. Asar 43 ta kitobga bo‘linib, fiqhiy mas’alalar bayon etilgan. Asarning O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondida 15 ga yaqin nusxalari bor va ular ilmiy tavsif etilgan. Ulardan ikkita nusxa avtograf ekanligi taxmin etilgan.

Ali Xoraxmiyning eng muhim va shoh asarlaridan biri “Fatovoyi Shayboniy”dir. Mazkur fatvo to‘plami Shayboniylar davrining huquq tizimi, huquq manbalarini, o‘sha davrda dolzarb bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy masalalarni o‘rganishda ahamiyati juda katta. Shuningdek, mazkur fatvo to‘plami Shaybiniylar sulolasining legitimatsiyasi masalalarini ham ochib beruvchi manba hisoblanadi.

2.“Fatovoyi Aliya” (“Alining fatvolari”). Mazkur asar fiqhiy fatvolar to‘plami bo‘lib, u Shayboniyxonga bag‘ishlangan asaridan boshqa. Shuning uchun “Sharq qo‘lyozmalari to‘plami”da ham alohida tavsif qilingan (CBP, 1967: 309-310). Muallif asarni “Fatovoyi Shayboniy”ni kengaytirib, qayta ishlab, Ubaydullohxonga bag‘ishlagan. Yuqorida aytganimizdek, mazkur fatvo to‘plami ham Shayboniylar sulolasining legitimatsiyasi masalalarini va uning huquqiy jihatlarini ochib beruvchi manbalardan navbatdagisi hisoblanadi.

3.“al-Jomi’ al-aliya fi-l-vasoyiq ash-shar’iya va-s-sijillot al-mar’iya” (“Rioya etilgan sijilllar va shar’iy vasiqalar haqida oliy to‘plam”). O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondida 9138 tartib raqami bilan saqlanadigan ushbu asar ikki daftardan iborat. Birinchi daftarga 25 maqola, ikkinchisiga 34 maqola kiritilgan. Keyin xotima ham bor. Bu nusxa Xiva xoni Allohquli Bahodirxon (1825-1842) saroyi kutubxonasiga tegishli bo‘lgan.

Mazkur kitob qozixonalar uchun muhim qo‘llanmalardan biri hisoblangan. Unda qozixonada tuziladigan hujjatlarni rasmiylashtirish qonun-qoidalari, shablon vazifasini o‘taydigan namunalar berilgan. Asarning muhim tomonlaridan biri, mazkur namunalarning aksariyati muallifning o‘zi tomonidan, shuningdek, o‘z otasi va ustozi tomonidan tuzilgan rasmiy hujjatlardan olingani hisoblanadi.

Markaziy Osiyo qozixona hujjatlarini tuzish qonun-qoidalariga bag’ishlangan o‘ndan ortiq asarlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, afsuski, ular maxsus tadqiq etilmay qolmoqda.

4.“Kitobi Saydiya” (“Ovnoma kitobi”). Asar muqaddima, 15 maqola va xotimadan iborat. Ovning shar’iy va qonuniy shart-sharoitlari bayon etilgan. O‘n

birinchi maqolada xonaki, yavvoyi va suv jonzotlari haqida, ularning shar'iy va tibbiy hukmlari borasida so‘z yuritilgan. Shuningdek, ularning foydali tomonlari, iste'molga yaroqliligi, tibbiy jihatlari zikr etilgan, qariyb 220 ga yaqin hayvonotlar haqida hikoyat va rivoyatlar keltirilgan.

Shayboniylar davrida ov masalalariga bag'ishlangan bir qancha asarlar bitilgan. Buning asosiy sabablaridan biri Shayboniy sultonlarning ov va shikor masalalariga katta ahamiyat bergani va uni Chingizxon yasosi bilan bog'liq holdagi marosim sifatida ko‘rgani ham bo‘lishi mumkin. Chunki mo‘g‘ullarning an'anaviy qonuni bo‘lgan yasodagi "muqaddas faoliyat darajasiga ko‘tarilgan ov qilish faoliyati"ning Shayboniylardagi ta'siri mavjud edi (Abdulkadir Macit, 2024: 197). Shuning sababidan Ali ibn Muhammad Ali al-Xorazmiy tomonidan "Saydiya" asari yozilgan deyish mumkin. Asarning qachon yozilgani sanasi aniq emas, lekin u 916/1510 yildan so‘ng yozilgani aniqroq.

5."Favoyid" (Foydalar). Ali ibn Muhammad Ali al-Xorazmiyning Shayboniyxonga atab yozgan "Favoyid" asari O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondida 6133 tartib raqami bilan saqlanadi. Lekin "Sharq qo‘lyozmalari to‘plami"ning bironta jildida bu asar haqida ma'lumot, ilmiy tavsif uchramaydi.

Fors tilida bitilgan "Favoyid" asarida muallif Shayboniyxonga davlatni boshqarishda nimalarga e'tibor berish kerakligini ko‘rsatadi, davlatning obod bo‘lishi uchun kerakli foydalar haqida batafsil to‘xtaladi. Asar oxirida muhtasiblar (ichki ishlar nozirlari) nimalar qilishi, qanday sifatlarga ega bo‘lishi, qanday faoliyat olib borishlari kabi mavzular ham yoritilgan. Asarda davlatning ma'naviy yuksalishida zarur bo‘ladigan odob-axloq, milliy qadriyatlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

"Favoyid" to‘rtta majlis (bob)ga bo‘lingan. Har bir majlis qonun, zarb, matlab kabi fasllarga ajratilgan. Davlatning amal qilishi lozim bo‘lgan ma'naviy omillar – ajdodlarga munosabat, ota-onalar, qarindoshlar haqqi, ustodlarni hurmat qilish, farzand tarbiyasi, oila munosabatlari, er-u-xotin muomalalari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, asarda saroy amaldorlari, olim va mirzalar amal qilishi lozim bo‘lgan ma'naviy xulqlar, dehqonlar, badavlat odamlar, hunarmandlar, tijoratchilar e'tibor qilishi kerak bo‘lgan qadriyatlar haqida ham zikr etilgan. Keyin muhtasiblik shart-sharoitlari, sifatlari, musulmonlar orasidagi muomala-munosabatlar, jinoyatchilarni jazolash qonun-qoidalari to‘g‘risida batafsil so‘z yuritiladi. Islomdagi muhtasiblik institutini tadqiq etishda "Favoid" asarining ahamiyati katta.

5."Ravzat al-muftiyin" ("Muftiylar bog‘i"). Fiqhga oid mazkur asar ham Ali ibn Muhammad Ali al-Xorazmiyga tegishli bo‘lishi mumkin. Chunki, O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondida 10702 tartib raqami bilan saqlanayotgan "Saydiyya"ning 04a varag‘ida muallif asarlari qatorida nomi tilga olingan qayd

mavjud. Asarning nomidan uning fiqhga tegishli ekani oydinlashadi. Biroq, hali-hanuz ushbu asarning qo‘lyozmasi topilgan emas.

6.“Sharh al-Faroiz as-Sirojiya”. Meros huquqiga bag‘ishlangan mazkur asar madrasalarda darslik vazifasini o‘tagan “al-Faroiz as-Sirojiya”ga sharh sifatida yozilgan. U “Jo‘ngi Rojiy” tarkibida 20-chi asar sifatida keltirilgan “Ali Xorazmiy, 1850: 109b-123b”.

“al-Faroiz as-Sirojiya” asari meros huquqiga oid risolalardan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo madrasalarida qariyb 5 asr mobaynida darslik vazifasini o‘tab kelgan. Rus sharqshunosi va josusi N.Xanikov ushbu asarni Buxoro madrasalarida darslik sifatida o‘qitilganini yozib qoldirgan “Xanikov N., 1843: 217-220). U orqali talabalar bevosita matematika va algebra sirlarini ham o‘rganishgan. Mazkur asarga sarlar davomida arab, fors va turkiy tillarda sharhlar bitilgan. Shu jumladan XVI asrda ham bir nechta sharhlar yozilgan (Marg’inoniy, 2014: 160). Faqih bo‘lgan Ali Xorazmiy ham unga sharh yozgan bo‘lishi kerak.

Mazkur qo‘lyozma nusxasining oxiriga tushgan, nuqsonli. Avvalida muallif o‘zini “Shayx ibn Muhammad Ali ibn Shayx al-Xorazmiy al-mushtahir bi-l-Hinduvoniy (?)” deb bergan. Asarni G‘ijduvonda (Dor al-fath G‘ijduvon) Xoja Abdulxoliq G‘ujduvoniy xonaqohida 926 h./1520 m. sananing shavvol oyi avvalida yozib tugatganini qayd qilgan (Ali Xorazmiy, 1850: 110a).

Ali ibn Muhammad Ali al-Xorazmiyning asarlari o‘z davridayoq shuhrat qozongan edi. Jumladan, XVI asr ikkinchi yarmida Samarqandda “Muftiyi kalon” nomi bilan tanilgan Muhammad ibn Bobo kalon muftiy Samarqandiy o‘zining “Favoid” risolasida uning nomini hurmat bilan tilga oladi va uchta asarini – “Fatovoyi Shayboniy”, “Fatovoyi Aliya” hamda “Vasoyiqi aliya” asarlari nomlarini qayd qilib, oxirgi asarining dastxat va muallifning muhri qo‘yilgan nusxasi Buxoroda mavjudligini zikr qilgan. Bu yerda Ali ibn Muhammad Ali al-Xorazmiyni Mavlono Xoja Ali al-muftiy deb, “Umdat al-fuqaho va-l-muftiyyin” (“Faqihlar va muftiylar ustuni, tayanchi”) degan faxrli unvon bilan tilga olingan (Samarqandiy, 1600: 317a).

XVI asrdan keyin Movarounnahrda yaratilgan qariyb barcha fiqhiy asarlarda Ali ibn Muhammad Ali al-Xorazmiyning asarlaridan manba sifatida unumli foydalanilgan. Demak, uning asarlari fiqh tarixida muhim ahamiyat kasb qiladi va bir necha asrlar davomida kerakli manba sifatida qadrlanib kelgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ali ibn Muhammad Ali al-Xorazmiy haqida manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ma’lumotlar juda kam uchraydi. Mazkur olim Shayboniyxon davrining eng ko‘zga ko‘ringan faqihlaridan biri bo‘lgan esa-da, biroq, u haqida alohida tadqiqotlar olib borilmagan. XVI asrda Movarounnahr fiqh ilmi rivoji

tarixida uning munosib o‘rni borligi shubhasizdir. U XVI asrning o‘zidayoq mashhurlikka erishgan olim bo‘lgan. Uning asarlari to XX asr boshigacha manba vazifasini o‘tab kelgan, fatvo rivoyat hujjatlarida esa qayta-qayta tilga olingan. Bu holat esa, uning ilmiy merosi Movarounnahr fiqh ilmi tarixida muhim o‘rin tutganini bildiradi.

Ali Xorazmiyning asarlari to‘la ravishda ilmiy tadqiq va tahlil etilmagan, ularning ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilgan emas, o‘zbek tilidagi ilmiy-izohli tarjimalari amalga oshirilmagan. Binobarin, asarlari bugungi kunda ilmiy o‘rganilishi, ulardagi ma’lumotlar tahlil qilinib, tarixdagi o‘rni munosib baholanishi kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulkadir Macit (2024). Shayboniylar davlati. Turk tilidan Iqboljon Usmon tarjimasi. – Toshkent: “Nasim Kutub”, 2024.

2. Али ибн Мухаммад Али Хоразмий (1566). Favoid. O‘zR FA SHI-1, № 6133.

3. Али Хоразмий (1850). Sharh Faroiz as-Sirojiya // Muhammad Yusuf Rojiy. Jo‘ngi Rojiy. O‘zR FA SHI-1, № 7502/XX.

4. Aminov H. (2012). Ali ibn Muhammad Ali al-Xorazmiy hayoti va ijodi xususida ilk ma’lumotlar // “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi manbashunosligi va tarixnavisligi masalalari” Respublika IV ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.

5. Aminov H. (2015). Ali Harizmi’nin Fevaid Eseri: Hukumdarlar uchun Dusturu’l-Amel // “Uluslararasi Orta ve Bati Asya’da Yonetim Kulturu” Sempozyumi tesislari. – Istanbul, 21–23 Ekim 2015.

6. Бурҳониддин ал-Марғиноний (2014). Ал-Мажмуъ ал-усмоний / Tarjimonlar, tadqiqot va izohlar mualliflari O. Қориуев va H. Aminov. – Toshkent: Movarounnahr.

7. Муминов А., Сзуппе М., Идрисов А. (2007). Manuscrits en écriture arabe du Musée régional de Nukus (République autonome du Karakalpakstan, Ouzbékistan): Fonds arabe, persan, turki et karakalpak. – Roma: Instituto per l’Oriente C.A. Nallino.

8. Мухаммад ибн Бобо калон муфтий Самарқандий (1600). Фавоиди Мулла Калон. O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi, qo‘lyozma № 2638/VI.

9. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР (СВР) (1963). Том VI. № 4845 / Под редакцией и при участии А. А. Семенова и Д. Г. Вороновского. – Ташкент: Издательство Академии наук УзССР.

10. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР (СВР) (1967). Том VIII. № 5858–5872 / Под редакцией и при участии А. А.

Семенова и Д. Г. Вороновского. – Ташкент: Издательство Академии наук УзССР.

11. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР (СВР) (1975). Том X. № 6905–6906 / Под редакцией и при участии Д. Г. Вороновского. – Ташкент: Фан.

12. Шайбонийлар қабртошларидаги битиклар (Schaibanidische Grabinschriften) (1997) / Nashrga tayyorlovchilar: B. Bobojonov, A. Mo‘minov, Yu. Paul. – Висбаден: Доктор Людвиг Рейхерт нашриёти.

13. Ханыков Н. (1843). Описание Бухарского ханства. – Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук.

**REFERENCES:**

1. Abdulkadir Macit (2024). Shayboniylar davlati. Turk tilidan Iqboljon Usmon tarjimasi. – Toshkent: “Nasim Kutub”. (In Uzbek)

2. Ali ibn Muhammad Ali Xorazmiy (1566). Favoid. O‘zR FA SHI-1, № 6133. (In Arabic)

3. Ali Xorazmiy (1850). Sharh Faroiz as-Sirojiya // Muhammad Yusuf Rojiy. Jo‘ngi Rojiy. O‘zR FA SHI-1, № 7502/XX. (In Arabic)

4. Aminov H. (2012). Ali ibn Muhammad Ali al-Xorazmiy hayoti va ijodi xususida ilk ma’lumotlar // “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi manbashunosligi va tarixnavisligi masalalari” Respublika IV ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. (In Uzbek)

5. Aminov H. (2015). Ali Harizmi’nin Fevaid Eseri: Hukumdarlar uchun Dusturu’l-Amel // “Uluslararasi Orta ve Bati Asya’da Yonetim Kulturu” Sempozyumi tesislari. – Istanbul, 21–23 Ekim 2015. (In Turkish)

6. Burhoniddin al-Marg‘inoniy (2014). Al-Majmu‘ al-usmoniy / Tarjimonlar, tadqiqot va izohlar mualliflari O. Qoriyev va H. Aminov. – Toshkent: Movarounnahr. (In Uzbek)

7. Muminov A., Szuppe M., Idrisov A. (2007). Manuscrits en écriture arabe du Musée régional de Nukus (République autonome du Karakalpakstan, Ouzbékistan): Fonds arabe, persan, turki et karakalpak. – Roma: Instituto per l’Oriente C.A. Nallino. (In French)

8. Muhammad ibn Bobo Kalon Muftiy Samarqandiy (1600). Favoidi Mulla Kalon. O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi, qo‘lyozma № 2638/VI. (In Arabic)

9. Sobraniye vostochnyx rukopisey Akademii nauk Uzbekskoy SSR (SVR) (1963). Tom VI. № 4845 / Pod redaksiyey i pri uchastii A. A. Semenova i D. G. Voronovskogo. – Tashkent: Izdatelstvo Akademii nauk UzSSR. (In Russian)

10. Sobraniye vostochnyx rukopisey Akademii nauk Uzbekskoy SSR (SVR) (1967). Tom VIII. № 5858–5872 / Pod redaksiyey i pri uchastii A. A. Semenova i D. G. Voronovskogo. – Tashkent: Izdatelstvo Akademii nauk UzSSR. (In Russian)

11. Sobraniye vostochnyx rukopisey Akademii nauk Uzbekskoy SSR (SVR) (1975). Tom X. № 6905–6906 / Pod redaksiyey i pri uchastii D. G. Voronovskogo. – Tashkent: Fan. (In Russian)

12. Shayboniylar qabrtoshlaridagi bitiklar (Schaibanidische Grabinschriften) (1997) / Nashrga tayyorlovchilar: B. Bobojonov, A. Mo‘minov, Yu. Paul. – Visbaden: Doktor Lyudvig Reyxert nashriyoti. (In Uzbek and German)

13. Xanikov N. (1843). Opisaniye Buxarskogo xanstva. – Sankt-Peterburg: Tipografiya Imperatorskoy Akademii nauk. (In Russian)

# QASHQADARYO VILOYATIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARINI ASRASH CHORA-TADBIRLARI

# MEASURES TO PRESERVE CULTURAL HERITAGE SITES IN THE KASHKADARYA REGION

# МЕРЫ ПО СОХРАНЕНИЮ ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

https://zenodo.org/records/20667110

**Muminov Bekzod Baxtiyor o‘g‘li,**
*Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining mustaqil tadqiqotchisi,*
*Tel: +998 50-756-52-55*
*E-mail: bekzodmuminov@gmail.com.*

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimizda moddiy madaniy meros sohasini tartibga solish, asrashga doir ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan budjet mablag‘larining sarflanishi, shuningdek, Qashqadaryo viloyatidagi moddiy madaniy meros yodgorliklarini asrash maqsadida so‘ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar, yodgorliklarning bugungi kun holati va obyektlar kesimida byudjet mablag‘larining sarflanishi statistik ma’lumotlar asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, mahalliy hokimiyatning madaniy meros sohasidagi vakolatlari hamda amalga oshirgan ishlari tilga olingan.

**Kalit so‘zlar:** *Qashqadaryo viloyati, byudjet mablag‘lari, madaniy meros obyektlari, asrashga doir ishlar, restavratsiya.*

**Аннотация.** В статье представлены данные о расходовании бюджетных средств, выделенных на регулирование и сохранение материального культурного наследия в нашей стране, а также о работе, проделанной в последние годы по сохранению памятников материального культурного наследия в Кашкадарьинской области, о текущем состоянии памятников и расходовании бюджетных средств по объектам на основе статистических данных. Также упоминаются полномочия местных органов власти в области культурного наследия и проделанная ими работа.

**Ключевые слова:** *Кашкадарьинская область, бюджетные средства, объекты культурного наследия, работы по сохранению, реставрация.*

**Annotation.** The article presents the expenditure of budget funds allocated for the regulation and preservation of tangible cultural heritage in our country, as well as the work carried out in recent years to preserve tangible cultural heritage monuments in the Kashkadarya region, the current state of the monuments and the expenditure of budget funds by object based on statistical data. The powers of local

authorities in the field of cultural heritage and the work they have done are also mentioned.

***Keywords:*** *Kashkadarya region, budget funds, cultural heritage objects, preservation work, restoration.*

## KIRISH

Respublikadagi eng ko‘p madaniy meros yodgorliklari mavjud bo‘lgan Qashqadaryo viloyati hisoblanadi. Har yili viloyatda joylashgan madaniy meros obyektlari orasidan tarixiy ahamiyati yuqori bo‘lgan 20 tadan ortiq madaniy meros obyektlarini ta’mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun taklif beriladi.

Jumladan, yo‘qolib ketayotgan, nobud bo‘layotgan yoki tashqi ta’sirlar oqibatida jiddiy zarar ko‘rayotgan va avariya holatidagi obyektlarni birinchi navbatda asrash bo‘yicha Qashqadaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasi viloyatdagi 22 ta madaniy meros obyektlari ta’mirtalab bo‘lganligi sababli 2020-yilda ta’mirlash-tiklash (restavratsiya) ishlarini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamentiga murojaat qilingan. Ammo 2020-yilda ta’mirlash-tiklash ishlariga 13 ta madaniy meros obyektlariga mablag‘ ajratilgan.

Mana shunday holatlar bilan birga sohada kadrlar yetishmasligi hamda moliyaviy muammolar tufayli viloyatda 35 ta tarixiy obyekt ta’mirtalab, avariya holatiga kelib qolganligi achinarli. Jumladan, Shahrisabz shahrida joylashgan 1437-1438-yillarda qurilgan “Gumbazi Sayyidon” maqbarasi, IX-XII asrlarga oid “Qal’a devori” arxitektura obyekti, XIV-XV asrlar “Xommomi” arxitektura obyekti, Shahrisabz tumanida joylashgan XVI asrga oid “Chorsu gumbazi” arxitektura obyekti, 1894-yilda qurilgan “Suvsulton” masjidi, XIX-XX asrlarga oid “Shakarteri” masjidi, Yakkabog‘ tumanida joylashgan VI-VII arslarga oid “Tezob” masjidi, X-XII arslarga oid “Tezob” maqbarasi”, Kitob tumanida joylashgan 1892-yilda barpo etilgan “Sumak” masjidi, Qarshi shahrida joylashgan XIX asrga oid “Aral” masjidi, Dexqonobot tumanida joylashgan 1890-yilda barpo etilgan “Oqsaroy qa’lasi” arxitektura obyekti, Koson tumanida joylashgan I - VIII asrlarga oid “Yerqurg‘on” shahristoni arxeologiya obyekti, XVI asrga oid “Xuja qurg‘on” masjidi va boshqalar (Madaniy meros joriy arxivi).

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qashqadaryo viloyatidagi madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ta’mirlash va ulardan foydalanish masalalari so‘nggi yillarda davlat siyosati darajasida faol o‘rganilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi arxiv materiallari, Vazirlar Mahkamasining 110-son (2022), 102-103-son (2023) qarorlari va bayonlari asosiy rasmiy manbalarni tashkil etadi. Ushbu hujjatlar viloyatdagi 1500 ga yaqin madaniy meros obyekti holatini, byudjet

mablag‘larining ajratilishi va o‘zlashtirilishini batafsil yoritadi.

Adabiyotlarda asosiy e’tibor quyidagi muammolarga qaratilgan:

Obyektlarning avariya holatiga kelishi xususan, 2020-yilda 35 ta obyekt ta’mirtalab;

Moliyaviy resurslar yetishmasligi va mablag‘larning to‘liq o‘zlashtirilmasligi 2023-yilda atigi 23% o‘zlashtirilgan;

Arxeologik obyektlarga yetkazilgan zarar 2022-2023-yillarda 52,383 mln so‘m;

Bir vaqtning o‘zida ijobiy tendensiyalar ham qayd etilgan: har yili byudjet mablag‘larining keskin o‘sishi (2019-yilda 59 mlrd, 2022-yilda 75 mlrd, 2023-yilda 284 mlrd so‘m), “Shahrisabz tarixiy markazi” kabi YUNESCO obyektlarini qayta tiklash bo‘yicha ishlar va mahalliy hokimiyatlarning muhofaza belgilari o‘rnatish, jamoatchi nazoratchilar biriktirish kabi tashkiliy choralar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat va miqdoriy yondashuvlarning kombinatsiyasiga asoslangan. Tadqiqot ishonchliligini ta’minlash uchun faqat rasmiy va tasdiqlangan manbalardan foydalanildi. Cheklov sifatida birlamchi empirik tadqiqot o‘tkazilmaganligini qayd etish mumkin.

Ushbu metodologiya mavzuning dolzarbligini hisobga olgan holda, mavjud muammolarni aniq ko‘rsatish va takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo vohasida turistlar tashrif buyuradigan 58 ta madaniy meros obyektida yong‘in xavfsizligi, 49 tasida sanitariya qoidalari talablari buzilgani aniqlangan. Qashqadaryo viloyati bo‘yicha jami 12 ta arxeologiya merosi obyektlari buzilishi yoki yo‘q qilib yuborilishi oqibatida davlat manfaatlariga 5,8 mlrd so‘mlik zarar yetkazilgan Shuningdek, soha mutaxassis xodimlari tomonidan 2022-2023-yillar davomida olib borgan nazorat ishlari asosida 6 ta arxeologiya obyektiga 52 mlrd 383 mln so‘m miqdorida zarar yetkazilgani aniqlangan.

| **Arxeologiya obyektlari soni** | **T/r** | **Zarar yetkazilgan obyekt nomi** | **Zarar aniqlangan yil** | | **Zarar miqdori *(mln so‘mda)*** |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | **2022** | **2023** | |
| **1178** | 1 | Kunjutlitepa | + | | 47 500 |
| | 2 | Chordang‘itepa | + | | 315 |
| | 3 | Xontepa | + | | 3 700 |
| | 4 | Chillamozortepa | | + | 92 |
| | 5 | Munchoqtepa | | + | 96 |
| | 6 | Qurg‘ontepa | | + | 680 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1178** | **Jami** | **6** | **51 515** | **868** | **52 383** |

Yuqoridagi holatlar natijasida hududda madaniy merosni saqlash va muhofaza qilish borasida jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, moddiy madaniy meros yodgorliklarni muhofaza qilish hamda saqlash uchun respublika byudjeti hisobidan madaniy meros obyektlariga 2019-yilda jami 59 125 mln. so‘m (2018-yilga nisbatan 127 foiz) budjet mablag‘lari ajratilgan. Ajratilayotgan mablag‘lar doirasida 2019-yil 77 ta madaniy meros obyektlarini ta’mirlash-tiklash, konservatsiya va arxeologiya tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

2020-yilda amalga oshiriladigan ishlar – jami 66 843 mln so‘m (2019-yilga nisbatan 130 foiz) budjet mablag‘lari ajratilgan, bu mablag’lar asosida 85 ta madaniy meros obyektlarini ta’mirlash-tiklash, konservatsiya va arxeologiya tadqiqot ishlari ko‘zda tutilgan.

2021-yilda Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti negizida Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi tashkil etilishi natijasida sohaga ajratilgan mablag‘lar Madaniyat vazirligi hisob raqamida qolib ketganligi sababli moddiy madaniy meros obyektlarini ta’mirlash-tiklash, konservatsiya qilish ishlariga yo‘naltirmasdan qolgan.

2022-yil 4-mart kuni tasdiqlangan 2022-yil davomida asrashga doir ishlar amalga oshiriladigan madaniy meros ko‘chmas mulk obyektlarining manzilli ro‘yxatiga asosan 34 ta loyihalar bo‘yicha jami 75 mlrd so‘m mablag‘lar ajratilgan. Mazkur 34 ta madaniy meros obyektlarining loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan bo‘lib, shundan, 33 ta obyektlarning loyiha-smeta hujjatlari Madaniy meros agentligi huzuridagi Ilmiy-ekspert kengashi tomonidan ma’qullangan hamda shaharsozlik ekspertizasidan ijobiy xulosa olinib, Turizm va madaniy meros vazirligining “Madaniy meros obyektlari restavratsiyasi direksiyasi” davlat muassasasi bilan 37 mlrd so‘mlik shartnoma rasmiylashtirilgan (Madaniy meros agentligi joriy arxivi). Shuningdek, Madaniy meros agentligi tomonidan pudrat ishlarini amalga oshirish uchun avans va bajarilgan ishlar uchun 16,5 mlrd so‘m mablag‘ moliyalashtirilib, 20 ta obyektda 7,3 mlrd so‘mlik pudrat ishlari bajarilgan. Shundan, loyihalashtirish ishlariga 3,1 mlrd so‘m moliyalashtirib berilgan.

Misol tariqasida Qashqadaryo viloyatidagi Haramjo‘y masjidi ta’mirlash-tiklash, restavratsiya ishlari uchun 1 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lib, undan 783,8 mln so‘m moliyalashtirilgan hamda 783,8 mln so‘mlik (82,7%) ishlar bajarilgan. Qashqadaryo viloyatidagi XIV asrga oid Hammomi ta’mirlash-tiklash restavratsiya ishlari uchun 1 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lib, undan 558,6 mln so‘m moliyalashtirilgan hamda 237,0 mln so‘mlik (23,7%) ishlar bajarilgan.

Shuningdek, joriy 2022-yil uchun Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-martdagi 110-sonli qarori hamda madaniy meros obyektlarini restavratsiya va konservatsiya qilish bo‘yicha manzilli dasturining ijrosini ta’minlash bo‘yicha 69 ta madaniy meros obyektlarini restavratsiya va konservatsiya qilish ishlarini tashkil qilingan. Ulardan biri “Shahrisabz tarixiy markazi” butunjahon madaniy meros obyektini dastlabki regeneratsiya (tarixiy shaklini qayta tiklash bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va loyihani amalga oshirish uchun dastlabki ishlarni boshlash) ishlarini amalga oshirishga 10 mlrd so‘m ajratilgan. Madaniy meros agentligi tomonidan mazkur regeneratsiya loyihasi ishlab chiqilib, YUNESKOning Butunjahon merosi qo‘mitasiga kelishish uchun taqdim etilgan, biroq YUNESKO tomonidan loyihani ko‘rib chiqish yakunlanmaganligi bois, dastlabki regeneratsiya ishlari amalga oshirilmagan. Natijada mablag‘ qayta taqsimlangan.

2023-yilda madaniy meros obyektlarida restavratsiya, asrashga doir ishlarni amalga oshirish uchun davlat byudjetidan jami 284 mlrd so‘m (2022-yilda o‘zlashtirilmasdan qolgan mablag‘lar bilan birgalikda) mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, yil yakuniga borib, ushbu mablag‘larning bor-yo‘g‘i 23 foizi (65,6 mlrd so‘m) o‘zlashtirilgan (Madaniy meros agentligi joriy arxivi). Ammo avvalgi yillarga taqqoslaydigan bo‘lsak, yodgorliklarda asrashga doir ishlar va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun eng ko‘p o‘zlashtirilgan mablag‘ hisoblanadi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-maydagi 102-son yig‘ilishi bayoni bilan 158 ta madaniy meros obyektida restavratsiya va qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun 150 mlrd so‘m, 13 ta davlat muzeyi uchun 8,8 mlrd so‘m hamda madaniy meros obyektlarida quyosh panellarini o‘rnatish uchun 5,2 mlrd so‘m jami – 201 ta loyihani amalga oshirish uchun 164 mlrd so‘m ajratilgan. Shundan, restavratsiya va qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish belgilangan 158 ta obyektning 67 tasida (43 foiz) ta’mirlash-tiklash ishlari boshlangan.

2023-yil davomida 67 ta obyekt uchun jami 35,6 mlrd so‘m yo‘naltirilgan bo‘lib, shundan 3,3 mlrd so‘m – loyiha hujjatlarini ishlab chiqishga, 32,2 mlrd so‘m – restavratsiya va ta’mirlash-tiklash ishlariga yo‘naltirilgan. Shundan, Qashqadaryo viloyatida joylashgan obyektlarni restavratsiya, ta’mirlash-tiklash ishlari uchun 8,7 mlrd so‘m mablag‘ ajratildi. Qarshi shahrida joylashgan 4 ta obyekt, Dehqonobod, Qamashi, Kitob, Chiroqchi, Kasbi tumanlari hamda Shahrisabz shahrida 1 tadan jami – 10 ta obyekt rejalashtirilgan.

| T/r | Obyekt nomi | Obyekt manzili | Asrashga doir ish turi | Ajratilgan mablag‘ (mln so‘m) |
|---|---|---|---|---|
| **1** | “Haramjo‘y” masjidi | Qarshi shahar, Haramjo‘y MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 1 500,0 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **2** | XIV asrdagi “Hammom” binosi | Qarshi shahar, Qarliqxona mahallasi, Nasaf ko‘chasi | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 700,0 |
| **3** | “Ko‘k gumbaz” madaniy meros obyekti | Shahrisabz shahri, Qo‘shxovuz MFY, Ipak Yo‘li ko‘chasi, 89-uy | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 1 500,0 |
| **4** | “Oq Saroy” majmuasi | Dehqonobod tumani, Oqrabod MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 640,0 |
| **5** | “Langar ota” ziyoratgohi | Qamashi tumani, Ko‘kbuloq MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 1 000,0 |
| **6** | “Kulol” masjidi | Qarshi shahri, Chaqar MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 800,0 |
| **7** | “Sharofboy” madrasasi | Qarshi shahri, Chaqar MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 1 000,0 |
| **8** | “Nomozgoh” masjidi | Kasbi tumani, Xo‘ja Kasbi QFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 500,0 |
| **9** | “Abu Xasan Ishqiy” masjidi | Chiroqchi tumani, Langar MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 800,0 |
| **10** | “Xo‘ja Ilm Kon” maqbarasi va masiidi | Kitob tumani, Xo‘ja Ilmkon MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 300,0 |
| **Jami** | | | | **8 740,0** |

**FVazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-maydagi 102-son yig‘ilishi bayoni.**

Madaniy meros agentligining 2024-yil 6-maydagi “2024-yilda restavratsiya va ta’mirlash-tiklash ishlari amalga oshiriladigan madaniy meros obyektlari va davlat muzeylarining manzilli ro‘yxati” bilan 230 ta loyihani amalga oshirish uchun 192 mlrd so‘m ajratilgan. Shundan, restavratsiya va qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun 168 mlrd so‘m, loyiha-semita ishlari uchun 24 mlrd so‘m ajratilishi belgilandi.

Birgina Qashqadaryo viloyatida joylashgan obyektlarda asrashga doir ishlarni amalga oshirish uchun jami – 13 ta obyektga qariyb 6 mlrd so‘m mablag‘ ajratildi. Jumladan, 7 ta obyektni ta’mirlash-tiklash ishlari uchun 5,4 mlrd so‘m mablag‘ hamda 6 ta obyektning loyiha ishlari uchun 600 mln so‘m mablag‘ ajratish belgilangan.

| **T/r** | **Obyekt nomi** | **Obyekt manzili** | **Asrashga doir ish turi** | **Ajratilgan mablag‘** ***(mln so‘m)*** |
|---|---|---|---|---|
| **Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash ishlari uchun** | | | | |
| **1.** | XIV asrdagi “Hammom” binosi | Qarshi shahar, Qarliqxona mahallasi, Nasaf ko‘chasi | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 100 |
| **2.** | “Ko‘k gumbaz” madaniy meros obyekti | Shahrisabz shahri, Qo‘shxovuz MFY, Ipak Yo‘li ko‘chasi, 89-uy | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 400 |
| **3.** | “Oq Saroy” majmuasi | Dehqonobod tumani, Oqrabod MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 350 |
| **4.** | “Kulol” masjidi | Qarshi shahri, Chaqar | Restavratsiya, | 1 200 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | MFY | ta’mirlash-tiklash | |
| **5.** | “Sharofboy” madrasasi | Qarshi shahri, Chaqar MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 1 100 |
| **6.** | “Nomozgoh” masjidi | Kasbi tumani, Xo‘ja Kasbi QFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 1 068 |
| **7.** | “Xo‘ja Ilm Kon” maqbarasi va masiidi | Kitob tumani, Xo‘ja Ilmkon MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 1 168 |
| **Loyiha ishlari uchun** | | | | |
| **8.** | “Abu Xasan Ishqiy” masjidi | Chiroqchi tumani, Langar MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 4 |
| **9.** | “Tezob” maqbarasi | Yakkabog‘ tumani “Xo‘jailg‘or” MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 150 |
| **10.** | “Sumak” masjidi | Kitob tumani “Tevabosh” MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 150 |
| **11.** | “Shakarteri” masjidi | Shahrisabz tumani | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 100 |
| **12.** | “Xo‘jai Isparos” masjid maqbarasi | Kitob tumani | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 100 |
| **13.** | “Pandindiron” masjidi | Kasbi tumani | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 100 |
| **Jami** | | | | **5 990** |

## Madaniy meros agentligining 2024-yil 6-maydagi manzilli ro‘yxati

Madaniy meros agentligining 2025-yil 3-fevraldagi “2025-yilda restavratsiya va ta’mirlash-tiklash ishlari amalga oshiriladigan madaniy meros obyektlari va davlat muzeylarining manzilli ro‘yxati” bilan 232 ta loyihani amalga oshirish uchun qariyb 135 mlrd so‘m ajratilgan. Shundan, restavratsiya va qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun 125 mlrd so‘m, loyiha-semita ishlari uchun 10 mlrd so‘m ajratilishi belgilandi (Madaniy meros joriy arxivi). Xususan, Qashqadaryo viloyatida joylashgan obyektlarda asrashga doir ishlarni amalga oshirish uchun jami – 19 ta madaniy meros obyektiga qariyb 7 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan.

| **T/r** | **Obyekt nomi** | **Obyekt manzili** | **Asrashga doir ish turi** | **Ajratilgan mablag‘** *(mln so‘m)* |
|---|---|---|---|---|
| **Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash ishlari uchun** | | | | |
| **1.** | XIV asrdagi “Hammom” binosi | Qarshi shahar, Qarliqxona mahallasi, Nasaf ko‘chasi | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 100 |
| **2.** | “Ko‘k gumbaz” madaniy meros obyekti | Shahrisabz shahri, Qo‘shxovuz MFY, Ipak Yo‘li ko‘chasi, 89-uy | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 400 |
| **3.** | “Oq Saroy” majmuasi | Dehqonobod tumani, Oqrabod MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 350 |
| **4.** | “Kulol” masjidi | Qarshi shahri, Chaqar | Restavratsiya, | 1 200 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | MFY | ta’mirlash-tiklash | |
| **5.** | “Sharofboy” madrasasi | Qarshi shahri, Chaqar MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 1 100 |
| **6.** | “Nomozgoh” masjidi | Kasbi tumani, Xo‘ja Kasbi QFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 1 068 |
| **7.** | “Xo‘ja Ilm Kon” maqbarasi va masjidi | Kitob tumani, Xo‘ja Ilmkon MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 1 168 |
| **8.** | “Abu Xasan Ishqiy” masjidi | Chiroqchi tumani, Langar MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 4 |
| **9.** | “Tezob” maqbarasi | Yakkabog‘ tumani “Xo‘jailg‘or” MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 150 |
| **10.** | “Sumak” masjidi | Kitob tumani “Tevabosh” MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 150 |
| **11.** | “Shakarteri” masjidi | Shahrisabz tumani | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 100 |
| **12.** | “Xo‘jai Isparos” masjid maqbarasi | Kitob tumani | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 100 |
| **13.** | “Pandindiron” masjidi | Kasbi tumani | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 100 |
| **14.** | Qal’a devori | Qarshi shahri “Darvozatutak” MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 33 |
| **15.** | Chorsu bozori | Shahrisabz shahri “Kulollik” MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 9 |
| **16.** | Langar ota masjidi | Qamashi tumani “Ko‘kbuloq” MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 862 |
| **17.** | Hammom (arxeologiya topilmasi) | Shahrisabz shahri “Zargarlik” MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 50 |
| **18.** | Yerqurg‘on shahristoni | Koson tumani “Sherbek” MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 50 |
| **19.** | G‘uzor bekining uyi | G’uzor tumani “Xo‘jaguza” MFY | Restavratsiya, ta’mirlash-tiklash | 50 |
| **Jami** | | | | **7 044** |

**Madaniy meros agentligining 2025-yil 13-fevraldagi manzilli ro‘yxati**

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ham madaniy meros yodgorliklarini saqlash, uni kelajak avlodga yetkazish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Qashqadaryo viloyat hokimligida 2025-yil 28-aprel kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan video-selektor yig‘ilishining B-01-21/194-son bayoni qaror qismining 9-bandiga ko‘ra, tuman (shahar) hokimliklari madaniy meros boshqarmasi bilan birgalikda bir oy muddatda 584 ta muhofaza belgilarini o‘rnatish bo‘yicha tegishli ishlarni amalga oshirish, viloyat hokimligiga axborot kiritish hamda jami 1468 ta madaniy meros

obyektlariga jamoatchi-nazoratchilar biriktirish, o‘rnatilgan muhofaza belgilari doimiy ravishda but holda saqlanishiga Mahalla yettiligi mas’ul etib belgilangan.

Shuningdek, 2025-yil 30-aprel kuni Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashining yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 03-03-DKB/33-sonli yig‘ilishi bayoni kun tartibining 1-masalasida Viloyatda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun ijrosi to‘g‘risida amalga oshirilayotgan ishlar ko‘rib chiqilgan bo‘lib, yig‘ilish qaror qismining 2-3-bandlarida Viloyat hokimining o‘rinbosari, Boshqarma boshlig‘i, aloqador tashkilotlar va tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda viloyatdagi obyektlarni muhofaza qilish ishlarini doimiy tashkil qilish, jamoatchi nazoratchilar biriktirish, ularni asrash bo‘yicha mahallalarda targ‘ibot ishlarini olib borish vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari, 2025-yil 6-may kuni Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashining VII-11-80-4-0-K/25-sonli qarori bilan Viloyat hokimining o‘rinbosari A.Zakirov viloyat madaniy meros boshqarmasi (O.Hamidov), aloqador tashkilotlar va tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda hududdagi madaniy meros obyektlaridan foydalanish va muhofaza qilishda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartiblarga amal qilib borilishini tashkil qilish, nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha ma’lumot berib borish vazifalari yuklatilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugunga kunga kelib obyektlarda boshlangan restavratsiya-konservatsiya ishlari to‘liq yakunlangan 10 dan ortiq yodgorliklar mavjud. Ammo bu viloyatdagi jami – 1 500 ga yaqin obyektning atiga 1 foizini tashkil etishi hududdagi madaniy meros obyektlarining muhofazasi va saqlanishiga jiddiy e’tibor berish lozim ekanligini isbotlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi joriy arxivi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-martdagi “2022-yilda turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 110-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-maydagi “Madaniy meros obyektlarida olib borilayotgan asrashga doir ishlarni muvofiqlashtirish hamda ularni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 103-sonli yig‘ilish bayoni.
4. Madaniy meros agentligining 2024-yil 6-maydagi “2024-yilda restavratsiya va ta’mirlash-tiklash ishlari amalga oshiriladigan madaniy meros obyektlari va davlat muzeylarining manzilli ro‘yxati.
5. Qashqadaryo viloyat hokimligida 2025-yil 28-apreldagi B-01-21/194-son bayoni.

6. 2025-yil 30-apreldagi Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashining yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 03-03-DKB/33-sonli yig‘ilishi bayoni.

7. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashining 2025-yil 6-maydagi VII-11-80-4-0-K/25-sonli qarori.

8. Qashqadaryodagi tarixiy obyektlarda qonun buzilishi holatlari aniqlandi – Bosh prokuratura. Yangi O‘zbekiston. 28-oktabr, 2022-yil.

**REFERENCES:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi joriy arxivi. (In Uzbek)

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-martdagi “2022-yilda turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 110-son qarori. (In Uzbek)

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-maydagi “Madaniy meros obyektlarida olib borilayotgan asrashga doir ishlarni muvofiqlashtirish hamda ularni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 103-sonli yig‘ilish bayoni. (In Uzbek)

4. Madaniy meros agentligining 2024-yil 6-maydagi “2024-yilda restavratsiya va ta’mirlash-tiklash ishlari amalga oshiriladigan madaniy meros obyektlari va davlat muzeylarining manzilli ro‘yxati. (In Uzbek)

5. Qashqadaryo viloyat hokimligida 2025-yil 28-apreldagi B-01-21/194-son bayoni. (In Uzbek)

6. 2025-yil 30-apreldagi Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashining yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 03-03-DKB/33-sonli yig‘ilishi bayoni. (In Uzbek)

7. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashining 2025-yil 6-maydagi VII-11-80-4-0-K/25-sonli qarori. (In Uzbek)

8. Qashqadaryodagi tarixiy obyektlarda qonun buzilishi holatlari aniqlandi – Bosh prokuratura. Yangi O‘zbekiston. 28-oktabr, 2022-yil. (In Uzbek)

# TURKISTONDA JADIDLARNING DAVLAT BOSHQARUV G‘OYALARI VA DASTLABKI SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATI

# IDEAS ON GOVERNANCE OF THE TURKESTAN JADIDS AND THE ACTIVITIES OF THE FIRST POLITICAL PARTIES

# ИДЕИ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ О ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПЕРВЫХ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ

https://zenodo.org/records/20667132

**Rahimjonov Mirzohid Mirsaydullo o‘g‘li**
*Oriental universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi*
*Tel:+998 97-592-89-98*
*Rahimjonovmirzohid98@gmail.com*
*Orcid: https://orcid.org/0009-0004-1763-6184*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Turkistonda jadidlarning davlat boshqaruvi haqidagi ilg‘or g‘oyalari hamda XX asr boshlarida shakllangan dastlabki siyosiy partiyalar faoliyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasida milliy uyg‘onish, ijtimoiy-siyosiy islohotlar va zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan muhim tarixiy jarayon sifatida namoyon bo‘lgan. Shuningdek, maqolada Turkistonda siyosiy ongning shakllanishi jarayonida vujudga kelgan dastlabki siyosiy tashkilotlar va partiyalarning faoliyati, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashdagi roli keng tahlil qilinadi. Jadidlarning siyosiy faoliyati nafaqat ma’rifiy harakat doirasida, balki davlat boshqaruvi tizimini zamonaviylashtirishga qaratilgan dastlabki siyosiy tajribalar sifatida ham baholanadi. Mavzuni yoritishda ushbu sohaga oid tegishli me’yoriy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, adabiyot va davriy matbuot materiallaridan foydalanilgan.

**Kalit so‘zlar:** *jadidchilik, Turkiston, davlat boshqaruvi, siyosiy partiyalar, milliy uyg‘onish, siyosiy islohotlar, ma’rifatparvarlik.*

**Annotation.** This article provides a scholarly analysis of the progressive ideas of the Jadids in Turkestan regarding state governance, as well as the activities of the first political parties that emerged in the early twentieth century. The Jadid movement represented an important historical process in Turkestan, aimed at fostering national awakening, implementing socio-political reforms, and establishing a modern system of administration. Furthermore, the article examines the formation of political consciousness in Turkestan and explores the activities of the earliest political organizations and parties, their role in societal development,

and their significance in the struggle against colonial policy. The political engagement of the Jadids is evaluated not only within the framework of an educational and enlightenment movement, but also as one of the first political experiences directed toward the modernization of the state governance system. In addressing this topic, relevant normative documents, scholarly research, academic literature, and materials from periodical press sources have been utilized.

**Keywords:** *Jadidism, Turkestan, state governance, political parties, national awakening, political reforms, enlightenment.*

**Аннотация.** В данной статье на научной основе анализируются прогрессивные идеи джадидов Туркестана о государственном управлении, а также деятельность первых политических партий, сформировавшихся в начале XX века. Жадидское движение в Туркестанском крае проявилось как важный исторический процесс, направленный на национальное пробуждение, проведение общественно-политических реформ и формирование современной системы управления. Кроме того, в статье рассматривается процесс становления политического сознания в Туркестане, анализируется деятельность первых политических организаций и партий, их место в общественном развитии, а также роль в борьбе против колониальной политики. Политическая активность джадидов оценивается не только в рамках просветительского движения, но и как один из первых политических опытов, направленных на модернизацию системы государственного управления. При освещении темы использованы соответствующие нормативные документы, научные исследования, литература и материалы периодической печати.

**Ключевые слова:** *джадидизм, Туркестан, государственное управление, политические партии, национальное пробуждение, политические реформы, просветительство.*

## KIRISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar - 143 - as hu - 143 - tarixida tub burilish yasagan muhim davrlardan biri hisoblanadi. Mustamlakachilik sharoitida yashagan Turkiston xalqlari orasida milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va zamonaviy taraqqiyotga intilish g‘oyalari kuchayib bordi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda jadidchilik harakati shakllanib, u nafaqat ta’lim va madaniyat sohasida, balki davlat boshqaruvi, siyosiy mustaqillik va jamiyatni modernizatsiya qilish borasida ham ilg‘or qarashlarni ilgari surdi. Jadidlar o‘z faoliyatida xalqni jaholatdan chiqarish, milliy ongni uyg‘otish, yetakchi mamlakatlar kabi zamonaviy davlat boshqaruv tizimini shakllantirish va siyosiy islohotlar o‘tkazish masalalariga

alohida e’tibor qaratdilar. Ularning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari konstitutsiyaviy tuzum, parlament boshqaruvi, milliy o‘zini o‘zi boshqarish g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq edi. Bu g‘oyalar Turkiston jamiyatida siyosiy tafakkurning rivojlanishiga va yangi siyosiy institutlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda jadidlarning davlatchilik g‘oyalarini o‘rganish va bu borada amalga oshirgan ishlari tadqiqotchilar nazdida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Shu bois, mazkur maqolada jadidlar tomonidan ilgari surilgan siyosiy g‘oyalar, islohotlar dasturi haqida fikr yuritiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekistonda jadidchilik harakati mavzusida ko‘plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bunda, tadqiqotchilar ushbu harakatning turli xil sohalariga e’tibor qaratgan bo‘lib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarda jadidlarning haqiqiy tarixiy obrazini yaratishga harakat qilingan. Jadidchilik harakati bo‘yicha Begali Qosimov (2002), Saidakbar A’zamxo‘jayev (2000), Dilorom Alimova (2022), Rustam Sharipov (2002), Nodira Alimova (2004), Muslimbek Alijonov (2024) kabi tadqiqotchilarning maxsus bag‘ishlangan kitob va ilmiy ish namunalar, O‘zbekiston tarixiga oid darsliklarda ma’lumotlar olish mumkin hisoblanadi. Yuqoridagi mualliflarning asarlarida Turkiston jadidlari hayoti va faoliyati, jadidchilik ta’lim tizimi, xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritgan jadid namoyandalari haqida chuqurlashgan ilmiy ma’lumotlar taqdim etilgan. Xususan, ulardan S.A’zamxo‘jayev (2000), B.Qosimov (2002), D.Alimova (2022) va R.Sharipov (2002) larning tadqiqotlarida jadidchilik harakatida davlat boshqaruv g‘oyalariga ham alohida to‘xtalib o‘tgan hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Turkiston jadidlarining davlat boshqaruvi g‘oyalari va dastlabki siyosiy partiyalar faoliyati” nomli ushbu maqolaning tadqiqot metodologiyasi ilmiy adabiyotlarni har tomonlama tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Turkistonda jadidlar faoliyati, ularning siyosiy qarashlari, dastlab tashkil topgan siyosiy partiyalar faoliyatiga doir ko‘plab ilmiy adabiyotlar atroflicha o‘rganildi. Mamlakatimizda jadidlarning siyosiy faoliyati aks ettirilgan turli ilmiy maqolalar hamda ilmiy adabiyotlar va boshqa tegishli manbalarni o‘z ichiga oluvchi materiallarga diqqat qaratildi. Ma’lumot turli manbalardan, jumladan, ilmiy adabiyotlar, kitoblar va ilmiy maqolalardan to‘plandi. Yig‘ilgan ma’lumotlar jadidlarning siyosiy qarashlari, ularning amalga oshirgan ishlari, davlat boshqaruvi bilan bog‘liq asosiy mavzular va tendensiyalarni aniqlash uchun tahlil qilindi. Jadidchilik harakati namoyandalarini davlat boshqaruv sohasidagi qarashlari hamda Turkistonda dastlabki siyosiy partiyalar o‘rtasidagi farqlarni o‘rganishda qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR.

Turkistonda jadidchilik harakati XIX asr oxirida vujudga kelgan bo‘lib, bu harakat Turkiston hududiga ma’rifatparvar Ismoil G‘apirali orqali kirib kelgan. Umuman olganda jadid so‘zi arab tilida “yangi” degan ma’noni anglatib, o‘lkada ijtimoiy ong, ta’lim tizimi kabi sohalarda islohotlarni amalga oshirish va mustaqillikka erishish orqali ozod davlat tuzish g‘oyasiga asoslangan harakat edi. Xususan, Turkistonda jadidchilik harakati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgani yo‘q, uning vujudga kelishi uchun ma’lum bir obyektiv sharoit va sabablar mavjud edi. XIX asr o‘rtasi va XX asrning boshida jamiyatda yangilanish zaruriyati tug‘ildi. Bir qator ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy muammolar paydo bo‘ldi. Ularni hal etish uchun bel bog‘lagan bir guruh ziyolilar xalq orasida “jadidlar” deb tan olingan (Шарипов Р., 2002:14).

XIX asr o‘rtalari, XX asr boshlarida Rossiya, Turkiston, Kavkaz (Ozarbayjon), Idil-Ural va Qrimda yangilanishga intilish jarayoni ommaviy tus olganini kuzatish mumkin. Kishilik jamiyatining ko‘p asrlik tarixida xilma-xil harakatlar, ta’limot va siyosiy oqimlar mavjud bo‘lgan. Ularning zamirida adolatli, fuqarolarning tengligi asosiga qurilgan, insonparvar jamiyatni yuzaga keltirish, zulm va zo‘ravonlikdan, qullik va istibdoddan, tengsizlik va jaholatdan qutulish uchun tinimsiz izlanish istagi yotgan. Shu asoslarga ko‘ra jadidlar ko‘plab sohalarda islohotlarni amalga oshirish rejalarini boshlab yubordi. Dastlab ular ta’lim, matbuot va teatr truppalarini tashkil qilish orqali xalqni ma’naviy jihatdan tayyorlashga harakat qilishdi. Jadidchilik harakati o‘z tarixida ikki bosqichni bosib o‘tgan: birinchisi-ma’rifat bosqichi, ikkinchisi-siyosiy bosqich Jadidlarning davlatchilik masalasiga oid qarashlari birinchi bosqichdayoq shakllana boshlagan, ikkinchi bosqichda esa to‘la shakllangan hisoblanadi. Ular o‘tmishga nazar solib, jamiyatdagi barcha salbiy jihatlarni milliy davlatchilikning boy berilishi bilan bog‘lashgan. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy fikricha, xonliklar o‘tgan 50 yil davomida dunyodan uzilib qolgan va jahonda erishilgan yutuqlardan foydalanishdan mahrum bo‘lgan. Bu mustamlakachilik zulmi ostida qolish sabablaridan biridir. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy xalqni savodli bo‘lishiga e’tibor qaratib, savodxon mutaxassis va huquqshunoslargina Davlat Dumasi, sudlar va Turkistondagi rus ma’muriyati orqali harakat qilib millatiga foyda keltirishligi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu tariqa u 1913-yildayoq turkistonliklar orasida maorif va ta’limni rivojlantirish zarur degan nazariyani ilgari suradi.

Jadidlar dasturining asosiy qismini Turkistondagi barcha xalqlarning birlashish masalasi tashkil etgan, zero, ular bo‘lajak davlat qurilishini ularning birdamligi bilan bog‘laganlar.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo‘lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik harakatlarining dasturlari bilan yaxshi tanish bo‘lganlar, sayohatlar va suhbatlar vositasida o‘zaro tajriba almashganlar. Rossiyada 1905-1906-yillarda bo‘lib o‘tgan inqilobiy voqealar Turkistonga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan (Алимова Д., 2022:24).

Xususan, Yevropa va Rossiyaning ko‘pgina ma’rifatparvarlaridan farqli o‘laroq jadidlar dinni rad etishmadi. Aksincha, ular islom dinini ijtimoiy taraqqiyotga erishish uchun musulmonlarni birlashtiruvchi muhim omil, o‘lka xalqlarini yuksak axloqiylik, vatanparvarlik, do‘stlik, birodarlik, inqirozli holatdan chiqishdagi kurashda jipslashtiruvchi kuch sifatida saqlab qolish tarafdorlari bo‘lib chiqishdi. Jadidlar islom dinida ma’naviy yuksalishning muhim vositasini ko‘rdilar. Biroq, buning uchun dinning o‘zini o‘rta asr sxolastikasidan tozalash lozim deb hisoblashdi (Аьзамхўжаев С., 2000:9).

Jadidchilik shunchaki madaniy-ma’rifiy harakat emas edi. Buni rus siyosatchilari yaxshi bilar edi. Shunchaki harakat bo‘lganida ular qatag‘on qilinmas edi. Bu haqda B.Qosimov o‘zining kitobida “A.V.Pyakovskiy yozadi: “Shu vaqtdan (1905-1917-yillar ko‘zda tutilmoqda - B.Q) e’tiboran Turkistonda “jadidchilik” deb tanilgan burjua-liberal, millatchilik harakati keng yoyila boshladi va usuli jadid maktablari ochish va targ‘ib etish, madaniyatparvarlik singari dastlabki tor doirasidan chiqib, aniq ko‘zga tashlanib turuvchi siyosiy bo‘yoq kasb etdi” (Қосимов Б., 2002:75) deya ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Shundan ham xulosa qilish mumkin, 1905-yilgi inqilobiy voqealardan so‘ng jadidchilikka qarshi oshkora ta’qiblar boshlandiki, endilikda harakat yashirin faoliyat yuritish rejimiga o‘tdi.

Turkiston jadidlarining faoliyatiga 1905-1911-yillarda Turkiya va Eronda yuz bergan inqiloblar ham siyosiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu mamlakatlar milliy ziyolilari o‘z oldilariga monarxiya hokimiyatini konstitutsiya bilan cheklash va milliy burjuaziyaning iqtisodiy qudratini mustahkamlash, buning uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish maqsadini qo‘ygan. Biroq ularning tajribasi Turkiston jadidlari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib olinmadi. Demokratik islohotlarga erishish uchun mustamlakachilikka qarshi Sharq va Yevropadagi kurash tajribasining faqat o‘lka sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan jihatlarinigina ma’lum o‘zgarishlar bilan tatbiq qildilar.

Rossiyadagi fevral inqilobi arafasida Turkiston jadidchilari jiddiy siyosiy kuchga aylanib ulgurgandi. Agar Birinchi jahon urushidan so‘ng parlament monarxiyasi uchun kurash olib borgan bo‘lsa, fevral inqilobidan keyin ularning radikal qismi keng qamrovli talablarni ilgari surdi, bu talablar orasida o‘lkani boshqarishda mahalliy aholi vakolatlarini kengaytirish, mahalliy aholi sonidan

kelib chiqib, Davlat Dumasidan joy ajratish, asosiy demokratik erkinliklar, avvalambor, milliy matbuot erkinligi, monarxiya tuzumini konstitutsion tuzumga o‘zgartirish bo‘yicha islohotlarni o‘tkazish bor edi.

1917-yil fevralda yuz bergan inqilobdan so‘ng, shu yilning bahorida Turkiston o‘lkasining siyosiy jihatdan uyg‘otishda, avj olayotgan demokratik jarayonlarga boshchilik qilish muddaosi bo‘lgan yangi kuchlarning siyosiy maydonga chiqishida burilish nuqtasi bo‘ldi. Jadidlar vujudga kelayotgan milliy-demokratik kuchlarning o‘zagi bo‘lishdi, ular bu vazifani bajarishga o‘zlarining ilgarigi faoliyatlari davomida tayyorlarlik ko‘rgan edilar. Ular o‘lka tub xalqlarning taraqqiyoti va mustaqilligi to‘g‘risidagi o‘z ideallarini o‘lkadagi demokratik inqilob bilan bog‘lab, o‘zlari e’lon qilgan tartiblarni amalga oshirishga kirishdilar. Avj olib borayotgan demokratik jarayonlarda tub xalqlar siyosiy manfaatlarining ustuvorligini himoya qilish fevralning dastlabki kunlaridanoq siyosiy maydonda ular faoliyatining asosiy yo‘nalishini belgilab berdi. Bu hol mahalliy hokimiyat tuzilmalarini shakllantirish chog‘ida ancha to‘liq namoyon bo‘ldi (М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов, Р.Ражапова, А.Голованов, Қ.Ражабов, А.Маврулов, Р.Абдуллаев, С.Аъзамхўжаев, Д.Алимова. Н.Каримов, Б.Кошанов, К.Оқилов, З.Орифхонова, Л.Тетенева, Ш.Турдиев, 2000:22, 23).

Shuningdek, fevral inqilobi jadidlarning tashkiliy faoliyatlarida ham o‘zgarish yasadi. Oldin mavjud bo‘lgan jadid to‘garaklari ko‘p hollarda mustaqil harakat qilmas edi, chunki ularning anchagina a’zolari “Sho‘roi Islomiya”, “Ittifoq” (“Musulmon mehnatkashlar ittifoqi”) tashkilotlariga kirgandi.

Jadidlar dasturiy hujjatlar, amaliy harakatlar strategiyasi va taktikasini faol ishlab chiqa boshladilar.

Shu bilan birga jadidchilik harakatida hali 1914-1915-yillarda paydo bo‘lgan bo‘linish fevral inqilobidan so‘ng sezilarli darajada kuchaydi va 1917-yil oktabrga kelib yaqqol ko‘zga tashlandi.

Jadidlar faollik bilan boshlagan siyosiy harakat tarixida 14-mart o‘ziga xos kun sifatida muhim rol o‘ynaydi. Shu kuni Toshkentning Eski shahar qismida ko‘p ming kishilik yig‘ilish o‘tkazilib, unda tatar va qozoq a’zolaridan iborat 61 kishilik yangi siyosiy partiya tuziladi va bu partiya Munavvarqori Abdurashidxonov tashabbusi bilan “Sho‘royi Islomiya” nomi beriladi. Partiyaning 15 kishidan iborat boshqaruviga Abduvohidqori Abduraufqoriyev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Kattaxo‘ja Boboxo‘jayev, Mulla Rizo Oxund Yo‘ldoshxo‘jayev, Abdusamiqori Xidoyatboyev, Ubaydullo Xo‘jayev va boshqalar kiradi. Ushbu partiyaga musulmon urf-odatlari va an’analari, birinchi navbatda islom diniga e’tiqod

qo‘ygan shaxslar asos solganliklari bilinib turadi. Ishchi va soldat deputatlari sho‘rosidan ular milliy va diniy platformaga ega ekanliklari bilan ajralishdi.

“Sho‘roi Islomiyaning” asosiy maqsadi: Turkiston musulmonlari orasida zamon talabiga mos siyosiy, ilmiy va ijtimoiy islohot g‘oyalarini tarqatishdan; Turkiston musulmonlarini g‘oya va maqsadlar birligi asosida birlashtirishga oid ishlarni kuchaytirishdan; yangi hukumatning prinsiplari va maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash borasida xalqqa da’vatdan; xorijiy mamlakatlarda davlat hokimiyatining shakllari to‘g‘risida ahlini xabardor qilib turishdan va Ta’sis majlisiga tayyorgarlik ko‘rishdan iborat bo‘lgan.

Xususan, “Sho‘roi Islomiya” nizomida partiyaning tashkiliy tuzilmasi, a’zoligi, vazifasi va moliyasi batafsil ishlab chiqildi. Nizomga muvofiq Turkistonning barcha shaharlari va qishloqlarida “Sho‘roi Islomiya” tashkilotini tuzish zarur deb hisoblandi. Xujjatda bular “Sho‘roi Islomiya” ning kichik bo‘limlari deb ataldi. Nizomga asosan, Toshkent “Sho‘roi Islomiya” tashkiloti markazi hisoblanib, uning qarori bo‘limlari uchun edi. Shu tariqa dastlab O‘sh, Andijon, Farg‘ona, Turkistonda so‘ngra aprel oyining oxiriga qadar Namangan, Qo‘qon, Samarqand va boshqa shaharlarda kichik bo‘limlarni tuzdi (Шарипов Р., 2002:134).

“Sho‘roi Islomiya” partiyasining siyosiy dasturi kurtak yoza boshlagan bir davrda, islom diniga mansub kuchlar ikkiga ajralib, “Sho‘roi Islomiya” dan tashqari va unga qarshi o‘laroq, “Sho‘roi Ulamo” partiyasi tuzildi. Bu partiya o‘zining asosiy e’tiborini “Sho‘roi Islomiya” ga qarshi qaratdi hamda qadimchilarni o‘z atrofida birlashtirdi. O‘lkada turli siyosiy partiyalar paydo bo‘ldi. Masalan, Ahmad Zaki Validiy eserlar, Mustafo Cho‘qay kadetlar, Sanjar Isfandiyorov sotsial-demokratlar, Sherali Lapin esa monarxiyachilar partiyasiga a’zo bo‘lib kirishdi. Ularga mahalliy ziyolilar ham ergashdi. Ana shu tarzda Turkistonning siyosiy sahnasida uch xil kuch paydo bo‘ldi. Bular quyidagilar:

**1) Turkiston sho‘rolari** – bular inqilobiy demokratiya xohish-irodasini ifodalovchi yevropalik ishchi va soldatlarning organlari bo‘lib, jamiyatga ta’sir o‘tkazish uchun real kuchga ega edi. Shu boisdan ham ular Muvaqqat hukumat davlat muassasalari faoliyati ustidan nazorat qilish huquqiga ega bo‘lishni da’vo qilishardi.

**2) Ijroiya qo‘mitalar** – sho‘rolarga nisbatan aholining anchayin keng ijtimoiy milliy guruhlari namoyandalari bo‘lib, bular tarkibiga turli partiyalar – mensheviklar, eserlar, sho‘rolar, jamoat tashkilotlar, shu jumladan, milliy tashkilotlar o‘z vakillarini delegat qilib yuborgan edilar, ular barcha demokratik tashkilotlarni birlashtiruvchilar sifatida ish va joylarda Muvaqqat hukumat organlari rolini o‘ynashga da’vo qilishgan.

**3) “Sho‘roi Islom” jamiyati** – bu tashkilot tashkiliy jihatdan tarkib - 149 -as hu - 149 - paytidayoq musulmon aholining vakolatli organlari sifatida darhol rasmiylashib, shu aholining xohish-irodasini ifoda etdi va uning manfaatlarini himoya qildi.

Ana shu uch guruh atrofida markazlashgan tashkilot, uyushma, jamiyat va partiyalar 1917-yil aprelida o‘z qurultoyini o‘tkazib, Turkistonning yangi davlat tuzumi bo‘yicha o‘z dasturlarini ishlab chiqdi. Oradan ozgina vaqt o‘tib, jiddiy amaliy harakatlar boshlandi.

1917-yil oktabr-noyabr oylarida Toshkent va Qo‘qonda yuz bergan voqealar Turkistonda ijtimoiy-siyosiy harakatlarning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Qo‘qon shahrida 1917-yil 26-28-noyabr kunlari Turkiston o‘lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Demokratik musulmon ziyolilar talabi bilan Turkiston aholisining yevropalik qismi vakillari ham qurultoyda teng huquqli bo‘lib ishtirok etdilar. Qurultoyning 27-noyabr kuni qabul qilingan qarorida shunday deyiladi: “Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da’vat etgan xalqlarning o‘z huquqlarini o‘zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e’lon qilinadi”.

28-noyabrda tashkil topayotgan davlatning nomi aniqlanib, “Turkiston Muxtoriyati” deb ataladigan bo‘ldi. Butunrossiya Ta’sis syezdi chaqirilgunga qadar hokimiyat to‘la ravishda Turkiston muvaqqat kengashi va Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi qo‘lida bo‘lishi haqida qaror qabul qilindi. Muvaqqat kengash a’zolari 12 kishilik hukumat tuziladigan bo‘ldi. Qurultoy jarayonida Turkiston Milliy Majlisi 32 kishidan iborat qilib saylandi.

Turkiston Muxtoriyatining e’lon qilinishi xalq orasida qizg‘in kutib olindi. Xalq ommasining qizg‘in qo‘llab-quvvatlashidan ilhomlangan Muxtor hukumat vakillari jadal faoliyat boshladilar. Dastlabki kunlardan boshlab Millat majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar e’lon qilinib, yangi hukumat davlat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb qildi. Bir nechta hukumat gazetalari o‘zbek, qozoq va rus tillarida nashr etila boshlandi. Shuningdek, hukumat milliy qo‘shinni tashkil etishga alohida e’tibor qaratib, harbiy vazir Ubaydulla Xo‘jayev ishtirokida o‘tkazilgan ko‘rik-paradda 2000 askar qatnashdi va bunga qo‘shimcha Qo‘qonda Ergash qo‘rboshi rahbarlik qilgan ikki mingga yaqin mirshablar guruhi ham mavjud edi. Shuningdek, yangi hukumat iqtisodiy sohada 30 million so‘m miqdorda ichki zayom chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Chunki gazetalarni nashr qilish, muxtoriyat qo‘shinlari ta’minoti hamda ichki xarajatlar uchun mablag‘ zarur edi. Bunga qo‘shimcha tarzda, yangi hukumat, Turkistonda

ochlikni tugatish maqsadida Orenburg orqali g‘alla keltirish masalasini hal qilishga kirishdi (Эшов Б., 2012: 342).

Turkistonda tashkil etilgan Muxtoriyat hamda ular boshlab yuborgan islohotlar bu vaqtda Rossiyada hokimiyatni qo‘lga olgan bolsheviklar hukumatiga yoqmadi, ular Muxtoriyatni katta xavf sifatida bilib, 1918-yil 30-yanvar sanasida Turkiston XKS Muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning “Dashnoqsotyun” partiyasi a’zolaridan tuzilgan beshafqat harbiy bo‘linmalarni ham tashladi.

1918-yil 19-fevral Qo‘qon shahrida faoliyat yuritayotgan Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari natijasida ag‘darib tashlandi. Hukumat boshlig‘i Mustafo Cho‘qay shaharni tark etib, yashirinishga majbur bo‘ldi. Hukumat vakillarining ayrimlari halok bo‘ldi, ayrimlari qo‘lga olindi. Dahshatli hujum va talon-torojlar natijasida o‘n ming qo‘qonlik o‘ldirildi. Shu tariqa Turkiston o‘lkasida jadidlarning orzusi hisoblangan va siyosiy qarashlari ifodasi hisoblangan Turkiston Muxtoriyati taqdiri ayanchli yakunlandi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, uzoq yillar davomida tashqi dunyoda uzilib qolgan, hamda shu sabab tufayli Rossiya imperiyasi tarkibiga kirib qolgan Turkiston o‘lkasida XIX asr oxirida jadidchilik harakati vujudga keldiki, ular o‘lkani rivojlangan dunyo mamlakatlaridan nechog‘li orqada qolib ketganligini yaxshi anglab yetishgandi. Ular uzoq yillar davomida mavjud bo‘lgan yopiqlik siyosati rus bosqiniga imkoniyat yaratib bergan deb hisoblar va mustaqil zamonaviy davlat tuzish harakatini boshlab yuborishgandi. Jadidlar o‘tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib, boshqa o‘lkadagi ma’rifatparvarlar bilan doimiy aloqada bo‘ldi, jahon sahnasida sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib borishdi. Shuningdek, ular o‘lkani mustaqillikka erishish yo‘lida xalqni ma’rifatli qilishni muhim deb bildi shu yo‘lda ko‘plab gazeta, jurnallar chop eta boshladi. XX asr boshiga kelganda ziyolilar keskin siyosiy g‘oyalar bilan oldinga chiqa boshlashdi. 1917-yil fevralda Rossiyada ro‘y bergan fevral inqilobi ta’sirida Turkiston o‘lkasida ziyolilar tomonidan bir qator siyosiy partiya va tashkilotlar tuzildi. Qulay vaziyatdan foydalangan jadidlar o‘lkada birinchi davlat Turkiston Muxtoriyatini tashkil etdi. Ushbu muxtoriyat bolsheviklar tomonidan ayanchli tarzda bostirildi. Shu jumladan, jadidlar tarixda uzoq vaqt davomida mavjud bo‘lgan boshqaruvga qarama-qarshi o‘laroq demokratik boshqaruv g‘oyasini ilgari surdi hamda birinchilardan bo‘lib davlatchilik tajribasiga ega bo‘ldi. Xulosaga qo‘shimcha quyidagi takliflarni berish muhim hisoblanadi:

**1. Jadidlar siyosiy merosini o‘rganish** - Jadidlarning davlat boshqaruvi, demokratik institutlar va milliy taraqqiyot haqidagi g‘oyalarini chuqur ilmiy tadqiq etish hamda ularni oliy va umumta’lim muassasalarining o‘quv dasturlariga kiritish zarur. Bu yosh avlodda tarixiy-siyosiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**2. Turkiston Muxtoriyati tajribasini qiyosiy-siyosiy tahlil asosida o‘rganish** – 1917-1918-yillardagi milliy davlatchilik tajribasini boshqa mintaqalardagi o‘xshash jarayonlar bilan qiyoslab o‘rganish, jadidlarning davlat qurilishi borasidagi amaliy yondashuvlarini ochib berish lozim. Shuningdek, bu yondashuv Markaziy Osiyoda hozirgi davr siyosiy jarayonlar rivojini chuqurroq anglash imkonini beradi.

**3. Jadidlar nashriyot va ma’rifatparvarlik faoliyatini ommalashtirish** - Jadidlar tomonidan chop etilgan gazeta va jurnallarni to‘liq o‘rganish, ochiq elektron bazalar yaratish hamda ularni xalqaro ilmiy muomalaga kiritish muhim. Bu nafaqat manbashunoslik bazasini kengaytiradi, balki jadidchilikning xalqaro miqyosdagi ilmiy o‘rganilishiga turtki beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алимова Д. (2022). Жадидчилик феномени. – Тошкент: Akademnashr, – Б 274.

2. Аьзамхўжаев С. (2000). Туркистон Мухторияти миллий-демократик давлатчилик қурилиш тажрибаси. – Тошкент: Маьнавият, – Б 176.

3. Д. Алимова, Д. Рашидова (1998). Махмудхўжа Беҳбудий и его исторические воззрения. – Тошкент: Маънавият.

4. Эшов. Б. (2012). Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. – Тошкент, – Б 383.

5. Зиёев Х. (1998). Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ.

6. М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов, Р.Ражапова, А.Голованов, Қ.Ражабов, А.Маврулов, Р.Абдуллаев, С.Аъзамхўжаев, Д.Алимова. Н.Каримов, Б.Кошанов, К.Оқилов, З.Орифхонова, Л.Тетенева, Ш.Турдиев (2000). Ўзбекистоннинг янги тарихи II-китоб Ўзбекистон Совет Мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, – Б 688.

7. Қосимов Б. (2002). Миллий уйғониш: жасорат маьрифат фидойилик. - Тошкент: Маьнавият, – Б 404.

8. Мустафо Чўқай ўғли (1992). Истиқлол жаллодлари (1917 йил хотиралари). – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси.

9. Тошқулов Ж. (1996). Ўзбекистон халқлари сиёсий-ҳуқуқий фикрлари тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон.

10. Шарипов Р. (2002). Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. – Тошкент: Ўқитувчи, – Б 176.

**REFERENCES:**

1. Alimova D. (2022). Jadidchilik fenomeni. – Toshkent: Akademnashr, – B 274. (in Uzbek)

2. A’zamxo‘jayev S. (2000). Turkiston Muxtoriyati milliy-demokratik davlatchilik qurilish tajribasi. – Toshkent: Ma’naviyat, – B 176. (in Uzbek)

3. D. Alimova, D. Rashidova (1998). Mahmudxo‘ja Behbudiy i ego istoricheskie vozzreniya. – Toshkent: Ma’naviyat. (in Uzbek)

4. Eshov B. (2012). O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. – Toshkent, – B 383. (in Uzbek)

5. Ziyoev X. (1998). Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – Toshkent: Sharq. (in Uzbek)

6. M. Jo‘rayev, R. Nurullin, S. Kamolov, R. Rajapova, A. Golovanov, Q. Rajabov, A. Mavru lov, R. Abdullayev, S. A’zamxo‘jayev, D. Alimova, N. Karimov, B. Koshanov, K. Oqilov, Z. Orifxonova, L. Tetenova, Sh. Turdiyev (2000). O‘zbekistonning yangi tarixi II-kitob O‘zbekiston Sovet Mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, – B 688. (in Uzbek)

7. Qosimov B. (2002). Milliy uyg‘onish: jasorat ma’rifat fidoiylik. – Toshkent: Ma’naviyat, – B 404. (in Uzbek)

8. Mustafo Cho‘qay o‘g‘li (1992). Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari). – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. (in Uzbek)

9. Toshqulov J. (1996). O‘zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy fikrlari tarixidan. – Toshkent: O‘zbekiston. (in Uzbek)

10. Sharipov R. (2002). Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: O‘qituvchi, – B 176. (in Uzbek)

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

# AL-BUXORIY
# AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**
Musahhih: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“Al-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2026-yil 28-aprel, 6-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.